

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI



S.R. Safayeva

TURIZM VA O'ZBEKISTON MILLIY MEROSI

O'QUV QO'LLANMA

TOSHKENT

338.48 (04)
3-18

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

S.R. Safayeva

**TURIZM VA O'ZBEKISTON
MILLIY MEROSI**

(O'quv qo'llanma)

4431

Toshkent – 2017

Safayeva S.R. Turizm va O'zbekiston milliy merosi. O'quv qo'llanma. – T.: TDIU, 2017. -155 b.

Mazkur o'quv qo'llanma o'lkamiz tarixi va madaniyati, uning "Buyuk Ipak yo'li" sarhadlarida vujudga kelgan betakror milliy arxitektura va arxeologiya yodgorliklari hamda ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan me'morchilik va shaharsozlik sohasidagi bunyodkorlik faoliyatini yoritishga bag'ishlangan.

O'quv qo'llanma turizm sohasida faoliyat yuritayotgan va ta'lim olayotgan talabalarga tavsiya etiladi.

Ma'sul muharrir: prof. T. Shodiyev

Taqrizchilar: Rasuleva K., dots. Xamidov O.

Сафаева С.Р. Туризм и национальное наследие Узбекистана. Учебное пособие. – Т.: ТГЭУ, 2017. -155 с.

Данное учебное пособие посвящено раскрытию истории и культуры нашей родины, её неповторимой национальной архитектуры и археологических памятников, сотворенных на перекрестках Великой Шёлкового Пути, и созидательной деятельности в области градостроительства и архитектуры созданной нашими предками.

Данное учебное пособие рекомендуется студентам и специалистам в сфере туризма.

Ответственный редактор: проф. Т. Шодиев

Рецензенты: Расулева К., доц. Хамидов О.

Safaeva S.R. Turizm and National heritage of Uzbekistan. Text book. – T.: TSUE publishing house, 2017. -155 p.

The given manual is devoted to a history and culture of our native land, its' unique national architecture and archeological monuments created on crossroads of the Great Silk Road, and creative activity in the field of town-planning and architecture created by our ancestors.

The given manual is recommended to the students and professionals in sphere of tourism.

Editor in chief: prof. T. Shodiyev

Reviewers: Rasuleva K., dots. Xomidov O.

© -Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, 2017.

MUNDARIJA

		Bet
	KIRISH.....	8
I bo'lim	ME'MORCHILIK YODGORLIKLARI (O'ZBEKISTON MEROSI): BUYUK IPAK YO'LI SHAHARLARI.....	10
1-bob.	Farg'ona vodiysi shaharlari.....	10
1.1.	Dovon tarixi.....	10
1.2.	Kosonsoy – qadimiy shahar.....	14
1.3.	Namangan shahrining diqqatga sazovor joylari.....	16
1.4.	Qadimgi Andijon yirik savdo – hunarmandchilik markazi sifatida...	18
1.5.	Marg'ilon tarixi va arxitektura yodgorliklari.....	26
1.6.	Qo'qon – “Farg'ona Oltin halqasi”.....	28
2-bob.	Toshkent shahri tarixiy merosi va zamonaviyligi.....	35
2.1.	Toshkentning qadimgi tarixi.....	35
2.2.	Toshkent savdo yo'llari chorrahasida.....	36
2.3.	Toshkent arxitektura va arxeologik yodgorliklari.....	38
2.4.	O'zbekiston ijtimoiy va madaniy merosida Toshkent muzeylarining ahamiyati.....	45
3-bob.	Xorazm vohasi bo'ylab.....	48
3.1.	Qadimgi Xorazm.....	48
3.2.	O'rta asrlardagi Xorazm madaniyati, arxeologik qazilmalari va taraqqiyot davri.....	50
3.3.	Qadimgi Xorazm sivilizatsiyasining yuksalish davri.....	52
3.4.	Xorazm ustalar, me'morchilik ijodining taraqqiyoti.....	64
4-bob.	Samarqand shahri O'zbekiston xalqlari buyuk tarixiy-madaniy qadriyatlarining tashuvchisidir.....	74
4.1.	Samarqand – “Qadimgi Sharq Bog'i Erami”.....	74
4.2.	Qadimgi shahar arxeologik qazilmalari.....	76
4.3.	Shahar me'morchilik yodgorliklari.....	78
4.4.	Samarqand bugungi taraqqiyot bosqichida.....	83
5-bob.	Buxoroning tarixiy merosi.....	86
5.1.	Buxoro – Buyuk Ipak yo'li markazlaridan biri.....	86
5.2.	“Buxoro san'ati”ning o'ziga xos xususiyatlari.....	87
5.3.	Buxoroning buyuk madaniy yodgorliklari.....	88
6-bob.	Shahrisabz va uning O'rta Osiyo tarixidagi tutgan o'rni.....	104
6.1.	Kesh-Shahrisabz va uning O'rta Osiyo tarixidagi ahamiyati.....	104
6.2.	Shahrisabzning me'moriy obidalari.....	106
6.3.	Ibodat me'morligi.....	109
6.4.	Jamoat me'morligi.....	114
6.5.	Shahrisabzning yangi davr tarixi.....	116
II bo'lim	O'ZBEKISTON MADANIY MEROSIDA ARXITEKTURA, DEKORATIV-AMALIY SAN'AT VA ETNOGRAFIK RANG- BARANGLIK.....	120
1-bob.	O'zbekiston madaniy merosida arxitektura sopolsozlik,	

	haykaltaroshlik va koroplastika.....	120
1.1.	Markaziy Osiyo xalqlari tarixiy san'ati merosining asosiy bosqichlari.....	120
1.2.	Markaziy Osiyoda arxitektura bezagi.....	123
1.3.	Markaziy Osiyoda haykaltaroshlik va koroplastika sopolchilik.....	132
2-bob.	O'zbekiston madaniy merosida etnografiya va urf-odatlar.....	139
2.1.	O'zbekiston xalqlari madaniyati va san'atining boy tarixiy merosi.....	139
2.2.	Hunarmandchilikda qadimiy badiiy matolar va naqshlar.....	141
2.3.	Markaziy Osiyo xalqlari kiyimlarining o'ziga xosligi.....	143
2.4.	Markaziy Osiyo xalqlari raqs san'ati.....	144
2.5.	Mustaqillik davri bayramlari.....	147
	FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	151
	ATAMALAR LUG'ATI.....	153

СОДЕРЖАНИЕ

	ВВЕДЕНИЕ	8
Раздел I	АРХИТЕКТУРНЫЕ ПАМЯТНИКИ (НАСЛЕДИЕ УЗБЕКИСТАНА) ГОРОДА ВЕЛИКОГО ШЕЛКОВОГО ПУТИ	10
Глава 1.	Города Ферганской долины	10
1.1.	История Давона.....	10
1.2.	Касансай – старинный город.....	14
1.3.	Достопримечательности города Намагана.....	16
1.4.	Древний Андижан как крупный торгово-ремесленный центр.....	18
1.5.	История и архитектурные памятники Маргилана	26
1.6.	Коканд – «Золотое кольцо Ферганы».....	28
Глава 2.	Историческое наследие и современность города Ташкента	35
2.1.	Древняя история Ташкента.....	35
2.2.	Ташкент на перекрестке торговых путей.....	36
2.3.	Архитектура и археологические памятники Ташкента.....	38
2.4.	Роль музеев Ташкента в социальном и культурном наследии Узбекистана.....	45
Глава 3.	По Хорезмскому оазису	48
3.1.	Древний Хорезм.....	48
3.2.	Культура Хорезма в средневековье, археологические раскопки и эпоха развития.....	50
3.3.	Эпоха подъема цивилизации Древнего Хорезма.....	52
3.4.	Мастера Хорезма, развитие архитектурного творчества.....	64
Глава 4.	Самарканд – носитель великих историко-культурных традиций народов Узбекистана	74
4.1.	Самарканд – «Райский уголок Древнего Востока».....	74
4.2.	Археологические раскопки древнего города.....	76
4.3.	Архитектурные памятники города.....	78
4.4.	Самарканд – на современном этапе развития.....	83
Глава 5.	Историческое наследие Бухары	86
5.1	Бухара – один из центров Великой шелковой пути.....	86
5.2	Специфические особенности «Искусства Бухарь».....	87
5.3	Великие культурные памятники Бухары.....	88
Глава 6.	Шахрисабз и его значение в истории Средней Азии	104
6.1.	Кеш-Шахрисабз и её роль в истории Средней Азии.....	104
6.2.	Архитектурные памятники Шахрисабз.....	106
6.3.	Архитектурная реликвия.....	109
6.4.	Общественная архитектура.....	114
6.5.	История новой эпохи Шахрисабза.....	116
Раздел II	АРХИТЕКТУРНОЕ, ДЕКОРАТИВНО-ПРИКЛАДНОЕ ИСКУССТВО И ЭТНОГРАФИЧЕСКОЕ МНОГООБРАЗИЕ В КУЛЬТУРНОМ НАСЛЕДИИ УЗБЕКИСТАНА	120

Глава 1.	Архитектурный декор, скульптура и коропластика Средней Азии.....	120
1.1.	Основные этапы наследия исторической культуры народов Центральной Азии.....	120
1.2.	Архитектурное оформление в Центральной Азии.....	123
1.3.	Искусство вааяния и коропластической керамики.....	132
Глава 2.	Этнография, обряды и традиции в культурном наследии Узбекистана.....	139
2.1.	Культура народов Узбекистана и богатое историческое наследие искусства.....	139
2.2.	Древние художественные ткани и узоры в кустарном промысле.....	141
2.3.	Своеобразие одежды народов Центральной Азии.....	143
2.4.	Искусство танца народов Средней Азии.....	144
2.5.	Праздники периода Независимости.....	147
	СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ.....	151
	ГЛОССАРИЙ.....	153

CONTENT

	INTRODUCTION.....	8
Chapter I.	ARCHITECTURAL MONUMENTS (UZBEKISTAN'S HERITAGE); CITIES OF GREAT SILK ROAD.....	10
Theme 1.	Cities of Ferghana valley.....	10
Theme 2.	Historical heritage & modernism of Tashkent.....	35
Theme 3.	Through of Khorezm region.....	48
Theme 4.	Samarkand city is a career of the Great historical-cultural customs of Uzbekistan people.....	74
Theme 5.	Historical heritage of Bukhara.....	86
Theme 6.	Shakhrisabz & it's maintenance at Central Asian history.....	104
Chapter II.	ARCHITECTURE, DECORATIVE-APPLIED ART & ETHNO VARIETY AT CULTURAL HERITAGE OF UZBEKISTAN.....	120
Theme 1.	The main stages of historical artificial heritage of Central Asian people.....	120
Theme 2.	Ethnography & traditions at the cultural heritage of Uzbekistan.....	139
	GLOSSARY.....	151
	LITERATURE.....	153

KIRISH

Mamlakatimiz sayohatchilar uchun turistik shaharlari bilan dunyoga mashhurdir. Buyuk Ipak yo'lida joylashgan O'zbekistonning qulay jo'g'rofiy joylashuvi, respublikamizning turli davr va sivilizatsiyalarga xos bo'lgan yodgorliklarga ega ekanligi bilan izohlanadi.

Yurtimizda to'rt mingdan ortiq qadimiy me'morlik va san'at yodgorliklari mavjud bo'lib, ulardan 140 tasi YUNESKO tomonidan muhofazaga olingan tarixiy obyektlar ro'yxatiga kiritilgan. Bu esa O'zbekistonda turizm sohasini ijtimoiy-iqtisodiy kompleksning muhim tarkibiy qismlardan biriga aylantirish uchun barcha shart-sharoitlar mavjudligidan dalolat beradi. Birgina Samarqandda – Buyuk Amir Temur davlati poytaxtida bugungi kunda butun jahonga mashhur bo'lgan ko'pgina diqqatga sazovor joylar mavjud. Haqli ravishda O'rta asr Sharq me'morchiligining eng go'zal namunalarini o'zida jo qilgan Registon me'moriy ansambli, Ulug'bek rasadxonasi, Bibixonim masjidi, Amir Temur maqbarasi shaharning tashrif qog'oziga aylanib ulgurgan.

Tarixiy yodgorliklari va tabarruk qadamjolarining soni va ahamiyati jihatidan Buxoro ham Samarqanddan qolishmaydi.

Mahobatli minoralar, masjid va madrasalar, savdo gumbazlari va bozorlari, hovuzlari-yu maydonlari Buxoroning 2500 yillik tarixiga guvohdir. Bundan tashqari Xiva, Shahrisabz, Termiz ham boy va ko'p asrlik tarixi hamda noyob me'moriy yodgorliklari bilan ajdodlarni hayratlantirgani kabi zamondoshlarimiz qalblarida ham faxr tuyg'ularini uyg'otadi.

O'zbekiston sayohatchilikni rivojlantirish uchun katta imkoniyatlarga ega. Samarqand, Buxoro, Shahrisabz, Qo'qon kabi tarixiy shaharlar butun dunyoga mashhur. Respublika huzurida to'rt mingdan ortiq me'moriy yodgorliklar mavjud. Ularning ko'pchiligi YUNESKO muhofazasiga olingan.

Bundan tashqari O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganidek: "Faqat mustaqillik sharoiti o'laroq, Imom al-Buxoriy, Imom at-Termiziy, Bahouddin Naqshband, ota Ahmad Yassaviy, Muhammad al-Xorazmiy, Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Zahiriddin Muhammad Bobur, Boborahim Mashrab, Bahouddin Marg'inoniy, Mahmud A'zam Kosoniy kabi ko'plab nafaqat bizning milliy madaniyatimiz, balki butun jahon sivilizatsiyasi xazinasiga salmoqli hissa qo'shgan buyuk ajdodlarimizning nomlari va xayrli ishlari butun bo'y-basti bilan namoyon bo'ldi". Sanalgan allomalarning ilmiy va madaniy merosi, Markaziy Osiyodan "Buyuk Ipak yo'li"ning o'tganligi, undagi qadimgi to'qnash kelgan madaniy boyliklar jahon sivilizatsiyasiga ulkan hissa qo'shmoqda.

Mazkur o'quv qo'llanmada talabalarni o'lkamiz tarixi va madaniyati, uning "Buyuk Ipak yo'li" sarhadlarida vujudga kelgan betakror milliy arxitektura va arxeologiya yodgorliklari bilan tanishtirishga hamda ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan me'morchilik va shaharsozlik sohasidagi bunyodkorlik faoliyatiga bag'ishlangan.

Me'morchilik va arxeologik yodgorliklar tarixiy ketma-ketlikda mintaqalar bo'yicha bayon qilingan. Mazkur ishda eramizdan avvalgi II asrda Markaziy Osiyoda

¹ Karimov I.A. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. – T.: O'zbekiston, 1999. 197-bet.

“Buyuk Ipak yo‘li” ilk qadam tashlagan joydan boshlab karvon yo‘llari bo‘ylab “Sayohat qilish”, o‘tmishdan to hozirgi kungacha bo‘lgan arxitektura va arxeologik yodgorliklar bilan tanishish taklif qilinadi. Me‘morchilik va arxeologik yodgorliklarni bayon qilishda mintaqalarning geografik joylashuvi, xalqaro vaziyat, tarixiy hodisalar, madaniyatning boshqa sivilizatsiyalar bilan to‘qnashuvidan kelib chiqqan holda ularning o‘ziga xosliklariga alohida e‘tibor qaratiladi.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasidagi zamonaviy qurilishlar, milliy an‘analarda sharq me‘morchiligi va jahon hamjamiyati tomonidan tan olingan zamonaviy arxitektura namunalarining izchilligini saqlab qolgan muhandis-me‘morlar va bezakchi musavvirlarning mahorati mavzusi ham yoritilgan. Unda zamonaviy shahar va tumanlarni bezab turgan ma‘muriy, madaniy va turar-joy binolari, ko‘p sonli masjidlar, transport yo‘llari, ko‘priklar va bozorlar qayta ta‘mirlangan qadimgi va O‘rta asrlar me‘morchilik yodgorliklari bilan uyg‘unlikda birikib ketganligi bayon qilingan. Bu esa mustaqil O‘zbekistonning milliy manfaatlaridan kelib chiqib, xalqning an‘analari, turmush tarzi va urf-odatlarini, mavjud ulkan resurslar salohiyati asosida yanada rivojlanishidan dalolat beradi.

Shunday qilib, o‘zbek xalqining qadimgi va hozirgi zamon madaniyati yonma-yon bo‘lib, tarixiy-arxeologik va me‘morchilik yodgorliklarida aks ettirilgan. Milliy an‘analarning o‘ziga xosligi jahon insonparvarlik madaniyati va umuminsoniy qadriyatlari bilan uyg‘unligi qayd etilgan. Ko‘p millatli jamiyatimizning ushbu an‘anasi avloddan avlodga takomillashib, jahon hamjamiyatini bizning madaniyatimiz va milliy meroslarimizga jalb etmoqda.

Ushbu o‘quv qo‘llanma mavzusi muallif tomonidan birinchi marta yoritilayotganligi sababli xato va kamchiliklardan xoli emas. O‘quv qo‘llanma bo‘yicha bildiriladigan taklif va mulohazalarni Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Xalqaro turizm fakulteti Turizm va Servis kafedrasiga yetkazilsa, muallif keyingi ishlarida e‘tiborga oladilar.

I bo'lim. ME'MORCHILIK YODGORLIKLARI (O'ZBEKISTON MEROSI):
BUYUK IPAK YO'LI SHAHARLARI
1-bob. FARG'ONA VODIYSI SHAHARLARI

1.1. Dovon tarixi

“Farg'ona Oltin halqasi” yoki “Oltin vodi” bu katta pastlik bo'lib, deyarli hamma tomondan tog' tizmalari bilan – shimolda Chotqol, sharqda Farg'ona, janubda Oloy va Turkiston tog'lari bilan qurshab olingan. Farg'ona vodiysining (maydoni 300x150 km) bunday nomlanishi qadimdan uning o'ziga xos nabotot dunyosi tufayli yuzaga kelgan. Vodiy orqali tog' jilg'alari, irmoqlari, ajoyib sharsharalari, kichik ko'llarga boy Sirdaryo daryosi oqib o'tadi. Vodiy, ayniqsa, kuzda ajoyib tusga ega bo'ladi. Agar unga biron-bir cho'qqida turib pastga qaralsa, vodiyning tillarang tusda mavjlanuvchi holatini ko'ramiz.

Ma'lumki, bundan 5-6 ming yil avval Farg'ona vodiysida qadimgi odamlar yashaydigan ilk manzilgohlar paydo bo'lgan. Bu yerda odamlar afsonalarda ko'kka ko'tarib maqtalgan anor, anjir, uzum, yong'oq yetishtirganlar, xitoyliklar tomonidan faqat eramizdan avvalgi II asrda ochilgan paxta va boshqa o'simliklar yetishtirilgan. Dovonliklarda (Farg'onaliklarda) ipak bilan savdo qilish imkoniyati bo'lgan. A.Anorboyevning fikricha, “Farg'ona eramizdan avvalgi VI-IV asrlarda janub va janubi g'arbda joylashgan sivilizatsiyalar bilan madaniy aloqada bo'lgan va birlashgan savdo tizimiga kirgan”. Biroq bu haqda na fors, na yunon manbalarida eslab o'tiladi.

Eramizdan avvalgi II asrda, ya'ni 138-yildan Farg'ona vodiysida Xitoyni O'rta Yer dengizi mamlakatlari bilan bog'lovchi “Buyuk Ipak yo'li” o'z yurishini boshladi, so'ngra butun Markaziy Osiyoni o'rgimchak to'ri kabi egalladi. Ilk o'rta asrlardayoq Yevropani shimol, janub, sharq va g'arbdagi mamlakatlar bilan bog'ladi.

Dovon doimo o'zining maftunkorligi va boyliklari bilan ko'plab bosqinchilarni o'ziga jalb etib kelgan. Biroq ozodlikni sevuvchi dovonliklar deyarli har doim mustaqil bo'lib kelganlar. Hattoki, Iskandar Zulqarnayn ham dovonni istilo qila olmagan.

Eramizdan avvalgi II asrning oxirida Farg'ona asosiy aloqa yo'liga aylandi. Bundan Munchoqtepadagi arxeologik topilmalar dalolat beradi.

Arablar bosqinidan so'ng, savdoning rivojlanishi biroz qiyinlashdi. Biroq siyosiy vaziyat barqarorlashib, Somoniylar davlati vujudga kelgach, asosiy aloqa yo'li yana jonlandi. Ibn Xordarbek (I asr) Samarqanddan Xo'jand orqali Bob (Pop) shahriga, u orqali O'sh, O'zgan, Otbosh, At-Tubat va Yuqori Nushajongacha (Sharqiy Turkiston) bo'lgan yo'lni ta'riflab bergan.

Al-Istarxiyning guvohlik berishicha, X asrda asosiy karvon yo'li So'g'd, Xo'jand, Qand (Konibodom) orqali So'x, Rishton, Zandaramsh, Quv, O'sh, O'zgan tomon o'zgargan. Farg'onaning asosiy shahri – Axsikentga boruvchi yo'l So'x va Qo'qon orqali o'tib, keyin ikkiga bo'linadi. Birinchi yo'l Pop orqali cho'l bo'ylab, ikkinchisi esa sharqda tog' so'qmoqlari bo'ylab O'sh qishloqlari va Farg'ona vodiysi hududidan tashqariga chiqib, Yettisuv va Xitoyga borgan.

B.A.Abdulg'oziyevning ma'lumotlariga ko'ra, Urganch yo'lida Qo'rg'ontepa va Sultonobod shaharlari bo'lgan. Sultonoboddan so'ng yo'l Kampirrovot orqali

o'tgan. Ko'rinib turibdiki, karvonlar qizil angob bilan qoplangan ajoyib sopol buyumlar (jahon muzeylari o'z kolleksiyalarida bunday sopol mahsulotlarga ega bo'lishni obro' deb hisoblaydilar) ishlab chiqaruvchi hunarmandchilik markazlariga borgan. Shahristondan 5 km va Andijondan 25 km masofada Kamoltepa tepaligi joylashgan bo'lib, unda arxeologlar kulollar tomonidan tayyorlangan sopol-ko'zalar, tog'oralar va qizil angob bilan qoplangan boshqa anjomlarni topishgan.

B.D.Kochnevning xabar berishicha, IX-XI asrlarda Axsikent-Farg'ona vodiysi poytaxti Osiyoning yirik savdo markazlaridan biriga aylanib, o'z tangalarini zarb ettirgan. Axsikent dirhamlari va felslari deyarli butun Markaziy Osiyo hududida, to Chu vodiysigacha bo'lgan yerlarda uchraydi. Ularni qadimgi Rus va Boltiq bo'yi yerlaridan ham topishgan. IX-XIII asrlarda Axsikentda yuqori sifatli po'lat ishlab chiqarish yo'lga qo'yilgan. L.O.Paparxistuning yozishicha, arxeologlar qora metall parchalari bilan qoplangan o'tga chidamli, minglab idish qoldiqlarini topishgan.

Hunarmandchilik va savdo aloqalari rivojlanishi natijasida Farg'onaga sharq, g'arb va janubdagi ko'plab mamlakatlardan turli xil tovarlar kela boshlagan. Farg'onada haykaltaroshlik va musavvirlik san'ati rivojlanmagan, ya'ni u ming yilliklar davomida dehqonlar va chorvadorlar madaniyati qorishib ketgan o'ziga xos madaniyatini saqlab qolgan.

N.I.Bichurinning yozishicha, ilk o'rta asrlarda Farg'ona, to'g'rirog'i, Dovon Xitoy manbalarida Polona Parxana (Bayshi), Boxan (Beyshi, Suyshu) va Nin'yuan (Tanshu) deb nomlanib, madaniyat markazlaridan biri sifatida ma'lum bo'lgan. Farg'ona olamga mashhur matematik va astronom olim Ahmad al-Farg'oniyning vatani ekanligini eslab o'tish kifoya qilsa kerak. To'g'ri, uning eng yaxshi ijodga boy yillari Bag'doddagi xalifa rasadxonasida ishlagan paytlariga to'g'ri keladi. Abu Jaffar ibn Musa al-Xorazmiy bilan ishlar ekan, al-Farg'oniy matematika va astronomiya bo'yicha qator asarlar yaratib, o'z vataniga qaraganda Yevropada oldinroq mashhur bo'lgan.

XIII asrda Mo'g'ullar bosqini davrida Farg'ona vodiysi vayron qilinib, iqtisodiyot va madaniyat inqirozga uchragan. Temur va Temuriylar hukmronligi davrida Buyuk Ipak yo'lining Farg'ona vodiysidan shimolroqdan o'tuvchi yo'llari rivojlangan, biroq Farg'ona Temuriylar sevib yashagan joy bo'lib qolavergan. Temur bu yerni asrab-avaylagan, mayda bo'laklarga bo'lib yubormagan va hech kimga suyurg'ol qilib bermagan. Shayboniyxon Movarounnahrni egallab olgach, XVI asrdan boshlab Farg'ona vodiysi Shayboniylarning o'zbek davlati tarkibida nafaqat Xitoy va Hindiston, balki Yevropa davlatlari bilan ham savdo aloqalarini tiklaydi. XVII asr oxirida Farg'ona mustaqillikka erishgach, Rus davlati bilan ham savdo aloqalari yo'lga qo'yildi. Hukumatni xo'jalar va darveshlar birodarliklari qo'lga olgan bo'lib, ular Chodak qishlog'ida (Chustdan 40 km sharqda) yashaganlar. 1700 yil artofida ularning hokimligiga ming qabilasi vakili Shohruhbiy tomonidan yakun yasalgan. Ming qabilasining asosiy qismi Sirdaryo havzasi va Yettisuvni egallab olgan. Yangi tuzilgan davlat poytaxtiga Xo'qandi qishlog'i o'rnida Shohruhbiy tomonidan qurilgan Qo'qon shahri aylandi. XVIII asrda Farg'ona mustaqil davlatga – Qo'qon xonligiga aylanib, uning chegaralari kengayib boradi va ko'p o'tmay Qo'qon xonligi "Buyuk Ipak yo'li"ning shimoliy yo'llariga egalik qiladi. Bu paytga kelib quyida Qo'qonni Rus podshohlighi va g'arb mamlakatlari bilan, shimoli sharqda

Toshkentni Sibir, Mongoliya, uzoq Sharq va Yaponiya bilan, Talas vodiysi orqali Sharqiy Turkiston, Qashg'ar va Xitoy bilan bog'lovchi karvon yo'li ishlab turgan. Savdo yo'llari Qo'qonni Afg'oniston, Buxoro, Xiva va Hindiston bilan bog'lab turgan.

1875-yilda Farg'ona vodiysi – Qo'qon xonligining tayanchi Chor Rossiyasiga zo'rlik bilan qo'shib olingan. Mustamlakachilik davrida Farg'ona vodiysi paxtachilik, bog'dorchilik, uzumchilik va ipakchilikni rivojlantirishning asosiy markaziga aylandi. 1924-yilda O'rta Osiyo hududida respublikalar o'rtasida chegaralarning belgilanishi natijasida Farg'ona vodiysi O'zbekiston, Tojikiston va Qirg'iziston o'rtasida bo'lib yuborildi. Vodiyning asosiy qismi O'zbekiston tarkibiga kiritildi va uch viloyat – Farg'ona, Andijon va Namangan viloyatlari tashkil etildi.

Sovet hukumati davrida Farg'ona vodiysi sobiq imperiya uchun "Oq oltin" nomini olgan paxta yetkazib beruvchi asosiy hududga aylandi. Shu tariqa Farg'ona vodiysi "Oltin ombor" nomini oldi.

"Oltin vodi" bo'ylab istalgan transport turida – avtomobil, temiryo'l, velosipedda yoki piyoda sayohat qilish juda qulay. O'zbekiston Respublikasi poytaxti Toshkent shahridan keluvchi magistral yo'llar ko'plab turistik ma'lumotnomalarda "Farg'ona Oltin halqasi" deb nomlanuvchi Farg'ona halqasini tashkil qiladi. Toshkentdan cho'l orqali Farg'ona vodiysiga temir yo'l o'tadi. Tojikiston Respublikasining Konibodom stansiyasi orqali Farg'ona viloyatiga kirib kelish mumkin. Poyezd O'zbekiston Respublikasi hududiga kirib kelishdan oldin o'zbek, tojik va qirg'iz xalqlari kuchi bilan qurilgan Qayroqum suv omborining janubiy qirg'og'i bilan yonma-yon o'tadi. Biroq davriy rejada va tarixiy aniqlik bo'yicha avtomobil transportida Qamchiq dovoni orqali sayohat boshlagan ma'qul. Hozirgi paytda dovon orqali o'tuvchi avtomobil trassalarida Farg'ona vodiysining Pop shahriga kirib borish mumkin.

Ilk o'rta asrlardagi Pop yoki Bob shahri, arxeologik tadqiqotlarning ko'rsatishicha, qadimgi Balandtepa shaharchasi o'rnida vujudga kelgan va asta-sekinlik bilan shimolga va shimoli sharqqa kengayib borib, Munchoqtepa va Temirqosmoq tepani ham qamrab olgan. Yana bir yo'l – suv yo'li mavjud bo'lib, u vohani shimoli g'arb va janubi sharq bilan bog'laydi. Buyuk Ipak yo'li trassasi Sirdaryo orqali "Xo'jand darvozasi"dan o'tgan. O'tmishda vodiya ikkita yirik shahar – Sirdaryoning chap qirg'og'ida Munchoqtepa-1 va o'ng qirg'og'ida Munchoqtepa-2 joylashgan.

Munchoqtepa-1 va Munchoqtepa-2 shaharlari o'rnida olib borilgan arxeologik qazishmalar natijasida ajoyib ashyolar topilgan. Munchoqtepa-2 da qabriston, Shirinsoy va "Sharqiy qabriston", shuningdek, Kurkat sag'anasi, Panjmantepa va ikkita tepalik (Sirdaryoga yaqin joyda) topilgan. Munchoqtepa-1 shahri (eramizning I-II asri) o'tmishda mahalliy tovarlar Sirdaryoning quyi oqimida joylashgan shaharlarga jo'natiluvchi oraliq punkt – "bandar" bo'lgan. Bu yerda ko'plab xorijda ishlab chiqarilgan buyumlar topilgan.

A.Anorboyev rahbarligidagi arxeologik ekspeditsiya 1988-yilda Munchoqtepa-2 da 7 ta sag'anani ochgan. Sag'analar juda murakkab bo'lgan. Ularning aksariyatida ravoq qismi (saqlanib qolmagan), pandusli maydoncha, yo'lakcha va mayit qo'yilgan xonachadan iborat bo'lgan. Bu xonachaga kirish uchun avval pandusga chiqib, yo'lak

bo'ylab o'tish, so'ngra eshik orqali zinapoyadan tushish lozim bo'lgan. Devorlarda sag'anani qurishda ishlatilgan mehnat quollarining izlari ko'rinib turadi.

Sag'analar ikki xil turda – katta va kichik bo'lgan. Katta sag'analar oilaviy daxma bo'lib, uzoq vaqt mobaynida (100-150 yil) mayitlar qamish tobutlarda ko'milgan. Bunday qabristonlar Markaziy Osiyo hududida ilk bora topilgan. Ulardan birida 47 ta tobut topilgan bo'lib, tobutlar uzunligi 5,3 m, eni 2,5 m va balandligi 2,25 m bo'lgan xonada ustama-ust besh qator qilib joylashtirilgan, har bir qator to'lgach, uning ustiga yog'och to'sinlar qo'yilgan.

Kichik sag'analarda bittadan to'rntagacha tobutlar qo'yilgan bo'lib, ular qumsupa ustiga qo'yilgan. Tobutlar atrofida yoki ichida yog'och kursi, yog'och va sopol idishlar, to'qilgan savatlar, g'o'za ko'saklari, qovoq idishlar kabi ko'plab turli xil buyumlar topilgan. Ayollar ko'milgan joydan turli taqinchoq va bezaklar – rangli shisha va toshlardan yasalgan uzuk va marjonlar, o'simliklar va baliq suyaklaridan taqinchoqlar, erkaklar ko'milgan joydan esa turli xil mehnat va ov quollari topilgan. Ilk marta qamishdan yasalgan nay topilgan.

Qabrga mayitlar yorqin rangdagi harir ipakdan tikilgan bayram kiyimida qo'yilgan. Ikkita sag'anada deyarli to'liq saqlangan yengi uzun ko'ylaklar topilgan. Yuz ustiga harir ipakdan kengligi 22-23 sm va uzunligi 43-44 sm bo'lgan yoping'ich tashlab qo'yilgan (xuddi shu narsa Sharqiy Turkistonda ham kuzatilgan). Ayrim tobutlarda bosh chanog'i ostiga o'tdan yasalgan yostiqlar qo'yilgan.

Munchoqtepa-1 tepaligida tuproqli o'ralarda 15 ta bir xil qabr topilgan. Ularning o'rtasida qamish tobutda qo'yilgan ayol qabri ajralib turadi. Unda rangli shisha, kvars, dolomit, tog' billuri, kaltsit, badaxshon lazuriti, feruza, serdolik kabi toshlardan yasalgan ko'p sonli taqinchoqlar chiqqan. Bu qabrlar eramizning V-VII asrlariga to'g'ri keladi. Ulardan tashqari biroz keyingi davrga (VIII asr) to'g'ri keluvchi ossuariy va xum qabrlar ham topilgan.

Pop sag'anasi mahalliy aholining madaniyati, san'ati va hunarmandchiligini, ularning bezak va matolar keltirilgan mamlakatlar bilan aloqalar o'rnatish uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Popdan 15 km janubi g'arbda Chodak qishlog'i joylashgan bo'lib, uning yaqinida hozirgi kunda Tog'-boyitish kombinati ishlab turibdi. Qadim zamonlardan bu joylarda oltin qazib olingan konlar bo'lgan. Bu yerda dam olish uylari, ajoyib oromgohlar, kichkina, lekin juda ajoyib Qirqsoch sharsharasi mavjud. Afsonaga ko'ra, ikkita sevishgan qalb ota-onalarining roziligini olmaganidan so'ng, qiz tog' daryosi qirg'og'iga kelib, o'zini suvga tashlab yuborgan. Uning sochlari jarga ilinib qolib, qizning ko'z yoshlari kabi jilg'a bo'lib quyiladi. Sevishgan yigit esa qirg'oq bo'yida yig'layverib daraxtga aylanib qolgan va uning ildizlari sevimli qizining kokillari bilan birlashib ketgan.

Temir yo'l bo'ylab angor echkilar boqiluvchi, sayyohlar uchun juda qiziqarli bo'lgan Chust bekatiga avtomobilda borish qulayroq. Popdan Chustga boruvchi avtomobil yo'li adirlar orqali Sirdaryoga boradi va uni ko'prik orqali kesib o'tadi. Sirdaryoning o'ng qirg'og'ida Pop-Chust yo'lidan janubroqda arxeologlar tomonidan qazilmalar olib borilgan qadimgi Axsikent yastanib yotibdi. O'rta asrlarda shahar orqali "Buyuk Ipak yo'li" o'tgan.

O'tgan yillarda olib borilgan arxeologik qazishmalar shuni ko'rsatadiki,

Axsikent Mingtepa (balki Shurabshad) kabi yangi shaharlarga mansub bo'lib, kuchli qal'a devorlariga ega bo'lgan va u yerda hunarmandchilik juda rivojlangan. Axsikent shahri va qal'a devorlari paxsa va to'rt burchakli katta g'ishtlar yordamida qurilgan. Qal'a devorini tashqaridan katta chuqurli g'ov o'rab turgan. Uning maydoni 30 gektardan ortiq bo'lgan. Eramizning boshlarida shahar tashqarisida, Axsi II o'rnida 5 gektar maydonda savdo va hunarmandchilik rivojlangan manzil paydo bo'lgan. U yerda asosiy e'tibor mahalliy xomashyoga asoslanuvchi temir eritishga qaratilgan. Yuqori G'ovasoydagi O'rtasoyda temirtosh konlari mavjud.

Eramizning dastlabki asrlarida Axsikentda xom g'ishtdan tasmali paxsadan foydalangan holda yangi qal'a devorlari qurilgan va shahar maydoni savdo-hunarmandchilik manzillari hisobiga kengaytirilgan.

Arxeologik ma'lumotlarga ko'ra, ilk o'rta asrlarda shaharning uch qism – Qo'handiz (qal'a), Shahrison (ichki shahar) va Rabotdan (tashqi shahar) iborat asosi yaratilgan. Yirik shaharlarning roli o'sgan. Axsikent hududiy jihatdan kengayib, Shahrison artofida tashqi shahar (rabot) vujudga kelgan. XIII asrgacha Axsikent Farg'ona vodiysining poytaxti bo'lib, bu yerda o'z tangalari zarb etilgan. Shahar ikki marta – XIII asrda mo'g'ullar tomonidan va XVII asrda zilzila natijasida vayron etilgan, shahar aholisi esa Namanganga ko'chib o'tgan.

Al-Maqdisining yozishicha, Axsikentdan yo'l shimoli sharqiy yo'nalishda Kimek shahri Karantiyaga, undan esa Bolsog'unga borgan va u yerda ikkiga bo'lingan. Chustning hozirgi so'lim bog'larida vodiyning ko'pgina tumanlaridan kelib dam olishadi. Chust ham eramizdan avvalgi ikkinchi ming yillik oxiri va birinchi ming yillik boshlarida yer egalarining qadimgi manzilgohlaridan biri hisoblanadi. Chust, Dalvarzintepa va O'sh kabi qadimgi shaharlar qal'a va mudofaa devorlariga ega bo'lmagan. Chust madaniyatining sopolsozlik majmuasida sak mahalliy madaniyatining izlari ko'rinadi. Olimlar, aynan, Farg'onaliklar Dovon shohligiga asos slogan, deb hisoblaydilar. Hozirgi kunda Chust mohir do'ppichilar markazi sifatida mashhur bo'lib, bu do'ppilarga qora fonga oq ipak bilan bodom tasviri tushirilgan.

Chustdan 35 km masofada Kosonsoy daryosi bo'yida xuddi shu nomli shaharcha ham mavjud bo'lib, uning yaqinida Koson shaharchasi vayronalari bor. Shahar eramizdan avvalgi II asrda paydo bo'lgan va I asrdan to V asrgacha Kushon davlati tarkibida gullab-yashnagan.

1.2. Kosonsoy qadimiy shahar

Kosonsoy shahri va uning atrofi daryo chegaralari va Farg'ona vodiysi tog'oldi hududida joylashgan. Zahiriddin Muhammad Bobur Kosonsoy haqida shunday yozgan: "Bu joyning havosi ajoyib va bog'lari go'zaldur". XVII asrda yashab ijod qilgan boshqa bir muallif esa: "Kosonning poliz va bog'lari jannatni eslatadi, uning hosili beqiyosdir", - deb yozgan.

Asirga tushgan, so'ngra Dovonga qochib ketgan Xitoy imperatori vakili U-di Chjan Syan bu "jannatmakon" o'lkada bo'lganidan so'ng o'z hukmroniga bu joylar haqida gapirib bermasligi mumkin emas edi. Uning Guyshuan shahri haqidagi hikoyasi, Koson haqida ilk bor qayd etilgan yozma manba hisoblanadi.

1948-yilda arxeologlar Kosonga nom bergan Mug'xona yoki Mug'qo'rg'on shahrida qazilma ishlari boshlandi. Ko'hna shahar noto'g'ri trapetsiya shakliga ega bo'lib, uning tomonlari 180, 160 va 80 metrga teng. Shaharning janubi g'arbiy qismida mustahkam qal'a joylashgan. Qal'a 90x70 m maydondagi qoyali joydan o'rin olgan. Uning devorlari oltita minora bilan bezatilgan bo'lib, ulardan ikkitasi pastga qarab ketgan zaif nuqtalarni himoya qilgan. 1990-yilda A.Anorboyev tomonidan olib borilgan qazishmalar natijasida ko'p narsa aniqlandi. Koson xarobalarining umumiy uzunligi 2 km atrofida ekan. XII asrgacha uning hududida zardushtiylarning olovxonasi ishlab turgan. Eramizning dastlabki asri boshlarida u butun Farg'ona vodiysining harbiy-siyosiy markazi bo'lgan. U kuchli devorlarga ega, chuqur g'ovlar bilan o'rab olingan mustahkam qal'a bo'lib, ichida turar-joy binolari bo'lgan. Qadimgi Koson xarobalarida arxeologlar mahalliy aholi oziq-ovqat saqlagan katta xumlar, ko'p sonli yoritgichlar, sopol idishlar siniqlari, qora va qizil rang qoplangan "kushon bokallari" va hokazolarni topishgan. Qal'a devori ortida hunarmandchilik uchun ishlab chiqarish qurollari topilgan. Demak, bu yerda hunarmandchilik va savdo-sotiq juda rivojlangan.

Koson shahri ko'p bora shiddatli janglar maydoniga aylangan. Bu shaharni egallab olish uchun Eron va Turon o'rtasidagi kurash buyuk Firdavsiyning tarixiy "Shohnoma" asarida aks ettirilgan. Kosonni at-Tabariy ham Farg'ona vodiysining to'rt shahrini arab bosqinchilari egallab olishi munosabati bilan eslab o'tadi. Uning devorlari oldida 713-yilda arab qo'shinlari ikkiga bo'linib, bir qismi Chochni bosib olishga, ikkinchisi esa Farg'ona vodiysiga yo'l oladi (715-yilda bu yerda uzoq bo'lmagan joyda o'z lashkari tomonidan Qutayba ibn Muslim o'ldirilgan va hozirgi Jalolquduq tumanidagi qilichmazor qishlog'ida dafn etilgan).

Qilichmazor qishlog'ida 704-yilda xalifa al-Valid ibn Abdulmalik tomonidan tayinlangan Xuroson va Movarounnahr noibi, baxil qabilasining vakili Qutayba ibn Muslimning qabri ustiga maqbara qurildi. 705-yilda Qutayba Poykandni (savdogarlar shahri) bosib ola boshladi. Qadimgi So'g'd va Xorazm shaharlari egallab olingach, 712-yilda u qadimgi Ustrushona tomon yo'l soldi. Biroq u tog'liklar qarshiligini yenga olmasdan, Farg'ona va Shosh tomon yo'l oldi. 715-yilga kelib, uning lashkarlari Farg'ona, Shosh, Qashg'ar shaharlarini egallab oldilar va hattoki Xitoyga ham yurish qilib ko'rdilar.

Bu paytda xalifalikda Qutaybaning homiysi al-Xajaj ibn Yusuf, birozdan so'ng esa xalifa al-Valid ibn Abdumalik ham vafot etib, siyosiy vaziyat taranglashdi. Hukumat tepasiga kelgan xalifa Sulaymon marhum xalifa tarafdorlarini qirg'in qilishni boshladi, biroq Qutaybaning do'q-po'pisalar bilan yozilgan xatini olgach, uni Xuroson noibi qilib qoldirdi. Qutaybaning Farg'onadagi qo'shinida ham vaziyat notinch edi. Qutayba tarafdorlari isyon ko'tardilar, biroq Sulaymon tarafdorlari tomonidan bu isyon bostirildi. Andijon yaqinida ro'y bergan jangda Qutayba ibn Muslim, uning akasi va yana yettita qarindoshlari halok bo'lib, ularning barchasi birga dafn qilindi. Keyinchalik Qutayba shahid deb e'lon qilindi. Uning qabri ustiga maqbara qurildi. Qabriston esa Qilichmazor nomini oldi va Buyuk Ipak yo'li karvon yo'llari bo'yidan joy oldi.

Qoraxoniylar davrida Koson ko'pincha siyosiy kurashlar bilan aloqada esga olinadi. Bu yerda 1095-yilda Qoraxoniylarning yosh shohi Ahmad Hizrning o'g'li dushmanlari tomonidan kamon ipi bilan bo'g'ib o'ldirilgan.

XIII asrgacha Koson Farg'ona vodiysining poytaxtlaridan biri bo'lgan va uning ma'naviy hayoti shakllanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatgan. Bu yerga olimlar o'quv muassasalarida dars berish va ilm bilan shug'ullanish uchun kelishgan. Bu yerda qonunshunoslar, qur'on va hadis bilimdonlari, farg'onalik Burhoniddin Marg'inoniy tomonidan musulmon qonunchiligi maktabi shakllangan.

Kosonda ko'plab mashhur olimlar tavallud topishgan va ijod qilishgan. Masalan, Mahmud ibn Vali – "Oliyjanob kishilarning jasorati sirlari dengizi" geografik va tarixiy asari muallifi, keyinchalik Samarqand yaqinidagi Dahbediyga ko'chib o'tgan Shayx Maxdumi-A'zam aynan shu yerda tug'ilib o'sgan.

Qoraxoniylar hukmronligi davridagi to'xtovsiz urushlar, Muhammad Xorazmshohning 1212-yildagi Farg'ona vodiysi va Chochga qilgan yurishlari, shaharlarning vayron qilinishi va aholining ko'chirib yuborilishi Koson shahrining tanazzulga yuz tutishiga olib keldi. Asta-sekinlik bilan u o'z ta'sirini yo'qota bordi va poytaxt maqomi Axsikent shahriga o'tdi. Bir necha yildan so'ng esa Chingizxon qo'shinlari mustahkam qal'ani tamomila vayron qildilar. Koson nafaqat qadimiy xarobalar bilan jozibador, uning boshqa diqqatga sazovor joylari ham bor. Xushmanzara bog'da ulkan chinor bor. Uning eni 15 metrga teng bo'lib, daraxt 800 yildan beri yer yuzida qad rostlab turibdi. Hozirgi kunga kelib dam olish maskaniga aylangan.

1.3. Namangan shahrining diqqatga sazovor joylari

Kosonsoydan 25 km masofa o'tilgach, Namangan shahriga kirib kelinadi. Bu shahar XV asrdan beri ma'lum bo'lib, 1610-yilda kichkina sho'rxok ko'l atrofidagi Namangankon (tuzli kon) qishlog'i o'rnida paydo bo'lib, 1758-yilda Namangan hududining ma'muriy markaziga aylandi. Bunga shahar bozori yaqinida joylashgan me'moriy yodgorlik – Xo'jain qabri mavzoleyi guvoh bo'ladi. Uning ulkan ravoqini terrakot plitalar va alebastrga ishlangan naqsh bezab turadi. Mavzoleyni ichki qismi ham turli bezaklarga boy.

XIX asrda Namangan Farg'ona vodiysining shimoliy qismida paxtani qayta ishlash markaziga aylandi. XIX asr oxiri XX asr boshlarida vodiydagi kattaligi bo'yicha Namangan ikkinchi (Qo'qondan keyingi) shahar edi. Eski shaharning shimoliy tomonida paydo bo'lgan yangi qismi xuddi boshqa shaharlarda bo'lgani kabi undan qal'a bilan ajratilgan bo'lib, u yerdan boshlanuvchi beshta aylanasimon ko'cha to'rtta halqasimon aylanma ko'cha bilan bog'langan. Yangi shaharning shimoli sharqiy burchagida turar-joylar ortida kasalxona qurilgan. Turar-joylar qurish Namanganda temir yo'l qurilishi bilan boshlangan.

Yangi shaharning joylashuvi boshqa shaharlardan shunisi bilan ajralib turganki, unda harbiy, ma'muriy, madaniy, savdo va oromgoh markazlari yagona tizimga birlashgan. Qal'a maydoni tez orada sun'iy hovuzli shahar bog'iga aylantirilib, unda yozgi restoranlar, ot o'yin va hokazolar paydo bo'la boshlagan.

Qal'aning shimoli sharqiy burchagi ro'parasida kichik bir maydonda, chinorlar orasida cherkov mavjud bo'lib, uning yaqinida garnizon shtabi binosi va uyezd

boshqarmasi joylashgan edi. Sharqiy tomonda eski shaharning savdo qismiga yaqin joyda do'konlar va tijorat banklarining binolari qurilgan. Aksariyat binolar arxitekturasi qoloqlik xislatlarini aks ettirardi. Ularning orasida faqat arxitektorlar zamonaviy materialni kiritishga harakat qilib ko'rgan Rus-Osiyo banki binosigina alohida ajralib turardi. Bank binosi karkas, metall va temir-beton qo'llagan holda qurilgan bo'lib, an'anaviy mahalliy me'morchilik elementlari, dekorativ gumbazchalar, o'qsimon arkalar va hokazolarni qamrab olgan.

Namangandagi ko'rimsiz Yevropa arxitekturasi fonida eski shahardagi XX asr boshlarida qurilgan ayrim binolar kuchli taassurot qoldiradi. Bu Rajabboy masjidi, Mullo Qirg'iz madrasasi va boshqa binolardir. Ularning barchasi yevropacha shakldagi pishiq g'ishtdan bir-biriga yaqin bo'lgan shaklda, lekin batartib va mustahkam qilib qurilgan.

Ayniqsa, Mullo-Qirg'iz madrasasi kompozitsiyasi katta qiziqish uyg'otadi. Usta bu yerda udum bo'lgan simmetriyalardan voz kechib, yangi asimmetrik bino qurgan. Bu binoda shakli bo'yicha turli hajmlar – o'tish yo'lakli kirish portali, baland gumbazli markaziy xona, talabalar uchun kichik hujralar yagona kompozitsiyaga birlashgan. Shu bilan birga, binoda oddiy romlardagi katta va yorug' oynalar, chiziq tortilgan eshiklar va boshqa detallar qo'yilgan bo'lib, ular an'anaviy arxitekturaga yevropacha usul va shakllarning kiritilganligidan dalolat beradi.

Aytish mumkinki, XIX asrning oxiri va XX asrning boshlarida mahalliy ustalar an'anaviy mahalliy arxitekturaning kompozitsion shakl va usullaridan foydalanib, XX asr boshlariga xos bo'lgan andoza va usullarni faol qo'llash yo'li bilan yanada jozibali obraz yaratishga harakat qilganlar. Shu tariqa yangi shaharlar oddiy, lekin ilg'or me'morchilik tamoyillari asosida qurilgan shaharlarga aylangan. Bu davrda arxitekturaning eski tamoyillari o'z o'rnini yangi tamoyillarga bo'shatib bergan.

Hozirgi paytda Namangan oziq-ovqat va yengil sanoat markazi sifatida rivojlanmoqda. Yengil sanoat bilan o'quv muassasalari ham bog'liq, xususan, bu yerda Toshkent to'qimachilik va yengil sanoati institutining o'quv-maslahat markazi joylashgan. Shaharda universitet, muhandislik, iqtisodiyot o'rta ta'lim muassasalari, teatr va muzey mavjud bo'lib, uning aholisi 283 ming kishini tashkil qiladi. Shahar obodonlashtirilgan bo'lib, katta markaziy xiyobon rang-barang gulzorlarga boy.

Yo'limizni sharq tomon davom ettirsak, yana 8 km dan so'ng, Andijonga yetmasdan turib Sirdaryoning chap irmog'i – Qoradaryoni kechib o'tamiz. Bu yerdagi Kuyganyor posyolkasida respublikadagi yagona paxtachilik instituti joylashgan. Yo'lda davom etib, Norin daryosining chap qirg'og'idagi Uchqo'rg'on posyolkasi yonida to'xtaymiz.

Uchqo'rg'on atrofida gidroelektrostansiya qurilgan bo'lib, Shimoliy Farg'ona soyi xuddi shu yerdan boshlanadi. Uchqo'rg'ondan biroz yuqorida katta Namangan soyining bosh inshooti joylashgan. Uchqo'rg'ondan 50 km quyiroqda esa Norin daryosi Qoradaryo bilan birlashib, Markaziy Osiyoning ulkan daryolaridan biri Sirdaryo paydo bo'ladi. Uchqo'rg'ondan 20 km uzoqlikda Chortoq joylashgan. Bu yerdan bir necha chaqirim shimolroqda, Chortoqsoy daryosi vodiysida esa issiq mineralli suvlar yer yuzasiga chiqadi. Uning manbalarida sobiq Ittifoq ahamiyatiga ega bo'lgan asab kasalliklari, bo'g'imlar, artrit va falaj asoratlari kabi kasalliklarni

davolovchi sihatgoh joylashgan. Hozirda u O'zbekistonning eng mashhur sihatgohlaridan biri hisoblanadi.

1.4. Qadimgi Andijon yirik savdo – hunarmandchilik markazi sifatida

Safarimizni yana davom ettiradigan bo'lsak, Farg'ona vodiysining eng yirik shahri Andijonga kirib kelamiz. Qadimgi Andijon X asrda yirik savdo va hunarmandchilik markazi sifatida tanilgan. Uning eramizdan avvalgi I asrda ham Buyuk Ipak yo'lida mavjud bo'lganligi haqida ma'lumotlar bor. Boburning ajdodlari davrida, XVI asrda Andijon Farg'onaning sharqiy qismi, Bobur davrida esa butun Farg'ona vodiysining poytaxti bo'lgan.

Qo'qon xonligi barham topgach, mustamlaka davrida 1877-yilda Andijonda ruslar yashaydigan joylar paydo bo'la boshladi. Biroq 1902-yilda shahar kuchli zilzila natijasida vayron bo'lgan, shu sababli saqlanib qolgan va bizning kunlarga yetib kelgan binolar, asosan, XX asrning boshlariga tegishli. Bu paytda Andijonda paxtani qayta ishlash sanoatining yetakchi va muhim yo'nalishiga aylangan bo'lib, bu shaharning eski va yangi qismida o'z aksini topgan. Shaharning yangi qismi eski shaharning janubiy qismida, sobiq qal'a hududidan tashqarida paydo bo'lgan. Xuddi boshqa shaharlarda bo'lgani kabi, harbiy qal'adan eski shahar markaziga qarab katta va keng yo'l o'tgan, qal'a yangi shaharning aylanma-halqali loyiha kompozitsiyasi markazi hisoblangan.

Yettita radial (aylanasimon) va oltita halqa magistrallari shahar binolarini tashkil etib, turli kattalikda trapetsiya shaklidagi turar-joy dahalarini shakllantirgan.

Andijon ko'chalari o'sha davrga xos bo'lgan tarzda o'lkani bosib olishda ishtirok etgan generallar, avliyolar yoki shohlar nomi bilan atalgan: Kaufman, Abramov, Skobelev, Ivanov, Troitskiy, Matsievskiy, Korolkovski, Kuropatkin, Sergeyev, Mixaylov, Georgiev. Ayrim hollarda ko'chalar nomida mahalliy joylar ma'nosi aks etgan – Pochtovaya, Krepostnaya, Serkovnaya, Sadovaya.

Andijon loyihasidayoq ishbilarmonlik va jamoatchilik markaziga asos solingan kam sonli shaharlardan edi. U sharq-g'arb yo'nalishidagi markaziy radius bilan mos tushib, shahar hududini teng ikki qismga bo'lgan. Bu magistral vokzal oldidagi maydondan boshlanib, sharqqa qarab qal'a tomonga yo'nalgan. U shaharning cherkov joylashgan yerida kengayib, katta bo'lmagan obodonlashtirilgan maydoncha hosil qilgan. Ko'channing vokzaldan to cherkovgacha bo'lgan bu qismida barcha savdo va bank binolari joylashgan. Bu shaharning asosiy ishbilarmonlik markazi edi.

Shaharning janubiy qismida yana bir cherkov bo'lib, uning yonida kichik xiyobon mavjud edi. Ushbu dahada shahardagi bilim yurti – katta va yorug' sinf xonalariga ega bir qavatli bino joylashgan. Shaharning shimoliy qismidagi ikkita dahani shahar kutubxonasi va jamoatchilik yig'ilishlari binosiga ega bo'lgan shahar bog'i, shuningdek, shahar kasalxonasining bir qavatli binolari egallagan.

Andijonning g'arbiy chegarasiga 1898-yilda temir yo'lning yaqinlashtirilishi yirik sanoat va savdoning rivojlanishiga olib keldi. Yangi shahar atrofida Vladislavlev, Filipp Skubinning korxonalari, aka-uka Asadullayevlarning omborlari,

Mirqozixonning zavodlari, Timurbekning uchta zavodi, Patelyaxov, Murodbek, Simxayev, Vadyayev va Poznanskoylarning zavodlari paydo bo'lgan.

Hozirgi kungacha saqlanib qolgan savdo va bank binolari orasida Matsiyevskiy ko'chasi va Skobelev markaziy shohko'cha (sobiq Lenin ko'chasi) muyulishida joylashgan ikkita ikki qavatli binoni aytib o'tish mumkin. Ikkala bino burchakda joylashgan bo'lib, o'xshash shaklda qurilgan. Birinchi qavatda alohida eshiklariga ega hamda asosiy eshik bilan bog'liq yirik savdo zallari joylashgan. Binolarning burchaklari yuqoriga qad rostlagan go'zal gumbazlar, shuningdek, ikki kolonnali portiklar bilan e'tiborni o'ziga jalb qiladi, ulardan biri qovun shakliga ega.

Dahaning burchagida, bir-birining ro'parasida joylashgan bu binolar markaziy shohko'chani vokzal maydoni tomonidan propileya bilan bezaganday edi. Ular o'rtasida joylashgan cherkov bilan birgalikda shahar markazida yagona bir ansambl tashkil qilingan. Shu'lasimon ko'chalar har tomondan kelib, eski shaharning savdo maydoni markazida tutashgan bo'lib, XX asr boshida u yerda qurilgan mehmonxona saroy shaklida ajralib turgan. Bino bir qavatli bo'lib, noto'g'ri trapetsiya shakliga ega edi. Ichki tarafda tor va uzun hovlidan chuqur yerto'laga – mahsulotlar saqlanadigan joyga uch zinapoya olib borgan.

Andijonning saqlanib qolmagan karvonsaroylaridagi qayirma zinapoyalar va qavatli tomlar, Farg'ona vodiysidagi masjidlar shifti va karnizlaridagi naqshlar Sharqiy Turkistonning musulmon shaharlari – Qashg'ar, Yorkent va boshqalar uchun ham xos bo'lgan Sharqiy Turkiston uslubining keng kirib borishini Andijon va umuman, Farg'ona vodiysidagi turar-joylarning yozgi qismlarida ham kuzatish mumkin.

1913-yilda qurilgan hashamatli binolardan biri o'z uslubiga ko'ra mehmonxonalariga juda yaqin turadi. Bu yerda ham xuddi mehmonxonalaridagi kabi baliqtangasimon tomlar va oval shakldagi chordoq oynalarini ko'rishimiz mumkin. Bezash shakli to'g'ri binoga kirishni yoki binoning old tomoni tuzilishiga e'tiborni jalb qiladi va bu Andijondagi turar-joy binolarida juda ko'p uchraydi. Mahalliy aholi bu binoni sobiq Xitoy elchixonasi deb ataydi.

Andijonning bir qavatli binolari juda oddiy va bir xildir. Ular sifat jihatidan Namangandagi binolardan biroz yaxshi bo'lsa-da, biroq bu yerda Qo'qondagi kabi qiziqarli va hashamatli binolar yo'q. Mutaxassislar XX asr boshlaridagi Andijon turar-joy binolari hududlarida zilzilaga bardoshli uylar qurishga intilish mavjudligini ta'kidlaydilar. Bu Rossiyadan keltiriluvchi yog'och g'o'lalardan yig'ma uylar qurilishiga ham olib keldi. Bu uylar tashqari tomondan suvalib, ichki tomondan o'yma chaspaklar va karnizlar bilan bezalgan. Boshqa tomondan esa Andijonda mintaqaning boshqa hech qaysi shahrida kuzatilmagan darajada pishiq g'ishtdan qurilgan uylar ko'p bo'lgan.

Sobiq Esplanada va Skobelev ko'chalari kesishgan joyda chorqirrali sing shaklida pishiq g'isht bilan to'ldirilgan uy joylashgan bo'lib, uning faxverk asosi ochilib, faol dekorativ vosita sifatida qabul qilingan. Uyning arxitektura shakli va tuzilishi Yevropaning shimoli g'arbiy tumanlari uchun xos bo'lgan usullardan foydalanilganligidan darak beradi. Turar-joy binosining arxitektura-loyihasi asosi sifatida faxverkka murojaat qilish ilg'or holat bo'lib, an'anaviy o'zbek shaharlaridagi uy-joylarni loyihalash tamoyillariga o'xshab ketadi.

Zamonaviy Andijon shahri yirik mashinasozlik markazi bo'lib, xorijiy firmalar bilan hamkorlik qiladi. Shaharda bir qator ta'lim muassasalari – Tillar instituti, Namangan davlat universiteti, Muhandislik iqtisodiyot instituti, Tibbiyot instituti, bir nechta kollej va maxsus litseylar faoliyat ko'rsatmoqda. Shaharda Y.Oxunboboyev nomidagi musiqiy drama teatri ishlab turibdi. Andijon o'lkashunoslik muzeyida Farg'ona vodiysidan topilgan eramizdan avvalgi III-II asrlarga taalluqli arxeologik topilmalar saqlanib turibdi.

Andijon shahridan sharqqa qarab neft konlariga eltuvchi shosse olib boradi. Andijondan taxminan 25 km masofada Olamushuk va 20 km janubi sharqda Xo'jaobod joylashgan. Bu joylar hozirgi kunda neft va gaz qazib chiqarilayotganligi bilan mashhur. Bu yerda davolash xususiyatiga ega bo'lgan mineral suv manbalari mavjud bo'lgan sihatgohlar joylashgan. Shosse bo'ylab janub tomon yuradigan bo'lsak, Polvontosh konlariga borib qolamiz. Bu yerda neft qazib olish jarayoni va mineral manbalar bilan tanishish mumkin, lekin asosiysi Polvontoshdan 10-12 km masofada Marhamat qishlog'i joylashgan.

Marhamat qishlog'i tomon yo'l qadimiy Buyuk Ipak yo'li bo'ylab o'tadi. Aynan shu yerda, Marhamat qishlog'i yonida ayrim arxeologlar (A.A.Bernshtam, N.G.Gorbunova) fikriga ko'ra, qadimgi Dovon poytaxti – eramizdan avvalgi II asrgacha mavjud bo'lgan va bizning kunlarda arxeologlar tomonidan tadqiq etilgan Ershi shahri xarobalari joylashgan. Bu shahar haqida xitoy vakili Chjan Szyan imperator U-diga hikoya qilib bergan va imperator elchilarni yuborib, mahalliy hukmdor bilan Buyuk Ipak yo'lini ochish uchun shartnoma imzolagan. Keyinchalik shaharga Xitoy qo'mondonlaridan biri Lyaoshi kelgan va Xitoyga "qonli tanaga ega osmon otlari" hadya etishni so'ragan. Ershi shaharida eramizdan avvalgi 104-101-yillarda ro'y bergan mojarolar natijasida Xitoy-Dovon urushi bo'lib o'tgan. Shuningdek, ushbu shaharda Xitoy noibi Mugua o'ldirilgan, ozodlikni sevuvchi Dovonliklar esa xitoyliklarga bo'yin egmagan. Va nihoyat, Ershi shahri Farg'onaning eramizdan avvalgi II-I asrlarda mavjud bo'lgan eng qadimgi poytaxtlaridan biri hisoblanadi².

Marhamat qishlog'i yaqinidagi qoyalarda qadimiy musavvirlar tomonidan qoldirilgan ajoyib suratlar saqlanib qolgan bo'lib, bu Saymali-Tosh arxeologik-petrologik majmuasidir. Majmua Farg'ona tizmasidagi Kugart dovonida joylashgan. U orqali Ipak yo'li trassasini ochib bergan ilk karvonlar o'tgan.

O'yma naqshli usulida bajarilgan manzarada tog' echkilari, qo'ylar, haddan tashqari katta shoxli hayvonlar va turli ramziy belgilar tasviri tushirilgan. Egri-bugri chiziqlar, karvonlar, hayvonlar uchun qo'tonlar, karvonsaroyning chizmalari tasviri, g'ildirakli aravalar va hokazolar faqat shu yodgorlik uchun xosdir. Yurak ichidagi quyon tasviri boylik va mahsuldorlik ramzidir. Qadimgi rassomlar bu bilan nima demoqchi bo'lganligi bizga hali qorong'u, faqat bir narsa ayon: bu karvon kechuvi va hattoki muqaddas joy bo'lib, uzoq yo'lga chiqish yoki ov oldidan, karvonni Oloy vodiysi va undan uzoqlarga yuborishdan oldin ma'lum bir diniy rasm-rusumlar amalga oshirilgan bo'lishi mumkin (ayrim mutaxassislar qoyadagi rasmlarda cho'l oftobi natijasida paydo bo'lgan qorayishlarga qarab bu rasmlar Ipak yo'li

² Горбунова Н.Г. Фергана по сведениям античных авторов. – М., 1976. С. 121.

ochilishidan ham oldin paydo bo'lgan deb hisoblaydilar). Bu joy, shuningdek, eramizdan avvalgi 128-yilda Xunlar asiridan qochgan Chjan Szyan o'tganligi bilan ham diqqatga sazovor.

Andijondan Farg'onaga olib boruvchi yo'lda soy shahri joylashgan bo'lib, u o'tgan asrning 30-yillarida hajmi va sifati bo'yicha o'ziga xos qurilish, kulollik va olovga chidamli gil va ohaktosh konlariga boy joylarda paydo bo'lgan. Bu yerda O'zbekistondagi eng yirik soy qurilish materiallari kombinati joylashgan. Stansiyadan janub tarafdagi shahar o'rnida qadimgi qishloq mavjud bo'lgan. Shahar qazilma materiallari VI-VIII asrlarga mansub. Arab geograflari ma'lumotlariga ko'ra, bu yerda X-XII asrlarda Buyuk Ipak yo'li trassasida muhim o'ringa ega bo'lgan va XIII asrda mo'g'ullar tomonidan vayron qilingan shahar joylashgan.

Al-Istarxiyning so'zlariga qaraganda, Quva X asrdan mo'g'ullar bosqiniga qadar Farg'onaning eng yirik shaharlaridan biri bo'lgan va faqat Axsikentdan keyingi o'rinda turgan. Al-Muqaddasiyning yozishicha, Quva o'z go'zalligi va hajmi bo'yicha hatto poytaxtdan ham ustun kelgan. Biroq X asrdan so'ng Quva yozma manbalarda yodga olinmaydi, shu sababli ayrim olimlar (V.V.Bartold) shahar "astasekinlik bilan so'nib borgan"³, deb hisoblaydilar. Ushbu shahar qazilmalarida ishlagan E.A.Davidovich XI asrda Quva X asrdagidan ham gullab-yashnagan deb hisoblaydi. Bundan qoraxoniylar davrida zarb qilingan tangalar ham dalolat beradi. Topilgan tangalar – mis felslar, noto'g'ri zarb qilingan dirhamlar turli qiymatga ega edi.

Aksariyat manbalarda Quvadan tashqari Axsikentdan keyingi shaharlar O'sh va Nasrobod deb ko'rsatilgan. X asrdagi Nasrobod tangalari o'n yil davomida zarb etilganligi bilan namoyon bo'ladi, O'shning Somoniylar tangasi esa umuman ma'lum emas. Somoniylarning Quvada zarb etilgan tangalari hammasidan oshib tushadi. Bu esa Quva X asrning oxiri XI asrning uchinchi choragi davomida Farg'onaning eng muhim iqtisodiy markazlaridan biri bo'lganligidan dalolat beradi.

XIII asrdagi ko'plab shaharlar kabi Quva ham mo'g'ullar bosqini oqibatida vayron qilingan. Oradan asrlar o'tgandan so'ng qadimgi shahar xarobalari yonida neftchilarning yosh shahri qad rostladi.

Farg'ona yo'lida Shohimardon tog' kurorti joylashgan bo'lib, unga boruvchi avtobuslar qatnovi yo'lga qo'yilgan. Yo'l asfaltlangan shosse bo'ylab U.Yusupov nomidagi uzumchilik xo'jaligi, paxta maydonlari yonidan Shohimardon daryosi yoqalab o'tadi va Vodil qishlog'iga boradi. Vodil atrofida juda ko'p qo'rg'onlar va qadimiy qabristonlar mavjud. Bu yerda o'tkazilgan arxeologik qazishmalar natijasida eramizdan avvalgi II-I asrlarga taalluqli bronza asri madaniyati yodgorliklari topilgan. Vodil farg'onaliklarning dam olish joyi bo'lib, eski qabriston hududidagi ulkan chinori bilan mashhur. Mutaxassislar fikriga ko'ra, bu daraxtning yoshi 500 yildan ortiq.

Vodil qishlog'i bundan 90 yil oldin, u haqda statistik ocherk yozayotgan Marg'ilon uyezdi boshlig'i yordamchisi V.A.Parfentevning e'tiborini jalb qilgan. Uning yozishicha, Vodil qishlog'ining nomi fors tiliga borib taqaladi: Vo – ochiq, dil – yurak, ya'ni "Ochiq yurak". 1903-yilda bu ancha katta qishloq bo'lib, unda 528 ta

³ Бартольд В.В. Царствование Тимура. – М., 1992. С. 65.

xo'jalik va 2524 kishi istiqomat qilgan. Qishloqda 15 ta masjid bo'lib, ulardan bittasi jome masjidi hisoblangan, qolganlarida esa 62 ta o'g'il bolalar maktablari bo'lgan. Ulardan tashqari Eshboy madrasasi va Tolipboy qorixonasida Qur'oni Karimdan saboq berilgan.

Vodilda harbiy gubernator uchun yozgi dala hovli vazifasini bajargan bog', Yangi Marg'ilonni suv toshqinidan himoya qiluvchi to'g'on va yuz yillik chinorlar o'suvchi qabriston (bugungi kunda Chinorbog'i hududi) mavjud bo'lgan. Vodil Shohimardon darasining boshida joylashganligi sababli u orqali juda ko'plab qoramollar haydab o'tilgan, tog'dan don tashilgan va Shohimardon mozoriga minglab ziyoratchilar tashrif buyurgan. Bu esa qishloqda savdo muassasalari – 14 ta choyxona, 6 ta novvoyxona, 12 ta manufaktura do'koni, 11 ta attorlik do'koni, 7 ta go'sht do'konining faoliyat yuritishiga xizmat qilgan. Dushanba kunlari Qo'qon xonligi davridan beri bu yerda bozor uyushtirib kelingan.

Hunarmandchilik korxonalarini ham mavjud bo'lgan: 14 ta tikuvchilik, 5 ta aravakashlik, 5 ta temirchilik ustaxonalari, 14 ta tegirmon, kunjut, paxta va qovundan yog' chiqaruvchi 7 ta moyjuvoz ishlab turgan. Bu yerda aravalar uchun ehtiyot qismlar sotib olish va zarur hollarda ularni tuzatish mumkin bo'lgan. Qishloq ayollari pillakashlik bilan shug'ullanishgan, biroq Vodilning o'zida pillaxonalar bo'lmaganligi sababli barcha mahsulot Eski Marg'ilonga jo'natilgan.

Aytish mumkinki, bu karvonlar uchun ajoyib bekat bo'lib, oziq-ovqat va Shohimardonsoyning shaffof va shirin suvidan bahra olish mumkin bo'lgan. Vodilning ortidan esa Qirg'iziston hududlari boshlanadi.

Qadamjoy qishlog'i yaqinidagi dara orqali Oxta vodiysiga – bir paytlar Farg'onada yashagan qadimgi odamning izlarini saqlab qolgan ochiq osmon ostidagi tabiiy arxeologik muzeyga o'tish mumkin. Shundan so'ng vodiya yana torayib, Shohimardonsoy qirg'og'i bo'ylab o'tgach, ajoyib manzara ochiluvchi va kishining dili sof va musaffo havodan bahra oluvchi Pomir-Oloy tog' yonbag'riga o'tish mumkin. Bu yerda dengiz sathidan 1500 m balandlikda sobiq Hamzaobod – Shohimardon kurort posyolkasi joylashgan. Shohimardon daryosini hosil qiluvchi Oqsuv va Yordan daryolari tog' oralig'ida joylashgan. O'tmishda Shohimardon qishlog'i diniy ziyoratgoh markazi bo'lgan. Bu yerda balandlikda xalifa Hazrat Ali yoki Shohimardon (odamlar shohi) maqbarasi joylashgan. Garchi xalifa Hazrat Ali bu yerlarda hech qachon bo'lmagan bo'lsa-da, afsonalarga ko'ra, u shu yerda yashagan va dafn etilgan deb hisoblaniladi (bunday mavzoleylar Markaziy Osiyoda juda ko'p bo'lib, Hazrat Ali ularda dafn etilganligi haqida bahs-munozaralar ko'p).

Shohimardon maqbarasi yonida oq marmardan ishlangan Hamza Hakimzoda maqbarasi bor bo'lib, u 1950-yilda arxitektori A.B. Boboxonovning loyihasi bo'yicha qurilgan. Unga 240 ta pog'onachadan iborat zinapoya orqali chiqiladi. Shohimardonning yumshoq tog'li havosi sil va boshqa nafas olish yo'llari kasalliklarini davolash uchun katta foyda beradi. Bu yerda "Shohimardon" sayyohlar oromgohi va pansionat ishlab turibdi. Shohimardondan janubda Ko'ksuv vodiysi qirg'og'ida archalar o'sib yotgan havo rang ko'l sari piyoda so'qmoq yo'l olib boradi. Havo rang ko'ldan biroz yuqorida yana bitta ajoyib ko'l – Yashil ko'l mavjud.

Oqsuv daryosining etagida maktab oromgohlari, turistik bazalar, Farg'ona vodiysidagi ta'lim muassasalarining talabalari uchun amaliyot o'tash joylari ishlab

turibdi. Oqsuv bo'ylab yuqoriga Qirg'iziston hududida joylashgan alpinistlar lageriga yo'l bor. Bu yerlarning diqqatga sazovor joylari Arslonbob va Sariq-Chelak ko'li hisoblanadi, lekin ular Qirg'iziston hududida joylashgan.

Agar Vodil qishlog'idan g'arb tomonga qarab yuradigan bo'lsak, 18-20 km masofada joylashgan Chimyon kurortiga yetib borishimiz mumkin. Chimyonda davolash xususiyatlari bo'yicha mashhur Matsestin manbalaridan qolishmaydigan mineral manbalar mavjud. Chimyon posyolkasining o'zi neft konlari yaqinida joylashgan yirik aholi punktidir. U yerda neft qazib olish hozir ham davom etmoqda. Chimyondan 20 km g'arbda, dengiz sathidan 700-900 m balandlikda Pidau mineral manbalar guruhi joylashgan. Chimyondan shimoli g'arbda kulollik hunari bilan mashhur bo'lgan qadimiy Rishton qishlog'i joylashgan. Bu yerda hozir ham kulollik rivojlanib bormoqda, o'z kasbining ustasi bo'lgan kulollar bir necha bor ko'rgazmalarda namoyish etilgan va jahondagi ko'plab mamlakatlar muzeylarida saqlanuvchi ajoyib sopol suvenirilar tayyorlaydilar.

Farg'ona vodiysi qadimgi yodgorliklarga boy. Janubda, Farg'onadan 50 km masofada Gulchion qishlog'i yaqinidagi Dang'ariq-Dang'a daraxtzorida neandertallarning mehnat quroli tayyorlovchi ustaxonasi topilgan. Odamlar tosh qurollarni bundan taxminan 150-140 ming yil oldin ishlata boshlagan.

Farg'ona shahri – Farg'ona viloyatining markazi. Qadimgi Marg'ilon va vodiydagi boshqa shaharlardan farqli ravishda bu shahar qadimiy yerda joylashgan bo'lsa-da, ancha yosh hisoblanadi. 1982-yilda Farg'onaning janubiy adirlarida Toshrovot cho'kmasi qabristonida qazish ishlari olib borilayotganda juftli qabr topilgan. Dafn etilganlarning boshi sharq tomonga qaratilgan edi. Shu yerning o'zida kichkina alebastr haykalchasi ham bor bo'lib, bunday topilma boshqa hech qayerda uchramagan. Ko'rinishiga qaraganda, Toshrovot ma'budasi yevropeid turiga o'xshab ketadi. Bunday alebastr haykalchalar Kaspiyorti va Hindiqushdagi qabristonlarda ham topilgan.

1876-yilda Qo'qondagi Po'latxon (1874-1876-y.) Qo'zg'oloni nomi bilan mashhur bo'lgan, mamlakatni chor hukumati qo'shinlaridan ozod qilishga qaratilgan qo'zg'olon bostirilib, Farg'ona vodiysi Turkiston general-gubernatorligi tarkibiga qo'shib olingach, Qo'qon shahri poytaxt maqomini yo'qotdi. Yangi tashkil etilgan viloyatning birinchi gubernatori M.D.Skobelev o'lka general-gubernatori Kaufmanga qulay joydan yangi viloyat markazi qurish uchun iltimos bilan maktub bitadi. Yangi rahbariyatning ruxsati bilan yangi shaharni Marg'ilonsoy daryosi o'zani bo'ylab Oqariq, Shokir, Yangisoy, Beshbola, Chim, Yormozor va Sho'ra qishloqlari o'rnida qurishga qaror qilindi.

Eng baland joyda noto'g'ri beshburchak shaklida, undan radial yo'nalishdagi shoxko'chalar boshlanuvchi qal'ani qurish boshlandi. Bo'lajak shaharning chekka qismida, qal'aning shimolida harbiy gubernator uchun dala hovli qurish boshlandi va undan pastroqda katta shahar bog'i yaratildi.

Shunday qilib, 1877-yilda Qo'qon xonligi hududida tashkil qilingan general-gubernatorlikning harbiy-ma'muriy markazi sifatida Yangi Marg'ilon nomi bilan Farg'ona shahriga asos solindi. Shahar nomi 1907-yilda Skobelev deb o'zgartirilgan bo'lsa, 1919-yildan to hozirgi kungacha Farg'ona deb ataladi.

Farg'ona shahri to'g'ri rejalashtirilgan va ko'rkamlashtirilgan. Meridional yo'nalishdagi har bir ko'chadan Oloy cho'qqilari yaqqol ko'rinib turadi. Temiryo'l qurilgunga qadar shahar juda sust rivojlandi, bu yerda faqat pivo va aroq zavodlari, bir necha cherkov va masjid, gimnaziya, kasalxona va kutubxona bor edi.

Yangi Marg'ilonning ko'rinishi nafaqat qal'ada, balki ko'chalar va muassasalarda ham yaqqol ko'zga tashlanib turardi: harbiy gospital, piyoda qo'shinlar uchun yozgi binolar, keng ko'chalar va shohko'chalar mavjud bo'lib, biron yerda g'uj bo'lib qurilgan binolarni uchratish mumkin emas edi.

Shaharda pishgan g'isht bilan qoplangan turar-joy binolari yo'q edi, asosan, bular bir qavatli qo'rg'oncha binolar edi. Shahar markazi asta-sekinlik bilan Abramov shohko'chasi va Gubernator ko'chasi kesishuvida tashkil topdi. Bu yerda viloyat boshqaruvi, qo'shinlar shtabi, muhandislik boshqarmasi, politsiya boshqarmasi, savdo binolari, uyezd boshqarmasi, harbiy gubernator yordamchisining uyi va hokazolar joylashgan edi.

Shaharda qurilgan eng eski bino bu Harbiy majlis binosidir (1878-1879). Tuzilishi bo'yicha bir qavatli bino bo'lib, uning markazi asosiy eshik bo'lgan joyda, oldinga chiqib turuvchi qirrali yarim doira hisobiga baland ko'tarilgan. Binoning bu qismida eng yirik asosiy xonalar, raqs tushadigan va ovqatlanadigan zallar joylashgan. Markaz tuzilishiga uchburchak to'g'risidagi ikki qavatli qismlar bilan yon tomondan himoya qilingan kichikroq qanotlar tutashib turgan. Bu yerdagi xizmat xonalariga kirish yo'llari ilgari ingichka metall ustunlardagi soyabon bilan ajratib ko'rsatilgan.

Hozirgi paytda ushbu bino bizgacha qayta qurilgan ko'rinishda yetib kelgan. Binoning ichki xonalari kinozal uchun moslashtirilgan. Tashqari tomonda chap qanotga xuddi shu shakldagi ikki qavatli bino qo'shimcha qurilgan bo'lsa-da, bu unchalik ko'zga tashlanib turmaydi. Biroq bu qo'shimcha qat'iy simmetriya asosida qurilgan arxitektura tuzilishini buzib ko'rsatadi.

Farg'ona viloyati harbiy gubernatori uchun binoning qurilishi, 1879-yilda boshlangan bo'lib, 90-yillarda yakun topgan. Bu bino metall panjara bilan o'rab olingan va chiroyli xiyobonli bog' bilan tutashib ketgan. Hozirgi kunda bu yerda viloyat drama teatri joylashgan bo'lib, u tashqi ko'rinishini to'laligicha saqlab qolgan. Bino ikki qavatli simmetrik tuzilishda bo'lib, bosh korpus biqinida ikkita asosiy kirish yo'lagiga ega. Birinchi qavatda tashrif buyuruvchilarni qabul qilish uchun xonalar, ikkinchi qavatda esa yashash uchun xonalar bo'lgan. Chap tomondan kirish ko'p sonli kishilarni qabul qilish uchun mo'ljallangan yirik xonalarga olib borgan. Uzaytirilgan avanzal qishki bog'ni kutubxona, bilyardxona, banket zali, oshxona va orkestr xonasi bilan bog'lagan. Uyning o'ng tomonida shaxsiy va ishbilarmonlar uchrashuvlari uchun xonalar – kabinetlar, mehmonxonalar, kichik oshxona, bufet va hokazolar joylashgan. Barcha xonalar bir-biri bilan bog'liq bo'lgan.

Asosiy old tomoni bo'ylab joylashgan xonalar yagona anfiladaga birlashtirilgan. Binoning old tomoni arxitekturasi turli shakllarga boy bo'lsa-da, sifatli bajarilganligi va bir xil rang berilganligi ushbu binoga yanada chiroy baxsh etadi. Binoning old tomon arxitekturasida, ayniqsa, o'ziga xos rasmlı devor, old ustunlariga tayanuvchi oq arkada o'ziga jalb qiladi. Binoning markaziy qismini

bezashda tepasi uchli arkada va ikkinchi qavat oynalaridan asosiy usul sifatida foydalanish XIX asr arxitekturasi uchun yangilik bo'lib, arxitektor I.A.Lexanovning rus usuli jihatlarini an'anaviy mahalliy hashamatli arxitektura shakllari bilan bog'lashga harakat qilib ko'rishi bilan bog'liq edi.

1890-yilda arxitektor Kitnerning loyihasi bo'yicha shahar markazidagi katta maydonda Aleksandr Nevskiy soborini qurish boshlandi. Mazkur bino soxta vizantiya shaklida bajarilgan. Uning markazi arkali oynalar bilan kesilgan pastak barabandagi yarim doira shaklidagi gumbaz bilan yopilgan. Pastda yarim gumbazli to'rtburchakni to'rtta yarim gumbazli yarim baraban, yon tomondan himoya qilib turgan. Sobor tuzilishi markazlashgan bo'lib, markaziy gumbazni yon tomondan himoya qiluvchi hajmlar gumbazning yetakchi ahamiyatini yanada bo'rttirib ko'rsatgan. Bino oldidagi qo'ng'iroqxona ham pastqam va xuddi shunday shaklda bajarilgan. Tor arkali oynalar, yassi sharsimon gumbazlar, yumaloq shakldagi ustun yuqorisi juftlangan pastqam yarim ustunlar va tashqi bezakning boshqa chizgilari XIX asrning ikkinchi yarmi uchun cherkov binolari arxitekturasidagi usullar yo'nalishiga xos bo'lgan.

Sobor maydoni ro'parasida 1902-yilda G.M.Savarichevskiy tomonidan o'g'il bolalar gimnaziyasi binosi qurilgan. Unda o'quv binolaridan tashqari pansion va direktorning manzili ham joylashgan. Bino eski binolar orasida shahardagi eng yaxshi binolardan biri sifatida ajralib turgan. U qat'iy aksli usulda bajarilgan bo'lib, baland markaziy qismi yarim doira shaklidagi oynalar bilan yanada bo'rttirib ko'rsatiladi.

Qiz bolalar gimnaziya binosi (sobiq Qo'qon ko'chasida) yuqorida aytib o'tilgan binodan ancha ortda qoladi. Uning markazida oldinga chiqib turuvchi, o'rtasida katta teshikli serqirra hajm e'tiborni jalb qiladi. Biroq arxitektura urg'ulari binoga kirish eshiklari bo'lgan yon tomonga qaratilgan. Kirish eshiklarini yon tomondan uchburchakli frontonni ushlab turuvchi ant va kichik ustunchalar himoya qilgan. Kirish ortidagi vestibyullar tashqi tomondan bezatilgan gumbazlar bilan bezalgan (saqlab qolinmagan). Keyinroq qurilgan gimnaziya zali tuzilish ko'rinishini buzib yuborgan.

Qiz bolalar gimnaziyasi, Harbiy majlis, ayollar Mariin bilim yurti (1890) binolari va gubernatorning uyi bir xil tuzilishdagi yo'nalishda va bir-biriga o'xshash shakllarda qurilgan bo'lib, bu karniz qismlari, oynalar o'yma chaspagi va boshqalarda namoyon bo'ladi.

Gubernator bog'ining ro'parasida Gubernator ko'chasi bo'ylab savdo binolari joylashgan. Ularning orasida do'kon va kinoteatr ham bo'lgan. XIX asr oxirlarida Yakshanba bozori jihozlari majmuasi qurilgan. Eski jihozlar qayta qurilib, yangilari paydo bo'lgan va bozor bizgacha katta o'zgarishlar bilan yetib kelgan. Bozorga kirish ikkita siniq qad bilan yon tomondan himoya qilingan bo'lib, ular baland rastalarga joylashgan va tashqi tomondan uch qator och sariq rangdagi ohaktosh bilan o'ralgan. O'rta qatordagi rastalar yog'och galereyalar bilan o'ralgan va tepadagi oynalar orqali shamollatib turiluvchi alohida bo'limlarga taqsimlangan.

Bozor maydoni ichkarisida to'rtburchakli, pastqam poydevorda bir-biridan alohida turuvchi, bitta yoki ikkita kichik xonalardan iborat bo'lgan jihozlar tizimi joylashgan. Bu jihozlar har tomondan juda baland yog'och araqilar bilan o'ralgan edi.

Pastiga taxta qoqilgan va har tomondan ushlab turiluvchi karnizlar butun pavilyonlar tizimiga o'zgacha ko'rkam baxsh etib turgan.

Butun Yakshanba bozori ochiq karnizlari va galereyalari, ochiq jihozlar binolari tizimi bilan birgalikda Sharqiy Turkiston uslubiga xos edi. Sharqning yevropacha binolarga ta'siri butun Farg'ona vodiysida sezilib turgan. Rossiyada XIX asrning oxiri XX asr boshlarida bunday holat umuman uchramaydi.

1.5. Marg'ilon tarixi va arxitektura yodgorliklari

Qadimgi Marg'ilon shahrining vujudga kelishi ko'p jihatdan Buyuk Ipak yo'lining ochilishi bilan bog'lanadi. Bu shahar ipak matolar ishlab chiqarish rivojlangan sanoat markazi sifatida mashhurdir.

X asrda Marg'ilon nafaqat Markaziy Osiyoda, balki uzoq sharq va g'arb mamlakatlarida ham o'z mahsulotlari bilan mashhur edi. XII asrda bu yerda mashhur mutaxassis, huquq ilmi bilimdoni Burhoniddin Marg'inoniy yashab o'tgan. Uning "Hidoya" asarida yer egalari va chorakorlar o'rtasidagi bitim me'yorlari ishlab chiqilgan va ko'rsatib berilgan. Burhoniddin Marg'inoniy tufayli bizga xuddi Eronda bo'lgani kabi Markaziy Osiyoda ham yirik yer egaligiga xos xususiyat – o'sha paytda yer egalari o'z maydonlarida yirik xo'jalik yuritmaganligi va o'z maydonlariga qaram dehqonlar mehnatidan foydalanib, ishlov bermaganligi ma'lum bo'lgan. Yer maydonlari yirik va o'rta qismlarga bo'linib, barcha istaganlarga ijara asosida berilgan. Yer olgan kishilar barzigar-chorakorlarga aylangan. Yaqin atrofdagi qishloqlarning yersiz va yeri kam aholisi barzigarlarga aylangan.

"Hidoya"da Abu Yusuf Yoqubning (VIII asr oxirlari) "Kitob al-xaraj" asariga borib taqaluvchi huquqiy an'ana va me'yorlar keltirilgan bo'lsa, boshqa tomondan XII asrgacha bir necha asrlik chorakorlik ijarasi amaliyoti yoritib berilgan. Feodal shahar haqidagi maxsus bo'limda hunarmandlarning ahvoli haqida gapiriladi.

XV asr oxiri XVI asr boshlarida Marg'ilon Farg'ona vodiysidagi eng asosiy shaharlardan biriga aylanadi. Bu yerda Temurning chevaralaridan biri Sulton Bobur tavallud topgan va ulg'aygan bo'lib, u 11 yoshida Farg'ona hukmdoriga aylanadi. Keyinchalik 1525-yilda Hindistonda buyuk Boburiy imperiyasiga asos solgan. Bobur buyuk davlat arbobi, tarixchi, shoir va geograf edi. Uning asarlarida Farg'ona, Marg'ilon va boshqa shaharlarga ta'riflar berilgan.

XVIII asrda Marg'ilonda ajoyib arxitektura inshootlari va ansambllari qurilgan bo'lib, ularning aksariyati bizning kunlarga yetib kelmagan. Saqlanib qolingan arxitektura yodgorliklari orasida Kaptarlik mavzusi diqqatni o'ziga jalb etadi. U o'ziga xos va ajoyib naqshli jome masjidi, chiroyli minora, peshtoqli va gumbazli mavzoley joylashgan to'rtburchak shaklidagi hovli, darvozaxona va ajoyib kaptarxonadan iborat.

Tuzilishning asosini tashkil etuvchi mavzoley peshtoqida, uning qurilgan sanasi deb 1155-hijriy, ya'ni 1742-milodiy yil ko'rsatilgan. Afsonalarga ko'ra, bu yerga avliyolardan biri bo'lgan Pur Siddiq dafn etilgan. Kunlardan bir kun g'ayridinlardan qochib ketayotgan Pur Siddiq bu yerdagi g'orga yashirinib olgan, kaptarlar esa g'or og'ziga in qurib, uni berkitib qo'ygan, degan afsona yuradi. Avliyoning ortidan quvib borayotgan kishilar g'or og'zida bemalol inida o'tirgan kaptarlarni ko'rib, uning yonidan o'tib ketadilar. Shu paytdan boshlab kaptarlar

tomonidan himoya qilinuvchi Pur Siddiq hozirgi kungacha Kaptarlikda yashab keladi, xalq ustalari esa bezaklar yordamida avliyoning maqbarasida tinchlik va xotirjamlik g'oyasini yetkazib berganlar.

Marg'ilonda arxitektura yodgorliklari orasida milliy me'morchilik namunasi bo'lgan Shoud masjidi (XIX asr boshlari) saqlanib qolgan. XIX asr uchun xos bo'lgan diniy usulda qurilgan bino turli hajmdagi to'rtburchakli yog'och bo'lakchalardan hech qanday yelim yoki bironta mixsiz birlashtirilgan panjara bilan ajralib turadi. Panjara markazida hech qanday naqsh va bezaklarsiz silliq yog'och bo'laklaridan tuzilgan aksli rasm joylashtirilgan. Biroq bunda katta to'rtburchak to'rtta kichik to'rtburchakka bo'lingan, tashqi to'rtburchaklari kesishuvchan teng tomonli va sakkizburchaklar bilan to'ldirilgan – natijada markazda nafis to'r paydo bo'lgan. Ushbu tuzilishning tepasi va pastidan o'tuvchi yulduzli ramka yirik yog'och bo'lakchalarini ariqchalar bilan ajratish yo'li bilan yasalgan. Tashqi hoshiyani bezab turuvchi ikkita medalyon naqshga alohida joziba baxsh etib turadi. Butun panjara perimetri bo'ylab hoshiya bilan o'ralgan. Bunday turdagi va hajmli panjaralar mintaqadagi boshqa ibodatxonalarda kamdan kam uchraydi.

XIX asr o'rtasi XX asr boshlarida ko'plab kichik masjidlar qurilgan. Bundan oldingi binolar o'tmish bilan bog'liq bo'lib, ularda uchrab turuvchi murakkab va yorqin naqshlar bilan bezalgan ayvon va ichki xona shiftlari bilan ajralib turadi. Biroq bu naqshlarga yangi rasmlar kiritilib, moybo'yoqlar avvalgi yelimli naqshlarning baxmal kabi tusining o'rmini egallagan. Ichki devorlar alebastrga ishlangan, ba'zida rang-barang tus berilgan, ayrim qismlariga zar yugurtirilgan naqshlar bilan bezalgan. Keyinroq qurilgan masjidlar o'z ko'rinishini keskin o'zgartirgan, ularni qurishda temir tom, ba'zida katta jussali oynalar, dilali eshiklar, temir panjara va tunukali yarimoylardan foydalanilgan.

Bog'larga ko'milgan Marg'ilon karvonlar dam olishi uchun ajoyib joy edi. Bu yerda oziq-ovqat zaxiralarini to'ldirib olish va dam olish mumkin bo'lgan. Qadim zamonlardan Marg'ilonda ozodlikni sevuvchi kishilar, mag'rur so'g'dlar yashagan. XX asr boshlari mustamlakachilikka qarshi qo'zg'olonlar, ish tashlashlar bilan tavsiflanadi. Turkiston o'lkasidagi chorizmga qarshi, mahalliy aholini chor Rossiyasi urush olib borayotgan joylarga front ortida mardikorlikka olishga qarshi eng yirik qo'zg'olonlardan biri 1916-yilning 4-iyulida Marg'ilonda boshlanib, keyinchalik butun Turkiston o'lkasini qamrab olgan.

O'tmishda bo'lgani kabi Marg'ilon ipak shahri bo'lib qolavergan. 1928-yilda bu yerda ipakchilik bo'yicha yetakchi ilmiy markaz – O'zbekiston ipakchilik sanoati ilmiy tadqiqot instituti ochilgan. Shaharda Toshkent to'qimachilik institutining umumtexnik fakulteti, To'qimachilik va reja-iqtisodiy kolleji, Pedagogika kolleji faoliyat ko'rsatmoqda. Marg'ilon o'zining madaniy an'analari bilan ham mashhurdir. Bu yerda XIX asrda shoira Uvaysiy yashab o'tgan. 1915-yilda Marg'ilon maktablaridan birida Hamza Hakimzoda Niyoziy bolalarga saboq bergan. Mashhur xalq artisti Tamaraxonim (Petrosyan) o'z bolaligini shu shaharda o'tkazgan.

Temiryo'l va avtomobil trassalari bo'ylab keyingi navbat Qo'qon shahriga keladi. Bu yo'lda bir necha marta Usmon Yusupov nomidagi Katta Farg'ona soyidan o'tishga to'g'ri keladi. Bu kanal 1939-yilda 45 kun ichida hashar usulida Norin

daryosidan qazilgan bo'lib, uning uzunligi 270 km ga teng. Kanal deyarli butun Farg'ona vodiysi yerlarini sug'orishga xizmat qiladi.

1.6. Qo'qon – “Farg'ona Oltin halqasi” shahri

Qo'qon shahri “Farg'ona Oltin halqasi” yo'nalishidagi Farg'ona viloyatining so'nggi yirik shahridir. U Farg'ona vodiysining g'arbiy qismida, So'x daryosi etagida dengiz sathidan 450 m balandlikda joylashgan bo'lib, aholisi 180 ming kishidan iborat.

Eramizdan avvalgi II-I asrlarga to'g'ri keluvchi qadimgi Xitoy yozma manbalarida Farg'ona vodiysida joylashgan Dovon davlati bir necha bor tilga olib o'tiladi. U paytda Dovon davlatining poytaxti Ershi shahri bo'lib, ayrim tadqiqotchilar uni hozirgi Qo'qon o'rnida bo'lgan deb hisoblaydilar. Biroq bu faraz arxeologik ma'lumotlar bilan tasdiqlanmagan. Balki bu yerda, haqiqatan ham qadim zamonlarda shahar yoki qishloqlar bo'lgandir, biroq Qo'qon haqida ilk bora X asrda arab geograflarining yozma manbalarida eslab o'tilgan. Arab sayohatchisi geograf Istaxriy Xo'janddan O'shga olib boruvchi asosiy yo'lni ta'riflashda, bu yo'lda “So'xdan bitta katta o'tish va Sirdaryodan 5 farsax masofada joylashgan” Qo'qon shahrini eslab o'tadi. Boshqa bir arab sayohatchisi ibn Xauqal shaharni juda chiroyli deb ta'riflaydi va uni “Xo'qand” yoki “Havoqand” deb nomlaydi. Yoqut Xamaviy va Muhammad Taqiy ham o'z geografik asarlarida (XIII asr) “Havoqand” shahrini eslab o'tganlar.

XIII asrda shahar mo'g'ullar tomonidan vayron qilingan bo'lib, u XVIII asr boshlariga kelibgina to'liq qayta tiklangan.

To'g'ri, Mahmud Hakim Yayfoni “Xulasa at-tavorix” (XIV asr) asarida Boburning Shayboniylar tazyiqi ostida Samarqandga chekinishida shoh “Xo'qand”da to'xtab o'tganligini ta'kidlaydi. Boburning o'zi ham “Boburnoma”da “Xo'qand”ni eslab o'tadi.

V.P.Nalivkinning “Qo'qon xonligi qisqacha tarixi” asari mahalliy tarixchilar ma'lumotlariga asoslanib, shahar dastlab “Eski qo'rg'on” yoki “qal'ayi Rahimbiy” deb atalgan va unga 1732-yilda asos solingan deb xabar beradi. Shaharning o'rnida ilgari to'rt qal'a – Kalvak, Oqtepa, Eski qo'rg'on va Xoqon qo'rg'oni bo'lgan. 1740-yil XIII asrda mo'g'ullar tomonidan vayron qilingan Qo'qon shahrining qayta tiklangan yili deb hisoblanadi.

XVIII asr boshlarida Farg'ona vodiysida Qo'qon xonligi rivojlanib, Qo'qon shahri uning poytaxtiga aylandi. Shaharda hunarmandchilik va savdo rivojlanib, madaniy hayot yanada jonlandi. Qo'qon atroflarida paxtachilik va pillachilik rivojlangan.

1830-yilda shahar katta hududni egallagan bo'lib, unda 6 ta bozor va 3000 ta uy mavjud edi. 1842-yilda xonlik Buxoro bilan Xo'jand uchun jang-u jadallar olib borgan, so'ngra xalq ommasining Buxoro noibiga qarshi qo'zg'oloni boshlangan bir paytda, Qo'qonning yangi xoni SHERALIXON mudofaa devori qurdirgan. XIX asrda Qo'qonda 6 ta hammom, 9 ta karvonsaroy, 3000 ta hovli va 30000 aholi bor edi. XIX asrda Xiva va Buxoroda bo'lgan Arminiy Vamberi ayrim mualliflar ma'lumotlariga asoslanib, Qo'qon Xivadan 6 barobar, Buxorodan 2 barobar va Tehrondan 4 barobar katta ekanligini yozgan. Qo'qon xonligi Rossiya mustamlakasiga aylanish arafasida

shaharda 10000 ta hovli, 300 ta masjid, 120 ta maktab, 40 ta madrasa va 2000 ta savdo rastalari bor edi.

Qo'qon qalin devorlar bilan o'ralgan, maydoni 160 ga 5 chaqirim bo'lgan namunaviy feodal shahar edi. Shahar 12 ta ma'muriy qismga – Xo'jand, G'oziyog'lik, Quduqlik, Sarimazar, Namangan, Chimyon, So'x, Marg'ilon, Rishton, Muymuborak, Qatag'on va Isfaraga bo'linib, ularning har biri o'z darvozasiga ega edi.

Shaharni asosan 35 chaqirim masofaga cho'zilgan Oqsuv (So'x) daryosi suv bilan ta'minlar edi. Daryodan shaharga boruvchi Navbahor, Qatag'on, Ganjirvon, Kichiksoy va Kattasoy soylari shimoli sharqda birlashib, Sirdaryoga quyilgan. Soylarning ko'pchiligi bizning kunlarga saqlanib qolgan.

Shahar markazida katta bozor bor edi. Farg'ona vodiysida XX asr boshlarida kattaligi va savdo aylanmasi bo'yicha Buxoro bozoridan keyingi o'rinda turuvchi Qo'qon bozori ajralib turardi. Savdo maydonining markaziga to'rtta asosiy yo'l olib borgan. Unga masjidlar, jumladan, baland g'ishtli minorali yirik jome masjidi ham tutash edi. Ushbu to'rt asosiy yo'l shaharni to'rt dahaga (qismga) taqsimlagan.

Yassi tomli bir qavatli uylar baland paxsa devorlar ortidagi ko'rkamlashtirilgan hovlilar ichida joylashgan. Baland peshtoq va minorali masjidlar turar-joylardan ancha bosh ko'targan bo'lib, ularning ko'pchiligi bizgacha saqlanmagan.

Shaharning shimoli g'arbiy qismida Xudoyorxon tomonidan o'rda qurilgan. Shahar XIX asr o'rtalarida, Sirdaryo bo'yidagi barcha yerlarni qamrab olgan. Ba'zida uning tarkibiga Toshkent viloyati, Jizzax, Xo'jand va Samarqand yerlari ham kirgan bo'lib, ular uchun Buxoro amirligi bilan muntazam kurash olib borilgan.

Farg'ona gubernatorligi tashkil etilib, Turkiston general-gubernatorligi tarkibiga kiritilgach, Qo'qon shahri markaziy shahar bo'lib qolaverdi va unga mustaqil boshqaruv huquqi berildi. 1877-yilda viloyat markazi rasman Yangi Marg'ilonga ko'chirilganda ham Qo'qon avvalgidek butun ma'muriy tizimni o'z qo'lida ushlab turgan uyezd boshlig'i tomonidan boshqarilgan.

XIX asrda Qo'qon eng yirik hunarmandchilik markazlaridan biriga aylandi. Shaharda 276 ta ipakchilik, 428 ta paxta, 67 ta terichilik, 1312 ta xususiy, 599 ta davlat rastalari va hokazolar mavjud edi. 1878-yilda Toshkentdagi qishloq xo'jalik ko'rgazmasida Qo'qonlik ustalar ipak, trikotaj, qog'ozdan bo'yalgan mahsulotlar va musiqa asboblarini namoyish etdilar. Mahsulotlar Moskva, Novogorod va Parij ko'rgazmalarida ham namoyish etilgan. XIX asr oxiri XX asr boshlarida Qo'qon bir qator chet el mamlakatlari bilan jadal aloqalarni qo'llab-quvvatlagan. 1882-yilda u Rus podshohligi shaharlariga tovar olib chiqish bo'yicha birinchi o'rinda bo'lgan. Shaharda rus savdo firmalari, sanoatchilarining idoralari va jamiyatlari paydo bo'lgan. 1890-1894-yillarda Qo'qonda 8 ta bank tashkil topgan.

Qo'qon Eron, Hindiston, Afg'oniston va boshqa mamlakatlar bilan qadimgi karvon yo'llaridan foydalangan holda qizg'in savdo olib borgan. Qo'qonlik savdogarlar Moskva firmasi bilan birgalikda Buyuk Ipak yo'li trassasi orqali Qashg'ar bilan ham savdoni amalga oshirganlar. Qo'qon orqali Sharq mamlakatlariga Rus davlati va boshqa g'arb mamlakatlarining tovarlari o'tgan. 1913-yilda Qo'qon bojxonasida 1117198 rubllik keltirilgan tovarlar ro'yxati qayd etilgan. Bu asosan choy, oyna, elektr jihozlar, trikotaj, hunarmandchilik anjomlari va boshqalar edi.

Xuddi shu yilda mamlakat tashqarisiga 3004284 rubllik qand, gugurt, tamaki, ipak mahsulotlari va hokazolar chiqarilgan.

Bozorning savdodagi roli albatta beqiyos edi. Shahardagi mavjud bozorlar mahalliy xomashyoni xarid qilishda vositachilik rolini o'ynagan. Ichki savdoda karvonsaroylarning ham roli katta bo'lib, 1919-yilda ularning soni 44 ta edi.

Tarixiy yodgorliklar shaharda deyarli saqlanib qolmagan. Eng diqqatga sazovor me'moriy yodgorliklar sirasiga 1871-yilda qurilgan so'nggi hukmdor Xudoyorxon saroyini kiritish mumkin. Hozirda bu saroy o'lkashunoslik muzeyi sifatida faoliyat ko'rsatmoqda. Arxitektura shakllariga ko'ra, Xudoyorxon saroyi Markaziy Osiyodagi XIX asrda yaratilgan binolardan unchalik farq qilmaydi. Biroq saroyning tashqi ko'rinishida o'ziga xosliklar ham bor. Mayolik bo'yoqlar uyg'unligi Samarqand, Buxoro va Xiva shaharlaridagi me'moriy yodgorliklarning tashqi ko'rinishiga umuman xos emas. Xudoyorxon saroyining tashqi qoplamasida kamalakning deyarli barcha ranglaridan foydalanilgan. Bir qarashda bu rang-baranglik Markaziy Osiyodagi boshqa me'moriy yodgorliklarning oqish-havorang tuslarini qabul qilishga ko'nikkan ko'zni qamashtiradi. Biroq kishi rasmlar va ranglar uyg'unligini qanchalik ko'p tomosha qilsa, naqshdagi rasmlarning o'ziga xosligiga shunchalik hayron qoladi va binoning tashqi ko'rinishini bezab turuvchi 14 ta tokchada biron marta takrorlanmasligiga ishonch hosil qiladi. Saroyning ichki xonalari yorqin tusli o'simliksimon naqshlar bilan bezalgan.

Bizning kunlarga saqlanib qolgan saroy majmuasi shahar atrofidagi yerlarda joylashgan bo'lib, juda yaxshi rejalashtirilgan. Loyiha tuzilishi va bezak usullarida XIX asr me'morlarining mahorati aks etgan. Me'morning ismi ham ma'lum, qurilishga Mir Ubaydulla boshchilik qilgan. Qurilish 1863-yildan 1870-yilgacha davom etgan. Jozibali bezaklarni mashhur Rishtonlik ustalar Abdulla va Jamil, Pskentlik usta Zokir bajargan. Saroy shiftidagi rang-barang bezaklar va Saroy qabulxonasidagi o'yma alebastr bezaklarni Fozilxo'ja, Mamasiddiq va Yo'ldosh Najarboshi ismli ustalar bajargan.

Majmua g'arbdan sharqqa tomon o'q bo'ylab cho'zilgan saroy va binolar tizimini ifodalab, darvozaga olib boruvchi bir qator bosib o'tiladigan hovlilardan iborat edi. Yaqin joyda qo'riqchilar uchun xonalar va mehmonlarning otlari uchun og'illar bor edi. Bularning barchasi hozirda saqlanib qolmagan.

Ilgari qo'shimcha xonalar bilan bitta o'qda joylashgan va g'arbiy tomonni egallagan ajoyib saroy saqlanib qolgan. Xudoyorxon saroyi baland supaga ko'tarilgan bo'lib, uning asosiy eshiklariga uzun va qiyali yo'lka olib boriladi. Binoning old tomoni XIX asrdagi boshqa bunday binolarda qo'llangan ranglarning boyligi va yorqinligi bilan ajralib turadi. U pishgan g'ishtdan qilingan supa qatlamlaridan iborat bo'lib, to'rtburchak hoshiya bilan o'ralgan, ketma-ketlikda keluvchi katta va kichik nayzasimon ravoqlar bilan bezalgan. Nayzasimon ravoqlar maqomi devorning old tomoni bezaklarida ham kuzatiladi. Saroy hududiga kirish eshiklarida markaziy peshtoqqa kiritilgan old tomonning ravoqi e'tiborni jalb qiladi.

Baland peshtoq va saroyning butun old tomoni yon tomonlardan burchaklardagi sirlangan gumbazchalar bilan yopilgan nozik chiroqchalar bilan himoya qilingan. Saroyning old tomonidan barcha devorlar va burchakdagi minoralar rasm bo'yicha turli panno va naqsh bezaklarini tashkil qiluvchi yig'ma mozaika bilan

qoplangan. Saroyning old tomoni yuqorida bir qator jozibali qumg'alar bilan bezalgan. Saroy reja bo'yicha biroz cho'zilgan to'rtrburchak bo'lib, ilgari taxminan bir yuz yigirmata xona bilan o'rab olingan ichki hovlilar bilan to'ldirilib uch qismga bo'lingan. Hovlining old tomonida katta va kichik qabullar uchun ikkita zalga tutash timlar kolonnasi bo'lgan asosiy hovli bo'lib, bu zallar oldida kichik-kichik kutish xonalari bo'lgan. Ushbu hovlining shimoliy qismiga ikkinchi hovli tutashgan bo'lib, unda masjid, g'azna va devon joylashgan edi.

Saroyning o'rta qismida xonning o'zi yashagan xonalar hamda xon va uning oilasiga xizmat qiluvchi xizmatkorlar uchun xo'jalik binolari joylashgan. Saroyning orqa qismini ikki qavatli binodan iborat bo'lgan uchta yirik hovli egallagan bo'lib, ularda barcha oila a'zolari yashagan.

Shimol tomondan hovliga otxona, sarbozlar yashaydigan binolar va hovliga xizmat ko'rsatish bilan bog'liq boshqa binolar tutashgan. Janub va g'arb tarafda Chorbog' va hovuzlar bo'lgan.

1875-yildan boshlab saroy atrofida rus qo'shinlari, saroy hovlisida esa yangi ma'muriyat joylashgan. Saroy darvozasiga olib boruvchi hovlilar o'rniga harbiy istehkom va kuchaytirilgan kazarmalar qurilgan. Shuningdek, saroyda zobitlar, ma'muriyatning oila a'zolari va g'aznaxona joylashgan katta taxt zali esa cherkovga aylantirilgan.

Hozirgi paytda eski xon o'rdasining faqat taxt zali, timlar kolonnasi va devonxona binosidan iborat old qismigina saqlanib qolgan. Bu yerda tarixiy-o'lkashunoslik muzeyi faoliyat ko'rsatmoqda. Taxt zalida hovuzga qaragan oyna panjarasi saqlanib qolingan. 1877-yilda xon saroyining 170 kishini sig'diruvchi katta zalida rus artistlari tomosha ko'rsatishgan. Truppa repertuaridan V.Aleksandrovning "Jabrlangan gunohsiz", N.V.Gogolning "Uylanish", "Imperator Maksimilian", "Hamma mushukka ham bayram emas", "Saxovatli" kabi pyesalari o'rin olgan.

1924-yilda sobiq xon saroyida qishloq xo'jalik ko'rgazmasi ishlab turgan. Ko'rgazma materiallari saroy binosida o'lkashunoslik muzeyi yaratish uchun asos bo'lib xizmat qilgan.

1925-yilda muzeyda san'at bo'limi ochilgan. Rassomlar M.A.Arinin va N.F.Yakovlev tufayli Moskva va Leningraddagi poytaxt muzeylari bir qator eksponatlarni tanlab olib, rang-tasvir ekspozitsiyasi yaratilgan va haykaltaroshlik bo'limi ochilgan.

Muzeyda shahar tarixi, diqqatga sazovor joylar va mashhur kishilar haqidagi ajoyib suratlar va hujjatlar to'plangan. Xalq ustalari ko'rgazmasi ishlab turibdi. Tarixiy yodgorliklar qatoriga shiftlari ajoyib naqshlar bilan bezalgan Norbo'tabiy madrasasi va Madirixon mavzoleyi – xon oilasidagi ayollar dafn qilingan joyni ham kiritish mumkin.

Dahmaishoxon maqbarasi va Kamolqozi masjidi saqlanib qolgan bo'lib, ularning darvoza peshtoqlari geometrik uslubdagi mayolik parchalari bilan bezalgan. Qo'qon shahridagi madaniy-oqartuv muassasalari qatorida eski shahardagi uzoq vaqt mablag' yo'qligi sababli ishsiz turgan va 1925-yilda qayta tiklangan teatr muhim o'rin egallagan. Shaharda XIX asrga mansub rus me'morchiligi namunalari, asosan, bank binolari ham saqlanib qolgan.

Qal'a hududidan tashqarida XIX asrda yevropacha uslubdagi binolar qurish boshlangan. 1908-yilda janubi sharqiy yo'nalishda cherkov qurilgan. Xuddi shu yerda harbiy majlis va ayrim davlat muassasalari joylashgan.

Shahar poytaxt maqomini yo'qotib, uning binolari boshqa shaharlarda qabul qilingan shu'la-halqali qurilishlardan farq qilgan. Chiziqli loyiha tizimi vujudga kelib, u ikkita ko'cha – saroyning janubiy tomoni bo'ylab g'arb tomonga cho'zilgan Rozenbax shohko'cha va 1891-yildan boshlab vokzal tomon boruvchi Skobelev ko'chasi tizimlariga asoslangan.

Qo'qon ma'muriy markaz bo'lmasa-da, XIX asr oxirida tezda ichki va tashqi savdo markaziga aylana bordi. Bu yerda vositachilik savdosi, ayniqsa, paxta va pilla bilan, shuningdek, moliyaviy faoliyat bilan shug'ullanuvchi mahalliy va xorijiy firmalar o'rmashib oldilar. Shu sababli yangi Qo'qonning tashqi ko'rinishi boshqa Osiyo shaharlaridan farq qilardi. Bunga ko'p sonli banklar, idoralar va xususiy tadbirkorlar uchun hashamatli uylar qurilishi sabab bo'lgan.

Shahardagi qal'adan janubi g'arb tomonda shaharning savdo qismi joylashgan bo'lib, boshqa binolardan oyna chaspalari va chodir shaklidagi soxta rus shakllari bilan farq qiluvchi "Uchburchak" jamiyati do'koni qurilgan. Rozenbax shohko'chasida, Skobelev shohko'chasi burchagi va cherkov o'rtasida Alperovichning do'koni, Galam attorlik do'koni, Vilde dorixonasi, ikki qavatli Bulle restoranli mehmonxonasi qad rostlagan bo'lib, ular ko'chaning bu qismini jonlantirib yuborganlar.

Hozirgi paytda Qo'qon O'zbekiston Respublikasining sanoat markazlaridan biridir. Shaharda 28 dan ortiq sanoat korxonalari, jumladan "Elektromash" va "Qo'qontekstilmash" zavodlari, un kombinati, yog-moy kombinati, superfosfat zavodi va boshqalar ishlab turibdi. Qo'qonda pedagogika instituti, Politexnika instituti filiali, 7 ta kollej, jumladan neft, qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash, kommunal xo'jalik, tog' kombinati va 14 ta kasb-hunar litseylari faoliyat ko'rsatmoqda.

Respublikamizda fan va texnikaning rivojiga Qo'qon shahrida tug'ilib o'sgan olimlarning qo'shgan hissasi ham katta bo'ldi. Ular qatorida akademiklar U.Arifov, T.Zohidov, M.O'razboyev, S.Sirojiddinov, D.Saidov, M.Muxamedjanov, M.Yo'ldashev, A.Aminov, X.Komilova, R.Aminova, M.Xayrullaev, M.Raxmanov, N.Abubakirov, xizmat ko'rsatgan fan namoyondalari – M.Kariev, U.Tursunov, M.Musaev, A.Kayumov, M.Saidalieva va boshqa ko'plab kishilarni sanab o'tish mumkin.

Qo'qon Hamza Hakimzoda Niyoziy, Sobir Abdulla va Abdulla Qahhorlarning vatanidir. Shuningdek, Muqimiy, Furqat, Zavqiy, Charxiy (Asqarali Xamroliev), A.Umariy, Sh.Riza, T.Fattoh, U.Nosir, X.Shams, I.Sodiqov, S.Xusayin kabi shoir va yozuvchilarning nomi ham ko'pchilikka ma'lum. Shaharda Halima Nosirova va Nabi Rahimov kabi el sevgan artistlar tavallud topgan.

Madaniy-oqartuv ishlarida kinematografiyaning roli katta. Qo'qonda 8 ta kinoteatr, 4 ta muzey, sport inshootlari, musiqa kolleji va hokazolar faoliyat ko'rsatmoqda.

Madaniy-maishiy obyektlar orasida Furqat ko'chasida joylashgan "Qo'qon" mehmonxonasini aytib o'tish mumkin. Uning asosiy bezagi K.Xaydarov mehnatiga

mansub o'yima naqshinkor eshik hisoblanadi. Furqat ko'chasidagi hammomda milliy me'morchilik uslubi shakllaridan muvaffaqiyatli foydalanilgan. "Dilshod" restorani, kitoblar uyi binosi va keng formatli kinoteatr binosi ham shaharga o'ziga xos ko'rk baxsh etib turadi.

Shahar ko'kalamzorlashtirilgan bo'lib, gullarga boy. O'tgan asrning 70-80-yillarida bir nechta yangi xiyobonlar, dam olish hududlari, madaniyat va istirohat bog'larida gulzorlar barpo etildi. Shaharda savdo yanada rivojlana boshladi. Tovar aylanmasiga savdoning yangicha ilg'or usullari joriy etildi, xizmat ko'rsatishga katta e'tibor qaratilmoqda.

Qo'qon shahridan Chust tomon temiryo'l halqa yo'nalishi bo'yicha ajoyib manzara ochiladi: Xitoydan keltirilgan tut daraxtlari, bepoyon paxta dalalari, tog' jilg'alari, 450 m yuqorida boshlanuvchi So'x daryosi bo'yida qadim zamonlardan beri yer egalari piyoz, beda, uzum, anjir, anor, o'rik kabi ne'matlarni yetishtirganlar.

Qo'qon "Oltin Farg'ona halqasi" temiryo'l va avtomobil yo'llari yo'nalishidagi so'nggi yirik shahardir. Sayohat boshlangan nuqtadan Qo'qon shahrini Sirdaryoning o'ng qirg'og'ida joylashgan Rafqan temir yo'l bekati ajratib turadi. Shundan so'ng poyezd bizni Tojikiston orqali O'zbekiston Respublikasi poytaxti – Toshkent shahriga olib ketadi. Qo'qondan yengil avtomobilga o'tirib, o'tmishda karvon yo'llari foydalangan Qamchiq Dovoni orqali Angren vodiysidan o'tib ham borish mumkin. Hozirgi kunda bu keng va qulay yo'ldan mustaqillik yillarida qurilgan ikkita tog' tunneli orqali avtomobillar qatnovi yo'lga qo'yilgan. Shuningdek, Jizzaxga borish va katta O'zbek Trakti orqali Samarqand tomon Buyuk Ipak yo'li bo'ylab sayohat qilish mumkin.

Yuqorida yoritilgan Farg'ona vodiysi shaharlarining tarixi, obidalari va arxitektura yodgorliklari turistik yo'nalishlarni ishlab chiqishda resurs hisoblanadi. Hozirgi kunda xorijiy turistlarda Marg'ilon xonatlasi, Rishton sopol buyumlari va ularning yaratilish jarayoni katta qiziqish uyg'otmoqda. Ko'pgina yo'nalishlarda turistlar ushbu buyumlarni yaratilish jarayonida bevosita ishtirok etishadi.

Qisqacha xulosa

Ushbu "Farg'ona vodiysi shaharlari" deb nomlangan mavzuyimizda tarixda Dovon nomini olgan davlatni tashkil topishi, unda aholining mashg'ulotlari, dushmanlar bilan bo'lgan janglarda qahramonligi qisqacha yoritildi. Qadimda vodiylar bo'ylab o'tgan "Buyuk Ipak yo'li"da rivojlangan Axsikent, Kosonsoy, Namangan, Andijon, Marg'ilon va Qo'qon shaharlari bo'ylab sayohatga chiqilsa, mazkur shaharlar xarobalari, ulardan topilgan buyumlar, bu yerlarga kelgan elchi va sayohatchi hamda olimlarning bildirgan fikrlariga to'xtaldik. Asrlar o'tishi bilan vayron bo'lgan shaharlarning qaytadan rivojlanishiga e'tibor berildi. Ayniqsa, Chor Rossiyasi tomonidan bosib olingandan so'ng arxitektura uslubining o'zgarishi, ya'ni yevropacha qurilgan banklar, idoralar va cherkovlar qurilishiga qisqacha tavsifnoma berildi. Shu bilan birga, O'zbekiston mustaqil bo'lgach, Farg'ona vodiysidagi ulkan o'zgarishlar, u yerda faoliyat ko'rsatayotgan muzeylar, oromgohlar va sihatgohlar to'g'risida to'xtalib o'tdik.

Tayanch iboralar

Dovon, Munchoqtepa, karvon yo‘li, Dalvarzintepa, Kushon qadoqlari, “qilichmazor”, quydirilgan plitalar, hujra, dekorativ gumbaz, Oxta vodiysi, Shoud masjidi.

Nazorat savollari

1. Dovon davlatining tashkil topishi va rivojlanishi bosqichlari qanday bo‘lgan?
2. Qadimgi Kosonsoy shahriga tavsif bering.
3. Namangan shahrining o‘ziga xos xususiyatlari.
4. Andijon shahrining diqqatga sazovor joylari.
5. Qadimgi Andijon yirik savdo va hunarmandchilik sifatida.
6. Marg‘ilon qadimdan atlas va shoyi makoni.
7. Qo‘qon xonligining vujudga kelishi.
8. Xudoyorxon saroyining o‘ziga xos xususiyatlari.
9. Farg‘ona vodiysidagi me‘morchilik yodgorliklarining xususiyatlarini tushuntirib bering.
10. Mustaqillik yillarida Farg‘ona vodiysida arxitektura, savdo-hunarmandchilik sohasidagi o‘zgarishlarni so‘zlab bering.

Adabiyotlar

1. Мирзаев Р. Путешественники и исследователи на Великом Шелковом пути. – М.: ЗАО Изд. дом «Муравей», 2005. С. 34-40.
2. O‘zbek islom obidalari. Fotoalbum. – T.: O‘zbekiston, 2002. 243-250-b.
3. Тухлиев Н., Кременцова А. Республика Узбекистан. Энциклопедический справочник. – Т.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2001. С. 143-149.
4. Горбунова В.В. Фергана по сведениям античных авторов. – М., 1976.
5. Ртвеладзе Э. Великий шёлковый путь. Древность и раннее средневековье. – Т.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 1999. -280 с.
6. www.uza.uz
7. www.tourism.ru
8. www.travel.ru
9. www.palomnik.ru
10. <http://www.yorku.ca/research/dkproj/string/rohr/articles.htm>
11. <http://www.world-tourism.org>

2-bob. TOSHKENT SHAHRI TARIXIY MEROSI VA ZAMONAVIYLIGI

2.1. Toshkentning qadimgi tarixi

Toshkent 2000 yildan ortiq tarixga ega bo'lib, bu davr ichida shahar kichik bir qadimiy shaharchadan to MDH mamlakatlaridagi eng yirik shaharlardan biri O'zbekiston Respublikasi poytaxtigacha bo'lgan yo'lni bosib o'tdi. Asrlar mobaynida shahar ko'plab tarixiy hodisalarni, yuksalish va tanazzulni boshidan kechirdi.

Toshkent haqidagi ilk ma'lumotlar eramizdan avvalgi II asrga taalluqli qadimgi sharq manbalarida topilgan bo'lib, u yerda Toshkent vohasi Yuni deb ataladi va Qang' davlati tarkibiga kirgan hudud sifatida ta'riflanadi. Vohaning markazi ham xuddi shu nomni olgan, ya'ni Yuni deb atalgan. Toshkent vohasining qadimgi nomlaridan biri Choch 262-yildagi forslar shohi Shopur I ning "Kaabe Zoroastra" sida qayd etilgan. Xitoy manbalarida bu nom Shi deb, arab manbalarida esa Shash deb yuritilgan. Keyinchalik bu atama turkiy tillarga Tosh deb kiritilgan.

Toshkent haqida ma'lumotlar IX asr matematigi va astronomi Xorazmiyning asarlarida ham uchraydi. XI asrda yashab ijod qilgan buyuk O'rta Osiyo mutafakkirlaridan biri Abu Rayhon Beruniy "Hindiston" nomli asarida Toshkent nomining kelib chiqishini quyidagicha izohlaydi: "Shash so'zi bu shaharning turkiy tildagi nomidan, aynan Toshkand so'zidan olingan". Shash bilan birgalikda Toshkent nomi Mahmud Qashg'ariyda (XI asr) ham uchraydi. Toshkent shahrining o'rta asrlardagi tarixi haqida ko'plab qimmatli ma'lumotlarni IX-XII asrlarga oid arab, fors va turkiy manbalardan olish mumkin. Toshkent shahri Rossiyada XVI asrda ma'lum bo'lgan va katta Chizmalar kitobiga Tashkur nomi bilan kiritilgan. Biroq XVII asrda Shash va boshqa nomlar asta-sekinlik bilan Toshkent nomi tomonidan siqib chiqarila boshladi. Qadimiy va O'rta asrlarga oid ma'lumotlar zamonaviy Toshkent hududidagi arxeologik tadqiqotlar natijasida aniqlashtirib, to'ldirib borilmoqda.

Chirchiq daryosi suvidan bahra oluvchi vohaning asosiy qismini tashkil etuvchi zamonaviy Toshkent hududida, qadimda dehqonchilik bilan shug'ullanuvchi qabilalar yashab o'tgan.

Qulay geografik joylashuvi va iqlim sharoitlari bu yerda uzoq o'tmishdayoq dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullanish uchun imkoniyat yaratib bergan. Arxeologlar tomonidan ochilgan shahar tipidagi aholi punkti – Shoshtepa shahar madaniyatining yanada rivojlanishiga zamin yaratgan. Eramizdan avvalgi II-I asrlarda Shoshtepa qadimgi shaharga xos xislatlarga ega bo'lgan. Mudofaa devori bilan mustahkamlangan, xomg'isht va paxsa devordan qurilgan dumaloq qal'a bundan yaqqol dalolat beradi. Qal'aning tashqi mudofaa devori ichki ravoqsimon yo'lakni qamrab olgan va tashqi tomondan minoralar bilan mustahkamlangan, ya'ni o'z davrining rasmiy usullari asosida qurilgan. Shoshtepada eramizdan avvalgi birinchi asrga to'g'ri keluvchi boshqa joylardan keltirilgan mahsulotlar Toshkentda savdoning keng rivojlanganligi, bu yer orqali Buyuk Ipak yo'lining o'tganligidan dalolat beradi. Ayrim topilmalar (suyak uslubi) shaharda madaniyatning yozuv shakli mavjud bo'lganligidan darak beradi. Shoshtepani o'rganish Toshkent hududidagi shahar madaniyati tarixini aynan shu nuqtadan boshlangani va uning yoshini taxminan 2000 yil deb belgilashga imkon beradi.

Eramizning dastlabki asrlarida Chirchiq, Salor va Qorasuv oqimidagi butun vohalarning yarmidan ortig'i o'zlashtirilgan. Salor qirg'oqlari bo'yidagi shahar asosiy o'rinni egallagan bo'lib, olimlar uni VI-VII asrlarda gullab-yashnagan Toshkent shahrining birinchi asrdagi asosi deb hisoblaydilar. Turk xoqonligiga kirish, shaharning Qoramozor tog'laridagi konlarga yaqin joylashuvi, hunarmandchilik mahsulotlarini sotish uchun ta'minlangan bozorni tashkil etuvchi cho'l va dashtlarning yaqinligi, shuningdek, asosiy savdo yo'llari vohaning shimoliy tumanlariga ko'chirilishi shaharning Choch davlati poytaxtiga aylanishini tezlashtirdi. Tarixiy manbalarga ko'ra, shahar aylanasi 4 km ga teng bo'lib, sarof va joylashgan qal'a, zodagonlar yashovchi shahriston va hunarmandlar yashovchi rabotdan iborat bo'lgan.

Shahar atrofida, ayniqsa, ko'chmanchilar yashaydigan dasht tomonda chegara qal'alari qurilgan. Ta'riflanayotgan hududning deyarli barcha qismi zamonaviy Toshkent chegaralariga to'g'ri keladi. Arab manbalari bu shaharni Choch davlatining poytaxti (Madinat-ash-Shash) deb ataganlar. Poytaxt hunarmandlari metallga ishlov berish, ov va mehnat qurollari, taqinchoqlar yasash, dasht va cho'llardan keltiriluvchi chorvadorlik mahsulotlariga ishlov berish bilan shug'ullanganlar, chit va jun matolar, sopol va chinni idish, zargarlik mahsulotlari ishlab chiqarganlar. Shahar gavjum savdo markazi bo'lib, bu haqda G'arbda Vizantiyadan tortib Sharqda Xitoygacha bo'lgan mamlakatlarda topilgan tangalari bundan dalolat beradi. Mamlakat poytaxtida Choch hukmdori ham o'z tangalarini zarb qildirgan. Savdo va hunarmandchilik bilan birga madaniyat ham rivojlangan. Buni tasviriy va musiqiy san'atda ham ko'rish mumkin. Turk xoqonligiga vaqtinchalik qaram bo'lganiga qaramay, Choch davlati o'z tili va madaniyatini saqlab qolgan. Davlat tili – so'g'd tilining bir shevasi bo'lib, rasmiy hujjatlar va tangalardagi hukmdorlar ismi va unvoni so'g'd yozuvida bitilgan (Artachaka, Shchaniyabaga, Tamavcha). Choch poytaxti diniy markaz ham bo'lgan (dehqonchilik bilan bog'liq diniy marosimlar, olovga sig'inish, ilohiylashtirilgan ajdodlarga sig'inish). O'sha davrga to'g'ri keluvchi ayrim olovga sig'inuvchilar ibodatxonalarining xarobalari hozirda ham saqlanib qolgan. Dafn marosimlari zardushtiylar rasm-rusumlari bo'yicha o'tkazilgan. Ko'pincha qushlar va odamlar yuzi shaklidagi haykalchali naqsh bilan bezatilgan ossuariylar tayyorlash ham san'at va hunarmandchilikning bir turi bo'lgan.

VII asrning birinchi yarmida Choch davlati, shuningdek, uning poytaxti arablar bosqini ostida qoldi. Choch poytaxti yoqib yuborilgan. Yetkazilgan zararlardan shahar o'zini tiklay olmadi. Shahar IX asrga kelib, faqat avvalgi o'mida emas, balki undan 4-5 km shimoli g'arbda, Bo'zsuv qirg'oqlarida qayta tiklandi. U tez sur'atlar bilan rivojlanib, yana Choch davlati poytaxtiga aylandi va arablar tomonidan Binket deb ataldi. Bu nom IX-X asrlarda zarb etilgan kumush va mis tangalarda Shash va Madinat-Ash-Shosh nomlari bilan bir qatorda uchraydi. Savdo va hunarmandchilik yanada rivojlangan.

2.2. Toshkent savdo yo'llari chorrahasida

X asr oxiri XII asr boshlarida Choch Qoraxoniylar davlati tarkibiga kirgan. Bu davrda, asosan, Toshkent deb nomlana boshlangan. XIII asr boshlarida Toshkent vohasi Xorazmshoh Muhammad tomonidan vayron qilingan. Mo'g'ullar bosqini

davriga kelib (1220), Toshkent Movarounnahrning boshqa shaharlaridan ortda qolgan edi. XIV-XV asrlarda Toshkent Temur va Temuriylar davlati tarkibiga kirgan. Bu davrda shahar yana avvalgidek kuchli qal'a ahamiyatiga ega bo'lib, uning hududi kengaydi, ishlab chiqarish, savdo va madaniyat rivoj topdi. Arxeologik topilmalar va arxitektura inshootlari mahalliy an'analarning sharqdagi qo'shni mamlakatlar madaniyati unsurlari bilan uyg'unlashuvidan dalolat beradi.

XVI asr boshlarida Toshkent Shayboniylar davlati tarkibiga kirgan. Shahar yangi qal'a devorlari bilan o'rab olingan, yangi qurilgan me'moriy inshootlarning ayrimlari bizning kunlarga saqlanib qolgan. XVI asrning ikkinchi yarmida Toshkent Buxoro xonligiga qo'shib olingan. XVII-XVIII asrlarda Toshkentning Rossiya bilan aloqalari kuchaygan. Rossiya bilan savdo-iqtisodiy aloqalar natijasida ikkala tomon uchun foyda yanada yaqqolroq ko'zga tashlana boshlagan. Toshkentlik savdogarlar tobora ko'proq Sibir shaharlariga tashrif buyura boshlagan. 1739-yilda Orenburgdan Toshkentga dastlabki rus savdo karvoni yuborildi.

XVIII asrdan boshlab Toshkent to'rt qismga, ya'ni dahalarga ajralgan. Har bir daha o'z hokimiga ega bo'lgan. 1874-yilda Shayxontohur dahasi hokimi butun shaharni o'z qo'l ostiga birlashtirdi.

XIX asr boshlarida Toshkent o'z mustaqilligini yo'qotdi va Qo'qon xonligi tomonidan bosib olindi. Shahar hududi bu paytga kelib, 16 kv km, aholisi esa 80 ming (ayrim ma'lumotlarga ko'ra 100 ming) kishiga teng edi. Shaharda hunarmandchilikning har xil turlari – to'qimachilik, yog'och, metall va teriga ishlov berish, etikdo'zlik, kulolchilik va boshqalar rivojlangan. Shaharliklarning katta qismi savdo va hunarmandchilikdan tashqari dehqonchilik bilan ham shug'ullangan. Ko'plab novvoyxonalar, choyxonalar va mayda do'konlar ishlab turgan. Shahardagi hunarmandchilikning deyarli barcha turlari mahalliy xomashyoda ishlangan.

Qo'qon xonligi bilan Rossiya o'rtasida savdo aloqalarining kengayishi natijasida xonlikning yirik shaharlaridan biri bo'lgan Toshkent ham o'sib bordi. Toshkent beklari yoki hokimlari Qo'qon xonligiga qarshi bosh ko'tarib, ayrim vaqt mobaynida mustaqil bo'ldilar. Buxoro xonligi ham Toshkentni bosib olishga bir necha bor harakat qilgan. Doimiy urushlar, soliqlarning o'sishi va amaldorlarning zo'ravonliklari xalq qo'zg'olonlariga sabab bo'lib, ularning eng yiriklari 1847 va 1863-yillarda bo'lib o'tgan.

Toshkent butun Markaziy Osiyo kabi Rossiya imperiyasi tarkibiga kirgach, shahar rivojlanishining yangi bosqichi boshlandi.

Markaziy Osiyoning Rossiyaga qo'shib olinishi bilan o'lkaning tabiiy boyliklarini, uning tarixiy-madaniy o'tmishi va hozirgi kunini o'rganish va tadqiq etish uchun ma'lumotlar ko'paydi. Bu yerda geograf P.P.Semenov-Tyan-Shanskiy, tabiatshunoslar N.A.Severtsov, A.P.Fedchenko, geolog I.V.Mushketov va boshqalar ishlagan. O'rta Osiyo xalqlari tarixi va madaniyati bo'yicha material to'plash va o'rganishda N.I.Veselovskiy, V.V.Bartold va boshqalar katta rol o'ynagan.

1966-yilning 26-aprelida ro'y bergan kuchli zilzila natijasida shahardagi ko'plab sanoat korxonalarini, madaniyat, tibbiyot va maishiy-xizmat muassasalari, maktablar vayron bo'ldi. Sobiq Ittifoq tarkibiga kirgan qardosh respublikalar yordami va ishtirokida uch yarim yil ichida zilzilaning oqibatlarini deyarli bartaraf etildi.

2.3. Toshkent arxitektura va arxeologik yodgorliklari

Yangi turar-joy mavzelari va mikrorayonlar, arxitektura majmuasi blokiga arxeologik va musulmon me'morchilik yodgorliklari kiradi. Shubhasizki, ular turistik baza hisoblanadi va Toshkent me'morchiligi xislatlarini o'zida namoyon qiladi. Ulardan: Abdul-Qosimshayx madrasasi, arxitektura yodgorligi (XVI asr) yangi mahalla markazi jome masjidi, hammom va madrasadan iborat bo'lib, dastlab bir qavatli bino bo'lgan. 1864-yilda ikkinchi qavat qo'shimcha qurilgan. Binoning old tomoniga jamoatchilik binolari – portal, hovliga olib boruvchi, P shaklidagi yo'lakning ustini berkituvchi yettita gumbazli bo'limlar anfiladasi shaklidagi vestibyul (miyonsaroy) tutash bo'lgan. Hovlini har tomondan madrasa toliblari istiqomat qiluvchi hujralar o'rab turgan. Asosiy fasad – beshburchak tokchali peshtoq yon tomondan burchakdagi ikki qavatli ulkan minora-guldastali arkadalar bilan himoyalangan bo'lib, XVI-XVII asrlar uchun xos bo'lgan tarzda bajarilgan. Joylanishning bo'ylama o'qini orqa tomondagi gumbazli zal va yon tomonlardagi uchta yonma-yon hujralar ajratib turardi. Keyinroq qurilgan, to'rtburchakli devorlardan tashqariga turtib chiqqan bino – masjid xonaqosi kelganlarni qabul qilish uchun yassi tomli bir necha xonadan iborat bo'lib, an'anaviy bezashdan biroz chekinishni namoyon etadi. Madrasaning kirish qismidagi maktabxona va darsxonalarning gumbazsimon tomi alohida qiziqish uyg'otadi. Ulardan biri kesishuvchan arkali gumbaz bo'lib, uning hajmi 65x43 m, hovli hajmi esa 28x22 m. Majmua tarkibiga kirgan masjid hozirgi kunda mavjud emas. Madrasa 1983-yilda qayta tiklangan bo'lib, undan yodgorliklarni targ'ibot qilish uyi sifatida foydalanilmoqda.

Baroqxona madrasasi arxitektura yodgorligi XV-XVI asrlarda turli binolardan tashkil topgan: birinchisi – binoning sharqiy burchagidagi markaziy mavzoley. Ikkinchisi (1530) – yirik xonaqo mavzoleyi bo'lib, kesishuvchan arkali ikki gumbaz bilan tugallangan (tashqi – Ko'k Gumbaz saqlanmagan) hamda Toshkentning shayboniylarga mansub hukmdori Suyunijxonga bag'ishlangan. Uchinchi bosqich – memorial majmuasining XVI asrda, Suyunijxonning Navro'z-Ahmad ismli, Baroqxon deb nom olgan o'g'li hukmdorligi davrida madrasaga aylantirilgan. Madrasa ushbu turdagi an'anaviy binolardan farq qilsa-da, ochiq hovli atrofida tashkil qilishning asosiy tamoyilini saqlab qolgan. Trapetsiya shaklidagi bino shimoli sharq – janubi g'arb yo'nalishida cho'zilgan; bo'ylama o'qni kirish oldidagi yirik portal va orqa tomonda turtib chiqqan Suyunijxon mavzoleyi ajratib ko'rsatadi. Ikki ayvonli hovli bir qavatli hujralar bilan to'ldirilgan. Bezaklar Toshkent uchun o'ziga xosdir: portal tokchalarini "Kolab-Kari" gumbazi yakunlaydi, timpan va pilonlar mayolika va g'ishtli mozaika bilan qoplangan, hujralarning oynalariga turli geometrik naqshli ganch panjaralar o'rnatilgan. 1935-36 va 1955-56-yillarda arxeologik tadqiqotlar olib borilgan, 1955-63-yillarda peshtoq gumbazi Usta Shirin Murodov ishtirokida qayta ta'mirlangan. Hajmi: umumiy – 703x44 m, hovli – 33x27,5 m.

Shahar darvozalari shaharni dushmanlar hujumidan himoya qilgan. Toshkent darvozalari X asrda Bo'zsuv qirg'og'ida karvon yo'llarining shahar devori bilan kesishgan joyda rivojlanishi bilan qurila boshlangan. Shahar darvozalari soni vaqt o'tishi bilan o'zgarib turgan. XV asrda Toshkent bir necha darvozali devor bilan o'ralgan edi. Darvozalar ularni qo'riqlash topshirilgan guruhlar ma'sul bo'lgan ulus,

qabila va urug'lar nomi bilan atalgan. XVI asr oxirlarida Registon yoki Yangi darvoza eslab o'tiladi. XIX asrda Qo'qon beklar begi tomonidan qurilgan devorda 12 ta darvoza mavjud edi: Labzak, Taxtapul, Qorasaroy, Sag'bon, Chig'atoy, Ko'kcha, Samarqand, Kamolon, Beshyog'och, Koymas, Qo'qon, Qashqar. Darvozalar nomlari boshqa shahar yo'llariga asosiy yo'nalishlar va shahar ichidagi ko'chalar bo'yicha berilgan (masalan, Samarqand yo'lidagi darvoza Samarqand darvoza, Chig'atoy ko'chasiga eltuvchi darvoza Chig'atoy darvoza va hokazo). Shahar darvozalari darvozabonlar tomonidan qo'riqlangan, erta tongda ochilgan va kun botishi bilan yopilgan.

Darvozalar qarag'ay daraxtidan tayyorlanib, ustidan turli o'yma naqshlar bilan bezalgan temir qoplangan. Har bir darvoza oldida amaldorlar – zakotchilar turib, shaharga kirayotgan va chiqib ketayotgan har bir kishini ro'yxatga olgan va ulardan bojxona yig'imi (zakot) olgan. Shahar darvozalari oldida, shuningdek, biron-bir obro'li shaxsni kutib olish marosimlari ham o'tkazib turilgan. Vaqt o'tishi bilan darvozalar avvalgi ahamiyatini yo'qotib borgan, 1890-yildan boshlab shaharda imoratlar qurishning kengayishi natijasida darvozalar asta-sekinlik bilan yo'qotilgan.

Qadimgi qabristonlar, arxeologik yodgorliklarga kirib, qadimgi va o'rta asrlarga taalluqli yakka va guruhli qabrlar majmuasidir. Toshkent hududida qadimiy qabristonlarni o'rganish ilk bora XIX asrning oxirlarida Turkiston arxeologiya shinavandalari to'garagi (TAShT) a'zolari, xususan, N.P.Ostroumov tomonidan amalga oshirilgan. Keyinroq qazishlar Toshkent arxeologiya ekspeditsiyasi tomonidan o'tkazilgan. Qadimgi qabristonlar ikki xil shaklda topilgan: tuproq mozorlar va ossuariylar. Tuproq mozorlar uyma qo'rg'onli yoki tashqi belgilersiz chuqurliklar va katakombalardan iborat bo'lgan. Ulardan eng qadimiysi Childuxtarontepadan topilgan. Bu qabriston kech bronza asri (eramizdan avvalgi II asrning 2-yarmi) davridagi ko'chmanchi chorvador qabilalar tomonidan qoldirilgan. Dafn marosimi: murda holati tuproqli o'rada turli asbob-anjomlar, sopol idishlar, bronzadan yasalgan qurollar, taqinchoqlar bilan. Lessli sag'analar va dromosli katakombalar (kirish yo'lagiga ega g'orlar) ham xuddi shu turdagi qabristonlarga mansub. Ko'mish marosimi: qamish yoki taxta to'shalgan supada yakka holda yoki guruh bo'lib ovqat solingan sopol idish, temir qurollar va taqinchoqlar bilan. Sobiq Lunacharskiy qishlog'i (hozir Toshkent hududida), Qorasuv qirg'oqlari, Toshavtomash-4 mavzesi, Do'mbirobod va Qatortol ko'chasida topilgan. Toshkent vohasining Qovunchi madaniyatiga mansub ko'chmanchi va o'troq aholisi qoldirgan qabristonlar I-VI asrlarga taalluqli. Ossuar qabristonlar-suyaklarni yumshoq to'qimalardan tozalangan maxsus qutilarda – ossuariy yoki pishgan loydan tayyorlangan ostodanlarda ko'milgan. Toshkent ossuariylari, odatda, oval yoki to'rtburchak shaklda bo'lgan. Uning devorlari o'yma va kesma geometrik naqshlar bilan bezalgan. Qutilar qush yoki odamlar yuzi shaklidagi dastakli qopqoqlar bilan berkitilgan. Ossuariylar qator qilib yerga ko'milgan yoki qal'a devorlari tokchalariga joylashtirilgan. Yakka holdagi ossuariylar butun Toshkent hududidan topilgan. Bunday qabristonlar Lunacharskiy qishlog'i yaqinida va Xonobodtepa shahrida topilgan. Ular VII-VIII asrlarda yashab o'tgan dehqonchilik bilan shug'ullanuvchi va zardushtiylik diniga sig'inuvchi o'troq aholi tomonidan qoldirilgan. Ikkala turdagi

qabristonlar vohaning majusiy aholisiga tegishli bo'lib, asta-sekinlik bilan mahalliy aholining islom qoidalari va rasm-rusumlarini qabul qilishi bilan yo'qotilgan.

Qaldirg'ochbiy mavzoleyi – Toshkentdagi yagona XV asrning birinchi yarmida arxitektura yodgorligi. U janubiy tomonda arkali kirish eshigiga ega, sag'anali va O'zbekistonda kamdan-kam uchraydigan juftli, tashqi tomondan gumbazli ko'p hujrali mavzoleydir. Uning zali krest shaklida bo'lib, to'rtta nisha orasida hujralar va aylanasimon zinapoya joylashtirilgan. Arkali parus turumi pastga tushirilgan. Toshkent mavzoleylariga xos bo'lgan arxitektura usuli hisoblangan. Devorlar pishgan g'ishtdan (24-26 sm x 4,5-5 sm) qurilgan. Bino poydevorining chuqurligi 1,5 m bo'lgan ikki pog'onali va yog'och bilan mustahkamlangan. Bezaklarda ganch stalaktitlar saqlanib qolmagan. 12 qirrali tashqi gumbaz 70-yillarda qayta tiklangan. Hajmi: 9,5x9,5 m, zal – 6x6 m.

Qoratosh hammomi – Toshkentdagi XV-XVI asrga mansub yagona me'moriy yodgorlik. 1981-yilda Toshkent arxeologiya ekspeditsiyasi tomonidan Qoratosh ko'chasida (Beshyog'och) ochilgan. Benkov nomidagi yangi rassomchilik bilim yurti binosini qurish paytida topilgan. Uning binosi (25x25 m²) markaz atrofida mujassamlangan yer ustidagi maxsus binolar, miyonsaroy hamda xonalarni isitish va suv saqlash uchun mo'ljallangan yer ostidagi qismlardan iborat bo'lgan. Qoratosh hammomi sharq hammomlari me'morchiligi tamoyillariga amal qilgan holda kirish supali kiyinish xonalari, markaz, uchta isitilgan suvi bor hovuzli katta zaldan tarkib topgan. Qoratosh hammomining o'ziga xos elementi burchak o'rtasida yumaloq hovuzli va hovuz atrofida oltita kichik hujralar bo'lib, iflos suv maxsus suv yo'ligi oqizilgan. Aylana shaklidagi xona sovuq bo'lib, basseyndan sovuq suv olib quyish uchun mo'ljallangan. Yeri silliq g'isht bilan qoplangan. Xushbo'y damlamalar uchun mo'ljallangan katta va kichik vanna devorlari va pol maxsus tarkibli kulrang eritma bilan qoplangan. Devorlar kulrang va pushti rangda bo'lgan, supalar ustida glazurlangan mayolik plitalar bezab turgan. Qoratosh hammomi Toshkent qal'asidagi binolari majmuasiga kirgan va xohlagan kishilarning foydalanishi uchun mo'ljallangan.

Kaffol Shoshiy mavzoleyi, arxitektura yodgorligi bo'lib, imomlardan biri Abubakr Muhammad ibn Ali ibn Ismoil al-Kaffol al-Shoshiyga bag'ishlangan. Dastlabki qabr ustiga qurilgan inshoot saqlanib qolmagan. Mavjud mavzoley 948-hijriy 1541-42-yilda Toshkent xonlarining saroydagi me'mori G'ulom Husayn tomonidan qurilgan, yozuvlarni xattot Qudrat bajargan. Yodgorlik XV-XVI asrlarga xos bo'lib, original asimmetriya variantida ko'p xonali peshtoq-gumbazli xonaqora shaklida qurilgan. Asosiy zal krest shaklida bo'lib, juftli sharsimon gumbaz bilan yopilgan. Burchaklarda 2-3 qavatli sakkiz qirrali va to'rtburchak shaklida bo'lgan. Zal uch tomonga kichik peshtoqlar bilan ochilgan. Janub tomondan mavzoleyga kechroq qurilgan qabriston hovlisi tutash. Mavzoley pishgan g'ishtdan (25-26x4-5 sm) qurilgan. Hajmi: 13,3x12,5 m, zal – 6x6 m, gumbaz balandligi – 16,4 m.

Ko'kaldosh madrasasi XVI asrga oid arxitektura yodgorligi. Madrasa o'zbek davrining eng yirik yodgorliklaridan biri hisoblanadi. Madrasaning qo'sh ayvonli hovlisi qiya burchakli (45 gradus) hujralar bilan o'ralgan. Binolar yagona ko'ndalang o'q bo'yicha simmetrik masjid zallari va darsxonalar bilan qurilgan. Miyonsaroy yetti gumbazli bo'lgan. Hujralarning ikkinchi qavatini faqat old tomondagina saqlanib

qolgan va kirish tomondan o'yima naqsh bilan bezalgan ikki qavatli xonalardan tarkib topgan. 1866-yilda zilzila natijasida vayron bo'lgan madrasa 1950-yilda qayta tiklangan. Hajmi: 63x45 m, hovli – 38x87 m, peshtoqning balandligi – 19,7 m.

Namozgoh masjidi arxitektura yodgorligi. 1845-67-yillarda qurilgan. Markaziy Osiyodagi bu turdagi butun atrof aholisining bayram namozini o'qish uchun mo'ljallangan. Tuzilishi to'g'ri va aksli ko'rinishda. Markaz yon tomondan har bir qanotda 2 qatordan arka-gumbazli timlar bilan himoyalangan. Ularning yonidan asosiy zalning peshtoqi bilan bir tekislikda ustunli ayvon o'tadi. Zal kesishgan shaklda bo'lib, 4 ta kesishuvchan arka yordamida ko'tarilgan baland gumbaz bilan yopilgan. Masjid pishgan g'ishtdan qurilgan (26x4 sm). Hajmi: 56,5x14,8 m, asosiy zal – 7x7 m, balandligi – 14,2 m, tim gumbazi – 4 m.

Eski shahar Toshkentning shimoli g'arbiy qismida joylashgan, shaharning Rossiyaga qo'shib olingunga qadar bo'lgan qismidan iborat (1865). Uning nomi yangi shaharga nisbatan qo'yilgan. Eski shahar hududi shimolda Kalhovuz soyi, sharqda Anhor, g'arbda Ko'kcha soyi va janubda Zax soyi bilan chegaralangan. IX asrlardan shakllana boshlagan. X asrga kelib, Eski shahar joylashuvida quyidagilar ajralib turgan: ark, ichki hovli (shaxristan), tashqi va ichki rabot. Shahar qal'a darvozasiga ega mustahkam devor bilan o'rab olingan, bu darvozalar orqali shahar markaziga borilgan va shu tariqa radial loyiha o'zib ketgan.

Yirik binolar qurilishi XV asrning birinchi yarmi va XVI asrning ikkinchi yarmiga to'g'ri keladi. XVI asrda Xo'ja Ahror madrasasi, Hazrati Imom va Shayxontohur majmualari qurilgan. Eng ahamiyatli qurilish Ko'kaldosh madrasasi bo'ldi. Eski shahar binolari mahallalarga bo'linadi. XIX asrning oxirlarida, Toshkent Markaziy Osiyoning eng yirik shahriga aylangan paytda Eski shahar hududi 1,5 ming gektargacha kengaygan. Shahar loyiha bo'yicha qal'a devorlari bilan o'ralgan, shaharning o'zi va o'rdadan iborat bo'lgan. Tor va chang ko'chalar shahar darvozalaridan markazga – katta bozor tomon olib borgan. Binolar xarakteri va turmush tarziga ko'ra eski shahar yangi shahardan ancha ajralib turgan.

Eski shahar ma'muriy jihatdan 4 dahaga bo'lingan – Beshyog'och, Ko'kcha, Sebzor va Shayxontohur. Ularning har biri hokim tomonidan boshqarilgan. Shaharni esa beklar begi boshqargan. Toshkent shahri Rossiyaga qo'shib olinib, Turkiston general-gubernatorligi tashkil etilgach (1867), eski shaharni boshqarish rus ma'muriyati qo'lga o'tgan bo'lsa-da, biroq mahalliy boylardan tanlab olingan amaldor shaxslar qo'lida qoldi.

XIX asrning oxirida Eski shahar asta-sekinlik bilan bo'lsa-da, kengayib borgan. Shahar devorlari vaqt o'tishi bilan shaharning ichida qolib ketdi va buzib yuborildi. Turar-joylar qurishda pishiq g'ishtdan foydalanish va yevropacha arxitektura uslubida qurilgan binolar paydo bo'la boshladi. Eski shahar bozori atrofida savdo firma idoralari va banklar paydo bo'la boshladi. Beshyog'ochda kushxona qurildi. Madaniy-oqartuv muassasalarini qurish ham boshlandi. 1883-yilda Xadra mahallasida Toshkentdagi ayollar va bolalar uchun ilk ambulatoriya ochildi. 1883-yilda shahar dumasi eski shaharning 17 ta ko'chasiga Shayxontohur, Taxtapul va Chig'atoy kabi nomlar berdi. 100 ga yaqin chiroq o'rnatildi. 1884-yilda Shayxontohurda nafaqat Toshkentda, balki butun Markaziy Osiyoda rus ta'lim tizimiga asos solgan dastlabki rus-tuzem maktabi ochildi. 1910-yilda eski shaharda

21 mingta turar-joy binosi mavjud bo'lib, uning aholisi 146 ming kishidan iborat bo'lgan. 1939-yilda Toshkent shahrini qayta qurish loyihasi tasdiqlanib, unda shaharning eski va yangi qismlarini birlashtirish ko'zda tutildi.

Xo'ja alambardor mavzoleyi – arxitektura yodgorligi. Mahalliy afsonalarga ko'ra, mavzoley Markaziy Osiyoda islomni tarqatgan sahobalardan biri, "Yalovbardor" deb nomlangan Abu Bakrning safdoshi Muhammad ibn Ali ibn Ismoila al-Kaffol al-Shoshiy sharafiga qurilgan. U shaharning Beshyog'och qismida, Kamolon darvozasi ortida dafn etilgan deb hisoblanadi. Bu yerda barpo etilgan memorial ibodatxona majmuasidan faqat chillaxona saqlanib qolgan. Qabriston darvozasidan so'qmoq yo'l XVII asrdan keyin qurilgan bir xonali peshtoq-gumbazli Xo'ja Alambardor mavzoleyiga olib boradi. Shimolga qaratilgan peshtoq oldinga chiqib turadi. To'rtburchak shaklidagi bino juftli sharsimon gumbaz bilan yopilgan. Devorlar xomg'ishtdan, peshtoq va burchaklar esa pishiq g'ishtdan qurilgan. Hajmi: 8,87x8 m, bino – 6x6 m, balandligi – 10,3 m.

Chilonzor Oqtapa – IV-VII va X-XI asrlarga mansub arxitektura yodgorligi Toshkent shahrining janubi g'arbiy qismida, Bo'zsuv bo'yida joylashgan. 1940-yilda A.I.Terenojkin tomonidan qayd etilgan, 1960-yilda A.S.Shiller va Yu.F.Buryakov tomonidan, 1969-71-yillarda Toshkent arxeologiya ekspeditsiyasi tomonidan o'rganilgan. Chilonzor Oqtapa balandligi 15 m tepalik bo'lib, umumiy maydoni 60x75 m² ga teng. Tepalikning yuqori qismida olib borilgan qazishmalar IV-VII asrlarda xomg'isht va paxsadan qurilgan bino xarobalarni topishga imkon berdi. Binoning majusiylar davri bilan bog'liq 3 davrini ajratib ko'rsatish mumkin. 1-bosqichda (IV asr) bino paxsa asosidagi 4 minorali qal'a bo'lgan. Bino (13,5x13 m²) uchta uzunchoq xonaga bo'lingan, burchakdagi oval minoralar ham ushbu xonalar bilan bog'langan ichki xonalarga ega bo'lgan. Baquvvat devorlar (eni 4 m) va zinapoya qoldiqlari ikkinchi qavat ham mavjud bo'lganligidan darak beradi. O'z davrining barcha rasmiy qoidalariga ko'ra, mudofaa vositalari (kuchli devor, minora, shinaklar) bilan ta'minlangan qal'a, nafaqat mustahkam qo'rg'on, balki zardushtiylarning ibodatxonasi ham edi. 2-bosqichda (V-VI asrlar) dastlabki bino qo'shimcha qurilgan yangi va yordamchi binolar tizimi bilan o'rab olinib, shinakli qal'a devori bilan mustahkamlandi. 3-bosqichda (VII-VIII asrlar) 9 metrlik stilobatda qad rostlagan, dastlabki binolarga tosh terish natijasida paydo bo'lgan bino usti ochiq, to'rtburchak hovli (38x27 m) shaklida bo'lib, tokchali devor, ichki platforma va hovlining asosiy o'qi bo'ylab ko'tarilgan to'rtburchak poydevor bilan o'rab olingan. Qazishmalar olib borish natijasida platformada chirib ketgan organik qoldiqlarning kuchli ko'ppqavatli qatlamlari, ko'plab don yanchadigan asboblar va toshquratlar, an'anaviy qovunchi madaniyatiga mansub sopol idishlar topilgan (q. qovunchi madaniyati). VII asrda zarb etilgan turgashlar tangasi topilgan. Loyihaning o'ziga xos xususiyatlari va topilmalar majmuasi 3-bosqichdagi binoning ijtimoiy-madaniy xarakteri va uning mahalliy qovunchi aholisiga tegishli ekanligini belgilab beradi. Bino va qoldiqlar bo'yicha qayta ta'mirlanuvchi madaniy rasm-rusum xususiyatlari Choch aholisi arablar bosqiniga qadar asl mahalliy aholi ekanligini ko'rsatadi. Chilonzor Oqtapa yuqori ibodatxonasi joylashuv xususiyatlari va xislatlarining solishtirilishi natijasida (poydevor, platformadagi organik qoldiqlar) uni shartli ravishda ajdodlar ruhiga sig'inish uchun mo'ljallangan ibodatxonalarga mansub deb

hisoblashga imkon beradi. Ibodatxona majmuasi islomdan oldingi davrlarga tegishli bo'lib, Choch davlati poytaxtining gavjum hududlaridan birida joylashgan. Arablar istilosidan so'ng, u biroz vaqt zardushtiylik rusumlari bo'yicha dafn etiladigan qabriston bo'lib turdi, keyinchalik esa umuman tashlandiq holga kelib qoldi. Uning atrofida hayot yana X-XI asrga kelibgina chashma ura boshladi va u yerda kichik bir qishloq paydo bo'ldi.

Cho'ponota majmuasi, arxitektura yodgorligi xotira inshootlari majmuasi (hujrali darvozaxona, masjid, mavzoley). Mahalliy afsonalarga ko'ra, XV asrning birinchi yarmida Ulug'bek tomonidan qo'y podalari va podachilar homiysi Cho'ponota sharafiga qurilgan. Arxeologik va arxitektura ma'lumotlari majmua XVII asr boshlarida qurilgan deb hisoblashga imkon beradi. Asosiy yodgorlik – maqbara qabristonda joylashgan bo'lib, uning yonida darvozaxonadan keluvchi yo'l oxirida kichik minora – mezon joylashgan. Darvozaxonadan g'arbiy tomonda bir necha marta qayta qurilgan masjid – ko'p ustunli ayvoni bor uzunchoq qishki zal mavjud.

Cho'ponota maqbarasi – bir xonali, oddiy gumbazli bino bo'lib, unga kirish janub tomonda peshtoq shaklida bo'lgan g'arbiy tomonda krest sifatli xonada Toshkentdagi maqbaralarga xos bo'lgan diniy marosimlar bilan bog'liq pastak darcha bo'lgan. Xona uchi barabanga borib ingichkalanuvchi silindrga ko'tarilgan bitta sharsimon gumbaz bilan yopilgan. Peshtoq tepasida binoning burchakdagi minorachalari – guldastalarni bezab turuvchi chiroqlar bo'lgan. Maqbara ko'rinishi va bezaklari – bino asosida va gumbaz barabanida archa shaklidagi g'isht terilishi, guldasta va peshtoq, chiroqlarda chaspak usulidagi giri-xom va hokazolar bilan qiziqarli. Maqbara to'rtburchak pishgan g'ishtdan qurilgan (24,5x24,54 sm). Hajmi: 5,6 – 4,6 m, xona – 2,6x2,6 m, balandligi – 7,2 m.

Shayx Zaynutdin bobo maqbarasi – arxitektura yodgorligi. Ko'kcha darvozasi ortidagi Orifon qishlog'ida dafn qilingan Shayx Zaynutdinga (1214-yilda tug'ilgan) bag'ishlangan. Arxeologik tadqiqotlarga ko'ra, uning yonidagi chillaxona XII-XIII asrlarga, maqbara o'rnida bo'lgan chortoq XIV asrga, maqbaraning devori XVI asrga mansub, binoning tepa qismi va peshtoqi XIX asr oxiri XX asr boshlarida qayta qurilgan. Yodgorlik peshtoq-gumbazli tuzilishiga ega bo'ylama o'qli maqbara-xonaqohlar turiga mansub. Kesishma bo'ylab zaldan har tomonga eshiklar ochilgan. Asosiy kirish joyi peshtoq bilan bezalgan. Zal juftli sharsimon gumbaz bilan yopilgan. Tashqi gumbaz baland do'nglikda yuqoriga ko'tarilgan. Darvozaga ustaning nomi bitilgan – Mirsharob Abdumo'min o'g'li. Oyna o'rnida yog'och panjara saqlanib qolgan. Hajmi: 18x16 m, balandligi – 20,7 m.

Shayxontohur maqbarasi – mahalliy shayx Xovand Tohurga bag'ishlab qurilgan me'moriy yodgorlik. Shayxga sig'inishni uning avlodlaridan bo'lgan Xo'ja Ahror – Temuriylar davlati ruhoniylar rahbari rivojlantirdi. Mavjud yodgorlik XVIII-XIX asrlarda XV asrda qurilgan boshqa bir maqbaraning poydevorida qurilgan. Bunda Markaziy Osiyoda XIV asr oxirlaridan boshlab keng tarqalgan ikki xonali maqbaralarning bo'ylama o'qli loyiha asoslari saqlab qolingan. Sharq-g'arb o'qi bo'yicha ziyoratxona, undan keyin go'rxona joylashgan. Xonalar tomi sharsimon gumbazlar bilan yopilgan, ziyoratxona gumbazi 12 qirrali barabanga mustahkamlangan. Ziyoratxona arxitekturasi o'ziga xos va ajoyib ko'rinishga ega: zal burchakdagi sakkiz qirrali interyerni to'rtburchak bilan uyg'unlashtiruvchi

uchburchakli tokchalarga ega sakkizta arkadan tashkil topgan. Oynalarda mayolik panjaralar saqlanib qolgan. Maqbara to'rtburchak pishgan g'ishtdan qurilgan (25x26x5-6 sm). Hajmi: 16,2x9 m, xonalar 6x6 va 4,1x4,1 m, ziyoratxona gumbazining balandligi – 12,8 m.

Yunusobod Oqtepa – arxeologik yodgorlik, Toshkentning shimoli-sharqiy qismida, Oqtepa soyi bo'yida (Abraziy kombinat yaqinida) V-XIII asrlardagi shaharcha ilk bora V.P.Nalivkin tomonidan 1886-yilda qayd etilgan. 1940-41-yillarda A.I.Terenojkin tomonidan bilish maqsadida qazish ishlari olib borilgan. 1975 va 1977-83-yillarda Toshkent arxeologiya ekspeditsiyasi (M.S.Merhiyev, M.I.Filanovich) tomonidan o'rganilgan. Janubiy qismi tepalik shaklida bo'lgan qal'a va 100 gektar maydondagi manzilni qamrab olgan. Qal'adagi tepalik noto'g'ri shaklda 86x180 m maydonni egallagan va shimoldan janubga qarab cho'zilgan, aholi yashaydigan joydan bir paytlar qal'a oldida choh vazifasini bajargan chuqur o'ra bilan ajratilgan. Qal'a qo'rg'oni keng hovli va janubiy qism asosiy qal'adan iborat bo'lgan. U yerda olib borilgan qazish ishlari natijasida xomg'isht va paxsadan qurilgan ajoyib bino qoldiqlari topilgan (V-VIII asrlar).

Qal'aning asosi asta-sekinlik bilan shakllanib borgan. Majmua qayta qurilishi rivojlanishining 3-bosqichi ajratib ko'rsatiladi. Dastlabki bosqichda (V-VII asrlar) u 80x80 m² maydondagi to'rtburchakni ifodalagan, perimetri bo'yicha ikki qator yoritilmagan tutash galereyalar va ular ustidagi yassi maydonchalar bilan o'ralgan. Bu maydonchalar ikkita pog'onali bo'lib, binoning asosini tashkil qiluvchi tabiiy lyoss tepaligidan pastga qarab tushgan. Galereyaning yuqori pog'onasi burchaklarida tashqi tomondan minora ko'rinishiga ega bo'lgan yumaloq gumbazsimon xonalar bo'lgan. To'rtburchakning ichki qismi tor yo'laklar, gumbaz bilan yopilgan, yuqori pog'ona galereyasiga chiqish yo'llari bilan to'ldirilgan. 2-bosqichda (VII asr boshlari) tor xonalar gumbazning yuqori qismigacha loy bilan to'ldirilgan va paydo bo'lgan yaxlit stilobat ustida yangi bino va minora – dastlabki to'rtburchak burchagiga kiritilgan donjon qad rostlagan.

3-bosqichda (VII asr oxiri VIII asr) qal'a binolari majmuasi aniq uch qismga: minoradagi hashamatli turar-joy, ibodatxona va yordamchi xo'jaliklarga bo'lingan bo'lib, qal'a qo'rg'oni asosiy vazifalarini shaharning ma'muriy, ibodat va rasmiy markazi sifatida aks ettirgan. Hashamatli turar-joy qismida binoning ichki qismi mavzuli rasmlar bilan bezalgan. Ibodatxona qismi tepadan to'sinlar bilan to'silgan mehrob joylashgan ibodatxonali olovga sig'inuvchilar butxonasidan iborat bo'lgan. Majmuaning yordamchi xo'jaliklar qismida supali uzun omborxonalar bo'lgan. Ularning barchasi ikki qavatli bo'lgan va ularga orqa devordan yorug'lik tushib turgan.

Qazish ishlari olib borilganda moddiy madaniyat buyumlari – temirdan yasalgan ish va ov qurollari, sopol va shisha idishlar, taqinchoqlar hamda qadimgi Choch aholisi turmush tarzi va dini, urf-odatlarini tavsiflovchi boshqa buyumlar topilgan. Shuningdek, qal'aning old tomoni va minora panjaralarini bezab turgan arxitektura bezaklari ham topilgan. Topilgan tangalar, kuchli yong'in izlari va vayronagarchilik asoratlari qal'a qo'rg'oni VIII asrning birinchi choragida, arablar yurishi paytida halokatga uchraganligini ko'rsatadi. Yunusobod Oqtepa qal'a qo'rg'oni atrofidagi qishloqlar mudofaa devorlari bilan to'silmagan bo'lib, o'sha

paytda hali shaharga aylanmagan edi. Shaharcha hayoti VIII asrning ikkinchi yarmida yana jonlangan, IX-XII asrlarda esa bu yerda Binket hududidagi mustahkamlanmagan qo'rg'onlardan biri mavjud bo'lgan va XIII asr boshlarida tanazzulga yuz tutgan.

2.4. O'zbekiston ijtimoiy va madaniy merosida Toshkent muzeylarining ahamiyati

Rang-barang va boy kolleksiyalarga ega turli muzeylar sonining ko'pligi O'zbekiston ijtimoiy va madaniy rivojlanishi xususiyatlarini aks ettiradi. Muzeylar ma'rifatparvarlik rolini o'ynaydi. Balki yosh avlodni vatanparvarlik, buyuk ajdodlari bilan mag'rurlanish ruhida tarbiyalashga ham xizmat qiladi. Aynan muzeylar madaniy, tarixiy va badiiy meroslarga, umuminsoniy qadriyatlarga bosh qo'shishga, fan, din e'tiqod va mahalliy xalqlarning turmush tarzi, an'analari, san'at asarlari bilan tanishishga xizmat qiladi.

Mustaqillik yillarida yurtboshimiz davlat muzeylari ishini rivojlantirish, noyob yodgorliklarni qayta tiklashga jiddiy e'tibor qaratganini ko'rishimiz mumkin. Bunga yaqqol misol – Temuriylar tarixi muzeyining yaratilishi bo'lib, bu muzey eksponatlarining noyobligidan tashqari binoning badiiy bezaklari ham kishini maftun etadi.

O'zbekistonda turli yo'nalishdagi muzeylar tashkil etilgan va faoliyat ko'rsatib kelmoqda. Ulardan eng ko'pi o'lkashunoslik va badiiy muzeylardir. Respublika muzeylari ichida uchta eng yirik muzey-shaharni ajratib ko'rsatish mumkin: Samarqand, Buxoro va Xiva ("Ichan-qal'a"). Shuningdek, respublikada uchta yirik badiiy muzey ham mavjud. O'zbekiston davlat san'at muzeyi (Toshkent sh.) tasviriy va xalq-amaliy san'at asarlari ajoyib to'plamiga ega bo'lib, haqli ravishda O'zbekiston milliy san'at asarlari xazinasini deb ataladi. Xalq-amaliy san'at asarlari davlat muzeyi (Toshkent sh.) noyob amaliy san'at namunalari kolleksiyasiga ega. Muzey binosining o'zi ham katta qiymatga ega bo'lib, o'zbek monumental-dekorativ san'atining o'ziga xos namunasi hisoblanadi. Uni bezashda eng mashhur xalq ustalari qatnashgan. Naqshinkor ustunlar, nafis bezaklar, devorga ganch naqshlarini berish, mehmonxona va kalyonxona ayvonlaridagi rang-barang bezaklar takrorlanmas chiroy baxsh etgan. Muzey xalqaro ko'rgazmalarning doimiy makonidir. Savitskiy nomidagi davlat san'at muzeyida (Nukus sh.) rus va o'zbek, shuningdek, qoraqalpoq xalq amaliy san'atining noyob asarlari to'plami yig'ilgan. Muzey qoshida maktab o'quvchilari uchun lektoriya va "Yosh rassom" to'garagi ishlab turibdi.

O'zbekistondagi yagona tabiat muzeyi (Toshkent sh.) 120 yildan beri faoliyat ko'rsatmoqda. Muzey ekspozitsiyasi yer va quyosh tizimining boshqa sayyorolari kelib chiqishini aks ettiradi, genetika va seleksiya asoslari, respublikaning tabiiy va madaniy landshaftlari bilan tanishtiradi.

Bu yerda entomologiya, botanika va geologiyaga oid kolleksiyalar to'plangan. Muzey fondida 1,5 milliondan ortiq eksponat bor.

Toshkent shahrida joylashgan O'zbekiston xalqlari tarixi muzeyi respublikadagi eng keksa muzeylardan biri bo'lib, tarixiy va madaniy yodgorliklar saqlanadigan eng katta joy hisoblanadi. Muzeyda Teshiktosh paleolitik manzilgohi, bronza davridagi Chust manzilgohi arxeologik kolleksiyalari va boy ossuariylar

to'plami mavjud. Muzey eksponatlari orasidan milliy kiyim-kechaklar, maishiy buyumlar, tarixiy shaxslarning suratlari va hujjatlari o'rin olgan. Muzeyda respublika tarixini o'rganish bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda.

A.Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi (Toshkent sh.) ulkan kitob va qo'lyozma fondiga ega. Muzey ekspozitsiyasi bashariyat madaniyati tarixining eng yorqin shaxslaridan biri – Alisher Navoiy hayoti va faoliyatini keng aks ettiradi. Muzeyda o'zbek xalqining boy adabiy merosiga katta o'rin berilgan.

Sog'liqni saqlash muzeyi (Toshkent sh.) tibbiyotga oid bilimlar va sog'liqni saqlash bo'yicha erishilgan yutuqlar targ'iboti bilan shug'ullanadi. Respublikadagi sanitariya va gigiyena tarixi keng yoritiladi. Muzey jihozlari ekologik muammolar, turli kasalliklar davolanishi bilan tanishtiradi.

Muzeyda buyuk vrach va alloma Abu Ali ibn Sinoga bag'ishlangan maxsus jihozlangan zal mavjud.

Toshkentda Olimpiya shon-shuhrati muzeyi, jangovar va mehnat shuhrati muzeyi, kinosan'at muzeyi yaratilgan, shuningdek, badiiy ko'rgazmalar direksiyasi, "O'zekspomarkaz", O'.Tansiqboev, S.Esenin, M.Ashrafiy, Yu.Rajabiy, S.Borodin, Oybek, M.Turg'unboeva, Tamaraxonim, A.Qahhor, G'afur G'ulomlarning uy muzeylari ishlab turibdi.

Respublikaning har bir viloyatida o'lkaning tarixi va xususiyatlarini o'rganish va targ'ibot qilish bilan shug'ullanuvchi o'lkashunoslik muzeylari faoliyat ko'rsatmoqda. Angren, Sirdaryo va Urganch shaharlarida kichik badiiy timlar ochilgan. Muzeylarning butun mamlakat bo'ylab geografik tarqalishi keng aholi ommasining muzeylarga kelishi uchun imkoniyat yaratadi. Respublika muzeylarida eksponatlar to'plash va ilmiy tadqiqot ishlaridan tashqari, turli ekskursiyalar, ma'ruzalar, atoqli shaxslar bilan uchrashuvlar, tematik adabiy kechalar, jonajon o'lkani o'rganish bo'yicha viktorinalar, "Mustaqillik kuni", "Navro'z" bayramiga bag'ishlangan etnografik ko'rgazmalar o'tkazib turiladi.

O'zbekiston Madaniyat ishlari vazirligida "Oltin meros" xalqaro xayriya jamg'armasi va Badiiy akademiya bilan birgalikda muzeylar faoliyatini yanada yaxshilash bo'yicha ilmiy yo'nalish va dastur ishlab chiqilgan.

Respublika madaniy hayoti yutuqlarini targ'ib etish maqsadida "Moziydan sado" ilmiy-metodologik, ma'naviy-ma'rifiy jurnal tashkil qilingan.

Mustaqillik yillarida shahar yanada ko'rkamlashdi, xorij sarmoyadorlari bilan birgalikda zamonaviy mehmonxonalar, sport maydonlari qurilib, ko'pgina xalqaro uchrashuvlar o'tkazilmoqda.

Turistik yo'nalishlarni yaratishda Toshkent shahrining tarixiy obidalari va arxitektura yodgorliklari boshlang'ich nuqta hisoblanadi. Turistik mahsulotni ishlab chiqish uchun zarur bo'lgan transport vositalari, mehmonxona va restoranlar, sayohat qilishga sazovor joylar, muzeylar, arxitektura va arxeologik yodgorliklar, zamonaviy inshootlar mavjud.

Qisqacha xulosa

Ushbu "Toshkent shahri tarixiy merosi va zamonaviyligi" deb nomlangan mavzuyimizda Toshkent shahrining butun 2000 yil ilgari qal'a sifatida paydo bo'lib, asrlar o'tishi bilan nomi o'zgarib kelganligi, vohaning geografik joylashuvi, uning

lim sharoiti, xalqning qadimdan shug'ullangan mashg'ulotlari yoritilgan. Poraxoniylar davlati tarkibida bo'lganda bu yer savdo chorrahalarida birlashib, madaniyat rivojlanganligini ta'kidlaydi.

Chor Rossiyasiga qo'shib olingandan keyin, o'lkani tarixiy-madaniy jihatdan o'rganish boshlanganligi, shaharda asrlar davomida avlodlar tomonidan yaratilgan arxitektura yodgorliklari, jumladan madrasalar, masjidlar ularning qurilish uslublari yoritilgan. Ma'ruzada Toshkent darvozalariga ham to'xtalib, yillar o'tmishi bilan o'qolish sabablari to'xtalib o'tilgan.

Toshkent shahridagi muzeylar aholini ijtimoiy-madaniy tarbiyalashdagi ahamiyati hozirgi kunda shahar yanada rivojlanib, u yerdagi san'at saroylari, kinoteatrlar badiiy ko'rgazmalarga ham qisqacha tasnif berilgan.

Tayanch iboralar

Toshkent vohasi, Shoshtepa, aylanasi qal'a qo'rg'oni, suyak uslubi, Chilonzor, dacha, peshtoq, hujra, mayolika, timpan, ravoq, pilon, guldasta.

Nazorat savollari

1. Toshkent shahrining vujudga kelishi.
2. Shaharning dahalarga bo'linishi.
3. Toshkent-savdo yo'llari chorrahasida.
4. Shahardagi yirik madrasalar.
5. Shahar darvozalariga tavsif berish.
6. Toshkentning qadimgi qabristonlari.
7. Eski shaharning rivojlanish bosqichlari.
8. Chilonzor Oqtepa yodgorligini ta'riflab bering.
9. Toshkentdagi muzeylar to'g'risida so'zlab bering.
10. Mustaqillik yillarida shahardagi madaniy o'zgarishlar.

Adabiyotlar

1. Мирзаев Р. Путешественники и исследователи на Великом Шелковом пути. – М.: ЗАО Изд. дом «Муравей», 2005. С. 54-60.
2. Мирзаев Р. Туристические жемчужины Узбекистана. – Т.: Шарк, 2005. С. 35-40.
3. O'zbek islom obidalari. Fotoalbum. – Т.: O'zbekiston, 2002. 243-250-b.
4. Тухлиев Н., Кременцова А. Республика Узбекистан. Энциклопедический справочник. – Т.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2001. С. 143-149.
5. Горбунова В.В. Фергана по сведениям античных авторов. – М., 1976.
6. Ртвеладзе Э. Великий шёлковый путь. Древность и раннее средневековье. – Т.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 1999. – 280 с.
7. www.tourism.ru
8. www.travel.ru

3-bob. XORAZM VOHASI BO'YLAB

3.1. Qadimgi Xorazm

Qadimgi Xorazm yodgorliklariga neolitik manzilgohlar, o'rta asr ma'muriy-harbiy markazlari, Buyuk Ipak yo'lining shimoliy yo'nalishidagi Xiva xonlar saroylari madaniyat majmualari kiradi.

Xorazm yerlari qadimiy yodgorliklar va afsonalarga boy. Uning tarixi juda qadim davrlarga borib taqaladi, u bilan faqat kam sonli jahon sivilizatsiyalargina bellasha oladi. 1938-yildan boshlab ko'p yillar davomida qadimgi Qoraqalpog' shaharlarida arxeolog akademik Sergey Pavlovich Tolstov ishlagan. U ajoyib asarlarni qoldirish bilan birga biz uchun ko'plab arxeologik yodgorliklarni ochib berib, ular haqidagi afsonalarni yaratib berdi.

Qadimgi Xorazm "Buyuk Ipak yo'li" ochilishidan bir necha asr ilgari quruqlik va suv yo'llari orqali Yevropa va Sharq bilan, Sibir va Janubiy sivilizatsiyalar bilan bog'langan. U O'zbekiston hududida shakllangan uch sivilizatsiyadan birining beshigi hisoblanadi. Bu yerda Qora dengiz bo'yi, Krit-miken (ellin), Moxenjodaro (Shimoliy Hindiston, Shimoliy Afg'oniston va Janubi sharqiy Eron) va Xitoy sivilizatsiyalari kesishgan va bir-biriga qo'shilib ketgan. Turli sivilizatsiyalar madaniyatlarining uyg'unlashuvi "Buyuk Ipak yo'li"ning ochilishi bilan yanada jadallashganligini arxeologik topilmalar ham tasdiqlaydi.

O'zbekiston arxeologlari bu yerda eramizning VI asrigacha, to Xorazm davlati Ahamoniylar Eronidan mag'lubiyatga uchraguncha, birgalikda yoki birin-ketin kelgan qadimgi keltminor, tozabog'yob, suyurg'on va amirobod madaniyatlarini aniqladilar.

Madaniy aloqalar va etnik kelib chiqish Xorazmni shimolda Sibir, shimoli g'arbda Orolbo'yi va Sharqiy Yevropa, sharqda Sharqiy Turkiston, janubi-sharqda Hind okeani, janubda Fors qo'ltig'i, janubi g'arbda Qizil dengiz va Arabiston yarimoroli bog'lagan. Xurritlar va turklarning etnik unsurlari qadimgi Old Osiyo, Xattlar podsholigi, Mesopotamiya, Elam, Hindiston va Azovbo'yi xalqlarini shakllantirgan.

Qadimgi Xorazmda qanday xalq yashagan, ular qayerdan kelib qolgan? Xorazmliklar haqida qayd etilgan dastlabki yozma manbalar eramizdan avvalgi V asrga taalluqli. Mamlakatga karvon yo'li orqali tashrif buyurgan tarix otasi Gerodot bir paytlar "Xorazmiylar"ga tegishli bo'lgan davlat har tomondan tog' tizmalari bilan o'rab olinganligini yozgan. Tekislikni o'rab turuvchi tog'lardan oqib chiquvchi Akes (Amudaryo) daryosi dastlab beshga bo'linib, daryoning har bir tarmog'i oqib o'tayotgan dara orqali voha yerlarini sug'organ. Biroq kunlardan bir kun Ahamoniylar shohi tog' darasini yopish va har birining oldiga darvoza (shlyuz) o'rnatishga buyruq berdi, buning natijasida suv chiqib ketish uchun yo'l topa olmadi va tog'lar orasida qolgan tekislik ko'lga aylandi (balki gap bu yerda Orol haqida ketayotgandir). Bu suvdan foydalanayotgan xalqlar endilikda suvsiz qolib, katta qiyinchiliklarga duch keldilar va qishda Fors davlatiga xotinlari bilan jo'nab, shohning qasri oldida ho'ngrab yig'laganlar. Shunda shoh shlyuzlarni ochib yuborishni buyurgan. Yerlar suvga to'yishi bilan shlyuzlar yana yopilgan, shu bilan

birga shoh boshqa shlyuzlarni suvsizlikdan qiynalayotgan boshqa xalqlar uchun ochib yuborishni buyuradi.

Jonbos-4 Keltminor manzilgohida olib borilgan arxeologik qazishmalar ushbu madaniyatning o'ziga xos qirralarini ochib berishga imkon bergan. Keltminorliklar o'z qurollarini faqat tosh va suyaklardan yasaganlar. Ko'p sonli chaqmoqtoshdan yasalgan buyumlar, mineraldan yasalgan "Pichoqsimon" plastinalar (kurakchalar, yirik suyakli qurollarning tig'lari), bitta tishli va bir tomoniga ishlov berilgan kamon o'qlarining tor uchburchak poynaklari, tomoni teng shakldagi tosh boltalar, uzoq Hindistondan keltirilgan chig'anoqlar va qimmatbaho toshlar, shuningdek, mayda silindrsimon chig'anoqlar, bir tomoni teshilgan marjonlar va ilgaklar topilgan.

Madaniy va etnik aloqalar ularni shimoldan Qozog'iston, Sibir, Shimoliy sharqiy Yevropa va Orolbo'yi bilan bog'lasa-da, qazilmalarda faqat Hind okeani, Qizil dengiz, Fors qo'ltig'i va Arabiston yarimoroli chig'anoqlari topilgan. Bu esa o'tmishdagi savdo aloqalarining juda keng bo'lganligidan darak beradi.

Keltminorliklarning uylari ancha katta – 24x17 m bo'lgan. Bunday uylarda 100-120 kishi bo'lib yashaganlar. Uyning markazida hech qachon o'chmaydigan muqaddas olov bo'lgan. Chap tomonda diniy rasm-rusumlar uchun joy ajratilgan.

Qadimiy Xorazm tarixida Keltminor madaniyati o'rniga Sibir va Qozog'iston uchun ahamiyatli bo'lgan Tozabog'yob madaniyati kelgan. Shu bilan bir paytda Eronning janubi etnik elementlari bilan bog'liq bo'lgan Suyurg'on madaniyati ham uchrab turgan. Ilk bosqichda Suyurg'on madaniyati o'rnini Amirobod madaniyati egallagan. Bu haqda uylarning shakliga qarab ham xulosa chiqarish mumkin. Uzunchoq oval shaklidagi yog'ochdan qurilgan uylar o'rniga juft oilalar uchun moslashtirilgan xom g'ishtdan qurilgan uylar paydo bo'ldi. Ehtimol, bunday jamiyat "Mol-holga boylar" va "Kambag'allar"ga taqsimlangan deb Avestoda ta'riflangandir. Avesto matnlari to'raligicha urug'-qabila munosabatlarini ifodalab bergan.

Qadimgi tarixchilar Gerodot va Strabonning ma'lumotlari Miletlik Gekatey, Knidlik Ktesiy va boshqalarga borib taqaladi. Ular qabilalar nomini aytib, Xorazm hududida yashagan temirni unchalik yaxshi bilmagan, lekin mis va oltinga boy bo'lgan massagetlar haqida xabar beradilar. Gerodot, Ktesiy va boshqa mualliflar bunday birlashmalardagi ijtimoiy tuzumi, massagetlarda ayollar mavqeyi yuqoriligi, qabila boshlig'i bo'lgan ayollar (To'maris, Sparetra) haqida guvohlik beradilar. Ularning iqtisodiy faoliyati to'g'risida bizgacha yetib kelgan irrigatsiya qurilmalari qoldiqlariga qarab xulosa chiqarish mumkin. Eramizdan avvalgi VII-VI asrlarda Xorazmda kuchli irrigatsiya qurilmalari ishga tushirilgan bo'lib, bu haqda Gerodot eramizdan avvalgi V asrda yozib qoldirgan.

Xorazm davlatining o'sishi va kuch-qudrati eramizdan avvalgi VI-V asrlarda, Ahamoniylar monarxiyasi kuchayishi bilan yakun topdi.

Abu Rayhon Beruniy qadimgi Xorazmlik yagona tarixchi bo'lib, u Kyat shaharchasida tavallud topgan. Beruniy o'z asarlarida xorazmiylar o'z yil hisobini boshlagan eramizdan avvalgi XIII asrga to'g'ri keluvchi ikkita qadimgi yil hisobini keltiradi. Dastlabki yil hisobi Xorazmning shohlari afsonaviy asoschisi bo'lgan Kaykovus o'g'li Siyovush tomonidan bosib olinishidan boshlanadi. Beruniy Siyovushiylar erasi "Iskandardan 980 yil avval" boshlanganini ko'rsatadi. Bu paytda ularning mamlakatiga "Avesto"ning afsonaviy qahramoni va "Turklar shohligi"ni

bo'ysundirgan Siyovush ibn Kaykovus va Beruniyning yozishicha, eramizning X asrigacha hukmronlik qilgan Xorazmshohlar sulolasi asoschisi Siyovush o'g'li Kayxusrav haqidagi qadimgi Eron eposi qahramoni kirib kelgan.

Strabon massagetlarni xorazmiylar deb ataydi, ya'ni ularni kelgindi emas, balki keyinchalik ko'chmanchi qabilalar bilan aralashib ketgan mahalliy qabilalar (avtoxotonlar) deb hisoblaydi. Buni Sultonuizdog', Chilpak, Qoratepa, Beshtepa kabi shimoli g'arbiy tog' yonbag'irlar qumtepalaridagi qoyalarga ishlangan rasmlar ham tasdiqlaydi. Bu qoyalarning tepa qismlariga rang-barang belgilar turli geometrik shakllar, ko'pincha piktografik kompozitsiyalarga birlashtirilgan to'g'ri va egri panjaralar o'yib ishlangan. Bu belgilar bronza asridagi Azovbo'yi qoya rasmlariga ("Toshqabr"), boshqa tomondan esa Hindiston, Elam, Mesopatamiya va Xetlar podshohlari qoya rasmlariga juda yaqin.

3.2. O'rta asrlardagi Xorazm madaniyati arxeologik qazilmalari va taraqqiyot davri

Eramizdan avvalgi VIII-VII asrlarda Xorazmda yangi davr boshlandi va Beruniyning so'zlariga ko'ra, xorazmiylar yil hisobini shohlar hukmronligidan hisoblay boshladilar. Shu paytdan boshlab, Xorazm tarixida o'z urug'ini ilohiy Siyovushga borib taqaladi deb hisoblovchi qabila boshliqlari – qohinlar hukmronligi tugatildi.

Markvart (ingliz olimi), Bartold va boshqa bir qator tadqiqotchilar Xorazm hududida sirli mamlakat Ayrannemvejo yoki Eranvej – zardushtiylikdagi eng oliy iloh Axuramazda tomonidan yaratilgan dastlabki aholi yashagan manzilni izlaganlar. An'analarga ko'ra, bu mamlakat shimoliy va sovuq mamlakat hisoblanadi. Afsonalarga ko'ra, bu yerda zardushtiylik dinining asoschisi, afsonaviy payg'ambar Zaratushtra (Zoroastr) tavallud topgan.

Markvart o'limidan so'ng, 1938-yilda chop etilgan asarida Osiyoda ahamoniylar (eramizdan avvalgi VI asrgacha) davridan oldin Xorazm boshchiligida So'g'diyona (Zarafshon havzasi) va Xurosonni (Janubiy Turkmaniston, Shimoli sharqiy Eron va Shimoli g'arbiy Afg'oniston) birlashtirgan qudratli davlat mavjudligi haqidagi farazni ilgari surgan. Markvardan xabardor bo'lmagan holda, 1938-yilda Torn ham xuddi shunday xulosaga keldi. Biroq oxirgi paytlargacha faqat farazlar bor xolos. Qadimiy Xorazm tarixi sirli jumboq bo'lib qolmoqda.

Ahamoniylargacha bo'lgan davrda nimalar bo'lganligi haqida tarixda ma'lumotlar yo'q, faqat ayrim arxeologik topilmalar va afsonalar qolgan, xolos. Biroq ular ahamoniylargacha bo'lgan davrda sivilizatsiya mavjud bo'lganligiga ishora qiladi. Saqlanib qolgan Ahamoniylar tasviri tushurilgan yodgorliklar (Naqshi-Rustam dasarida joylashgan Doro maqbarasini bezab turuvchi bo'rtma naqshlar) tufayli xorazmiylarning tashqi ko'rinishi va kiyim-kechaklari bizlarga ma'lum. Yodgorlikda Doroga bo'ysungan barcha xalqlar vakillari tasvirlangan, ularning turli etnik tiplari, kiyim-kechagi, tashqi ko'rinishi, qurollari mahorat bilan ishlangan. Har bir figura ostida (ularning soni 28 ta) mixxat yozuvlari bo'lib, ularning orasida so'g'dlar, baqtriyaliklar, xorazmiylar, sak-tigraxaudlar, sak-xaumvaraqlar va sak-tara-darayyalar ham bor. Bu xalqlarning tasviri boshqa ahamoniylar maqbaralari va Persepol (qadimgi Eron poytaxti) saroylarida ham uchraydi.

Markaziy Osiyoning barcha oltita vakillari belida skiflarga xos xanjarlar (yakinak) osilib turgan. Oltita figuraning soqoli bo'lgan, ayniqsa, so'g'd va baqtriyalikning soqoli uzun bo'lgan. Bu uchala sak xalqlari va xorazmiylar uchun umumiy bo'lgan chakmon bichimi xorazmiylarning massagetlar ittifoqiga kirgan sak xalqlariga mansubligini tasdiqlaydi.

Ayollar kiyim-kechagi haqida Xorazmda, Tali-borza va Afrosiyobda topilgan, quydirilgan shakllar haqida mulohaza yuritish mumkin. Bu uzun ko'ylak, yelkaga tashlanuvchi uzun yengli naqshinkor hoshiyali ustki kiyim, yumshoq oyoq kiyimi, marjon, bilakuzuk va bosh kiyimdan iborat edi.

Gerodot Fors davlati asoschisi – Kayxusravning o'limi haqida ham bir tarixiy epizod beradi. Midiya va Vavilonni bosib olgach, Kayxusrav Kaspiy daryosidan sharqqa, To'maris hukmronligi ostidagi massagetlar mamlakati tomon yo'l oldi va u bilan kurashda Amudaryo ortidagi dasht ichkarisiga kirib ketdi. U To'maris bilan janglardan birida mag'lubiyatga uchradi va halok bo'ldi. Gerodot bu yurishni detalli ravishda bayon qiladi va To'maris jangda mag'lub bo'lgan Kayxusravning kallasini tanasidan judo qilib, odam qoni to'la meshga tiqqanligi va "Qonxo'mi qonga to'ydirganligi" haqidagi xalq rivoyatini keltiradi.

Tarixchilar bergan xabar va sayohatchilarning guvohliklariga ko'ra, keng yo'lga qo'yilgan xalqaro savdo yarmarkalari o'tkazilgan shaharlar va ajoyib karvon yo'llari xizmat qilgan. U yaxshi yo'lga qo'yilgan pul muomalasiga asoslangan. Ksenofont ko'rsatmalari hamda Kayxusrav va Kambiz davridagi tilla tanga topilmalari Eronda (Sard, Suz va Vavilonda) "darik" (forscha "dari" – tilla) deb nomlangan tangalar zarb etilganidan dalolat beradi. Tilla darik vazni 8,416 gr bo'lib, 20 kumush siklga (oramiycha "shekel" – vazn o'lchami), sikl esa belgilangan tangalar soniga teng bo'lgan. Tilla tangalarni faqat shoh, kumush tangalarni esa mahalliy sulola va hukmdorlar zarb ettirishga haqli bo'lgan.

Markaziy Osiyoda o'sha paytda tortma tilla ko'p ishlatilgan bo'lib, juda kam sonli darik topilmalari (Afrosiyob va eski Termizda) ma'lum, xolos.

Hozirgi paytda arxeologlar tomonidan ahamoniylar davriga (eramizdan avvalgi IV-asr) taalluqli bir qator qadimiy shahar xarobalari topilgan. Eng qadimiy manzilgohlar turiga katta tepalik ustidagi Kyuzeligir va Kalaligir shaharchalarini kiritish mumkin.

Ikkala qal'a shunisi bilan ajralib turadiki, ularni ikki qatorli (odatdagidek, to'rt qatorli emas), har bir qator o'rtasida uch metrli yo'laklari bo'lgan devorlar bilan o'ralgan. Ularning tomi nishakli to'sinlar bilan himoyalangan. Devorlar o'rtalig'idagi kuchli madaniy qatlam S.P.Tolstovga bu turdagi manzilgohlarni "turar-joy devorlariga ega shahar xarobalari" deb atash va ularni eramizdan avvalgi V asrga mansub deb hisoblashga imkon bergan.

Shahar xarobalari ichida hech qanday bino izlari topilmagan. Ehtimol, bu yerda faqat chorva mollari boqilgandir.

Olimlar har bir bunday shaharda butun qabila o'z sardori bilan yashagan deb hisoblaydilar. Kyuzeligir va Kalaligir qal'a qo'rg'onlariga murojaat qilish fanda urf bo'lib qolgan. Bu va bunga o'xshash sahrolarda yo'qolib ketgan shaharlar o'rtasida arxeologlar har 25-30 km masofada bir paytlar butun Xorazm hududini qamrab olgan karvonsaroylar, sardobalar va qadimgi karvon yo'llarining boshqa alomatlarini

topadilar. Shunday yo'llardan biri orqali eramizdan avvalgi 328-yilda Iskandar Zulqarnayn qishlayotgan Zariaspaqa Xorazm shohi Xarasmonning elchilari, ehtimol, uning o'zi ham 1500 kishilik askar bilan tashrif buyurgan. Elchilar do'stlik va ittifoq niyatida bo'lganlar. Iskandar xorazmiylarga qo'shni bo'lgan va ularni vaqti-vaqti bilan bosqinchilik yurishlari bilan bezovta qilib turuvchi kolx va azovliklar ularga qarshi yurish qiladigan bo'lsa, yordam taklif qilgan.

3.3. Qadimgi Xorazm sivilizatsiyasining yuksalish davri

Eramizdan avvalgi IV asrdan I asrgacha bo'lgan davr qadimgi Xorazm sivilizatsiyasi gullab-yashnagan davriga to'g'ri keladi. Bu davrga taalluqli yodgorlik juda ko'p uchraydi. Bozor qal'a (eramizdan avvalgi IV-III asr), Qo'yqolgan qal'a va Kyunerli qal'a va boshqa yodgorliklar eramizning I asrida eng yuksalgan davridir. Bu istehkomlar qishloq manzillari sifatida namoyon bo'ladi.

Jonbos qal'a nomli shaharcha joylashuvi katta qiziqish uyg'otadi. Ikkita yirik binoning har biriga tutashib ketgan shahar devorlaridagi g'ishtlarda qarindoshlik munosabatlari guruhlarini belgilab beruvchi turli xil belgilar bo'lgan. Shaharda ikkita katta uy bo'lib, ularning har birida 200 tagacha xona bo'lgan, ya'ni uy 500-700 kishiga mo'ljallangan. Jonbos qal'adagi ikki uy o'rtasidan shahardagi yagona ko'cha kesib o'tgan. Xuddi shu narsani Tuproq qal'ada ham kuzatish mumkin: shahar darvozasidan boshlanuvchi yagona ko'chani ikki tarafida torko'chalar bilan ajratilgan to'rtta bino aksli joylashgan. Shaharlarning ikkiga taqsimlanishi urug'lar guruhlanishidan darak beradi.

Qadimgi Xorazm shaharchalarida muhim qismlar sifatida "uy-olov"lar paydo bo'la boshlagan. Jonbos qal'a va Tuproq qal'adagi "uy-olov"lar ko'chani darvoza ro'para qismida joylashgan. So'nmas muqaddas olovga sig'inish (otash-kada, buyutniran) va diniy marosimlar o'tkaziladigan ibodatxonalar haqida Beruniy va boshqa O'rta asrlarda yashab o'tgan mualliflar xabar beradilar. Mazkur "uy-olov"lar (olovxonalar) sarqitlari hozirgi kunda ham tog'lik xalqlarda saqlanib qolgan bo'lib, ularni masjidlarda uchratish mumkin.

Arxeologlar tomonidan topilgan hunarmandchilik buyumlari, kulolchilik anjomida tayyorlangan va to'q qizil angoba bilan qoplangan sopol idishlar shu paytga (eramizdan avvalgi IV-II asrlar) taalluqlidir. Ko'zalarning dastaklari sherning boshi sifatida ishlangan.

Shimoliy Qora dengiz bo'yidan (Olviya va Kerch) turli-tuman marjonlar topilgan: to'q rangli shishadan yasalgan mayda marjonlar, silindr shaklidagi, sharsimon, cho'zinchoq munchoqlar, och-yashil shishadan yasalgan mayda munchoqlar, tillarang va qattiq shisha munchoqlar. Sharsimon agat va serdolik, mayd tomoni teng shaklidagi, pirit shaffofligi va yirik bochkasimon marjonlar Hindiston, Suriya va Misrdan keltirilgan. Misr shokilalari va Misr xudosi Bessning kichik haykalchasi Bozor qal'adan topilgan. Marjon va munchoqlarning turli-tumanligi bu davrda xorazmliklarning tashqi savdo aloqalari keng bo'lganligidan dalolat beradi.

Shaharlar va qishloq uylarining istehkomlari juda yaxshi saqlangan. Shaharlar yirik (40x40x10 sm) xomg'ishtli devor bilan o'ralgan. Devorlar poydevori paxsadan qilingan. Devorlarning tepa qismi baland va tor nishakli tim – bir yoki ikki qavatli o'qchilar yo'lagiga ega bo'lgan.

Ayrim qal'alarda (masalan, Jonbos qal'a), umuman, minoralar bo'lmagan. Burchaklarni himoya qilish uchun o'ziga xos qiya nishaklar tizimi qo'llangan. Kichik Qirqko'z qal'asi ham minorasiz bo'lgan, biroq bu qal'a oval shaklda bo'lgan. Qo'yqirilgan qal'a 18 burchakli bo'lib, uning tashqi devorida minoralar bo'lgan.

Xorazmning janubi sharqida minorali qal'a istehkomlari keng tarqalgan. Qadimgi Xorazmdagi deyarli barcha qal'alarga "darvoza oldidagi labirintlar" – devorning katta to'rtburchakli turtib chiqqan joylari bo'lib, ularning ichida darvozalarga yo'l bo'lgan va har tomondan nishaklar joylangan. Bu qadimgi Misr, Assiriya, Ahamoniylar Eroniga xos bo'lgan mumtoz Sharq istehkom an'analari bo'lgan. Biroq xorazmliklar burchaklar mudofaasi muammosini o'z bilganlaricha hal qilganlar.

Jonbos qal'a, Bozor qal'a, Qo'rg'oshin qal'a, Qirqqiz, Kichik qirqqiz, Ayoq qal'a, Burli qal'a va Tuproq qal'a – bularning barchasi ariqlarning orqa qismida joylashgan bo'lib, har bir qal'adan ko'rinib turuvchi mudofaa chizig'ini tashkil qilgan. Bu vohaning yaxlit mudofaa rejasi bo'lgan.

Ilk O'rta asr uchun voha ichkarisidagi kichik qal'alar va ogohlantiruvchi minoralari, ariqlarning yaqinligi xos bo'lgan. Uch turdagi katta binoli mustahkam qo'rg'onlar, rivojlangan istehkom tizimiga (mustahkamlangan darvozalar, minoralar) ega katta qal'alar, ichki xonalarsiz devorlar va uchinchi tur – yirik turar-joy binolariga ega bo'lgan Katta qal'a qo'rg'onlari bo'lgan.

Eramizdan avvalgi III asrning ikkinchi yarmida Yevropa hali Sibir, Oltoy o'lkasi, Mongoliya va Xitoy haqida tasavvurga ega emas edi. Greklar, jumladan Iskandar Zulqarnayn va Selevk foydalangan dunyo xaritalari mukammal emas edi, butun dunyo O'rta yer dengizi atrofida joylashgan deb hisoblangan. Qora dengiz ortida Tanais (Don) Sirdaryo bilan tutashadi, Kaspiy dengizi esa Azov dengizidan ajralib paydo bo'lgan kichik ko'l hisoblangan. Iskandar Zulqarnayn davrida Nearx va Krater, Hindistonning janubiy qismini o'rganib chiqib, bu yerlar haqida ma'lum bir tasavvurga ega bo'ldilar. Zulqarnayn vataniga Arabiston yarimorolini janub va sharq tomondan aylanib o'tib qaytib keldi. Keyinroq Selevk Hindiston tomon yo'l oldi va uning elchisi Megasfen (taxminan eramizdan 300 yil avval) Hind vodiysini ta'riflab bergan. Biroq o'lchovlik ta'riflashdan hali xabardor bo'lmaganlar va shu sababli mamlakatlar hajmi ilk chizmalarda haqiqatga to'g'ri kelmagan. Mana shu sababli ham keng xalqaro savdoni rivojlantirish maqsadida Selevk Qora va Kaspiy dengizlari o'rtasida kanal qazish hamda Shimoliy Hindistonni katta karvon yo'llari kesishuvidagi xalqaro yarmarkalar o'tkaziladigan joy – "Tosh qal'a" bilan birlashtirish to'g'risida noto'g'ri qaror qabul qildi (Beruniy "Tosh qal'a"ni Toshkent shahri bilan bir narsa deb ataydi). Selevk I va Antiox I davrida (eramizdan avvalgi 290-281-yillar) dengizchi Protokl tomonidan Kaspiy dengiz maxsus tadqiq etiladi. Dengizchi Mang'ishloqqacha yetib boradi va dengizdan chiqib ketish yo'lining yo'qligiga ishonch hosil qiladi. Tadqiqot shu bilan yakunlanadi. Yevropaliklarda Sharq mamlakatlari haqida bunday tasavvur deyarli XIX asrning o'rtalarigacha saqlanib qolgan, bu paytda esa keng Uralbo'yi dashtlarida katta voqealar ro'y bergan, xunnlarning G'arbg'a yurishi boshlangan.

Grekl-Baqtriya mamlakati qanchalik kam umr ko'rgan bo'lmasin, Markaziy Osiyo xalqlari iqtisodiy va madaniy hayotida sezilarli iz qoldirdi. Grek savdogarlari,

rassomlari va hunarmandlarining paydo bo'lishi grek va sharq madaniyatining uyg'unlashuviga – sharq ellinizmiga olib keldi. Uning ta'siri ostida o'z navbatida Gretsiya madaniyati ham boyigan.

Kushon davrida Xorazm bir qator yodgorliklar bilan namoyon bo'lgan. Ayoq qal'a manzilgohi devor bilan o'ralgan dehqonlarning mustahkamlanmagan qo'rg'onlari edi. Ko'plab uylar rastasidan uchtasini: Ayoq-3 qal'asi, qoyada Ayoq-2 va Ayoq-1 qal'asini ajratib ko'rsatish mumkin. Bu yerda 40 ta xona, yo'laklar, quduq va dumaloq qo'riqchi minoralar bo'lgan. Bu shahar emas, qal'a qo'rg'oni edi. Bu paytda patriarxal-quldorlik jamiyatida darz ketgan bo'lib, kam sonli, biroq qudratli oqsuyaklar ajralib chiqqan.

Tuproq qal'ada qazish ishlari 1940-yilda boshlanib, bir yildan so'ng to'xtatilgan, 1945-yilda esa yana davom ettirilgan edi. Olimlar qal'a hukmdorning qasri bo'lgan degan xulosaga keldilar. Bu yerda qadimiy gumbazsimon bino juda yaxshi saqlanib qolgan. VI asrda qasr qarovsiz holga kelib qolgan, XII asrda unda yana odamlar yashay boshlagan. Tuproq qal'a to'rtburchak (500x350 m) shaklda bo'lib, ko'p sonli to'rtburchak minorachalar va o'qchilar uchun nishaklari bo'lgan qadimiy yirik g'ishtlardan qurilgan kuchli devor bilan o'ralgan. Shimoli g'arbiy burchakda hukmdorning uch minorali 25 metrlik qasri, undan so'ng hovli (180x180 m) joylashgan. Hovlidan chiquvchi gumbazsimon yo'laklar darvozaga va shahar ko'chasi markaziga olib borgan. Janubi sharqiy qismda olovga sig'inuvchilarning butxonasi joylashgan. Qasr va butxonaning umumiy maydoni 200x200 m bo'lib, bunga minoralar va hovli (169x50 m) kiritilmagan.

Minoralar (40x40 m) tepasi hozirda tekis ko'rinishga ega bo'lib, ularning balandligi 25 metrga teng. Ehtimol, ular yana 5 m baland bo'lgandir, hozirda ular kesik piramida ko'rinishiga ega. Qasming shimoliy qismida uch qavatda 100 ga yaqin xona joylashgan. Bu xonalarda meva danaklari va hayvonlar suyaklaridan tashqari qog'oz, jun va ipak mato, charm oyoq-kiyim qoldiqlari, uchta uch qirrali kamon o'qining uchi va 20 ta yog'och va qamishdan yasalgan kamon o'qlari, tilla suvi yugurtirilgan plastinkalar, bir necha miniaturali Xorazm tangalari va ulardan yirikroq Kushon mis tangalari (III-asr) topilgan.

Biroq eng qimmatli topilma monumental bezaklar va monumental haykal hisoblanadi. Devoriy rasmlar mineral bo'yoqlar bilan yelim asosida loysuvoq ustida bajarilgan va ingichka alebastr qatlami bilan qoplangan. Tasvir juda aniq, oq fonda qora bo'yoq bilan bajarilgan, ichki tomonda bo'rtma naqsh va yorug'lik shu'lasini baxsh etuvchi bo'yoqlar bilan to'ldirilgan.

Birinchi raqamli qazish ishlari olib borilgan xonadan o'rta asrlarga oid pifosxum, quyiroqda esa hech kim tegmagan uchi angoblangan kushon sopoli madaniy qatlami topilgan. Birinchi xona polida oq tuproqqa rang-barang bezaklar berilgan loysuvoq parchalari topilgan. Ikkinchi qavatda topilgan xona burchagi bundan tashqari faqat Varaxshadagi buddistlar ibodatxonasida uchragan.

5-xona musiqachilarni tasvirlash uchun foydalanilgan romb shaklidagi maydonchalarni hosil qiluvchi to'pbargul shaklidagi naqsh va akant varaqalari, yurakchalar bilan bezalgan turli tUSDagi qora-sariq yo'l-yo'l chiziqlar bilan gul solib ishlangan. Ulardan biri deyarli to'liq saqlanib qolgan: arfa chaluvchi ayolning barmoqlari uchburchak arfani nazokat bilan ushlab turibdi. Uning yumaloq yelkalari

va cho'ziq yuzi Kushon-qandahor rassomchilik an'analarini eslatadi va Ayritom frizi musiqachilariga o'xshab ketadi. Musiqiy asboblarda ichida do'mbira ko'rinishida aks ettirilgan, qumsoat shaklidagi ikki tomonlama tamtam tasviri qiziqish uyg'otadi.

G'arbiy devor atrofida yashil, to'q sariq va qizil rangga bo'yalgan meva va bargli girlyandalar, shuningdek, odamning kafti topilgan. Pastki qavatdagi xonalardan birida bir-birining qarshisida o'tirgan ayol va erkak figuralari aks ettirilgan. Yondosh xonada uzum va shaftoli terayotgan ayol, uning tepasida esa osilib turgan uzum boshlari va to'qilgan savatning bir qismi tasvirlangan.

Shimoli g'arbiy xonalardan birida peshonasini keng bilakuzuk taqilgan qo'lining mushtiga tirab olib, o'ylanib o'tirgan erkak kishining grafik tasviri (oq fonda qora va qizil rang bilan) tushirilgan. G'arbiy xonalardan birida devor paneli oq-qizil baliq suzib yurgan havorang to'lqinlar fonida to'q qizil rang bilan bezalgan. Panel tepasida qora va qizil fonda bajarilgan odamlar, hayvonlar va o'simiklar tasviri tushirilgan manzara kompozitsiyasi mavjud. Har xil xonalar turlicha bezalgan bo'lib, turli odamlar, yo'lbarlar, qushlar, ohular va boshqa hayvonlar tasviri uchraydi.

Devorga solingan naqsh va rasmlar buddistlar ta'siriga uchragan bo'lsa-da, biroq stilistik yo'nalishi bo'yicha o'ziga xosligi bilan ajralib turadi, shuning uchun Xorazm mustaqil madaniyat markazi haqida gapirishga haqlimiz. O'z koloriti bo'yicha bu maktab ranglarga boyligi bilan ajralib turadi. Bu yerda qizil, to'q qizil, pushti, ko'k, yashil, sariq, binafsharang, kulrang, oq va qora ranglarning turli tuslarini uchratish mumkin. Ajoyib rang kombinatsiyalari alvon, to'q ko'k, qora va oq fonlardagi tasvirlarni tashkil qiladi.

Haykallarning katta qismi "Shohlar zali"dan (20x20 m) topilgan. Bu zalning ikkita tokchasida o'tirgan erkaklar yirik (ikkita odam bo'yi) figurasi bo'lib, ularning atrofida 3-5 tadan erkak, ayol va bolalar figuralari joylashgan. O'tirgan haykallar ortida devor to'q ko'k fonda oq va qizil nilufar gullari bilan bezalgan. Shuningdek, ikkita bosh kiyim – Xorazm shohlari toji ham topilgan bo'lib, ularning biri Vazmar (III asr) tangalaridagi kabi oq burgut shaklida bo'lgan. Haykallar shohlarni, ularning atrofida esa oila a'zolarini aks ettirgan bo'lishi mumkin, ehtimol, bu xudolarning tasviridir.

Tuproq qal'a 350-yilgacha qadimgi Xorazm shohlari qarorgohi bo'lib kelgan, keyinchalik, Beruniyning yozishicha, poytaxt Kyat shahriga ko'chirilgan. Bu bilan IV asrda boshlangan Tuproq qal'aning bo'shab qolishini tushuntirish mumkin bo'lsa kerak.

Shuni ham aytib o'tish kerakki, Jonbos qal'a terrakot haykalchalar muzeyi bo'lsa, Tuproq qal'a ulkan numizmatika namoyondasi hisoblanadi. Nafaqat mahalliy, balki boshqa turli mamlakatlar tangalarining topilishi Buyuk Ipak yo'li bo'ylab savdo-iqtisodiy aloqalarning keng yo'lga qo'yilganligidan dalolat beradi. Bu haqda turli zeb-ziynat buyumlari, ayniqsa, marjon va munchoqlar, bilakuzuk va boshqa taqinchoqlar ham guvohlik beradi.

III asrning ikkinchi yarmi oxirlariga kelib, Kushon hukmdorlari mamlakat hududining katta qismini qo'ldan chiqarib, mamlakat tanazzulga yuz tutadi. O'rta Sharqda katta siyosiy o'zgarishlar davri boshlanadi. Bu davrda mahalliy ildizlarga asoslanuvchi, Markaziy Osiyoga Xitoy, Hindiston va Rumdan elchilar va karvonlar bilan birga kirib kelgan omillar ta'siri ostida shakllangan yangi madaniyat Grek-

Baqtriya va Qang' (Xorazm) madaniyatining o'rmini egalladi. O'z navbatida bu madaniyat Hindiston (Taqсила va Matura yodgorliklari), Sharqiy Turkiston (Kuchi va Qorashor haykallari) va Sharqiy Yevropa (alan muhiti orqali) madaniyatiga ta'sir ko'rsatgan.

IV asrda Markaziy Osiyoda Sosoniylar ekspansiyaning tamomila yemirilishiga olib kelgan hodisalar ro'y berdi. Tarixda "oq gunnar" yoki eftalitlar, kidaritlar nomi bilan mashhur qabilalarning janubi sharqqa tomon yurishlari boshlandi. S.P.Tolstovning hisoblashicha, ular o'rta asrlarda Keder yoki Kuder deb atalgan Amudaryo va Sirdaryo quyi oqimlaridagi viloyatdan kelgan massagetlar nomining turkiylashgan shaklining buzib aytilishi ekan. 1946-yilda Tolstov bu yerda topgan bir necha shaharchalarni eftalitlarning janubga yurishlari haykali sifatida ko'rib chiqish mumkin.

O'sha paytga tegishli eng katta yodgorlik Keske-kuyuk – qal'a bo'lib, daryoning hozirda qurib qolgan qadimiy o'zanining o'ng qirg'og'ida joylashgan. Bu shahar xarobalari noto'g'ri yumaloq shaklda (500x700 m) bo'lib, sharqdan g'arbga 2 m balandlikda tuproq devor bilan o'ralgan.

Shahar o'rtasidan shahar sathiga 3 m balandlikda to'rtburchak (210x210 m) shakldagi qal'a qo'rg'oni joylashgan. U xomg'ishtdan (28x28 va 40x40 sm) qurilgan xonalardan iborat bo'lgan. Shahar xarobalarida topilgan mahalliy sopol buyumlar Mo'g'uliston, Yettisuv va Markaziy Osiyodagi turk qabilalari naqshlarini yodga soluvchi bo'rtirma naqshlar bilan bezalgan. Xuddi shunday materiallar Quyuq qal'a va Jonkentda ham topilgan.

Eftalitlar V asrga tegishli ajoyib monumental yodgorliklar qoldirganlar. Buddistlar ibodatxonalari, tilla bilan bezalgan yodgorliklar, eftalit shohlari qarorgohlaridan biri Varaxsha xarobalari va boshqalar saqlanib qolgan.

Ma'lumki, arablar bosqini boshlangan paytda So'g'd va Xorazmda, shuningdek, Movarounnahming boshqa viloyatlarida arablarga qarshi kurashishi uchun yagona front tuzishga harakatlar bo'lgan. At-Taboriyning xabar berishicha, Osiyolik shohlar Xorazm yaqinidagi shaharlardan birida to'planib, bir necha bor bir-biriga hujum qilmaslik haqida shartnoma tuzganlar va umumiy ishlar haqida tinch kelishib ketganlar. Biroq bu baribir samara bermadi – Markaziy Osiyo hududi arablar tomonidan bosib olindi.

Ushbu vaqtga doir tarix me'morchilik yodgorliklarida saqlanib qolgan. Bu davrga xos bo'lgan eng xarakterli yodgorlik, "arxeologik qo'riqxonasi" sifatida 17 km masofada joylashgan, shimoldan janubga 2-3 km cho'zilgan Berkut qal'a xarobalar majmuasini ko'rsatish mumkin. VII-VIII asrlarga oid bu yodgorliklar seriyasi haqida arab manbalarida gapirib o'tiladi. Ular orasida Berkut qal'a, Teshik qal'a, Uy qal'a, Qumbosgan qal'a kabi bir gektar atrofidagi maydonni egallagan yirik qal'alar ham, bir necha yuz metrlik kichik qal'alar ham bo'lgan. Ularning hammasi bitta tamoyil bo'yicha qurilgan, kuchli devorlar bilan o'ralgan. Qal'a burchaklaridagi minoralar yumaloq shaklga ega bo'lgan. Binolarning ichkarisi bezaklarga boyligi Ahamoniylar davriga xos hisoblanadi. Qal'ada dehqonchilik bilan shug'ullanuvchi barcha aholi yashagan. Bu esa mamlakat doimo dushmanlar hujumidan xavfsirab yashaganligini ko'rsatadi. VI asrda Xorazmning shahar hayotida ro'y bergan tushkunlik sababli Tuproq qal'aning bo'shab qolishi boshlangan. Yuqorida aytib o'tilganidek, u

VI asrgacha Xorazm shohlari qarorgohi bo'lib kelgan, VII asrda esa nekropolga aylangan.

Hunarmandchilik ham tanazzulga yuz tutib, tayyorlangan sopol idishlar sifati ancha pasayib ketgan.

To'rtko'l shahri – sobiq Qoraqalpog'iston poytaxtidan 26 km shimoli sharqdagi Guldursun xo'jaligi yerlari o'rta asrlarda "Xorazmning shimoliy darvozasi" deb atalgan. Shimoliy darvoza yo'lida o'rta asrlardagi Xorazmning yirik qal'alaridan biri Katta Guldursun joylashgan. Bu qal'aga olib boruvchi yo'l hozirgi Tozabog'yob arig'i bo'ylab qadimiy kanalning qurib qolgan o'zanidan olib boradi, so'ngra ikkiga bo'linib, qal'ani ikki tomondan o'rab oladi.

Qal'a atrofida bir tomondan sobiq xo'jalik zamonaviy binosi, ikkinchi tomondan esa vaqt va odamlar vayron qilgan o'rta asrlarga oid istehkom xarobalari – bir paytlar juda boy bo'lgan, aholi gavjum yashagan Guldursun vayronalari joylashgan. Yana g'arb tomonga yuradigan bo'lsak, qadimiy kanal o'zani ortida Kichik Guldursun qal'asi minoralari va devorlari ko'rinadi. Uning xarobalari haqida turli afsona va rivoyatlar juda ko'p. Uzoq vaqt bu joy haqida xalq orasida la'nat tekkan joy, qal'aning ostida ajdar tomonidan qo'riqlanuvchi lahm mavjud va kimdankim Guldursun boyliklarini izlashga jazm qilsa, albatta halok bo'ladi degan gaplar yurgan.

Qoraqalpoq olimi U.Kojurov S.P.Tolstovga bolalik chog'larida Guldursun haqida eshitgan afsonalarini so'zlab beradi. Bu afsonalarga ko'ra, Guldursun ilgari Guliston deb atalgan va suvga boy, gullab-yashnagan shahar bo'lgan. Shaharni boshqargan donishmandda podshohning Guldursun ismli go'zal qizi bo'lgan. Biroq kunlardan bir kun shahar boshiga kulfat tushadi – cho'ldan dushman Qalmiq qabilalari bostirib kiradi. Shahar ahli mardlik va jasorat bilan himoyalangani dushmanlar ular qarshiligini osonlik bilan yengib o'ta olmaydilar. Biroq oylar o'tishi bilan shaharga yana bir ofat – ochlik yopirilib keldi. Oziq-ovqat zaxiralari tugaydi, odamlar ko'cha-ko'ylarda ochlikdan o'la boshlaydi. Tirik qolgan shahar aholisi qo'lida qurolni zo'rg'a ushlab turardi. Shunda podshoh saroy a'yonlari va ashkarboshilarni majlisga chaqiradi. Ulardan biri ayyorona reja taklif qiladi. Saroyga mali saqlab turilgan bir nechta buqani olib kelib, eng oxirgi bug'doy bilan o'ydiradilar va shahar devorlari tomon qo'yib yuboradilar.

Qalmiqlar ham ochlikdan azob chekayotgan edilar. Ular buqalarni ushlab olib, larrov so'yib go'shtini yemoqchi bo'ladilar. Ular buqalar oshqozoni sara bug'doyga o'la ekanligini ko'rib, tahlikaga tushadilar va qichqira boshlaydilar: "Bular molni shunday boqayotgan bo'lsa, ularning zaxiralari qanday ekan?" Qalmiqlar o'q qarorgohini yig'ishtirib, ortga qaytishga qaror qiladilar.

Biroq bir necha oydan beri qal'a devorlari ostida qalmiqlar xatti-harakatlarini boshqarib turgan Qalmiq podshohining o'g'liga maftun bo'lib qolgan podshohning qizi go'zal Guldursun sababli qalmiqlar chekinmaydi. Tong otgach, Gulistonliklar Qalmiqlar shaharni yanada kuchli halqa bilan o'rab olganliklarini ko'radilar. Umidsizlik va tushkunlikka tushgan shahar ahli dushmanlarga taslim bo'ladi. Shahar vayron qilinadi va yoqib yuboriladi, aholining bir qismi qirib tashlanadi, boshqa qismi esa qullikka mahkum etiladi.

Sotqin Guldursunni Qalmiqlar shahzodasining oldiga olib keladilar. U qizga qarab quyidagi so'zlarni aytadi: "Agarki, bu qiz oddiy ehtiroslarini jilovlay olmasdan, o'z vatani, xalqi va otasini dushmanlarga sotib yuborgan bo'lsa, bizga ham vafo qilmaydi. Qani tezda uni yovvoyi otlarning dumiga bog'lab cho'lga haydab yuboringlar, toki u boshqa hech kimga xiyonat qilmasin",- deb xizmatkorlarga buyuradi.

Yovvoyi otlar Guldursunning tanasini mayda-mayda bo'laklarga bo'lib tilkapor qilib tashlaydi va cho'lga sochib yuboradi. Xiyonatkor go'zal qiz qoni to'kilgan yerlar kimsasiz bo'lib qoladi va bu joy Guldursun deb atala boshlaydi. Bu afsonada bir shingil haqiqat bo'lsa-da, vaqt va boshqa ko'p narsa chalkashtirib yuborilgan. Qalmiqlar o'rni VIII asrda bostirib kelib, o'z yo'lida hamma narsani yakson qilgan arablar, XII-XIII asrlarda esa Guldursun vayronalariga kelgan Mo'g'ullarni tushunish lozim.

Katta Guldursun qal'asi ichkarisida mashaqqatli jang izlari – yakson qilingan va yoqib yuborilgan asbob-anjomlar, jangovar qurilmalar va qurol-yaroq qoldiqlari qolgan.

Turkmanistonning Toshhovuz viloyati Taxta tumani bilan chegaradosh hududida o'rta asrga oid Zamaxshar shahri xarobalari topilgan. Bu "Xorazmning g'arbiy darvozasi" edi.

Zamaxshar, shuningdek, Xorazmning yetakchi ilmiy va madaniy shaharlaridan biri ham edi. Bu yerda ajoyib Xorazm olimlaridan biri, shoir va adib Abulqosim ibn Umar Az-Zamaxshariy 1075-yilda tavallud topgan va ma'lum bir vaqt yashab o'tgan. Keyinchalik u o'qish uchun Xorazmga, so'ngra Buxoroga ko'chib o'tadi.

Amudaryoning o'ng sohilida joylashgan qadimgi xarobalarning aksariyati III-I asrlarga taalluqli bo'lib, ular haqida Qozoq va Qoraqalpoq xalqlarida juda ko'p afsonalar saqlanib qolgan. Masalan, Qoraqalpog'iston shimolida joylashgan xarobalar majmuasi Baroqxon haqidagi afsonalar bilan bog'lanadi.

Rivoyat qilishlaricha, boshqa qal'alarga nisbatan yaxshiroq saqlanib qolgan qal'ada Baroqxon, boshqa qal'ada esa uning ov qushi – ulkan burgut yashagan ekan. Bir kuni burgutning oldiga uning onasi – Anqo qushi tashrif buyuribdi. Baroqxon aynan shu kuni shikorga chiqish niyatida bo'lgan ekan, saroy mulozimlari uni bu yo'ldan qaytarishga harakat qilibdilar. Biroq xon juda qaysarligi sababli hech kimga quloq solmabdi. Shunda g'azablangan va tahqirlangan burgut xonni oti bilan birga osmon-u falakka ko'tarib ketibdi va uni yerdan pastga tashlab yuboribdi. Baroqxonning murdasi qasrga ko'milibdi, viloyat esa kimsasiz bo'lib qolibdi. Shu paytdan boshlab karvonlar bu la'nat tekkan joylarni aylanib o'tadigan bo'libdi. Saqlanib qolgan Anqo qal'aning nomi ham shu qush nomidan olingan.

Taxtakopir shahridan 20 km sharqda hozirgi paytda qo'rg'oncha nomi bilan ma'lum bo'lgan shahar xarobalari topilgan. III-I asrlarda bu yerda qozoq va qoraqalpoq dostonlarining mashhur qahramoni Qo'blandbotir yashab o'tgan.

Xorazm shohining qizi va uni sevib qolgan yigit haqidagi afsona Amudaryoning o'ng sohili o'rta qismidagi ikkita Tosh qal'a – Qiz qal'a va Yigit qal'adan iborat majmua bilan bog'liq.

Xalq orasida Qirqqiz nomi bilan mashhur I-V asrlarga oid qal'a xarobalari bilan ham juda ko'p afsonalar bog'liq. Bu xarobalar malika va uning jangovar

dugonalari – amazonkalar (Qoraqalpoq dostoni “Qirqqiz”dagi kabi), badarg‘a qilingan va tarki dunyo qilgan qizlar yoki qirg‘iz xalqining qirg‘izlar ajdodlari haqidagi dostonlarni (qirqqiz-qirg‘iz) eslatadi.

Qirqqizdan g‘arb tomonda, Sultonuzdog‘ning sharqiy yonbag‘irlaridan birida qadimiy Xorazmning ajoyib yodgorliklaridan biri, eramizning birinchi asrlariga taalluqli Ayozi qal‘a qad rostlagan. Xalq afsonalari bu qal‘ani Qirqqiz qal‘asida qirg‘iz dugonasi bilan istiqomat qilgan malikaning vasliga erisha olgan qul Ayozi nomi bilan bog‘laydi. Jasur va dono bahodir Ayozi obrazi Markaziy Osiyo va turkiy folklorining eng qadimiy obrazlaridan biri. Sirdaryo etaklarida yashovchi qozoq xalqi rivoyatlarida Ayozi obrazi Orol dengizining paydo bo‘lishi, Amudaryoning Ustyurt o‘zani yo‘qligi va qadimgi Xorazmning vujudga kelishi kabi afsonaviy hodisalar bilan bog‘laydi.

Afsonalarga ko‘ra, qadim zamonda Orol dengizi bo‘lmagan, Sirdaryo va Amudaryo esa bir-biriga qo‘shilib, Lauzan, Ko‘hna Urganch va Oybo‘g‘ir orqali Kaspiy dengiziga borib quyilgan. Orol dengizi o‘rindagi hududda yashagan adag xalqini yovuz va makkor Fosilxon boshqargan, O‘zboy hududi bo‘ylab esa boysun xalqi istiqomat qilgan. Boysun xalqini bir paytlar qullikda yashagan, lekin o‘z donishmandligi va adolatparvarligi tufayli davlat rahbariga aylangan Ayozi boshqargan.

Avliyolardan birining qizini badnom qilgan Fosilxonning jirkanch jinoyatlari uchun avliyoning qarag‘ishi bilan Fosilxon shohligi suv ostida qoladi. Bu yerda paydo bo‘lgan Orol dengiziga Amudaryo va Sirdaryo kelib quyila boshlaydi. Ularni birlashtirib turgan qadimiy o‘zan qurib qoladi, Ayozi boshchiligidagi boysun xalqi esa Xorazmga ko‘chib keladi va Urganch deb atala boshlagan xonlikni tashkil qiladi. Adagiylar va ularning shaharlari suv ostida qolib halok bo‘lgan, hozirda havo ochiq bo‘lgan kunlarda ularning izini Orol dengizi tubida ko‘rish mumkin.

Mo‘g‘ullar keltirgan kulfatlar savdo aloqalarini uzoq vaqt to‘xtatib qo‘ydi. Sharqning savdo-iqtisodiy va madaniy markazlari xarobalarga aylandi. Manbalarga ko‘ra, Marv va Urganch eng ko‘p zarar ko‘rgan. Chingizxon Murg‘ob va Marv shahrini suv bilan ta‘minlab turgan irrigatsiya tizimini butkul vayron qilib tashlashni buyuradi. Gullab yotgan o‘lka sahroga aylana boshlaydi. Aholi halok bo‘layotgan Marv vohasini tashlab ketishga majbur bo‘ladi.

Urganch shahri ham ma‘lum bir vaqt davomida xarobalarga aylanadi, biroq vaqt o‘tishi bilan o‘z o‘rnida qayta tiklanadi va Oltin O‘rdaning eng yirik shaharlaridan biriga aylanadi.

Asta-sekinlik bilan mo‘g‘ullar hukumati va Movarounnahr hukmdorlar sinfi o‘rtasida muloqot o‘rnatila boshlaydi. Mo‘g‘ullar savdoning qadriga yetardilar, shu sababli ular o‘z mablag‘lari bilan ishtirok etib, undan katta foyda olishdan manfaatdor edilar. XIII asrda Sharq mamlakatlari bilan savdo qilishga Yevropa mamlakatlari ham qiziqib qoladi. Rim papasi Inokentiy IV Chingizxon qarorgohiga yuborgan fransuz rohibi Plano Karpini Rossiya janubidagi dashtlar bo‘ylab qadimiy yo‘llar orqali 1246-yilda Qoraqurum shahriga yetib keladi.

1333-yilda Markaziy Osiyo xalqlari bilan Venetsiyaliklar aloqa o‘rnatadilar. Ular ko‘chmanchi o‘zbeklar xoni bilan savdo va shimoliy yo‘l orqali Xitoyga o‘tish

uchun bitim tuzadilar (demak, bu yo'llar o'sha paytda ko'chmanchilar tasarrufida bo'lgan).

XIV asrning 60-yillarida Oltin O'rdadagi g'alayon va notinchliklardan foydalangan Xorazm Qo'ng'iroq qabilasidan bo'lgan So'fi boshchiligida mustaqil bo'lib ajralib chiqdi hamda Shimoliy va Janubiy Xorazmni birlashtirishni boshladi.

1378-yilda Temur asosiy shimoliy savdo yo'lida joylashgan Sroy va Urganch shaharlarini bosib oldi va savdo ustidan nazoratni o'z qo'lga oldi. Xalq orasida tarqalgan afsonalarga ko'ra, 1378-yilda Temur Shimoliy Xorazm poytaxti Urganchni Oltin O'rdadan tortib olib, Buyuk Ipak yo'lining shimoliy yo'nalishini egallab olgach, bosib olingan shaharni otda aylanib yurganida savdogarlar, bozorlar va mashhur ganch bo'yicha ustalar bilan nom qozongan shahardagi al-Qubro maqbarasi oldida to'xtaydi va: "Bu qanday maqbara bo'ldi?"- deb so'raydi. Unga avliyo So'fiyning jasurligi haqida so'zlab beradilar, lekin u maqbara darvozasi oldida turaveradi. Temur me'morchilikni yaxshi tushunardi va nazokatli narsalarni yaxshi ko'rardi. Maqbaraning naqshlar bilan bezalgan yog'och darvozasi o'zining maftunkor va betakror bezaklari bilan kishini o'ziga rom qilib qo'yardi. Amir Temur bu go'zallikdan ko'zini uza olmaydi, o'z lashkarboshilaridan birini chaqirib, bu darvozani Samarqandga olib borish va suyukli rafiqasining maqbarasiga o'rnatishni buyuradi.

Al-Qubro maqbarasining darvozasi yechib olinadi va Samarqandga olib ketiladi. Biroq ko'p o'tmay bu darvoza sirli ravishda g'oyib bo'ladi. Saroy ahli va davlat amaldorlari o'rtasida tahlika va qo'rquv paydo bo'ladi. Hamma joyda darvozani izlash boshlanadi va u vayron qilingan Urganch shahrida, xuddi o'zining avvalgi o'midan topiladi. O'z boshining omon qolishidan qo'rqqanligi sababli hech kim hukmdorga bor haqiqatni aytishga botina olmaydi, boshqa tomondan odamlarni bid'at-xurofot chulg'ab olgan edi. Nima bo'lganda ham ro'y bergan hodisa haqida amirga xabar beriladi.

Temur g'azabga minadi, u buyruqni bajarmagan kimsani topib, uni qatl qilish va darvozani Samarqandga eltishga buyruq beradi. Urganchga qo'shin yuboriladi va darvoza qo'riqchilar hamrohligida Samarqandga jo'natiladi. Darvoza ikkinchi bora suyukli rafiqasi maqbarasiga o'rnatilganligi haqida Temurga xabar beriladi va bundan uning ko'ngli to'ladi. Biroq qo'riqchilarning kuchaytirilganligiga qaramay, darvoza yana g'oyib bo'ladi va Urganchda, al-Qubroning maqbarasida paydo bo'lib qoladi. Endi hamma qo'rquvga tushib qoladi, hukmdorga qanday xabar berishni hech kim bilmaydi. Bosh vazir bu vazifani o'z zimmasiga oladi. U Amir Temurning oldiga emaklab borib, boshini ko'tarmasdan bir qoshiq qonidan kechishni so'rab turaveradi. Gap nimadaligini bilgach, Temur eng hurmatli oqsoqol va donishmandlar kengashini to'plashga qaror qiladi. Donishmandlar uzoq vaqt maslahatlashgach, ularning eng obro'lisi shunday deydi: Urganch amirning qo'shinlari tomonidan fath etilib, barcha mashhur ustalar Samarqand va Shahrisabzga olib ketilganligi sababli al-Qubro darvozani olib qo'yishga qaror qilgan, chunki maqbara darvozasiz bo'la olmaydi. Ollahning qahriga uchramaslik uchun darvoza o'z o'mida qolgani ma'qul.

O'ylab ko'rgach, Temur donishmandlarning fikriga qo'shiladi hamda darvozadan nusxa ko'chirib Samarqandga o'rnatish uchun mohir ustalarni Urganchga yuboradi. Bundan tashqari Temur vayron qilingan shaharni qayta tiklash va asirlarni

zindondan ozod qilishga buyruq beradi. Al-Qubro maqbarasida esa uning mavqeyiga mos holda qabr ustiga yodgorlik qo'yish va avliyoning boshi kesilgan joyda to'rt qirrali ustun o'rnatishni buyuradi.

Darvozadan nusxa olinganmi yoki yo'qmi, bu ma'lum emas. Al-Qubro maqbarasida esa u hali-hamon unga nazar tashlagan har bir kishini maftun qilib turibdi. Shubhasizki, bu afsonada san'atdan yaxshi xabardor va go'zallikning qadriga yetuvchi Amir Temurni hayratga solgan xorazmlik usta naqqoshlar mahorati aks ettirilgan. Shu paytdan boshlab, Xitoy va Hindistondan janubiy yo'llar bo'yicha keluvchi savdo karvonlari Amudaryo bo'ylab quruqlik orqali o'tadigan bo'ldi. Kaspiy dengiziga yetgach, savdogarlar o'z mollarini kemalarga yuklab, janubga Astrobodgacha va undan g'arb tomonga yo'l oladi.

Italiyalik savdogarlarning Hindiston va Eron bilan savdo qilishdan manfaatdorligi XIII asrda Kaspiy bo'ylab dengiz yo'llarining jonlanishi va yangi xaritalarining tuzilishiga olib keldi. Italiyaliklarning Lezinadagi monastircha saqlab qolingan XV arsga taalluqli xaritasida Bolqon tog'lari, Qorab o'g'izko'l, Bolqon qo'ltig'i aniq ko'rsatilgan. Bu esa Temur va Temuriylar davrida bu yerda italiyalik dengizchilar ko'p marta bo'lganligi va Kaspiy dengizini yaxshilab o'rganib chiqqanligidan darak beradi.

Xiva yog'och o'ymakorligi maktabining ajoyib asarlaridan biri Shayx Najmiddin Kubro maqbarasidagi eshiklar hisoblanadi. Avliyo so'fi al-Kubro Xivada tavallud topib, Misr, Tebriz va Xamadonda tahsil oladi. U Urganchda tashkil qilgan "Kubroviya so'fiylar birodarligi" o'sha paytlarda mashhur bo'lgan Naqshbandiya tariqati bilan muridlar uchun kurashga kirishadi. Biroq Najmiddin Kubroning o'zi uzoq yashamaydi, u XIII asrda Urganch shahri Chingizxon qo'shinlari tomonidan bosib olingan paytda halok bo'ladi va o'sha yerga dafn qilinadi.

XVI asrda Xiva va Buxoroga tashrif buyurgan Ivan Grozniy va Angliya tomonidan yuborilgan elchi Djenkinson elchilari shaharni batafsil tasvirlab beradi va uni Selizyur deb ataydi. U "xomg'ishtdan qurilgan xon saroyi"ni, yarim buzilgan "tartibsiz qurilgan binolar"ni qayd qiladi. "Bu shahar, ayniqsa, oxirgi yetti yil ichida o'zaro urushlardan ko'p aziyat chekkan va to'rt marta vayron qilingan. Shu sababli bu yerda savdogarlar juda kam va kambag'alki, men u yerda atigi to'rt gaz sarjani zo'rg'a sotdim".

XV-XVI asrlarda xalqaro vaziyat o'zgaradi: 1453-yilda Usmoniy turklari Konstantinopol shahrini egallab oladilar va Yevropaliklarning Sharq mamlakatlari bilan yo'lga qo'yilgan savdo-iqtisodiy aloqalari rivojlanishiga to'siq bo'ladi, vaqt o'tishi bilan esa vositachilik rolini o'z zimmalariga oladilar. Biroq bu paytga kelib, portugaliyaliklar Hindiston tomon Afrika va Arabiston yarimorolini aylanib o'tuvchi dengiz yo'lini ochadilar. Bu yo'l xavfsizroq bo'lib, Rossiyaning janubidagi dashtlar va tog' dovonlari orqali o'tuvchi yo'llar o'z ahamiyatini yo'qotadi. Shunda Xiva va Samarqand hukmdorlari 1557-1558-yillarda Moskvaga, Ivan IV huzuriga doimiy savdo haqida shartnoma tuzish uchun o'z elchilarini yuboradilar.

XVI asr mobaynida Rossiya hukmdorlari bir necha bor Xiva va Buxoroga Osiyo shaharlari, Xitoy, Mo'g'uliston va Hindiston qayerda joylashganligi, Moskva shahridan qanchalik uzoqligi, yo'l va daryolar qanday ahvoldaligi, mahalliy aholi

nimalar yetishtirishi va ular bilan nimalarni savdo qilish mumkinligini bilish uchun rus kishilarni yuboradilar.

Doimiy muloqot natijasida ular haqidagi bilimlari chuqurlashadi va bu narsa solnomalarda aks etgan. 1600-yilda esa Markaziy Osiyo va Uralorti viloyatlari bilan muntazam pochta aloqasi yo'lga qo'yiladi. Kaspiy orqali savdo yana jonlanadi.

Ushbu ko'p asrlik davrda Movarounnahr madaniyatida ham katta o'zgarishlar ro'y berdi. Uchta asosiy madaniy markaz Buxoro, Samarqand va Urganch galma-galdan birinchi o'rinni egallaydi. Ba'zida esa birgalikda gullab-yashnaydi, jahon madaniyati va fanidan joy olgan yangi iqtidorlarni vujudga keltiradi, ba'zida esa yaratilgan barcha narsalarni o'zaro urushlar va qo'shni davlatlar bosqinchiliklari vayron qiladi.

Tinchlik yillarida hunarmandchilik va savdo rivojlanib, shaharlarning gullab-yashnashiga xizmat qiladi. Har bir yangi hukmdor "Buyuk Ipak yo'li" bo'ylab savdoni rivojlantirishni rag'batlantiradi va uni o'z nazorati ostida saqlab qolishga harakat qiladi.

Keyingi yillarda "Buyuk Ipak yo'li"da qadimgi shaharlarning tiklanishi va yangi shaharlar paydo bo'lishi kamaydi.

Tarix bizgacha o'tmishdagi fojeali voqealar yoki mamlakat iqtisodiyoti rivojlanishi va gullab-yashnashidan darak beruvchi yodgorliklarni boy meros qilib qoldirgan.

XIII asrning ikkinchi yarmidan boshlab, Mo'g'ullar bosqini asoratlaridan qutilgach, arxitektura binolari qurilishiga ayrim yangiliklar kiritiladi. Shaxslarni ko'kka ko'tarib maqto'vchi ajoyib yodgorliklar, memorial inshootlar yaratiladi. Sir qoplangan rang-barang qoplamalar, ayniqsa, Temuriylar davrida muhim ahamiyat kasb etadi. Bu Samarqanddagi me'moriy yodgorlik va inshootlarda yaqqol ko'zga tashlanib turadi. XV asrning ikkinchi yarmida yangi loyihaviy tizim joriy qilinadi. Bino devorlarining bo'rttirib bezash usullari ham o'zgaradi va "Kundal" usuli paydo bo'ladi. XV asrning oxirlarida binolar old tomonining bezalishi ancha jiddiylashadi. XVI asrning ikkinchi yarmida butun Markaziy Osiyodagi hashamatli me'morchilikda jiddiy o'zgarishlar ro'y beradi: asosiy e'tibor u yoki bu hukmdorning nufuzini tasdiqlovchi noyob bino va inshootlar qurishga qaratiladi. Binolarning ilgariga qaraganda chiroyliroq tizimi yaratiladi. Bezaklar xarakteri ham o'zgaradi: ko'p mehnat qiluvchi va qimmatli to'plama mozaika o'z o'rmini oddiyroq, "abdullaxon" mayolikasiga bo'shatib beradi. Uning sodda va yirik rasmlari ko'k fonda yaxshiroq qabul qilinadi va XVI asr me'morchiligiga ko'proq mos keladi.

Bu davrdagi shaharlarda fuqarolik qurilishi keng rivojlanadi: hammomlar, bozor maydonlari – timlar, savdo gumbazlari – toqilar quriladi. Karvon yo'llarida gumbazlar bilan berkitilgan inshootlar – sardobalar quriladi.

Moddiy imkoniyatlar cheklangan sharoitlarda qurilishning keng quloch yoyishi shunga olib keladiki, garchi me'morchilik tizimlari asosida an'anaviy yechimlar saqlanib qolsa-da, me'morchilik yanada ratsionallashib boradi. Suvalgan devorlarga badiiy ishlov berishning sanchli uylar qurilishida qo'llangan qadimiy tajribalar bilan bog'liq bo'lgan yangi usullari "qirma" va "chaspak" paydo bo'ladi. Shu davrga taalluqli Xivada saqlanib qolgan me'moriy yodgorliklar ichida 1616-yilda qurilgan

Arab Muhammad madrasasi, Abdulg'ozixonning o'g'li Anushaxon tomonidan qurilgan masjid va hammomni (1663-1687) eslab o'tish mumkin.

XIX asrning birinchi yarmida tashqi savdoning o'sishi mahalliy ishlab chiqarishning ahvolidagi ham o'z aksini topdi. Katta karvonlar Orenburg va Astraxan orqali Rossiyaga o'tgan. Xiva Buxoro va Eron bilan savdo qilgan. Xitoydan tranzit tovarlar Qo'qon xonligi orqali kelgan.

Xivaning xalqaro holati XIX asrning birinchi yarmida xonlik hududiga 1830-yilda bostirib kirishga (Perov yurishi) harakat qilib ko'rgan Chor Rossiyasi bilan munosabatlarning keskinlashuvi tufayli ancha murakkablashadi.

Xiva xonligi mustaqilligini yo'qotib, Chor Rossiyasining vassaliga aylanadi. Xonlikka rus savdo kapitali kirib kelishi va chorizmning siyosiy hujumlari jarayoni yakunlanadi. Bu paytga kelib, jahon miqyosida katta siyosiy o'zgarishlar ro'y bergan edi: Hindiston Angliyaning mustamlakasiga aylangan, inglizlar Afg'oniston va Eronda ham o'z ta'sirini mustahkamlab, G'arbiy Xitoy va Buxoroning janubiy yerlariga ko'z olaytira boshlagan edi. Xitoy, Yaponiya, Germaniya, Fransiya, Angliya va Rossiyaning ta'sir doirasiga taqsimlangan bo'lib, bu yerda AQSh ham o'z maqsadiga intilar edi. Yevropada kapitalistik munosabatlarning rivojlanishi mustaqil bo'lmagan davlatlar va yevropaliklar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning yangi shakllarini vujudga keltiradi.

Shaharlar, qal'a qo'rg'onlari va bozor maydonlari qadimiy feodal ko'rinishini saqlab qoladi. Xiva va Buxoro kabi ayrim shaharlarda katta timlar qurilgan bo'lib, ularga fabrikalarda ishlab chiqarilgan tovarlar joylashtiriladi va mahalliy hunarmandchilik mahsulotlari bilan raqobatni yuzaga keltiradi.

Xivaliklarning mustaqillikni tiklashga urinishlari muvaffaqiyatsizlikka mahkum edi. Rus protektorati Rossiya bilan iqtisodiy munosabatlarning mustahkamlanishiga xizmat qilgan. 80-yillarda Zakaspiy temir yo'lining qurilishi bevosita Xiva xonligiga aloqasi bo'lmasa-da, biroq u ham xonlikning savdo faoliyati jonlanishiga xizmat qildi. Katta karvonlarni Orenburg va Troitskga jo'natish o'rniga Xiva karvonlari Ashxobodga va Ustyurt orqali Kaspiy dengiziga yo'l olgan. U yerdan esa tovarlar dengiz orqali Astraxanga jo'natilgan va bu karvon yo'llariga nisbatan ancha arzon tushgan. Shu bilan birga Amudaryo orqali kemalarda suzish Xivalik savdogarlarga o'z tovarlarini Chorjo'ydan temir yo'llarga yuklashga imkon bergan. Bu Xivaliklar uchun juda qulay edi, chunki Amudaryo bo'ylab barjalarda suzish ularning qo'lida edi. XIX asrning 90-yillariga kelib temir yo'l orqali kiritiluvchi va chiqariluvchi mollar hajmi 80-yillarga nisbatan uch barobar ortdi. Biroq vujudga kelgan siyosiy munosabatlar va xalqaro vaziyat tufayli xonlik savdoni, asosan, Rossiya va uning mustamlakasi – Turkiston general-gubernatorligi va qo'shni Buxoro amirligi bilan olib borgan.

"Buyuk Ipak yo'li" o'z ahamiyatini yo'qotishiga siyosiy va xalqaro hodisalardan tashqari yangi texnik ixtirolar va bozor ahvolidagi o'zgarishi ham sabab bo'lgan. Paxtaning yangi, amerikacha navlarini joriy qilish natijasida yetishtiriluvchi hosil hajmi orta boshladi, Xivada mexanik dvigatelli dastlabki paxta tozalash zavodlari paydo bo'ldi. Paxta, asosan, Rossiyaga, beda urug'i (o'g'it sifatida) AQShga, Pitnakda (Qo'ng'iroq yaqinida) qazib olinuvchi tuz esa qozoq va turkman dashtlariga olib chiqib ketilgan.

XIX asrning boshlaridan Xiva xonligida xuddi boshqa o'zbek xonliklarida bo'lgani kabi fan va adabiyotning rivojlanishi kuzatiladi.

3.4. Xorazm ustalari, me'morchilik ijodining taraqqiyoti

XVIII asr oxiri XIX asr boshida Xorazm ustalari me'morchilik sohasida birinchi o'ringa chiqib oldilar. Xiva yangi monumental qurilish sifati va sur'ati bo'yicha eng yirik binolari o'tmishda qurilgan boshqa xonliklar poytaxtlarini (Qo'qon va Buxoroni) ortda qoldirib ketdi.

Xiva XIX asrgacha rivojlanib kelgan me'morchilik va hashamatli rassomchilikdagi eng yaxshi narsalarni o'zlashtirib oldi hamda XIX asrning o'ziga xos binolarida namoyon etdi.

Agar bugungi kunda biron-bir minora yoki devor ustidan qaralsa, ajoyib shahar manzarasi ko'zga tashlanadi. Tor ko'chalar orasida osmonga bo'y cho'zgan baland yodgorlik binolari, peshtoqlari va baquvvat devorlar namoyon bo'ladi. To'rtburchak shaklidagi hovlichalar turli naqshlar bilan qoplangan, binolarni o'rab olgan ko'plab minoralar, gumbazlarni ko'rish mumkin.

Xiva me'morchiligi kech feodal qurilishi va Xorazm mintaqaviy me'morchiligi xususiyatlari xarakterini aks ettiradi. Xivada juda ko'p saroylar, masjid va madrasalar, savdo binolari va qal'a inshootlari qurilgan. Ularning aksariyati o'ziga xos bo'lib, so'nggi asrlarda Markaziy Osiyo me'morchiligi erishgan yutuqlarni qamrab olgan edi.

Markaziy Osiyoning boshqa shaharlaridan farqli o'laroq, Xiva o'ziga xos joylashishga ega. Eski shahar ikki qismdan iborat: Ichan qal'a deb nomlanuvchi ichki shahar qadimiyroq va mustahkamroq bo'lib, uning ortida joylashgan tashqi shahar – Dishan qal'a ham o'nta darvozali kuchli devor bilan o'rab olingan. Bu yerda xonning keng bog'lari va bozorlar joylashgan.

Dishan qal'aning o'rtasida joylashgan Ichan qal'a shimoldan janubga qarab cho'zilgan noto'g'ri to'rtburchak shakliga ega. U to'rtta darvozali mustahkam devor bilan kuchaytirilgan bo'lib, bu darvozalardan chiquvchi turar-joy va jamoatchilik binolari, saroy va masjidlar qurilgan tor yo'llar markazga olib boradi. G'arbiy Ota darvoza va Sharqiy Polvon darvoza asosiy darvozalar hisoblangan. Binolardagi mustahkam devorlarning tepa qismi nayzasimon yakunlangan, qal'a minoralar va gumbazlarga ega. Bu elementlar bevosita o'z vazifalarini bajarmasdan, XIX asrda Markaziy Osiyo shaharlari me'morchiligida shakllangan uslubni namoyish etgan.

Xivada saroy binosining tuzilishi ham o'ziga xos bo'lgan, unda hashamatli yodgorliklarga xos bo'lgan va singdirilgan turar-joy binolarining shakllari birlashib ketgan. Shimolga qaratilgan baland ayvonlar bitta ustunga ega bo'lgan. Turar-joy binolarida, odatda, hashamatli ibodatxona binolariga xos bo'lgan mayolika qo'llangan. Uning rangi o'ziga xos bo'lib, oq naqsh ko'k fonda keladi va vaqti-vaqti bilan feruza rangli elementlar bilan bezaladi. U qo'llanish xususiyati bo'yicha ham o'ziga xosligi bilan ajralib turadi: mayolika to'laligicha devorni qoplab olib, vertikal va gorizontal yo'llarga, katta rasmi shiplarga taqsimlanadi.

Nafis naqshlar va ajoyib bezaklar Sherg'ozixon madrasisini (1718-1720) qoplab olgan. Qutlug' Murod Inoq madrasasi, Pahlavon Mahmud maqbarasi,

Olloqulixon timi (XIX asr) va Toshqulixon saroyi (1830-1838) o'ziga xos va takrorlanmas bezaklari, ajoyib shakllari bilan kishini maftun qiladi.

Pastki qismi biroz og'irlashtirilgan tosh ustunlarga solingan bezak va naqshlar faqat Xivaga xosdir. Yog'och o'ymakorligidan ham keng foydalanilgan, rang-barang mayda naqshlar ustunlarning asosiy qismini, ayrim dilaslarni, ship va yog'och eshiklarni qoplab olgan.

Ichan qal'a markazida asosiy ziyoratgoh – Pahlavon Mahmud maqbarasi va Jome masjidi me'morchilik majmuasi joylashgan. Me'moriy-yodgorlik majmua yuqorida sanab o'tilgan maqbara va masjiddan tashqari 1908-yilda qurilgan madrasa, minora (1910) va Islom Xo'ja nomidagi yangi uslub maktabini (1912) qamrab oladi. Islom Xo'jaxonning qarindoshi bo'lib, ichki siyosiy islohotlarni o'tkazish, yangi uslubdagi maktablar, pochta, kasalxona va dorixonalar qurilishi uning nomi bilan bog'lanadi. U qurilish faoliyatiga katta e'tibor qaratar ekan, mahalliy an'analarni juda qadrlaydi. Biroq yangi arxitektura shakllari va tuzilishdagi usullarda namoyon bo'layotgan yangiliklarga amal qilgan holda u mahalliy ustalar bilan birgalikda ishlagan yevropalik arxitektor va ustalarni taklif qilgan. Xususan, Petro-Aleksandrovskdan kelgan ustalar Rossiya konsuli qarorgohi qurilishida ishtirok etishgan. XX asr boshida qurilgan binolar qurilishida Toshkent va moskvalik nemislar ham ishtirok etgan va bu ham o'z ta'sirini ko'rsatmay qolmagan.

Pahlavon Mahmud majmuasiga kiruvchi minora Markaziy Osiyodagi eng yirik minoralardan biri hisoblanadi. Uning balandligi 44,6 m, poydevorining diametri esa 9,5 m bo'lib, Xivadagi barcha binolardan ancha baland qad rostlagan va hattoki uzoq masofadan ham bemalol ko'rinib turgan. Biroq bu minora, ayniqsa, yaqindan qaraganda kuchli taassurot qoldiradi, atrofdagi binolar uning miqyosi va mahobatini yanada bo'rttirib ko'rsatadi. O'z shakliga ko'ra, Xivadagi boshqa minoralardan farq qilmasdan, poydevoridan yuqoriga qarab torayib boradi. Yuqoriga intilishni ko'k, oq va feruza rangli sirlangan g'ishtlar va ingichka mayolika tilsimlari bilan bezalgan havorang gorizontallarni muvozanatga solib turadi. Takrorlanmas, rang-barang naqshlar xolis kuydirilgan fonida yanada yaqqol ko'zga tashlanib turadi. Tilsimlar o'rtasidagi masofaning bir xilda qisqarishi minorani yanada baland, yaxlit rangli bezaklar esa yanada ko'rkam va yodda qoluvchan qilib ko'rsatadi. Tepadagi chiroq minorani yanada baland bo'y cho'zishiga hissa qo'shadi. Bu yerda cheklovchi stalaktitlar yo'q. Chiroq tepasida uch pog'onali karniz va sirlangan havorang gumbaz-qubba joylashgan.

Islom Xo'ja minorasi eng zo'r me'morchilik inshootlaridan biri bo'lib, unda bir necha asrlar davomidagi shakl va bezaklar izlanishlari natijalari o'z aksini topgan.

Minora etagida joylashgan kichik madrasa minora bilan qisqa va aniq bezak yordamida yagona tuzilishga birlashgan. Madrasa bezaklari Vadil qishlog'ida yashagan usta Bolta Maisov va Madaminovlar tomonidan usta Eshmuhammad Xudoyberganov rasmlari asosida ishlangan. Binoning old tomoni ikki qavatli bo'lgan. Yon tomonda an'anaviy minorachalar bilan himoyalangan, nafis, sirlangan ilovali chirog'i bo'lgan ikki qavatli arkali kirish joyi joylashgan. Mayolika, timpanlar va naqshinkor tokchalar madrasaning tashqi ko'rinishiga yanada joziba baxsh etadi. Madrasa ichkarisidagi to'rtburchak hovli bir qavatli hujralar bilan o'rab olingan.

XVII-XIX asrlar yodgorlik binolari me'morchligida Xiva xalq turar-joy me'morchligidan ko'p narsa olgan. Bu, ayniqsa, madrasadagi turar-joy xonalari – hujralarning bezalishida ko'zga tashlanib turadi.

O'tgan asrlarda hujralar maishiy asbob-anjomlar, kitoblar va mahsulotlar saqlanadigan joy sifatida qurilgan. XVIII-XIX asrlarda bu hujralarda uzoq yillardan beri yashovchi talabalar hujralarni sotib oladilar. Shu sababli hujralarni jihozlashda paydo bo'lgan takomillashuv ishni bajaruvchilarning mahorati va didiga bog'liq bo'lgan. Xivada hujralarning qulay va shinamligi avvalgi paytlarga nisbatan ancha yuqori bo'lgan.

Hujralar bezalishida bo'ylama devordagi rangin panellar, yon tomondagi devorda nayzasimon shaklga ega bo'lgan kichik alebastrli tokchalar eng ko'p tarqalgan usul hisoblanadi. Panellar yuqorida gumbazli shiftdan kitob va mayda buyumlar qo'yiluvchi alebastr tokcha yordamida ajratiladi. Tokchadan pastda yassi o'yma hosilalar shaklida bezak uchun alebastrli friz joylashgan. To'rtburchak shiplarga taqsimlangan yupqa gullar, daraxtlar, o'simliklar va geometrik shakllar bilan bezalgan.

Hujralar diniy mazmunli yozuvlar va eng mashhur nazm asarlaridan parchalar bilan bezalgan.

Rangdor hujralar va daha masjidleri badiiy ijodiy qo'llangan asosiy joylar bo'lib, shu sababli XIX asr oxiri XX asr boshidagi haqiqiy xalq me'morchilik-dekorativ san'ati xazinasini hisoblanadi. Binoning old tomonidagi ikkinchi qavat hovliga oddiy ayvon bilan qaratilgan.

Hovli burchagida minoraga bu majmuadagi eng yirik inshoot – gumbazli masjid tutashgan. Bu Markaziy Osiyodagi yagona ko'p ustunli Jome masjidi bo'lib, XVIII asrda qadimiy binolardan birining poydevoriga qurilgan. Uning ajoyib yog'och ustunlari nafis naqshlar bilan bezalgan. Uch qavatli yassi gumbaz binoning boshqa qismlaridan baland ko'tarilib, boshqa binolarni muvozanatga keltirib, ularni baland minorali yagona kompleksga bog'lab turganday ko'rinadi.

Madrasa ro'parasida joylashgan va maydonning oxirida turuvchi yangi uslubdagi maktab binosi arxitektura shakllari bo'yicha ancha ortda qoladi. Yevropacha arxitektura tamoyillari asosida qurilgan bu bino pishgan g'ishtdan qurilgan oddiy ikki qavatli binodir. Uning old tomoni yassi ustun va oddiy g'ishtin chaspakli to'rtburchak oynalar bilan bezalgan. U Ichan qal'a an'anaviy binolari orasida keskin ajralib turadi va faqat burchaklarda joylashgan sirlangan, bezalgan minorachalar bu binoni XX asr boshidagi Xiva binolari bilan bog'lab turadi.

Ushbu majmua bir necha bor yana bezatilgan va yangilangan. Masalan, mashhur Pahlavon Mahmud maqbarasining yog'och eshiklari XIX asr oxirida Muhammad Rahimxon II buyrug'i bilan iqtidorli usta Nodir Muhammad tomonidan ajoyib naqshlar bilan qoplangan. 1913-yilda Isfandiyorxon buyrug'iga ko'ra, Qurboniyoz maqbara hovlisida ikki qavatli qorixona – xonning oilaviy daxmasini quradi. Bu yerda xonning o'zi uchun ham joy tayyorlab qo'yiladi. Biroq Isfandiyorxon (1910-1920) o'zining yozgi qarorgohida – Nurullaboy saroyida o'ldiriladi va Dishanqal'a hududida dafn etiladi. Pahlavon Mahmud majmuasi tuzilishi va rangli bezaklarga boyligi bilan mashhur yodgorlik hisoblanadi. Hovlining janubi sharqiy qismida joylashib, u mayda naqshlar bilan qoplangan baland ustunli

chuqur ayvon bilan yakun topadi. Boshqa shunday majmualarda bo'lgani kabi ushbu majmuada ham qabriston tashkil etilgan.

Pahlavon Mahmud maqbarasining mayolik jihozlari XIX asrning birinchi yarmida shakllangan Xiva maktabi usulida bajarilgan. Bu yerda rang-barang uyg'unlik yo'q. Mayolik plitasi yirik hajmli va to'q ko'k rangda bo'lib, plita maydonidagi asosiy naqsh bilan uyg'unlashuvchi ingichka oq rangli taram-taram yo'l bilan ajratilgan. Gultuvakning asosi va markaziy qismi bir-biriga tutashib ketgan ingichka bargli o'simliklar naqshi bilan bezalgan. Gultuvakning tor og'zidan chiquvchi o'simtalar yuqorida zarhal rasmini yakunlovchi yirik bargli konturli novda bilan uyg'unlashuvchi palmetikani tashkil qiladi.

XIX asr oxirida kichik madrasa va qorixona (qashshoqlar uchun yotoqxona) qurilgan. Bu binolar bir-biriga juda yaqin joylashgan bo'lib, maqbaraga shimoldan, jome masjid tomonidan keluvchi tor ko'chalarni o'rab olgan.

XVIII asrning oxiri XIX asr boshlarida mashhur Xorazm ustalari Markaziy Osiyoning turli shaharlariga taklif etiladi. Bu davrda Xiva va xonlikning boshqa shaharlarida ko'plab binolar – saroylar, bozor binolari, madrasalar, masjidlar, mozorlar qurilgan bo'lib, ularning ayrimlarini hajmi juda katta edi.

Boy shaharliklar mablag'lariga Xivada XIX asr oxiri va XX asr boshlarida ko'plab hashamatli binolar qurilgan. Dishan qal'a hududida qad rostlagan Polvonpir (1905) madrasasidan tashqari «xudoga yoqadigan, savobli amallar» yordamida Yoqubboy Xo'ja, Do'st Alam (1882), Mozori Sharif (1882), Otajon To'ra (1884), qozi Kalon Salim Oxun (1905), Matpanboy (1905), Abdurasulboy (1906) va Yusup Yasovulboshi (1906) madrasalari qurilgan. Bu binolarning barchasi tuzilishi va badiiyligi bilan o'tgan asrlardagi shunday arxitektura inshootlarini takrorlab turadi. Ular XVIII asr oxiridagi binolardan kichik hajmlari bilan ajralib turadi.

Biroq shaharning dastlabki asosi Ko'hna Ark qal'a qo'rg'oni bo'lib, u qal'a devorlari ostida joylashgan. Bu esa zarur hollarda tezlik bilan qal'a devorlari ortiga yashirinishga imkon berardi. Bu yerda xalq qo'zg'olonlari va notinchlik paytlarida xon va uning a'yonlari yashiringan. 1910-yilda Arkda haram binolari qayta quriladi. Ko'hna Arkdagi haram binolari nozik ko'rinishi, ularni nafis va yengil qilib ko'rsatuvchi naqshinkor qoplamali ertaknamo ajoyib ustunlar bilan ajralib turadi.

Bizgacha saqlanib qolgan yodgorliklar ichida Hazoraspdagi Rahmonqul Inoq saroyi, Elto'zarxona ko'rinish xonasi (XIX asr boshi) va 1832-yilda Olloqulixon tomonidan qurilgan Toshhovli e'tiborni o'ziga qaratadi. Bu binolarning devorlari mayolik temir taxta bilan qoplangan bo'lib, unda o'sha paytdagi Xorazm qurilishiga xos tarzda to'q ko'k fonda bo'lib, ularda oq va yashil rangli gul va o'simliklar chatishib ketgan. Eshik va ustunlar jimjimador naqshlar bilan bezalgan.

Xivaning mayolik qoplamalari boshqa mintaqalardan rangi va rasmlari bilan ajralib turadi. Toshhovli saroyidagi ayvon devorlari qoplamasi, tayyorlash texnikasi bo'yicha juda sodda bo'lib, yirik mayolik to'rtburchaklardan tarkib topgan. Ranglar uyg'unligi ham hayron qolarli darajada juda sodda – to'q ko'k fon oq rangdagi o'simliksimon naqshlar bilan qoplangan. Besh parrakli arka tashqi ko'rinishiga joylangan rasm ko'zguda aks etganday qat'iy proporsiya asosida bajarilgan. U qayrilma bargli va mayda g'unchali aylanma shakldagi shoxchalar to'qimasidan iborat bo'lib, bir tuzilishning yakuni ikkinchisini boshlab beradi hamda cheksizlik va

dinamika samarasini beradi. Nozik to'rsimon yashil rangli uchbarglar arka gulchambaraklarini bezab turadi. Naqshlar, ranglarning ixchamligi va rasmning mahorat bilan bajarilganligi devorga yengillik baxsh etadi va unga uzoq vaqt toliqmasdan qarab turish mumkinligiga zamin yaratadi.

Xiva saroylari Markaziy Osiyo me'morchilik tarixida yangi sahifa ochgan. Bu saroylarda, ayniqsa, Toshhovlida hashamatli me'morchilik va sinchli uylar arxitekturasi usullari bir-biriga qo'shib ketgan. Bu yerda Xivadagi turar-joy binolari uchun xususiyatli bo'lgan o'yma naqshli ustunli baland ayvonlar keng namoyon etilgan. Shu bilan bir paytda ichki hovli devorlari sirlangan g'isht va mayolik bilan qoplangan bo'lib, bu monumental binolar, asosan, ibodatxonalarga xos bo'lgan va uy qurilishida qo'llanmagan.

Toshhovli mayolikasi keng devor yuzasini qoplab olgan gilam sifatida qabul qilinadi. Devorlar pannosi naqshinkor rasmlari ham gilam shaklida bajarilgan. Ular keng naqshinkor hoshiya bilan o'ralgan, markaziy maydoncha esa geometrik shakllarga, yumaloq yoki bodomsimon medalyonlarga birlashtirilgan mayda egiluvchan novdalar bilan to'ldirilgan bo'lib, badiiy kashtachilikda ma'lum bo'lgan «bodom» motivini eslatib turadi.

Xiva uchun koshinlarning ranglar uyg'unligi ham xususiyatli, ham xarakterlidir. U ochiq havorangli (ultramarin) fonda qoriya hoshiya bilan o'ralgan ingichka oq o'simliksimon naqshlar yoki yozuvlardan iborat. Yashil-feruza rangli dog'lar ba'zida jiddiy va hattoki rangi bir xil bo'lgan jihozlarni jonlantiradi. O'zbekiston hududidagi XVIII-XIX asrlarga oid hashamatli binolar arxitekturasida bunga o'xshash boshqa narsani uchratish mumkin emas. Olloqulixon madrasasi (1852-1853) ham xuddi shunday koshinlar bilan bezalgan. Uning yonida Kaltaminor nomini olgan ulkan minora qurilishi yakunlanmay qolgan bo'lib, uning usti havorang va to'q yashil rang ko'p bo'lgan rangli koshinlar bilan qoplangan. Markaziy Osiyoda eng baland minora qurishga harakat qilishning o'ziyiq o'sha davr uchun juda katta hajmli qurilishga namuna bo'la oladi.

XX asr boshidan Xiva xonlari yozgi qarorgohlar qurishni boshladilar. Bu qarorgohlar arxitekturasida yangicha oqimlar ko'zga tashlana boshladi. 1906-yilda Dishan qal'ada Muhammad Rahimxon II vorisi uchun Nurullaboy saroyi qurilishi boshlandi, uning qurilishi 1912-yilda yangi xon Isfandiyorxon tomonidan qayta tiklandi. Bu joylashuvi bo'yicha murakkab inshoot bo'lib, unga turli xil xususiyatlar (1920-yilgacha u Xiva xoni yozgi qarorgohi vazifasini bajargan) xos bo'lgan. Sharq mamlakatlari hukmdorlari saroylarining aksariyati kabi, bu saroy devor bilan o'ralgan bo'lib, burchaklari yordamchi xo'jaliklar joylashgan bir necha hovlilardan iborat edi. Ma'muriy binolar va baland ayvonli arxona alohida joylashgan. Turar-joy uchta hovli va ularga shimoliy tomondan tutash bo'lgan bog'ni egallagan. Ushbu binolar guruhi o'z darvozalariga ega yanada kuchli devor bilan o'ralgan. Ko'rinishxona alohida ajralib turgan.

Bu majmuada rasmiy qabullar binosi (1912) ajralib turadi. Bu yevropacha uslubdagi yaxlit tuzilishga ega bo'lib, uning to'rtburchakli hajmiga uch tomondan (shimol, janub va g'arb) chuqur ayvonlar tutashib turadi. Ichkarida ikki qator bog'langan zallar yevropacha uslubdagi katta oynalar bilan yoritib turiladi. Ichki tomon juda boy bezalgan. Bu yerda Imperatorning farfor zavodida tayyorlangan,

unsurlardan to'plangan, har xil rangli naqshinkor rasmlar bilan bezalgan pechlar joylashgan. Xivada ilk bora parketli pol qilingan. Yevropacha shakldagi pishgan g'ishtli devorlar, ayvonlarda kamonsimon ravoqlar, bir tomonga qiya tom, ruxlangan temirdan yasalgan quvurlar va hokazo.

Buyurtmachining an'anaviy Xiva uyg'unligiga yangicha oqimlarni kiritish istagi, ayniqsa, binoning ichki tomoni bezaklarida yaqqol ko'zga tashlanadi. Devorlar ichkaridan biroz zamonaviylashgan ikki tomonlama sharqona naqshli alebastr plitalar bilan qoplangan. Alohida plitalar rasmi butun devor yuzasini qoplab olgan yaxlit naqshinkor tuzilishga birlashadi. Alebastr quymalaridan foydalanish bu yangi oqim bo'lib, an'anaviy ravishda alebastr bezaklarni alohida bo'limlar va shiplarga taqsimlashdan farqli o'laroq hamma devorlarni naqshli jihoz bilan uzluksiz qoplash usuli ham yangilik hisoblanadi. Yig'ma bo'yaladigan shiftlar bezagida novdalar qat'iy geometrik tizimida tilla suvi yugurtirilgan reykalardan tuzilgan murakkab sharqona naqshlar qo'llangan. Ichki bezaklarning boyligi billur qandillar bilan kuchaytirilgan.

Yangicha bezak turlarining an'anaviy bezaklar bilan uyg'unlashuvi binolarning tashqi tomondan bezalishida ham ko'zga tashlanadi. Bu yerda alohida ko'k-oq Xiva mayolikasi bo'lgan, sirlangan g'isht bilan bezalgan an'anaviy cho'ziq minorachalari qo'llangan. Shu tariqa XX asr boshlarida Xivada turli arxitektura usullarining mexanik birlashuvi natijasida shahar qurilishi va me'morchiligida yangicha yo'nalishlar ishlab chiqildi.

Manbalardan bizga Nurullaboy saroyi qurilishida rus arxitektorlari va nemis quruvchi-ustalari bilan birgalikda mehnat qilgan Xiva ustalarining ismlari yetib kelgan. Bu g'isht teruvchi ustalar Quryoz Bobojonov, Xudoybergan Hoji, yog'ochga o'yima naqsh ustalari Bobojon Qalandarov, Ota Shaxov, Ismoil Abduniyozov, ganch o'ymakorligi ustalari Nurmat va Ruzmat Masharipovlar, Sodiq Matkarimov – naqsh qoplamalar uchun rasmlar yaratganlar.

Nurullaboy saroyi kabi yana bir yozgi qarorgoh – qubla Tozabog' ham asta-sekinlik bilan qurib bitkaziladi. Tuzilish joylanishiga ko'ra, u Xivadagi Nurullaboy saroyi bilan bir xil. Biroq oddiy taxta pollar va rasm solingan faner shiftlar uni yuqorida aytib o'tilgan saroydan ancha sodda qilib ko'rsatadi. Binolarga o'tishda yopiq tim joylashgan bo'lib, unda o'zaro kamonsimon ravoqlar bilan bog'langan g'isht ustuni Xivaga xos bo'lgan ranglardagi g'ishtchalar bilan bezalgan ingichka minorachalar birlashib turadi. Saroyning bu qismi XX asr 20-yillarida qurilgan uchinchi, o'rtasida hovuzi bo'lgan katta hovliga chiqadi.

Dishan qal'a daha minoralarining ko'p qismi o'z soddaligi va shaklining mukammalligi bilan qiziqish uyg'otadi. Ularning ayrimlariga o'tgan asrlar me'morchilik uslublari xos bo'lsa, boshqalarida an'anaviy usullar zamonaviy usullar bilan uyg'unlashgan.

Eski shahar, ya'ni Dishan qal'a hududidan tashqarida qurilgan yangi kasalxona va pochta-telegraf bo'limi binolari o'z vazifalariga ko'ra farq qiladi. Bu pishgan g'ishtdan qurilgan bir qavatli, to'sinli va bir tomonga qiya tomga ega binolar edi. Pochta-telegraf binosi to'g'ri to'rtburchak shaklida bo'lib, yon tomondan ikkita bir-biriga aksli joylashgan kirish qismi (pochta va telegraf) bo'lgan. Kasalxona binosi burchakli tuzilishli bo'lib, uning old tomoni katta yo'lga chiqqan, kirish eshigi esa

soy tomondan bo'lgan. Bu bino ham tashqi tomondan yopiq ko'rinishga ega bo'lgan, chunki barcha eshiklar hovliga qaratilgan. Binoning tashqi ko'rinishi muvozanatga ega bo'lgan. Tokchalarga to'rtburchakli oyna yoki eshiklar joylashtirilgan. Nayzasimon tokchalar ustidagi peshtoqlar jimjimador novdali naqshlar bilan bezalgan o'simliksimon Xiva mayolikasi bilan bezalgan. Binoning old tomonida, shuningdek, mayolikli naqshinkor yo'l va shirdagi o'ziga xos yozuvlar joylashgan. Kasalxona loyihasi moskvalik arxitektor Rop tomonidan 1911-yilda Islom Xo'ja buyurtmasi bo'yicha bajarilgan.

Kasalxona va pochta binolaridan chiquvchi yo'l shaharning qo'shdarvoza nomli darvozasiga olib boradi. Bu darvoza boshqa shu uslubda qurilgan darvozalardan farqli ravishda yuqorida aytib o'tilgan shahar tashqarisidagi binolar kabi usulda qurilgan va xuddi shu usulda bezalgan.

Qo'shdarvoza darvozasining shakli an'anaviy ikkita yarim dumaloq minora orasidan o'tuvchi keng yo'lak shakliga ega. Biroq boshqa darvozalardan farqli ravishda bu darvoza qo'shloq bo'lib, ikkita yo'lak yonma-yon joylashgan va yopilmaydi, ya'ni qal'a darvozasi sifatida o'z ahamiyatini yo'qotib, faqat shaharga kirishni bezab turuvchi arxitektura unsuri hisoblanadi. Bu harakat nayzasimon uch bilan yakunlangan ikki yoqlama ravoqning shamda kirish eshigini yon tomondan himoya qiluvchi ikkita minora va ikkita kirish eshigini ajratib turuvchi bitta minoraning bezagi kuchaytirilganligida ko'proq namoyon bo'ladi. Minoralar naqsh bilan bezalgan barabanda feruza rangli mayolik gumbazlar bilan yakun topadi. Inshootning hisob-kitob oralig'i – 217 fut. (1 f.q 12 d.q 0,3048 m.). Eng baland nuqtasi – 30 fut. 10 d. Fermalar orasidagi kenglik – 18 fut. 2 d. Bitta oraliq vazni 130000 pud. Oraliqlar soni – 25 ta.

XX asrda Qo'shdarvoza qayta ta'mirlanib, zamonaviy ko'rinishga ega bo'ldi. Bu ulkan inshoot ertaklar shahriga yo'l ochganday bo'ladi, XIX asr oxiri XX asr boshlari Sharq me'morchiligi ajoyib yodgorliklarida mujassamlangan g'ayrioddiy insoniy iqtidorlarni idrok etishga moyil qiladi.

Aholi binolari orasida katta karvonsaroy, Olloqulixon (1835) bozori va Muhammad Rahimxon I davrida (1806) qad rostlagan Polvondarvoza katta qiziqish uyg'otadi. Bu binolarning birontasini Temuriylar hukmronligi paytlarida Samarqand va Buxoroda qurilgan hashamatli va ajoyib binolar bilan solishtirib bo'lmaydi. Ulardan ayrimlari hajmi kattaligiga qaramay, arxitektura shakllari bo'yicha ancha nochor hisoblanadi.

Boshqa tomondan esa bu yodgorliklar ajoyib va o'ziga xos yog'och o'ymakorligi uslubi, shuningdek, Xorazmda XVIII asr oxiri va XIX asrda rivojlanish cho'qqisiga chiqqan koshinli mayolika tayyorlash san'ati bilan kishining ko'zini qamashtiradi va o'ziga rom qiladi. Bu esa qadimda Urganch yodgorliklari kabi takrorlanmas durdonalarni yaratgan mahorat an'analari ustalar avlodidan avlodiga yetkazilgan va kelgusi rivojlanish uchun qulay fursat kutib turganligidan dalolat beradi.

Xiva O'zbekistonning boshqa viloyatlariga nisbatan qadimiy an'ana va mahoratlarni juda yaxshi saqlab qolgan. Bu yerga yangi oqimlar va umuman yangiliklar osonlik bilan kirib kela olmagan. 1910-yili Xivada baland koshinli minorali (bo'yi 44,6 m, asosining diametri 9,5 m), ko'k fonda oq va yashil naqshlar

bilan bezalgan juda katta Islom Xo'ja madrasasi qurilishi bilan yakunlandi. Bino o'z xususiyatiga ko'ra hali O'rta asrlarga xos an'anaviy xususiyatga ega edi.

Xorazmdagi turar-joy binolari odatda na devoriy rasmlar bilan, na alebastr o'yma naqshlari bilan bezalgan. Biroq bu yerda boshqa hech qayerda bo'lmagan darajada yog'och o'ymakorligi san'ati keng rivojlangan. O'yma naqshlar bilan ayvonlarning baland ustunlari, shuningdek, uylarning eshiklari bezalgan.

Ustunlarning yog'och tanasi va asoslari nozik va nafis o'yma naqshlar bilan bezalgan. Ayniqsa, ustun tanasining pastki sharsimon qismidagi naqshlar chiroyli bo'lib, bu yerda shar tepa tomonda an'anaviy parraklar – "madoxil" bilan o'rab olingan bo'ladi. Ustun tanasi o'yma naqsh kamarlari bilan qoplanib, uning eng yuqori qismigina silliq qolgan.

Ba'zida o'zbek xonadonlaridagi turar-joylarning ayvon ustunlari, asosan, yig'ma hosila kapitelga (ustun qoshi) ega bo'lgan. Biroq bu unsur Xivadagi turar-joy binolari me'morchiligida qo'llanmagan. Yog'och to'singa katta e'tibor qaratilgan bo'lib, u ustunlar o'rtasidagi bo'sh joyni kamaytirgan. Biroq to'sin, ko'pincha, murakkab naqshlar bilan shu darajada qoplanganki, u yengillashtirilgan shaklga ega bo'lgan va o'zining tuzilish rolini yo'qotganday bo'lgan.

O'yma naqshlar eshik va oynalarni bezashda keng qo'llangan. Eshik o'rtidagi to'rtburchak teshiklar, ko'pincha, nafis yog'och panjaralar bilan berkitilgan. Bu panjaralar, odatda, turli geometrik shakllardan bir tomchi yelim va bir dona mix ishlatmasdan qilingan.

Xorazm ustalari o'z mahoratlarini saqlab kelganlar va avloddan avlodga o'tkazib berganlar. Sovet davrida ular O'zbekiston poytaxti Toshkent va boshqa shaharlarda yangi arxitektura inshootlarini bezaganlar.

Ichan qal'a Xivaning ichki shahri bo'lib, uzoq vaqt davomida bironta toshiga ham tegib bo'lmaydigan ajoyib arxitektura yodgorligi bo'lib kelib, u qo'riqxonaga hisoblangan. Xiva shahrining 2500 yilligiga atab 1996-yilda Ichan qal'aning shimoliy darvozasi oldida tashqi shahar – Dishan qal'ada O'zbekiston shaharsozlik ilmiy-tekshirish instituti loyihasi bo'yicha qurilgan mehmondorchilik maydoni vujudga keldi. Qurilish rahbari bo'lgan Toshkentlik arxitektor Sergo Sutyagin ko'plab me'morlar, tuzuvchi, muhandislar va olimlarning mehnatidan foydalandi.

Loyiha 1985-yildayoq Sofiyadagi butunjahon arxitektorlar ko'rigida ma'qullangan bo'lsa-da, mualliflar yana 10 yil kutishga qaror qildilar. Uyg'unlik yaxlit ijtimoiy-madaniy markaz sifatida yaratilgan. Uyg'unlikning har bir unsuri o'ylab chiqilgan yechimga ega edi. Vujudga kelgan manzara saqlab qolinib, bu inshoot tarixiy ahamiyatga ega bo'lgan. Ikkita qadimiy ikkiyoqlama ayvonli o'ziga xos bino ehtiyotkorlik bilan ko'chirib olinib, shaharning boshqa dahasiga ko'chirilgan.

Birinchi bo'lib shahar va tuman ma'muriyati, Xorazm tarixi muzeyi, mehmonxona va univermag, ulardan so'ng madaniyat va axborot markazi, konferens zal, shahar kutubxonasi va restoran paydo bo'lgan. Ansamblning asosiy bo'g'ini Madaniyat uyi bo'lib teatr, konferens zal, yoshlar markazi, xalq ijodkorligi va amaliy san'at studiyasi, ko'rgazma zallari va hokazolar hisoblangan.

Teatr majmuasi yangi qarorni maydonning yetishmasligi sababli oldi, dekoratsiyalar yon tomondagi "cho'ntak"larga joylashtirilgan bo'lib, u yerdan

to'g'ridan to'g'ri sahnaga chiqarish mumkin bo'lgan. Madaniyat uyi loyihasida o'nlab yangicha kompozitsiyalar, konstruktiv va bezatishga oid qarorlar hayotga tatbiq etilgan.

Milliy motivlar terrakot g'ishtlar figurali devorga, naqshlarning ranglar gammasiga, ichki hovlilar planirovkasiga joriy etilgan. Biroq bu yerda hamma narsa zamonaviy madaniy o'choqlar me'yorlariga mos keladi: bittasi 600 kishilik, ikkinchisi 150 kishilik tomoshabinlar zali, yorug' studiyalar, auditoriya va sinflar. Yangi texnika – kinoproeksiya, televizion, ovoz va yoritish texnikalari bilan jihozlash ko'zda tutilgan.

Qurilish yakunlanishini mablag' bilan ta'minlashni qurilishning 1997-yilda BMT qarori bilan 2500 yillik yubiley arafasida bitkazilishini nazarda tutib "O'zbektransgaz" mahalliy qurilish markazlari o'z zimmasiga oldi. Shu tariqa ertak shahriga uyg'unlashib ketgan bir durdona yaratildi.

Xiva eski shahri atrofida keng va ko'rkam ko'chalar yastanib yotibdi. Bu ko'chalarda zamonaviy korxonalar, o'quv va madaniy muassasalar, turar-joy binolari joylashgan. Zamonaviy sanoat ishlab chiqarishida asosiy o'rinni qadimiy san'at an'analari ega va asosan, turistlar uchun mo'ljallangan turli xil badiiy mahsulotlar – sopol, metall, yog'och va alebastr o'ymakorligi, gilam va paloslar egallaydi. Xorijiy turistlar Xivani "Ochiq osmon ostidagi muzey" deb atashadi. O'zbekiston bo'ylab yaratilayotgan turistik yo'nalishlarning har biriga Xorazmning qadimiy shaharlari doimiy ravishda kiritiladi.

Qisqacha xulosa

Ushbu mavzuda o'zbek davlatchiligida tamal toshini qo'ygan Xorazm vohasidagi qadimgi yodgorliklarga to'xtaldik. Bunda Xorazm "Buyuk Ipak yo'li" ochilishidan oldin quruqlik va suv yo'llari orqali Yevropa va Sharq, Sibir va Janubiy sivilizatsiyalar bilan bog'langanligi yoritilgan. Ayniqsa, afsonalarda xalq og'zaki ijodini o'ziga xosligi bu o'lkada madaniyat va san'at rivojlanganligidan dalolat beradi. O'rta asrlarda bu yerlarga kelgan sayyohlar va olimlarning qoldirgan yozma manbalari, topilgan ashyoviy dalillar asosida tiklangan shahar yodgorliklari ta'kidlandi.

Xorazm ustiga Chingizxon boshchiligidagi bosqinchilarni kelishi, unga qarshi xalqning jasorati hamda ko'pgina tarixiy yodgorliklarni vayron bo'lishi yoritiladi. XVIII asr oxiri XIX asr boshlarida Xorazm ustalari me'morchilik sohasida juda yuksalib ketib, o'ziga xos takrorlanmas hashamatli maqbaralar yaratilishida Markaziy Osiyoning boshqa joylaridan ajralib turuvchi yodgorliklar yaratilganligi ta'kidlanadi.

Tayanch iboralar:

Kaltaminor manzilgohi, "darik", Jonbos qal'a, Tuproq qal'a, tim, toqi, sardoba, "chaspak", mayolika, hujra.

Nazorat savollari

1. Kaltaminor madaniyatining o'ziga xosligi.
2. Qadimgi Xorazm yodgorliklarining Markaziy Osiyodagilardan farqi.
3. Mo'g'ullar bosqini davrida Xorazm.

4. O'рта asrlarda Xorazmdagi ijtimoiy hayot.
5. Xiva Xonligining yuksalishi.
6. Xorazmda me'morchilik ijodining cho'qqiga chiqishi.
7. Pahlavon Mahmud maqbarasi yodgorligi.
8. Xorazmdagi turar-joy binolariga tasnif bering.
9. Sobiq Ittifoq davridagi Xorazm hunarmandchiligi.
10. Mustaqillik yillarida Xorazm madaniyatining yuksalishi.

Adabiyotlar

1. Мирзаев Р. Путешественники и исследователи на Великом Шелковом пути. – М.: ЗАО Изд. дом «Муравей», 2005. С. 54-60.
2. Мирзаев Р. Туристические жемчужины Узбекистана. – Т.: Шарк, 2005. С. 35-40.
3. O'zbek islom obidalari. Fotoalbom. – Т.: O'zbekiston, 2002. 243-250-b.
4. Qoraboyev U. O'zbek xalqi bayramlari. – Т.: Sharq, 2002. 8-72-b.
5. Тухлиев Н., Кременцова А. Республика Узбекистан. Энциклопедический справочник. – Т.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2001. С. 149-157.
6. Бабажанова Г.И. и др. По древним городам Узбекистана: Ташкент, Самарканд, Шахрисабз, Бухара, Хива. – М.: Профиздат, 2001. С. 112-116.
7. Ртвеладзе Э. Великий Шёлковый путь древность и раннее средневековье. – Т.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi", 1999. – 280 с.
8. www.tourism.ru
9. www.travel.ru
10. www.palomnik.ru

4-bob. SAMARQAND SHAHRI O'ZBEKISTON XALQLARI BUYUK TARIXIY-MADANIY QADRIYATLARINING TASHUVCHISIDIR

4.1. Samarqand – “Qadimgi Sharq Bog‘i Erami”

Samarqand shahri Zarafshon vodiysining aholi zich yashaydigan qismida joylashgan. U shimol, janub va sharq tomondan yam-yashil vohani Qizilqum jaziramasini va sovuq shamollaridan himoya qiluvchi Pomir-Oloy tog‘ tizmalari bilan o‘rab olgan.

Qadimgi Samarqand haqida Sharqda ham, G‘arbda ham xabardor bo‘lishgan. Eramizdan avvalgi IV asrda shahar Sharqda Maroqanda nomi bilan madaniy va savdo markazlaridan biri sifatida ma‘lum bo‘lgan. Maroqanda orqali Suriyadan Sibir va Hindistonga savdo karvonlari o‘tgan. Katta boyliklar nafaqat savdogarlarni, balki jangchilarni ham jalb etgan. Barcha mashhur sivilizatsiyalar – Vavilon, Memfis, Afina, Rim va Aleksandriya kabi Maroqanda ham shiddatli hodisa va jarayonlarni boshidan kechirishiga to‘g‘ri kelgan. Eramizdan avvalgi 328-yilda mahalliy aholiga Iskandar Zulqarnayn qarshi bosh ko‘targanidan so‘ng shahar butkul vayron qilingan, so‘ngra boshqa joyda, qadimgi Afrosiyob shahridan janubi g‘arb tomonda qayta tiklangan.

Qayta tiklangan Samarqand shahri eramizdan avvalgi IV-III asrlarda Salavkiylar va Parfiyaliklar o‘rtasida, eramizdan avvalgi III-II asrlarda esa Parfiyaliklar va Salavkiylar saltanati o‘rnida vujudga kelgan Grek-Baqtriya davlati o‘rtasida kurash maydoniga aylanadi. Karvon yo‘llarini egallab olish uchun kurash Buyuk Ipak yo‘li bo‘ylab joylashgan shahar-davlat iqtisodiyoti va savdosi katta zarar yetkazishidan tashqari madaniyat markazlarini yer yuzidan supurib ham tashlagan. Savdo va madaniyatning gullab-yashnashi eramizdan avvalgi I-ming yillik oxiri va eramizning I-ming yilligi boshlariga to‘g‘ri kelgan. Bu paytda savdo yo‘llari ustidan nazorat Kushon shohlari qo‘lida bo‘lgan.

B.I.Marshakning yozishicha, qadimgi Afrosiyob arxeologik qazilmalari bir necha madaniy qatlamlarni ochib tashlab, qadimiy solnomachilarning Buyuk Ipak yo‘lidagi katta va madaniy shahar haqidagi xabarlarini tasdiqlagan. Shoh saroyida “elchilar zali”ning noyob bezak qoldiqlari saqlanib qolgan bo‘lib, ular mazmuni bo‘yicha hali olimlar tomonidan yagona talqinga ega bo‘lmasa-da, eramizdan avvalgi VII-VI asrlarga mansub hisoblanadi.

“Elchilar zali”ning g‘arbiy (orqa), shimoliy va janubiy devorlarida bittadan, sharqiy devorda esa eshik bilan ikkiga bo‘lingan ikkita zarhal bor edi. Ehtimol, eshik tepasida baland qubba bo‘lgandir. Kirish ro‘parasidagi devorda yozuv qoldiqlari saqlanib qolgan. Yozuv parchalaridan biri shoh Varxuman tomonidan elchilarni qabul qilish haqida rasmiy hisobotning bir qismi bo‘lib, Chag‘oniyon hukmdori elchi Samarqandning xudolari va yozuvidan xabardorligi sababli xavotirlanmasligi mumkinligini ma‘lum qiladi. Bunday yozuv shaharning mamlakat hududidan tashqarida ham ma‘lum ekanligi va chet ellik elchilarning davlatni hurmat qilishidan dalolat beradi.

Afrosiyob hududida ko‘plab devorga ishlangan naqsh va bezaklar – ot, tuya va fil mingan chavandozlar tasvirlari topilgan.

Qadimgi shahar xarobalaridan o'tmishda turli hunarlar va savdoning rivojlanganligini tasdiqlovchi turli davlatlarning ko'plab tangalari topilgan. Afrosiyobga yaqin yerda joylashgan Samarqand shahrining paydo bo'lish tarixi muzeyida, shuningdek, O'zbekiston xalqlari tarixi, madaniyati va san'ati muzeyida turli xil qurollar, san'at asarlari, so'g'd yozuvi namunalari, tangalar to'plami, amaliy san'at yodgorliklari, zargarlik buyumlari, o'yma naqsh namunalari hamda o'zbek xalqining boshqa ma'naviy boyligi yodgorliklari namoyish etiladi.

Samarqand qadimgi sivilizatsiya va bugungi kun bilan uchrashgan shahardir. Samarqandning ko'p asrlik tarixi ko'p millatli vatanimizning, jahon tarixining bir bo'lagidir.

Sharq mamlakatlarining iqtisodiy aloqalarida muhim rol o'ynagan savdo karvonlari yo'lida joylashgan shahar bundan bir necha asr ilgari qadimiy sivilizatsiya markazlaridan biri va Markaziy Osiyo xalqlari tarixiy-madaniy an'analari sohibiga aylangan.

O'tmishdagi shoir va tarixchilar bu shaharni bejiz "Qadimiy Sharq Bog'i Erami", "Sharq musulmon dunyosi durdonasi", "Oy ostidagi shaharlar go'zali", "Sharq Rumi" deb ta'riflamaganlar. Samarqand – "Dunyoning sakkizinchi mo'jizasi", "Shoirlar va rassomlar shahri". Bu ajoyib shaharning sifatlari ko'p. Samarqandni – insoniyat sivilizatsiyasining qadimiy beshiklaridan biri ekanligini sayyoramizdagi deyarli har bir o'qimishli odam yaxshi biladi. Bejiz qadimgi maqollardan birida "Agar Makka musulmon dunyosining yuragi bo'lsa, Samarqand uning boshidir" deyilmagan.

Samarqand O'zbekiston xalqlarining buyuk tarixiy-madaniy an'analari sohibidir. Shahar tarixi juda murakkab va ziddiyatlarga boydir. Iskandar Zulqamayn, arab lashkarboshisi Qutayba ibn Muslim, Chingizxon va Temur, buyuk olim va astronom Ulug'bek nomi Samarqand bilan bog'liq.

Bundan olti asr ilgari Amir Temur Samarqandni jahondagi eng go'zal shaharlardan biri, uning poytaxtiga aylantirishni orzu qilgan. Uzoq mamlakatlarga qilgan harbiy yurishlarining barchasidan bu yerga u eng yaxshi me'morlarni, muhandislarni va sopol ustalarini olib kelgan. Mahalliy ustalar bilan birgalikda bu ustalar ajoyib, takrorlanmas va yanada ma'nodor yangi me'morchilik maktabini yaratganlar. O'z saltanatida Temur bunyodkor va ijodkor bo'lgan. U shoir va rassomlar, olim va donishmandlarni saxiylik bilan rag'batlantirgan. Xuddi shu xislat keyinchalik uning nabirasi Mirzo Ulug'bekka ham o'tadi. Ulug'bek tomonidan bundan besh asr oldin yaratilgan yulduzlar xaritasi bugungi kunda ham hammani hayratga soladi. Buyuk ajdodimizning ushbu ijodkor ruhi bugungi kunda qayta tiklanmoqda.

Samarqand tarixining eng qadimgi sahifalari yer ostida, ajoyib arxeologik va arxitektura inshootlari xarobalarida qolib ketgan. Hozirgi paytda arxeologik qazilmalar tufayli qadimgi shahar va qishloq xarobalari "tilga kirgan", qadimgi so'g'd nutqi ovoz berib, qadimgi ustalar mahorati va rango-rang tasvirlari jonlandi.

Samarqandning ajoyib me'morchilik yodgorliklari me'morlarning shaharsozlik g'oyalari, me'moriy-bezak san'at boyligi, sopol ustalari ishining yuqori sifatidan tashqari go'zallik – arxitektura, shakl va mutanosib uyg'unlik, nayzasimon ravoqlar va sharsimon qubbalarning ravon tashqi ko'rinishlari bilan kishini o'ziga maftun

qiladi. Jahon me'morchiligida pape-mashedan yasalgan bezaklar qo'llanuvchi relyefli bezaklar foydalanilgan atigi ikkita yodgorlik ma'lum bo'lib, ularning ikkalasi ham Samarqandda joylashgan. Bular Bibixonim madrasasi va Go'ri Amir maqbarasidir.

Shaharga tashrif buyurgan har bir kishi Shohi Zinda ansambli, Bibixonim madrasasi va Go'ri Amir maqbarasi, Ulug'bek madrasasi, Registon markazidagi Sherdor va Tillakori kabi ajoyib me'morchilik yodgorliklarini yaratgan qadimiy ustalarning yuksak mahorati va rassomchilik iqtidoridan hayratga tushadi.

Ushbu yodgorliklar yaxlit badiiy obrazining muhim tarkibiy qismlaridan biri naqshinkor bezaklar hisoblanadi. Oftob nuri ostida turli ranglar bilan ko'zni qamashtiruvchi sirlangan mozaika silliqlangan pishgan g'isht rangi bilan uyg'unlashib, yodgorliklarga yana ham ko'rkamlilik va nafosat baxsh etadi.

Xalqning madaniy merosi uning tarixiy yodgorliklaridir. Ular faqat o'tmishgagina tegishli emas, hozirgi kunda ham yashab kelmoqda.

Qadimgi Samarqand yerlari turli davrlarga tegishli noyob yodgorliklarga boy. Hozirgi paytda ularning soni uch ming atrofida. Shundan 293 tasi arxitektura yodgorligi bo'lib, 61 tasi respublika ahamiyatiga ega. 2000 ta arxeologiya yodgorliklari mavjud. Ularning barchasi ajdodlarimizning moddiy va ma'naviy hayoti, o'lkamizning ko'p asrlik tarixi, xalqning mustaqillik va ozodlik uchun kurashlari, Samarqandning paydo bo'lishi va rivojlanishini aks ettiradi.

Zamonaviy Samarqand O'zbekistonning viloyat markazlaridan biri, yirik temir yo'l stansiyasidir. Samarqand orqali Toshkent-Termiz katta avtomobil trakti o'tadi. Aholini ro'yxatga olish ma'lumotlariga ko'ra, shahar aholisi soni 2001-yilda 361 ming kishini tashkil qilgan⁵. Shahar xushmanzara Zarafshon daryosi vodiysida, daryoning o'rta oqimi qismida, dengiz sathidan shimoli g'arbda 660 m va janubi sharqda 750 m balandlikda joylashgan. Shahar chegaralari sharqda Toyloq, shimolda Dag'bit, g'arbda Charxin va janubda Ulug'bek hududlari bilan tutash.

Shaharda nayza kabi to'g'ri yo'llar, favvorali shinam xiyobonlar, yangi turar-joy kvartallari, turistlarni qabul qilish uchun katta va kichik mehmonxonalar paydo bo'lgan. Eski shahar qismida o'tmishning arxitektura yodgorliklari yonida zamonaviy supermarket va bank binolari uyg'unlik bilan joylashgan. Shu bilan birga shaharning tarixiy qo'riqxonasi qismi avaylab saqlangan, ko'plab me'moriy yodgorliklar qayta ta'mirlangan. Daxma oldidagi eski inshootlar buzib tashlangandan so'ng Go'ri Amir maqbarasi yanada ko'rkamlashdi.

Shaharni suv bilan, asosan, Zarafshon daryosi, Darg'om, Siyob va Shavdar soylari ta'minlab turadi.

4.2. Qadimgi shahar arxeologik qazilmalari

Samarqand hududi va uning atroflari qadim zamonlardan beri aholi gavjum yashagan joylardan hisoblanadi.

Zarafshon tog'ining shimoliy yonbag'irlarida paydo bo'lgan tog' jilg'alari Zarafshon daryosi qayiriga intiladi. Jilg'alarning quyi oqimi va daryo qayiridagi to'qaylar suv, yoqilg'i, meva-cheva va parrandalarga boy bo'lgan. Bunday tabiiy-geografik sharoitlar Samarqand hududi aholisining paleolit, neolit davrida ovchi-

⁵ G'ulomov S.S. va boshqalar. Mustaqil O'zbekiston. -T.: Mehnat, 2001. 93-bet.

teruvchi qabilalar, bronza asrida esa chorvador-dehqon qabilalardan iborat bo'lishiga olib keldi. Bu haqda bir necha yil davomida Samarqand viloyati dastlabki madaniyatini tadqiq etayotgan A.Navoiy nomidagi Samarqand davlat universitetining arxeologik ekspeditsiyasi qazilmalari dalolat beradi.

1939-yilda ochilgan Samarqand neolit manzilgohi shahardagi sobiq bolalar bog'i o'rnida joylashgan bo'lib, O'rta Osiyo hududidagi ilk qabila tuzumi davriga (40000-12000 yil avval) tegishli noyob yodgorlik hisoblanadi.

Insoniyat tarixining boshlanish davriga tegishli shakl berish texnikasiga ko'ra mukammal, toshdan yasalgan ko'plab buyumlar – tig'i biroz qo'pol ishlov berilgan yirik tosh boltalardan tortib to ingichka va o'tkir tig'li pichoqsimon buyumlar topilgan. Samarqand manzilgohi aholisi uchun sodda bo'lsa-da, biroq nafosat tuyg'usi begona bo'lmagan. Bundan bu yerda topilgan dengiz chig'anog'i shaklidagi taqinchoq va 8 ta teshilgan kichik oval shaklidagi taxta shaklidagi silliqlangan suyak marjonlar dalolat beradi. Ularning barchasi qadimgi odamlar uchun taqinchoq vazifasini bajargan. Bu manzilgohda kromanonlarning (tashqi ko'rinishi zamonaviy kishiga o'xshash odamlar) qoldiqlari – 25 va 35 yoshli ayollarga tegishli bo'lgan son suyaklari va tishlari yaxshi saqlanib qolgan pastki jag' suyaklari topilgan. 1967-yilda 5 m chuqurlikdan mayda suyakli va sut tishi bo'lgan bolaning bosh chanog'i topilgan. Ushbu manzilgoh qazilmalari shu paytgacha noma'lum bo'lgan, madaniyati yuksak rivojlangan dunyoni ochib berdi.

Yirik arxeolog-mutaxassislar fikriga ko'ra, ushbu manzilgoh topilmalari va olingan ulkan arxeologik materiallar Markaziy Osiyo hududida antropogenez davri jarayonlari haqidagi tasavvurlarga sezilarli o'zgarishlar kiritadi.

Bizga moddiy madaniyat yodgorliklari bo'yicha ma'lum bo'lgan keyingi davr yangi tosh asridir.

1966-yildan 1972-yilgacha Sazog'on qishlog'i (Samarqanddan 27 km janubi g'arbda) hududida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijasida Samarqand arxeologik xaritasiga yana to'rtta neolitik manzil kiritildi. Ularning barchasi Sazog'onsoy qayirida, Zarafshon tog' tizmasining Qoratepa tarmoqlari havozasida joylashgan.

To'plangan topilmalar, asosan, toshdan yasalgan: turli shakldagi nukleuslar, mayda taroqchalar, o'yma qatlar, bezalishlar, qurollar, don maydalagichlar, silliqlangan bolta va hokazolar. Neolit davri ovchilarining kamondan o'q uzish san'ati yuqori bo'lganligi kamon o'qlarining uchlari to'ntoqligidan dalolat beradi va sazog'onliklarning tosh sanoati yuksalishning eng cho'qqisiga chiqqanini ko'rsatadi.

Neolit davriga oid manzilgohlardan olingan moddiy madaniyat ashyolari Zarafshon daryosining o'rta oqimida yashab o'tgan aholining neolit davridagi rasmiy va mahalliy tartibi xususiyatlarini, Samarqand shahri va viloyatining tosh asri davridagi madaniyati izchilligi va rivojlanish xususiyatlarini aniqlashga imkon beradi.

Samarqand rivojlanishining keyingi bosqichi bronza asrida yaratilgan shahar hududidagi «Siyobcha» sag'anasida namoyon bo'ladi. U Siyob daryosining chap sohilida, Afrosiyob shahrining qadimgi sharqiy darvozasidan bir necha o'n metr narida joylashgan. Uning arxeologik materiali – bronzadan ishlangan bilakuzuklar, qimmatbaho toshlardan yasalgan marjon va munchoqlar, feruza shokilali ziraklar –

So'g'd (Maroqanda) shahar markazining vujudga kelish manbalari bronza asriga borib taqaladi deb hisoblashga imkon beradi.

Dastlab shahar Avesto vali, ya'ni devorlar bilan mustahkamlangan, aholisi kam bo'lgan hudud sifatida shakllangan. Istehkom Afrosiyob hududining tabiiy strategik qulay joylashuvi asosida yuzaga kelgan.

Samarqandni Movarounnahr markazida, xushmanzara Zarafshon vodiysida joylashganligi Markaziy Osiyo shaharlari ichida birinchi o'ringa qo'ygan bo'lib, bundan qadimgi Afrosiyob xarobalarida olib borilgan qazish ishlarida topilgan eramizdan avvalgi XIII va XVI asrlarga oid topilmalar dalolat beradi.

Samarqandning aholi yashash joyi eramizdan avvalgi V asrda paydo bo'la boshlagan. U So'g'dning eng qadimiy shaharlaridan biri edi. Bu shahar zamonaviy Samarqand hududiga juda yaqin joylashgan bo'lib, hozirda afsonaviy Turon shohi Afrosiyob nomi bilan ataladi.

Qadimiy Afrosiyob havozali ayvonda joylashgan. Noto'g'ri uchburchak shakliga yaqin bo'lib, u qisman madaniy qatlamlarning to'planishi hisobiga atrof-muhitdan biroz balandda va undan katta jarlar bilan ajralib turadi. Afrosiyob maydoni 288,9 gektarni tashkil qilgan. Jarlar bo'ylab o'tuvchi chegara 4,5 km ga cho'zilgan. Afrosiyob hududida ko'p yillar davomida olib borilgan qazish ishlari Samarqandning ko'p asrlik tarixini Ahamoniylar davridan to Chingizxon davri vayronagarchiliklarigacha kuzatishga imkon berdi.

Qadimgi davrga oid tarixiy asarlarda Samarqand haqidagi ilk yozuvlar Maroqanda nomi bilan yozilgan bo'lib, eramizdan avvalgi 329-yilda (Iskandar Zulqarnayn yurishi ta'riflarida) qayd etilgan. Samarqand o'sha paytlar uchun katta shahar bo'lib, uning ko'p sonli aholisi hunarmandchilik, savdo va madaniyatning rivojlanishiga munosib hissa qo'shgan. Shahar tashqi mudofaa va mustahkam qal'a qo'rg'oniga ega bo'lgan.

4.3. Shahar me'morchilik yodgorliklari

Samarqanddagi Ulug'bek madrasasi milliy me'morchilik merosidan XV asrning birinchi yarmidagi hashamatli me'morchilikning mumtoz namunasi sifatida o'rin olgan. O'z shakli va hashamatliligi, badiiy bezaklari bilan u XIV asrga oid binolardan ortda qolmagan, mustahkamligi bo'yicha esa ulardan o'zib ham ketgan.

Manbalarning xabar berishicha, Mirzo Ulug'bekning o'zi bu madrasada astronomiya bo'yicha ma'ruzalar o'qigan. Shuningdek, bu yerda "O'z davrining Aflotuni»" Qozizoda Rumiy, Mavlono G'iyosiddin Jamshid ibn Ma'sud ibn Mahmud Kashoniy (Koshiy), Mavlono Olovuddin Ali ibn Muhammad qushchi va boshqa buyuk allomalar ham ma'ruza o'qiganlar. Madrasa mudarrisi (rektori) etib, Mavlono Muhammad Havofiy tayinlangan. Vasifiy tomonidan yozib qoldirilgan va bizga V.V.Bartold tomonidan yetkazilgan afsonaga ko'ra: "Madrasa qurilishi yakuniga yetay deb qolgan paytda qurilishda qatnashayotgan kishilar Ulug'bekdan kim mudarris bo'ladi, deb so'raydilar. Ulug'bek barcha ilm-u fanlardan xabardor kishini bo'lishini aytadi. Ulug'bekning so'zlarini eshitgach, xuddi shu yerda "bir uyum g'isht orasida" o'tirgan Mavlono Muhammad Havofiy o'rnidan sakrab turadi va bu lavozimga da'vogar ekanligini aytadi. Ulug'bek unga bir necha qiyin savollar berib, uning bilimdonligiga ishonch hosil qilgach, uni hammomga olib borib cho'miltirish

va toza kiyim-bosh berishni buyuradi. Madrasaning ochilish kunida Havofiy 90 ta olim huzurida mudarris sifatida ma'ruza o'qiydi, biroq bu ma'ruzani uning o'zi, Mirzo Ulug'bek va Qozizoda Rumiyan boshqa hech kim tushunmaydi, chunki ma'ruza juda murakkab edi”⁶.

Ulug'bek davrida Registonda qurilgan masjidlardan biri qariya ulamo Ali Ko'kaldosh nomi bilan bog'liq. Eski masjid mo'g'ullar bosqini davrida tanazzulga yuz tutadi. Manbalarning xabar berishicha, uning devorlari ortida 1361-yilda mo'g'ullarga qarshi bosh ko'targan qo'zg'olonchilar yashiringan. Ulug'bek davrida masjid butunlay qayta quriladi. U keng hovli, gumbazsimon bino va 280 ta ustunga ega bo'ladi. Masjid binosiga keyinchalik turli zilzila va harbiy to'qnashuvlar natijasida qattiq ziyon yetkaziladi (XX asrning 60-yillarigacha uning baland, yo'nib ishlangan marmar ustuni yerda yotardi).

Ulug'bekning buyrug'iga ko'ra, madrasa qurilishi bilan deyarli bir paytda qo'hak tepaligi etagida, Obirahmat arig'i qirg'og'ida, Afrosiyobdan shimol tomonda Naqshijahon degan joyda rasadxona quriladi. Boburning so'zlariga ko'ra, rasadxona uch qavatli bino bo'lgan. Ulug'bek bilan birga ishlagan va keyinchalik Istanbulga ko'chib ketgan Ali qushchi rasadxonaning asosiy qismi balandligini Faxri mahzabi avliyo Sofiya ibodatxonasi balandligi bilan taqqoslagan. Mahzabini yuqori qismi yerto'lada joylashgan bo'lib, asbob-uskunalarining yarmini ifodalagan. Ali qushchining fikriga ko'ra, u Sharqdagi sekstantlarning eng kattasi bo'lgan.

1918-yilda Samarqandlik arxeolog olim V.L.Vyatkin rasadxonada qazish ishlarini olib borgan. U rasadxonaning asosiy jussasi – ustki qismi saqlanib qolmagan Faxri mazhabining yer osti qismini ochgan. Qazish ishlari faqat 1948-yilga kelibgina yakunlangan bo'lib, shunda rasadxona juda mustahkam va hashamatli, aylanasi 40 metrdan ortiq bo'lgan yumaloq bino ekanligi ma'lum bo'lgan. Yuqorida aytib o'tilgan, binoning arxitektura tizimiga kiritilgan Faxri sekstantidan tashqari rasadxonada bir nechta katta zal, yo'laklar va xizmat ko'rsatuvchi xodimlar uchun kichik xonalar bo'lgan. Tashqi tomondan rasadxona ajoyib koshinlar bilan qoplangan. Abdurazzoq Samarqandiyning aytishicha, rasadxonaning o'zida, uning devorlarida o'sha paytlardagi fazoviy jismlar haqidagi asosiy tushunchalar – to'qqizta osmon, to'qqizta osmon sferasi va hokazolar tasviri mavjud bo'lgan.

XVI asrning boshlarida Bobur yozganidek, “Rasadxona Mirzo Ulug'bekka hozirgi kunda ham butun dunyoda keng qo'llanuvchi “Ziji jadidi Ko'ragoniy”ni tuzish uchun xizmat qildi”. Tadqiqotchilar oxirgi yillarda Ulug'bekning Samarqand astronomiya maktabi o'sha paytdagi musulmon Sharqi va G'arbda astronomiyaning rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatganligini aniqladilar. Bejiz XVII asrga oid golland o'yma naqshida Mirzo Ulug'bek fan muzasi Uraniyaning chap qo'li yonida tasvirlanmagan. Hozirgi paytda rasadxonaning yer osti qismi qayta ta'mirlangan bo'lib, uning ustida qurilgan kichik bir inshootning eshiklari zamonaviy Samarqand yog'och o'ymakorligi ustalari tomonidan tayyorlangan.

Mustaqillikka erishib, xalqaro aloqalarni, jumladan xalqaro turizmni rivojlantirishga intilish qadimgi va o'rta asrlarga taalluqli me'moriy yodgorliklarni asrash va qayta tiklash sohasidagi faoliyatning qizg'inlashuviga olib keldi. Mirzo

⁶ Бартольд В.В. Царствование Тимура. – М., 1992. -77 с.

Ulug'bekning 600 yillik yubileyi nishonlanishi munosabati bilan butun Samarqandda qayta ta'mirlash ishlari boshlab yuborildi. Ko'hak tepaligida qisman saqlanib qolgan chizmalar va zamondoshlarning bergan ta'riflariga qarab rasadxona binosi qayta ta'mirlandi.

Rasadxona yonida Ulug'bek memorial muzeyi qurildi. Unda o'sha davrning astronomiya asboblari – astrolyabiya, fazo va yer globusi, yerdan yulduzlargacha bo'lgan masofani o'lchash asboblari va hokazolar to'plangan. Muzeyda o'sha davrlarga doir kitob parchalari va fotosuratlar saqlangan bo'lib, ular Ulug'bek hukmronligi davrida ilm-u fanning yuksak darajada rivojlanganligidan darak beradi.

Samarqandda ajoyib me'morchilik yodgorliklari saqlanib qolgan, ularga qarab me'morchilikning rivojlanishini kuzatish mumkin bo'lgan shahardir. Bunday yodgorliklardan biri "Ishratxona"dir. Afsonalarga ko'ra, bu maqbarani Temurning suyukli rafiqasi Bibixonim hayotlik paytida o'zining o'limi yaqinlashayotganligini his etib qurdirishni boshlagan. Biroq bino tayyor bo'lgach, Temur uning ajoyibligini ko'rib: "Bu mening xursandchilik uyim bo'lsin, maqbarani esa boshqa yerda quramiz!"- deb aytadi. XX asrdagi ko'plab tadqiqotchilar uni Temur davrining saroylaridan biri deb hisoblagan.

Ishratxona maqbarasi noyob yodgorliklardan biri bo'lib, unda temuriylar me'morchiligi evolyutsiyasi, keyinchalik esdan chiqarib yuborilgan yangi bezak, kompozitsiya va konstruksiya elementlarining rivojlanishi o'z izini qoldirgan.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikni qo'lga kiritgach, madaniy yodgorliklarni qayta ta'mirlashni boshlab yubordi. 1995-yilda Ishratxona yodgorligi «Meros» loyihasi bo'yicha qayta ta'mirlanishi lozim bo'lgan noyob yodgorliklar qatoriga kiritildi. Loyiha bo'yicha boshlangan qayta ta'mirlash ishlari 1996-yilda Amir Temurning 660 yillik yubileyiga tugallandi.

Xo'ja Nispatdara masjidi (1901) ham XIX asr arxitektura yodgorliklari qatoriga kiradi. Bu yerda zalning g'arbiy devori chuqur o'ylab chiqilgan holda bezalgan bo'lib, katta tokchada mehrob joylashgan. Bu to'rtburchakli nayzasimon tokcha bo'lib, yulduzsimon konxa bilan yopilgan. Tokchani bezashda peshtoq naqshlari va naqshinkor ship hosilalari va rangli ganchdan foydalanilgan, yashil hoshiya joziba markazini ko'k fonda oq o'simliksimon naqshlar bilan rangli medalyonli panno alohida ajratib turadi. Peshtoqning yuqori qismi ko'k fondagi oq rangli yozuvlar bilan bezalgan bo'lib, u orqali peshtoqdagi rasm bilan uyg'unlashuvchi o'simliksimon naqshlar ingichka jilg'a bo'lib o'tadi.

Nispatdara masjidining bezaklari XIX asrning oxiri XX asr boshlarida O'zbekistonda bezak san'atining yuksak darajaga chiqqanligidan darak beradi. Registon maydoni Samarqandning yuragi bo'lib, "Qumli joy" degan ma'noni anglatadi. Registon maydoni uch tomondan ajoyib binolar – Ulug'bek madrasasi (1417-1420), Sherdor madrasasi (1619-1636), Tillakori madrasasi (1647-1660) bilan o'rab olingan. Oliy diniy ta'lim muassasasi, O'rta asrlar universiteti – Ulug'bek madrasasida dastlab ta'lim oluvchi yuzdan ortiq talaba istiqomat qiluvchi ellikta hujradan iborat bo'lgan. Rivoyatlarga ko'ra, bu talabalar orasida buyuk shoir Jomiy ham bo'lgan ekan.

XVII asrda Registonda ikkita hashamatli bino – Sherdor va Tillakori madrasalari qurilgan. Ular badiiy-arxitektura xislatlari bo'yicha o'z timsoli bo'lgan

o'lmas me'moriy yodgorlik – Ulug'bek madrasasidan ortda qolsa-da, hajmining kattaligi va bezaklarining ulug'vorligi bilan ajralib turadi. XVII asr madrasalari orasida eng katta ahamiyatga Sherdor madrasasi, ya'ni "Sherli bino" sazovor bo'lgan. U qariyb 17 yil davomida Samarqand hukmdori amir Yalangto'shning loyihasi bo'yicha qurilgan. O'n yildan so'ng xuddi shu hukmdor davrida Registondan shimol tomonda Tillakori madrasasi ham qurilgan. Madrasaning nomi "tilla bilan bezalgan" ma'nosini anglatadi. Tillakori madrasasining asosiy vazifasi – talabalarni o'qitishdan tashqari jome masjidi vazifasini ham bajargan.

Qadimiy shaharning ko'p sonli arxitektura yodgorliklari orasida Oqsaroy maqbarasi alohida qiziqish uyg'otadi. Uning qurilish vaqti aniq bo'lmasa-da, biroq arxeologlarning fikricha, Oqsaroyning ichki jihozlanishi, texnikasi va stili uni XV asrning ikkinchi yarmida qad rostlagan binolarga yaqinlashtiradi. Tarixiy ma'lumotlarning yo'qligi binoni sirli qilib ko'rsatadi. Go'ri Amirdan shimol tomonda joylashgan maqbara Burxoniddin Sagarajiyning qabri ustiga qurilgan. Ruhobod nomi bilan mashhur bo'lgan bu binoning ham qurilish vaqti aniqlanmagan.

Ayrim tadqiqotchilar ushbu mozorni g'isht bilan berkitilgan shimoliy eshikning o'yma naqshinkor bezaklariga qarab XIV asrning ikkinchi yarmiga taalluqli deb hisoblaydilar. Shaharning janubi sharqiy qismida, eski qabriston hududida Xo'ja Abdi Darun maqbarasi qad rostlagan. "Ichki Abdi" ma'nosini anglatuvchi Abdi Darun nomi shahar ahli tomonidan bu maqbarani shahar devorlari tashqarisida yotuvchi boshqa maqbaradan Xo'ja Abdi Birun – "Tashqi Abdi"dan ajratib turish uchun berilgan. Xo'ja Abdi Birun maqbarasi XVII asrning birinchi yarmida Nodir Devonbegi tomonidan qurilgan. U tomonidan yana ikkita bino – Namozgoh (hayit bayramlarida namoz o'qish uchun) va Xo'ja Ahror madrasasi qurilgan. Xo'ja Ahror madrasasi uning qabridan uzoq bo'lmagan joyda qad rostlagan bo'lib, bu alloma XV asrning ikkinchi yarmida Markaziy Osiyo xalqlari rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatgan.

Hozirgi temir yo'l ko'prigidan sal quyiroqda joylashgan Zarafshon daryosi qirg'oqlarini tutashtiruvchi ko'prik ham XVI asrning boshlari moddiy madaniyati yodgorliklari qatoriga kiritiladi. Ko'prik Shayboniyxon tomonidan qurilgan edi. Hozirgi paytda bu ko'prikdan faqat g'ishtin ravoq qolgan, xolos. Afrosiyobning janub tomonidan XIX asr o'rtalarida Hazrat Xizr masjidi qurilgan. Masjid 1915-yilda Samarqandlik usta Abduqodir Baqoyev tomonidan qayta ta'mirlangan.

Afrosiyobning janubi sharqiy tomonida Samarqanddagi eng mashhur qadimiy arxitektura ansambllaridan biri – Shohizinda qabristoni joylashgan bo'lib, u XIV-XV asrlar mobaynida birin-ketin qurilgan o'n bitta maqbaradan iborat. Binolarning bir qismi havorang gumbazli, mayolika ravoqli, naqshinkor tosh qubbali bo'lib, xalq ustalari va arxitektorlar tomonidan qayta ta'mirlangan. Shohizindaga kirish peshtoqi butun ansamblni yakunlab turadi va eng oxirida qurilgan bino hisoblanadi. Uning tepasida quyidagicha yozuv bitilgan: «Ushbu muhtasham binoga 883-yilda Amir Temur o'g'li Shohruh o'g'li Ulug'bek Ko'ragoniy o'g'li Abdulaziz tomonidan asos solingan» (hijriy 1434-yil). Qadimiy pillapoyaning 36 ta pog'onasini bosib o'tib, ochiq timga kirish mumkin. Bu yerda chap va o'ng tomonda Amir Temurning qarindoshlari, jumladan uning xotini Tuman-og'a va singlisi Shirin-og'abekalarning sag'analari joylashgan. Tim qubbasimon arkali hovli bilan yakunlanadi.

Uning ostida, o'ng tomonda qadimiy o'yma naqshlar bilan bezalgan eshik mavjud bo'lib, u Shohizinda ansamblining eng qadimiy binosi – Qusama ibn Abbas maqbarasiga olib boradi. Bu alloma arablar bosqinidan so'ng Samarqandda islomni tarqatishga qo'shgan hissasi uchun “avliyo” deb e'lon qilingan. Shohizinda qo'riqchilari tashrif buyuruvchilarga, albatta, “bu yerda yashagan Qusama ibn Abbas kunlardan bir kun o'z ma'ruzasini yakunlagach, boshini qo'ltig'iga olib, g'orning tor tuynugi orqali kirib ketgan va hozir ham hayot” degan qadimiy afsonani aytib beradilar. Bu yerdan “Shohizinda – Tirik shoh” nomi ham kelib chiqqan. Hovlidan o'yma yog'och panjara bilan ajratilgan Qusama ibn Abbas sag'anasi arab yozuvida bitilgan naqshlar bilan bezalgan. Umuman, Shohizinda arxitektura ansambli XIV-XV asrlarga oid noyob muzey hisoblanadi. Bu yerda sirlangan naqshinkor quydirilish, ajoyib yig'ma mozaika namunalari va sirlangan g'ishtdan yirik mozaikalarni topish mumkin. Nafisligi, nazokati va shakllar rang-barangligi bo'yicha Samarqanddagi hech bir yodgorlik Shohizinda maqbaralari oldiga tusha olmaydi.

Bibixonim masjidi Samarqandning O'rta asrlarga oid eng mashhur arxitektura yodgorliklaridan biri hisoblanadi. Uning qurilishi 1399-yilda, Temurning Hindiston sari g'olibona yurishi yakunlangandan so'ng boshlangan. Masjid besh yil davomida qurilgan va 1404-yilda tayyor bo'lgan. Temurning fikriga ko'ra, Bibixonim masjidi uning boshqa mamlakatlarda ko'rgan barcha masjidlaridan ham zo'r bo'lishi lozim edi. Qurilishda ishtirok etishga Sharqning ko'plab mamlakatlaridan me'morlar, rassomlar, ustalar va hunarmandlar jalb etilgan. Hindiston, Eron va ozarbayjonlik ikki yuzta sangtarosh masjidning o'zida ishlagan, besh yuzta boshqa ishchilar esa Panjikent yaqinidagi tog'larda tosh qazib olish va ishlov berish bilan shug'ullangan hamda toshlarni Samarqandga yuborgan. Jahonning turli burchaklaridan haydab kelingan va to'plangan usta va hunarmandlar qurilishga yangicha tajriba va an'analar kiritdilar. Qurilish yakunlanmasdan turib, Temur yana boshqa yurishga o'tlanadi. Qaytib kelgach, birinchi navbatda u darhol yangi masjidni tomosha qilishga keladi. Ulkan bino 130x102 m maydonli hovlini egallagan edi. Uning g'arbiy tomonida asosiy masjid, shimoliy va janubiy tomonlarda esa kichik masjidlar qad rostlagan. Keng ichki hovliga marmar plitalar yotqizilgan va ibodat qiluvchilar uchun yopiq tim bilan o'ralgan edi. Hovliga kirish balandligi 50 metrga yetadigan ikkita dumaloq minorali baland peshtoq sifatida bezalgan. Masjidning old tomoni ham ikkita minorali ajoyib peshtoq bilan bezalgan.

Barcha bino devorlari tashqi tomondan jimjimador geometrik naqshlar va diniy yozuvlarni tashkil etuvchi rang-barang sirlangan g'ishtlar bilan bezalgan edi. Ichki devorlarning serhasham va boy bezaklari mayolikali mozaika, o'ymakor marmar, yelim-gips va tilla xal berilgan naqshlardan iborat edi. Biroq Temurning binodan ko'ngli to'lmadi va u qurilishga rahbarlik qilgan Xo'ja Mahmud Dovud va Muhammad Jaldani qo'lga olishga buyruq beradi. Ular o'limga mahkum etilib, Siyob soyi etagida, Cho'ponota atrofida dorga osiladi.

Bizning kunlarga Bibixonim masjidi qurilishi haqida turli afsonalar yetib kelgan. Ulardan biriga ko'ra, Temurning rafiqasi go'zal Bibixonim turmush o'rtog'ini hayratga solish va xursand qilishga qaror qiladi. Temur ko'p sonli yurishlaridan biriga ketgan paytda Bibixonim eng yaxshi quruvchi va ustalarni chaqirib, Samarqandda eng muhtasham bino qurishni taklif etadi. Tarixda Bibixonim nomi

ma'lum emas. Ma'lumki, Amir Temurning katta xotinining ismi Saroymulixonim edi.

1404-yilda Temurning buyrug'i bilan uning sevikli nabirasi Muhammad Sulton uchun Go'ri Amir maqbarasi qad rostlaydi. Rang-barang mozaika va arxitektura chiziqlarining serhashamligi maqbarani o'rta asrlarga oid me'morchilikning noyob yodgorliklari qatoriga kiritadi. Go'ri Amir maqbarasida Amir Temurning o'zidan tashqari uning ikkita o'g'li – Mironshoh va Shohruh, nabiralari Muhammad Sulton va Mirzo Ulug'bek, shuningdek, Temurning diniy rahnamosi madinalik shayx Mir Said Baraka va Shoh Xo'ja dafn etilgan. Ulug'bekning o'g'li va merosxo'ri o'z otasini jaholatparast mullalar, muftiy va ulamolar qo'liga topshirib, uning Makkaga haj safarida fojeali o'limi haqida eshitgach, hattoki boshi tanasidan judo qilingan otasining ahvoli nima bilan tugaganligi haqida qiziqmaydi ham. Ulug'bekni shoshapisha qishloqdagi qabristonga ko'mib tashlashgan, chunki shu qadar vahshiyona o'ldirilgan ediki, o'tkir qilich bilan zarba berilganda uning kallasi hovlining boshqa burchagiga uchib ketgandi. Bu jinoyatning mudhishligi zamondoshlarni shunchalik hayratga soladiki, padarkush o'g'ilning o'rniga kelgan yangi Movarounnahr hukmdorining buyrug'i bilan Ulug'bekning xoki Go'ri Amirga keltirilib dafn etiladi va sag'ananing tepasiga olim padarkush o'g'li tomonidan halok bo'lganligi yozib qo'yiladi. Ulug'bek qotillar tomonidan o'ldirilgan kishi sifatida oq kafanda emas, balki shoyi ich kiyimda dafn etilgan.

4.4. Samarqand– bugungi taraqqiyot bosqichida

Uzoq o'tmish va o'rta asrlarda Samarqand Shimol va Janub, Sharq va G'arb o'rtasida savdo, madaniyat va fanning mamlakatlar o'rtasida o'zaro kirib borishi, qurilish va irrigatsiya sohalarida ilg'or tajribalar almashinishida ulkan rol o'ynagan.

Bugungi kunda Registon maydonining chap tomonida buyuk o'tmishni eslatib turuvchi zamonaviy "Buyuk Ipak yo'li" tuzumi qad rostlagan bo'lib, unda tuyalar karvoni aks ettirilgan.

Shaharda turistlar uchun ajoyib sharoitlar yaratilgan. Aeroport, vokzal, avtostansiyalar, bir nechta mehmonxonalar, jumladan 4 yulduzli "Afrosiyob" mehmonxonasi, muzey va teatrlar, restoranlar va badiiy salonlar mavjud.

Shaharda aholi salomatligiga, jismoniy tarbiya va sportning rivojlanishiga alohida e'tibor qaratilgan. Samarqandda stadionlar soni ko'paydi. Bir qator kafelar paydo bo'ldi.

Paydo bo'lganiga hali unchalik ko'p bo'lmagan "Bog'i Eram" madaniy hordiq chiqarish majmuasi samarqandliklar va shahar mehmonlariga darrov yoqib qoldi. Bir paytlar tashlandiq holga kelib qolgan shahar bog'ining bir burchagida sun'iy ko'l yaratilib, uning yonida 3,5 ming kishilik amfiteatr barpo etildi. Majmua darhol odamlar sevib dam oladigan joyga aylandi. Issiq yoz kunlari bu yerdagi favvoralar o'ziga xos mikroiklim muhitini yaratadi. Suv o'rtasidagi sahnada artistlarning chiqishlari esa kishilar hordig'ini yanada maromiga yetkazadi.

Amfiteatr oldidagi manzaraga qayinlar orasida joylashgan "Oazis" restorani hamda tashrif buyuruvchilarni turli xil muzqaymoqlar kutib turgan "Parvina" kafesi ham uyg'unlik bilan qo'shilib ketgan.

Eng hurmatli mehmonlar, albatta, bu shaharga taklif etiladi. Biroq bundan maqsad ajoyib me'moriy yodgorliklar, qishin-yozin meva-chevalarga boy sharqona bozor bilan tanishtirish, mashhur Samarqand noni va xalq hunarmandchiligi ustalari mahsulotlari bilan hayron qoldirishgina emas, balki mehmonlarning xalqimiz ruhini, uning saxiy va mehmondo'stlik xususiyatlarini tushuntirishga erishishdir.

1996-yil 18-avgust kuni O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov shahar bayrog'iga 1-sonli Amir Temur ordenini qadab qo'yish oldidan quyidagi so'zlarni aytdi: "Samarqand – o'tmishi ajoyib, hozirgi kuni baxtli va kelajagi mangu shahardir".

Qisqacha xulosa

O'zbekiston xalqining buyuk tarixiy va madaniy qadriyatlarini o'zida mujassam etgan, "Sharq Bog'i Erami" nomini olgan Samarqand butun dunyo sayyohlarini qadimgi va bugungi kuni bilan lol qoldirmoqda. Ushbu mavzuda Zarafshon vodiysining aholi zich yashaydigan Samarqand shahri to'g'risida, uning qadimdan savdo va madaniyat markazi ekanligi haqida to'xtalib o'tildi.

Afrosiyob hududida ko'plab topilgan naqsh va bezaklar, shahar xarobalarining guvohlik berishicha, bu yerda qadimdan madaniyat va san'at rivojlanganligidan dalolat beradi. Ayniqsa, Chingizxon davri vayronagarchiliklarini tasdiqlovchi manbalar ko'p.

Temur va Temuriylar davrida Markaziy Osiyoda eng gullab yashnagan, ilm va fan markaziga aylangan Samarqand hozirgi kunda ham o'z maftunkorligini yo'qotmagan.

Bugungi kunda ham dunyo sayyohlari uchun bir qancha ijobiy yodgorliklar qayta ta'mirlangan, ular uchun sharoitlar yaratilganligi, mamlakatimizga tashrif bilan kelgan arboblardan ham, albatta, Samarqand shahrining diqqatga sazovor joylarini kelib ko'rishlari yoritilgan.

Tayanch iboralar:

Paleolitik manzilgoh, "Siyobcha", hujra, "Ruhobod", mayolika, ravoq, peshtoq, o'ymakor terrakota, stoloktit, timpan.

Nazorat savollari

1. Qadimgi Samarqand haqidagi asosiy manbalar.
2. Iskandar Zulqarnayn davridagi shaharga tavsif bering.
3. Afrosiyob shahrining o'ziga xos xususiyatlari.
4. Temur va Temuriylar davridagi Samarqand.
5. Temur davri madaniy yodgorliklari.
6. Bibixonim madrasasini so'zlab bering.
7. Sherzod madrasasining o'ziga xosligi.
8. Shohizinda qabristonining sharqona xususiyatlari.
9. Shayboniyxonlar davrida Samarqanddagi o'zgarishlar.
10. Samarqand – mustaqillik yillarida.

Adabiyotlar

1. Мирзаев Р. Путешественники и исследователи на Великом Шелковом пути. – М.: ЗАО Издательский дом «Муравей», 2005. С. 42-50.
2. Мирзаев Р. Туристические жемчужины Узбекистана. – Т.: Шарқ, 2005. С. 35-40.
3. O‘zbek islom obidalari. Fotoalbom, – Т.: O‘zbekiston, 2002. 243-250-b.
4. Qoraboyev U. O‘zbek xalqi bayramlari. – Т.: Sharq, 2002. 8-72-b.
5. Тухлиев Н., Кременцова А. Республика Узбекистан. Энциклопедический справочник. – Т.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” нашриёти, 2001. С. 116-124.
6. Бабажанова Г.И. и др. По древним городам Узбекистана: Ташкент, Самарканд, Шахрисабз, Бухара, Хива. – М.: Профиздат, 2001. С. 112-116.
7. www.tourism.ru
8. www.travel.ru
9. www.palomnik.ru
10. <http://www.yorku.ca/research/dkproj/string/rohr/articles.htm>
11. <http://www.world-tourism.org>

5-bob. BUXORONING TARIXIY MEROSI

5.1. Buxoro – Buyuk Ipak yo‘li markazlaridan biri

Buxoro – O‘zbekiston Respublikasining qadimiy shaharlaridan biri bo‘lib, zardushtiylarning bahor faslidagi qurbonlik keltiriladigan tepaliklarida joylashgan. Buxoro butun dunyoda ertak-shahar deb ataladi. Shahar tarixi muhim hodisalarga boy. Buxoro XV asr davomida yuksak darajada rivojlanib, jahon miqyosida shuhrat qozongan. Boyliklarga ega bo‘lgan kunlar dushmanlar bosqini ostida vayronagarchiliklarga uchragan kunlarni ham boshidan kechirdi. Turli davr va vaqtning o‘zi qadimiy shaharning tashqi ko‘rinishini o‘zgartirdi, xalqning aql-idroki va iqtidori bilan o‘lkaning boyliklari ko‘paytirilib, kelgusi avlodlarga meros qilib asrlarga tatigulik moddiy madaniyat durdonalari qoldirildi. Mana endi bizning oldimizda bepoyon cho‘l-u biyobonlarda Qorako‘l qo‘ylari, ko‘m-ko‘k vohalarda paxta dalalari, gullab-yashnayotgan bog‘-rog‘lari, ko‘plab kilometrlarga cho‘zilgan ariq va kanallari, qadimiy tarix yodgorliklari va zamonaviy sanoat korxonalarini va qurilishlariga ega o‘lka turibdi.

Buxoro uzoq vaqt tarixchilar va arxeologlar uchun ochiq bo‘lmagan. Buxoro haqida o‘rta asrlarda yashab o‘tgan mualliflarning nisbatan ko‘p sonli ma‘lumotlari, ayniqsa, Narshaxiyda unchalik tushunarli bo‘lmagan, chunki tarixiy tipografiya o‘rganilmagan.

Buyuk Ipak yo‘lining asosiy shaharlaridan biri bo‘lgan Buxoro jahon madaniyati rivojiga sezilarli hissa qo‘shgan, Sharq va G‘arb o‘rtasida vositachi sifatida uslubi, darajasi va mazmuniga ko‘ra turli xil bo‘lgan milliy madaniyatlarning o‘zaro munosabatlari rivojlanishiga xizmat qilgan. Buning uchun bu yerda kuchli asoslar va qulay manbalar bor edi, chunki aynan Buxoro dunyoga al-Buxoriy, Rudakiy, Daqiqiy, Abu Ali ibn Sino va Forobiy kabi buyuk allomalar, shoir va me‘morlarni yetkazib bergan.

Bugungi kunda qadimiy shahar tarixida yangi sahifa ochilgan. Buxoro mustaqillik yillarida tiklanish va yangilanishni boshidan kechirmoqda. Buxoroliklarning madaniy hayotga intilishi, demokratiya tamoyillari asosida erkin yashash istaklari, milliy o‘zini o‘zi anglashning o‘sishi bizning kunlarda ro‘y berayotgan ko‘plab ijobiy o‘zgarishlarni belgilab berdi. Muzey shahar turizm sohasining rivojlanishiga xizmat qilmoqda, chunki Buxoroda turistik sohani rivojlantirish uchun zarur bo‘lgan barcha turistik resurslar mavjud. Hozirgi paytda, Buxoro jahondagi ochiq shahar maqomini olgan shaharlardan biri sanaladi va bu xalqaro turizm uchun yanada keng imkoniyatlar ochadi. Turizm sanoati xalq xo‘jaligining katta foyda keltiradigan tarmog‘i bo‘lib, Buxoroi sharifning iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy, milliy va ma‘naviy o‘sishiga xizmat qiladi.

Buxoro Buyuk Ipak yo‘lining asosiy shaharlaridan biri bo‘lgan va bu savdoning yuqori darajada rivojlanishiga xizmat qilgan. Hunarmandchilikning har xil turlari rivojlanganligi, karvonsaroylarning ko‘pligi va bir necha asrlik tajribalar tufayli Buxoro ichki va tashqi savdoni keng miqyosda olib borgan. Buxoro orqali Old Osiyoni Mo‘g‘uliston va Xitoy bilan bog‘lovchi karvon yo‘llari o‘tgan. Bu yo‘l Bog‘doddan Xamadon, Nishopur, Marv, Amul, Buxoro, Samarqand, Shosh, Binkent, Taraz, Kulan, Merke, Bolasog‘un, Suyab, Issiqko‘lning janubiy qirg‘og‘i, Sharqiy

Turkiston orqali Xitoyga borgan. Janubi sharqiy Yevropaga yo'l xalifa Muktadirdan bulg'or podshosiga, odatda, Bog'doddan Eron, Iroq, Kavkaz va Xazar podsholigi orqali borgan. Avvalo qo'shni mamlakatlar – Eron, Hindiston, Afg'oniston, Xiva, Qo'qon, Xitoy bilan savdo amalga oshirilgan.

Buxoroga Hindistondan ipak va paxtadan olinuvchi mahsulotlar, indigo, marjonlar, qimmatbaho toshlar, Xitoydan choy, dori-darmonlar, ziravorlar, chinni idishlar, Erondan ipak va paxtadan olinuvchi mahsulotlar, Toshkentdan esa charm mahsulotlari olib kelingan. Afg'onistonning shimoliy tumanlari bilan ham savdo rivojlangan bo'lib, u yerdan qishloq xo'jaligi va chorvadorlik mahsulotlari keltirilgan. Bu mamlakatdan turli xil qorako'l, jun, tulki terisi, gilam va hokazolar olib kelingan. Afg'oniston orqali bu yerga ingliz va hind tovarlari keltirilgan bo'lib, bu qatorda ko'k choy, indigo, kisey, dorivor vositalarni sanab o'tish mumkin. Har yili Buxoroga 12-15 ming tuyada turli tovarlar keltirilgan.

Buxoro va Rossiya o'rtasidagi muntazam savdo va elchilik aloqalari XVI-XVII asrlar mobaynida ikkita eng muhim yo'nalishni o'rnatishga imkon berdi. Ulardan birinchisi – Volgabo'yi, avvalo, Astraxan edi. Bu yerlarda buxoroliklar va boshqa Markaziy Osiyo vakillarining manzilgohlari paydo bo'ldi va «Buxoro saroyi» nomini oldi. Aynan Astraxan orqali Buxoro Kavkaz, Eron, Hindiston va sharqning boshqa mamlakatlari bilan savdoga chiqqan. Ikkinchi yo'nalish Uralbo'yi, birinchi navbatda Orenburg edi. Asta-sekinlik bilan bu yo'nalish ko'proq foyda keltira boshladi.

5.2. "Buxoro san'ati"ning o'ziga xos xususiyatlari

XVI asrdan boshlab Markaziy Osiyoga boshqa madaniyat vakillari bilan birgalikda Hirotdan qochib kelgan badiiy kitob bezagi ustalari oqimi kuchaydi. Ba'zilar alohida kelgan bo'lsa, ba'zida butun karvonlar shaharga kirib kelgan. 1512-yilda 500 kishi Movarounnahrda yo'l olgan, XVI asrning ikkinchi va uchinchi o'n yilliklarida ham shu holat qayd etilgan. Bu karvonlar tarkibida mashhur ilohiyot mutaxassislari, shoirlar, musiqachilar, hunarmandlar va hokazolar bo'lgan.

XVI asrda miniaturalar bilan bezaluvchi qo'lyozmalar soni juda ko'p bo'lib, mumtoz sharq nazm asarlari va tarixiy solnomalardan tortib to ilmiy asarlargacha edi.

Buxorolik hunarmandlar mahorati va Buxoro badiiy hunarmandchiligining o'ziga xos xususiyatlari har doim o'zaro urushlar va mojarolarga qaramay, milliy ruhdagi an'analariga tayangan.

Ip-gazlama, ipak mahsulotlari va zargarlik buyumlari – Buxoroning sharqda egallagan mavqeyi aynan shularga asoslangan. XVIII asr va XIX asrning birinchi yarmida buxorolik ustalar san'atining eng yaxshi sahifasi yanada takomillashdi. Paxta tolasidan bo'z, gul bosilgan gazlama, olacha, burmet, zandanachi va hokazolar ishlab chiqarilgan. Buxoro atlas, duxoba, olachipor va katak qo'shoqlar, ipak ro'mollar mashhur bo'lgan. Asr boshlarida shohi, podshohi, beqasam, adras, baxmal, bayberek va boshqa matolar chiqarilgan. Ularning aksariyati yarimipak bo'lgan. XVIII asrning ikkinchi yarmi XIX asrda ishlab chiqarilgan mahsulotlar uchun qismli ishlab chiqilgan motivlarning o'zgarishi joylashtirish, ta'sirchanlik, murakkab naqshlar va boy rang palitrasiga xos bo'lgan.

Zardo'zlik san'ati Buxoroning faxri bo'lgan va shunday bo'lib kelmoqda. Buxoro amalida bu san'atning markazi bo'lgan, buni Markaziy Osiyoda hamma tan

oladi. Buxoro zardo'zlik san'ati imtiyozli xarakterga ega bo'ldi. Ustaxonalarda tayyorlangan deyarli barcha narsa faqat amir, saroy ahli va ularning ayollari uchun tayyorlanardi, faqat ayrim mahsulotlarga badavlat kishilarning buyurtmalari bo'yicha tayyorlanardi.

Buxoro mintaqada yelim-gips va lokli miniatura san'atining ham markazi edi. Kitob muqovalari, qutichalar, penallar qora, qizil, tillarang va boshqa fonlarda gul, daraxt, buta va chirmoviq shaklidagi o'simliksimon ingichka naqshlar bilan bezalgan.

Bu davrda Buxoro zargarlik san'ati, ya'ni qimmatbaho (tilla, kumush) metallardan, ko'pincha, qimmatbaho toshlar bilan badiiy bezaklar tayyorlash bilan mashhur bo'lgan. Bu yerda ko'p sonli zargarlar uchun boy xomashyo bazasi mavjud edi. Ayollar uchun tayyorlanuvchi taqinchoqlar soni juda ko'p edi: bilakuzuklar, ziraklar, to'g'nag'ichlar va hokazo. XVIII asrga taalluqli qimmatbaho tosh bilan bezalgan tilla havol munchoqli ip shaklidagi marjon butun dunyoda ma'lum. XIX asrning birinchi yarmida serdolik toshi eng sevimli va urf bo'lgan. Buxoroda Mir Ahmad, Mir Sharif, Mir Orif, Mir Rahmat kabi zargarlar sulolalari mashhur bo'lgan.

Buxoroda uzoq vaqtlardan buyon sopol buyumlar bilan shug'ullanib kelingan, uning kulollik san'ati sharqda juda mashhur bo'lgan. Chunki faqat loydan yasalgan idishgina uy jihozlari orasida matolar bilan bellashishi mumkin edi. Biroq ulardan farqli ravishda sopol idishlarning umri uzoqroq bo'ladi. O'tgan asrlarda bo'lgani kabi, XVIII-XIX asrlarda bu yerda kulollar mahallasi va bozori mavjud bo'lib, turli shakl va hajmli sopol idishlar sotilgan.

Sirlangan idishlar o'ziga xos ahamiyatga ega bo'lgan. Bu mahsulotlar oddiy kishilar uchun mo'ljallangan oddiy sirlangan idishlardan ochiq rangli fonda murakkab naqshli bezaklar berilgan qimmatbaho "fayans" mahsulotlarga ishlab chiqarilgan.

XIX-XX asrlarda Buxoroda yog'ochga ishlov berish hunari keng rivojlangan. Turli, ayniqsa, qattiq daraxt yog'ochlaridan qishloq xo'jaligida foydalanish uchun asbob-uskunalar (omoch, belkurak, panshaxa), uy buyumlari, boshmoqlar, urchuqlar, egarlar, eshik qulflari, to'qimachilik dastgohlari, o'yima naqshinkor ustunlar, eshiklar va mebel jihozlari tayyorlangan. Yog'ochga badiiy ishlov berish ustalarining mahorati arxitektura qismlaridan qalamdondan to penal kabi mayda buyumlarga keng qo'llangan. Silliq mahsulotlar bilan bir qatorda amirlarning naqsh solingan taxtlari ham yasalgan. Silliq burmali va o'yiqli naqshlar o'simliksimon va geografik shakldagi naqshlar, yaxlit to'rsimon tuzilishlar yaratishda o'ziga xos usullarini saqlab qolgan.

Buxoro, shunday qilib, har xil san'at turlariga boy bo'lganligi, uning biz uchun tarixiy ahamiyatini tasdiqlab beradi.

5.3. Buxoroning buyuk madaniy yodgorliklari

Zamonaviy Buxoro ochiq osmon ostidagi tarixiy-arxeologik va me'morchilik me'moriy yodgorligidir. Bu yerda ko'plab qadimiy bino va inshootlar joylashgan bo'lib, ular xalqimizning boy tarixiy merosidan dalolat beradi.

Ismoil Somoniy qabri ustidagi maqbara (X asr) Buxorodagi eng mashhur madaniy yodgorliklaridan biri hisoblanadi.

Registondan biroz g'arbda, hozirgi Madaniyat va istirohat bog'i xiyobonlaridan birida joylashgan Somoniylar maqbarasi o'tgan asrning 20-yillarida eski bino va turli axlatlardan tozalangan. Keyinchalik maqbara bir necha bor qayta ta'mirlangan. Xalq orasida va ilmiy adabiyotlarda u Ismoil Somoniy – ushbu sulolaning eng mashhur, 892-yildan 907-yilgacha hukmronlik qilgan vakili nomi bilan bog'lanadi. Biroq bu yerda Ismoil va uning otasi Ahmadning qabrlari mavjudligi hamda maqbara tepasidagi peshtoqda Ismoilning nabirasi Nosirning ismi yozilganligi arxeologlarni bu bir kishining maqbarasi emas degan fikrga olib keldi. Maqbarada olib borilgan qazish ishlari bu yerda bir necha kishining qabri mavjudligini ko'rsatdi. Bu esa arxeolog olimlarga ularning oldida Ismoil hukmronlik qilgan davrda qurilgan Somoniylar sulolasining oilaviy maqbarasi turganligi haqida xulosa chiqarishga imkon berdi.

Ko'pchilikni maqbaraning boshqa binolarga hech ham o'xshamaydigan tashqi ko'rinishi hayratga soladi. Bu me'morchilik mo'jizasi qayerdan paydo bo'lib qolganligi, Movarounnahrda ham, boshqa musulmon mamlakatlarida ham unga teng keladigan boshqa bunday maqbara yo'qligi kishini hayratga soladi.

Biroq sinchiklab o'tkazilgan tahlil shuni ko'rsatadiki, yodgorlik islomdan avvalgi mahalliy so'g'd me'morchiligi amaliyotiga borib taqaladi. Uning shakllanishi nisbatan qisqa vaqt xizmat qiluvchi materiallar – yog'och va xomg'isht, shuningdek, bog'lovchi qism sifatida ganchdan foydalanilgan davrda ro'y bergan. Bu material turar-joy binolari (karkas asosi) va jamoatchilik binolari (yog'och ustun va shiftli saroylar, masjidlar, madrasalar va hokazo) qurilishida ko'proq qo'llangan. Shu sababli harbiy yurishlardan va bir necha bor ro'y bergan yong'inlardan so'ng bizgacha ilk davrlarga xos yodgorliklar yetib kelmagan.

Somoniylar davrida pishgan g'isht tobora ko'proq ahamiyat kasb eta boshladi. Binolarning tuzilishida ham o'zgarishlar ro'y berdi. Hashamatli arxitekturada gumbaz bilan yopilgan kublar tobora ko'proq ahamiyat kasb eta boshladi (qadimgi rivoyatlarga ko'ra kub – dunyoning to'rt tomoni). Ismoil Somoniy maqbarasi pishgan g'ishtdan qurilgan bo'lib, gumbaz bilan yopilgan to'rtburchak ko'rinishga ega.

Bu yerda, shuningdek, bino tomida arxitektura yangiliklari to'rtburchakdan sakkizburchakka, undan nayzasimon yelkan yordamida o'n olti burchakka o'tish qo'llangan. Bundan tashqari, maqbara to'rt tomonli binoni ifodalaydi, ya'ni uning to'rttala tomoni bir xilda bezalgan, faqat bir tomondan ichkariga kirish uchun eshik bor. Bu tuzilishining asosiy xususiyatini ko'rsatib turadi.

Inshootda arxitektura qismlarining aniqligi uning qiyofasida ham ko'zga tashlanadi. Tashqi va ichki unsurlar aloqasiga rioya qilinadi: masalan, tashqi poydevor pol bilan bir, kirish ravoqlari impost kamari takrorlanadi, ichkaridagi kichik tim qiyofasida parusi qavatiga mos keladi, ikki boshi ochiq ravoqchalar yuqoridan panjaralar orqali yorug'lik tushishiga imkon beradi.

Tashqaridan bo'lgani kabi, ichki tomonda ham binoning bezalishida bir xil naqshlar qo'llangan. Tashqi bezaklarga qaraganda binoning ichkarisida o'yma ganch naqshlarga yangi hisoblanishi mumkin.

Yodgorlik tashqi qoplamaga ega emas. Naqshlarning rang-barangligi, ularning tuzilish shakllanishiga devor va tomlarni qurish yordamida erishilgan. Ingichka plitali

mayda g'ishtlardan foydalanilgan. Dashtaq yerlarini Ismoil jome masjidiga vaqf qilib bergan. Bunday misollarni ko'plab keltirish mumkin.

Ruhoniylarning oliy qatlamlari (muftiy, qozi va boshqalar) yirik vaqf yerlari va mulklarini boshqargan. Somoniylar davrida Buxoroda masjid, maqbara va xonoqohlar soni ko'p bo'lgan. Nafaqat poytaxt, balki islom ilohiyotining yirik markazi bo'lganligi sababli Buxoroga mos keluvchi diniy maktablarga ham ega bo'lgan.

V.V.Bartoldning aytishicha, Buxorodagi Farjak madrasasi manbalarda ilk bora (937) qayd etilgan. Utbi Manining fikriga ko'ra, bu madrasa ajoyib qo'lyozmalarga boy katta kutubxonaga ega edi. Madrasada musulmon ilohiyoti bo'yicha ma'ruzalar o'qilgan.

Magokiy-Attoriy masjidi (XII asr) ham katta qiziqish uyg'otadi. Naqshinkor g'isht devorlar shartli geometrik usulda bajarilgan turli pannolarni tashkil qiladi. Chekkalari silliqlangan g'ishtdan tik hoshiya bilan bezalgan va alohida pannolarga taqsimlangan peshtoqning yumaloq ustki qismi ham shu usulda bajarilgan. Mattokiy-Attoriy qoplamasi X-XII asrlarda qo'llangan kuydirilgan yoki g'isht qoplamalar, bo'rtirma naqshlar, g'isht devordagi yorug'lik va soya o'yiniga asoslangan bezakli naft yaqqol misol bo'la oladi.

Somoniylar davrida musulmon ruhoniylarining ahamiyati juda o'sdi. Somoniylar poytaxti Buxoro Ismoil Somoniy davridan (874-907) boshlab Sharqda musulmon ilohiyatining eng nufuzli markazlaridan biriga aylandi, ruhoniylarning moddiy ahvoli ancha yaxshilandi.

Davlatdagi markaziy va viloyat boshqaruvini tashkil qilish Ismoil Somoniy nomi bilan bog'liq. Ismoil islohotlar o'tkazib, o'nta markaziy devon (vazirlik) shaklida davlat apparati yaratdi. Narshaxiyning yozishicha, Nosir II davrida (914-943) Registon maydoni atrofida devonlar uchun maxsus o'nta bino qurilgan. Vazir – Xo'jaibuzrug devoni asosiy bo'lib, unga mustauviy (moliya) devoni, ar-rasoil yoki insho (rasmiy hujjatlar tayyorlash bo'yicha), shurat (gvardiyani boshqarish bo'yicha), berid (pochta mahkamasi), muxtasib (vazn o'lchamlarini kuzatib borish) devonlari bo'ysungan.

1207-yilda Xorazmshoh Muhammad hunarmandlar qo'zg'olonini bostirib, Buxoroni Xorazmga qo'shib oldi. Muhammad Xorazmshoh Buxoroning ichki va tashqi devorlarini qayta tikladi, biroq Chingizxon bosqini oldida shaharni mustahkamlay olmadi. 1220-yilda mo'g'ullar mudofaaga yaxshi tayyorlanmagan shaharga yaqin kelib, uni qiyinchiliksiz bosib oldilar. Fors tarixchisi Juvayniyning so'zlariga ko'ra, Chingizxon jome masjidi yoniga otda kelib, shaharning eng obro'li kishilarini o'z oldiga chaqirishni talab qiladi. Mo'g'ullar "shahar omborlarini ochdilar va donni oldilar. Qur'on ro'yxatlari bo'lgan sandiqlar otlar uchun sulovga aylantirildi, sharobli meshlar masjidlarga taxlab tashlandi, raqsga tushish uchun shahar qo'shiqchilari olib kelindi, muridlar, ulamolar va shayxlar otxonada otboqarlar o'mida turdi..."

Biroq 400 kishidan iborat bo'lgan vatanparvarlar Chingizxonga qul bo'lishni istamay, Buxoro arkiga berkinib oldilar va 12 kun davomida qahramonona kurash olib bordilar.

Chingizxon mashhur odamlarning qimmatbaho buyumlarini tortib oldi va shaharni qo'shiniga talon-taroj qilish uchun berdi. Boshlangan talonchilik va tartibsizlik natijasida Buxoroni ulkan yong'in chulg'ab oldi. Binolarda yog'ochdan ko'p foydalanilganligi sababli Buxoroning katta qismi yonib kulga aylandi. Faqat jome masjidi va pishgan g'ishtdan qurilgan ayrim binolargina omon qoldi.

Aholining katta qismi o'ldirildi, jismonan baquvvat asirlarni esa mo'g'ullar guruhlariga birlashtirib, ulardan Samarqand, Dabusiya va boshqa shaharlarni ishg'ol qilishda, og'ir ishlarda foydalandilar.

Mo'g'ullar bosqinidan so'ng, Buxoro xuddi boshqa madaniyat o'choqlari kabi asta-sekinlik bilan qayta tiklandi. Ibn Battutaning xabar berishicha, u 1333-yilda Buxoroga tashrif buyurganida masjid, madrasa va bozorlarning ko'pchiligi vayron qilingan edi. Buxoro mo'g'ullar davrida ikki marta – 1220 va 1273-yillarda talon-taroj qilingan va yoqib yuborilgan. Bu yillar oralig'ida shaharda mashhur Ma'sudiya madrasasi qurilgan.

Ijarador Ma'sudbek Yalavoch o'g'li davrida (1238-1289) shahar biroz jonlandi. Juda boy kishi bo'lgan Ma'sudbek Buxoroda ko'plab binolar qurdirdi. Ularning orasida yuqorida aytib o'tilgan, mingta talaba tahsil oladigan Ma'sudiya madrasasini qayd etish lozim. Munkexonning (mo'g'ul shahzodasi) onasi ham yana bir bino – Xaniyyo qurdiradi. Biroq 1271-yilda Xuroson tomondan yana mo'g'ullar qo'shini bostirib keladi va Buxoroni yakson qiladi. Bu davrda Ma'sudbek madrasasi yoqib yuboriladi va minglab qo'lyozmalar yonib ketadi.

Buxoro muzey shahar bo'lib, unda 140 dan ortiq arxitektura yodgorliklari saqlanib qolgan. Ayniqsa, avliyolarning sag'analari ko'p. Ismoil Somoniy maqbarasi joylashgan bog'da ochiq maydonda Chashma Ayub maqbarasi ansambli (XII-XVI asrlar) qad rostlagan. Chashma Ayub bir-biridan arxitekturasi va tuzilishi bo'yicha farq qiluvchi turli xil yirik binolar guruhidir. Yodgorlikning kichik nimsoya ko'rinishida bus-butun bir narsa bilan band bo'lib mushohada qilish kayfiyatiga javob beruvchi o'ziga xos muhit hukmron. Binoning ichkarisida noma'lum shaxsning qabri mavjud, shu sababli Chashma Ayub nafaqat muqaddas joy, balki maqbara ham hisoblanadi. Uning to'rtta binosi turli davrlarda qurilgan bo'lib, ulardan eng birinchisi XII asrda qad rostlagan.

Afsonalarga ko'ra, bu yerda yodgorlikning paydo bo'lishi qadimgi Bibliya davriga borib taqaladi. Bir paytlar qattiq qurg'oqchilik davrida Buxoroga payg'ambar Ayub tashrif buyurgan. U hassasi bilan yerga bir urgan joyda paydo bo'lgan chashma odamlar uchun muqaddas joyga aylanadi. Odamlar muqaddas suvdan ichish va undan shifo topish maqsadida bu yerga turli joylardan kela boshlaydi. Chashma yaqin paytlargacha aholini suv bilan ta'minlab turdi, biroq vaqt o'tishi bilan qurib qoldi.

Bu yerda ilgari bironta inshoot bo'lganmi-yo'qmi, biz bilmaymiz. Lekin bugungi kunda bizga ma'lum bino XIV asrga oid me'moriy yodgorlik bo'lib, uning qurilishi Temurning nomi bilan bog'lanadi. Bino arxitektura bezagi buyumlaridan mahrum bo'lib, Temur va Temuriylar davridagi boshqa bino va inshootlarga o'xshamaydi. Biroq Chashma-Ayubning ichki tomonida tarixiy yozuvlar saqlanib qolgan. Ulardan birida Ayub payg'ambar haqidagi afsona bitilgan bo'lsa, undan keyingi yozuvda mazkur bino 1379-yilda Amir Temurning buyrug'i bilan qad

rostdaganligi qayd etilgan. Bu sana Temurning Xorazm yurishidan Shahrisabzga qaytib kelishiga mos keladi.

Aynan shu paytda Temur Xorazmlik mashhur ustalar guruhini Shahrisabzga Oqsaroyni qurish uchun yuboradi, Urganchda avliyo Al-Qubro maqbarasini qayta tiklashni buyuradi. Temurning avliyolarni hurmat qilishi va ularga bo'lgan munosabati bois, yo'lda ketayotganda bu joyni ko'rib qolgani va binoning eski qismini qayta tiklashni buyurgani ehtimoli borligiga haqlimiz. Yassi gumbazli bino Temur davrida qayta tiklangan bir qismidir. Yassi gumbazga tutashuvchi ganch hosilalar ta'sirchan ko'rinishni tashkil qiladi. Keyinroq bu binoga qo'shimcha qilib, XVI asrga xos bo'lgan boshqa bir bino quriladi. Ular Buxoro uchun xos bo'lmagan chodirsimon gumbaz bilan yopilgan bo'lib, buni, ehtimol, Buxoroga boshqa hududlardan kelgan ustalar ishi bilan izohlash mumkin. Shu tariqa Buxoroda hashamatli yodgorliklarning ma'lum bir guruhi paydo bo'lgan.

1471-yilda Buxoroda Ulug'bek tomonidan qurdirilgan madrasa bizning kunlarga saqlanib qolgan. Ulug'bek madrasasi biroz g'ayrioddiy edi – uning bosh peshtoqi ustida quyidagi so'zlar bitilgan: “Bilimga intilish har bir musulmon erkak va ayolning majburiyatidir”, ya'ni nafaqat erkaklar, balki ayollarning ham bilim olishi talab qilingan. Ulug'bek bir necha bor Buxoroda bo'lganida aynan shu madrasada to'xtalib o'tar hamda Buxoroning mashhur kishilari va talabalariga o'z qo'li bilan sovg'alar ulashishni sevar edi.

Ulug'bek 1338-yili G'ijduvonda ham yana bir madrasa qurdirgan bo'lib, keyinchalik uning atrofida avliyo g'ijduvoniyni qabri ustidagi daxma, masjid va boshqa binolardan iborat bo'lgan hashamatli-arxitektura majmuasi vujudga kelgan.

XVI asming boshlarida Buxoro ko'chmanchi o'zbeklar davlati hukmdori Shayboniyxon tomonidan bosib olindi. Shu paytdan boshlab, Movarounnahr shaharlarida xo'jalik hayoti qayta tiklana boshladi.

1512-yilda Buxoro, Samarqand va Toshkentga tashrif buyurgan Xurosonlik shoir va adib Vasifiy Shayboniylar sulolasining dastlabki vakillari davrida bu shaharlar odamlar bilan gavjum, hunarmandchilik, savdo va madaniyat markazi bo'lganligini qayd etadi.

Bu paytda hunarmandchilikning keng rivojlanishi, savdoning ham jonlanishiga olib keldi. Xalqaro bozorlarda Buxoroning ip va ipak matolariga talab kuchaydi. Shaharda hunarmandchilik, savdo va qurilish faoliyati jonlanib ketdi. 1559-yilda qurilgan Lisak masjidi yaqinida yashagan Xo'ja Saad 1570-yilda karvonsaroy qurdirdi. Ko'p sonli karvonsaroylar Abdullaxon davrida (1557-1559) ham paydo bo'ldi. Bizning kunlarga uning davrida qurilgan chorsu – bozor ko'chalari chorrahasida joylashgan gumbazli binolar saqlanib qolgan bo'lib, bu binolarda do'ppido'zlar, zargarlar, sarroflar va hokazolar shug'ullangan. Yaqin kunlarga kamon o'qlari tayyorlovchi ustaxona va uni sotuvchilar gumbazi saqlanib qolgan. 1586-1587-yillarda Abdullaxon tomonidan tim qurdirilgan.

Gumbaz ostida salqin va nimqorong'ilik hukmron bo'lgan. Binolar majmuasi bu yerda ayollar uchun taqinchoqlar, o'yma muhrlar, qurollar uchun qin yasash bilan shug'ullangan ko'p sonli zargar ustalarning bir yerga jamlanishidan dalolat beradi.

Bozor yo'li bo'ylab Abdullaxon tomonidan qurdirilgan, ipak sotish uchun mo'ljallangan tim joylashgan. Bu bino juda keng, ko'p gumbazli va ko'p ustunli edi.

Markaziy gumbaz bu yerda sakkiz qirrali ustunlarning ustiga joylashgan. Markaziy bino atrofidan o'tgan tim ko'plab kichik gumbazlar bilan yopilgan. Ravoqsimon tokchalar timni ko'plab rastalarga bo'lib tashlagan. Taqi-zargaron kabi savdo bilan bog'liq arxitektura inshootlari o'zining soddaligi bilan kishini hayratga soladi. Binoda savdogarlar uchun o'ttizdan ortiq xonalar mavjud bo'lgan. Ichki sakkiz qirrali asosni o'n bitta oynali keng gumbaz yopib turadi. Katta gumbaz atrofida to'rtburchak figurasi bo'ylab joylashtirilgan mayda gumbazchalar soni ellik oltitaga yetadi. Barcha bo'limlar ochiq va keng qubbalar tizimi orqali bir-biri bilan bog'langan.

Toqi-telpakfurush bir nechta ko'chalar kesishuvchi chorrahada joylashgan. Bu yerda beshta ko'chadan markaziy gumbaz bilan yopilgan olti burchakli figuraga o'tish mohirona amalga oshirilgan va unda asriy an'analar qo'llangan, bezaklarning rangi va rasmlari o'sha paytdagi talablarga javob bergan. Biroq bu paytga kelib, kesishuvchan arkalar va qalqonsimon yelkanlar tuzilishi o'zgargan. Bosh peshtoq ustidagi bezakli qubba murakkab tuzilish qo'llanishi sababli juda jimjimador ko'rinadi. Bu yerda arkalar yulduzchalar va hosilalar tizimi bilan kesishib o'tadi.

Silliqlangan pishgan g'ishtli, bezakli qubbalar naqshinkor devorlar bilan uyg'unlashadi. Bu, ayniqsa, madrasa hovlisidagi yo'laklarda yaqqol ko'zga tashlanadi. Madrasaning baland gumbazli xonalarida va masjidning ichki qismida barcha bezaklar ganchdan qilingan, hosila qubbalar esa juda murakkab tuzilishga ega.

Gumbaz ostida teshiklaridagi sopol panjaralar rasmi va bezalishi bo'yicha juda ta'sirchan bo'lib, madrasaning diqqatga sazovor yana bir qismi hisoblanadi. Yirik rombsimon to'rt ikki tomoni ochiq kungurali ovalarni tashkil qiladi. Teshiklar qirradi sariq-feruzarang hoshiya bilan bo'rttirib ko'rsatilgan bo'lib, shu sababli soyalangan usuldagi naqsh yaqqol ko'zga tashlanib turadi. Tuzilishining aniqlanishiga siyohrang-qizil fondagi o'simliksimon mozaika naqshlari ham xizmat qiladi. Gul ranglari juda nozik. Ularni joylashtirishning tizimi tuzilishiga qaysidir ma'noda muvozanatlik baxsh etadi. Naqshlarning oddiy va aniq-ravonligi, foydalanilgan ranglarning yorqinligi panjarani yanada ko'rkam qilib ko'rsatadi.

To'rtburchak shaklidagi mozaikali chekka panjarali teshik va shiplarni qamrab oladi. Qirg'oqning bezaklari mozaikali medalyonlar va jimjimalaridan iborat, oq hoshiyali ko'k tusli gulli naqshlar bilan to'ldirilgan zanjirlar qora maydoncha bo'ylab cho'zilgan, ularning ichidagi oddiy naqshlar mozaikali panjara uslubida bajarilgan. Feruza rangli novda va sariq rozetka (to'pbarggul shaklidagi naqsh) bilan mustahkamlangan ikkita oq nilufar gulli jimjimador naqsh hosil qilgan, xuddi shunday, biroq oq gullarsiz naqsh mudabon fonida ham joylashgan. Oq hoshiya bilan o'ralgan qirg'oqda takrorlanuvchi bezak va arxitektura qismlarining bir maromdaligini bo'rttirib ko'rsatadi.

Mirarab madrasasi (XVI asr) ham boshqa shunday binolardan gumbaz barabani ostidagi ravoqli oyna ustida mozaikali peshtoq bilan ajralib turadi. Peshtoq juda baland joylashgan bo'lib, uzoqdan ham ko'rinib turadi. Uni kamdan kam uchraydigan qora-qizg'ich rangli maydonchada oq o'simliksimon rasmi mozaika bezab turadi. Markaziy figuralarda, peshtoqning tutashgan joylaridagi mozaikali hoshiyalarda to'q ko'k rangdan foydalanish asosiy rasmini yanada katta qilib ko'rsatadi va uni jimjimador nafis bezakka aylantiradi. Peshtoq burchaklaridagi kichkina feruza va tillarang ilovalar umumiy rang uyg'unligini buzmasdan, asosiy mazmunni ochib

berishga xizmat qiladi. Feruza rangli hoshiya rang gammasini boyitadi va rasmga yakunlanganlik baxsh etadi. Feruza rangli hoshiya to'rtburchak mozaika unsurlaridan to'plangan.

Xiyobon ko'chasida bir-birining ro'parasida joylashgan ikkita katta madrasa – qo'sh madrasa nomini olgan Abdullaxon madrasasi va onasining madrasasi (Modarixon), shuningdek, Hoji Islom Jo'ybariy mablag'lariga qurilgan Govkushon madrasasi, Abdullaxonning eng yirik va obro'li mansabdorlaridan biri Qulbobo ko'kaldosh mablag'lariga qurilgan Ko'kaldosh madrasasi ham ajoyib me'moriy yodgorliklar sanaladi.

Ko'kaldosh madrasasi 1568-1569-yillarda qurilgan bo'lib, Labi Hovuz (Hovuz qirg'og'i) nomi bilan mashhur bo'lgan binolar ansambli yaratilishiga asos soldi. Ansambl ichidagi bu eng yirik bino shahar chekkasidagi qurilish olib borilmagan maydonda qad rostlagan. Bino to'g'ri to'rtburchak shaklida. Uning yon tomonlari ikkinchi qavatgacha arkada bilan jonlangan. Madrasaning maydonga qaratilgan old tomonida o'z davri uchun an'anaviy uslubda bajarilgan ajoyib peshtoq e'tiborni o'ziga qaratadi. Bir paytlar peshtoqni naqshinkor bezaklar bezab turgan, biroq vaqt o'tishi bilan ular yo'qolib ketgan.

XVI asr o'rtalarida qurilgan Ko'kaldosh madrasasi yog'ochdan yasalgan kirish eshiklarining o'yma naqshli bezaklari bilan ajralib turadi. Naqshinkor bezaklar bu yerda yelimsiz yopishtirilgan.

Rasmning asosini geometrik juzzalar tashkil etadi. Rasm markazida darvozaning tabaqasida o'yma naqshli qo'shimchalar bilan bezalgan o'n qirrali yulduz joylashgan. Bu yulduzning tomonlari davomli kesishmalarda markaziy rasmdan biroz farq qiluvchi o'simliksimon naqshlar bilan to'ldirilgan to'rt burchakli va olti burchakli figuralarni tashkil etadi. Yoyiq burchaklar bilan kesishuvchi olti burchakli jussalar o'rtasida besh qirrali yulduzlar, qirrali burchaklar orasidagi joylarda esa to'rtburchaklar va uchbarglar joylashgan. Butun rasmni qamrab olgan hoshiya geometrik jimjimadorlikni kesganday bo'ladi, uning tugallanmagan va cheksizligini bo'rttirib ko'rsatadi. Bezak naqshni tashkil qiluvchi va nur taassurotini qoldiruvchi bo'laklar tekislangan oval qirralarni ifodalaydi.

Ko'kaldosh madrasasi hovlisiga kiraverishda o'ng yo'lak ustidagi bezakli gumbaz ham qurilishi bo'yicha qiziqish uyg'otadi. Bunday gumbazlar Buxoroi sharifda boshqa uchramaydi.

Buxoroning Chor Rossiyasi xo'jalik va davlat hayoti sohalariga jalb qilinishi natijasida xonlik 1895-yilda rus bojxona hududlariga kiritiladi. Buxoroga karvon yo'llari orqali Afg'onistondan, qisman Hindiston va Erondan, Misr va Birmadan, Xitoy va Maltadan, Shvetsariyadan turli tovarlar keltirilgan. Rossiyaga jo'natilayotgan Buxoro tovarlari va keltirilayotgan rus tovarlari Samarqand, Marv va Ashxobodagi rus bojxonalarida tekshirilgan. Moliya vaziri Vittingning talabiga ko'ra, 1892-yili amir Peterburgda bo'lgan paytida rus bojxona chegaralarining Buxoro va Afg'oniston chegara chizig'iga ko'chirish haqida kelishuvni imzolaydi. Bu kelishuv xonlikni savdo siyosatida mustaqillikdan butkul mahrum qildi va Buxoroni Rossiyaning ichki bozoriga aylantirdi.

1895-yil yanvaridan boshlab rus bojxonalarini ochila boshladi. Tezda Karkidan to Darvozagacha butun Buxoro-Afg'oniston chegara chizig'i maxsus Amudaryo

brigadasi chegara qo'riqchilar nazorati tomonidan egallandi. Bu Rossiya va Buxoro o'rtasida savdo aloqalarining keskin kuchayishiga olib keldi. Rossiyadan turli manufaktura, qand, kerosin, temir mahsulotlar va hokazolar olib kelish kuchaydi. Buxorodan esa Rossiyaga paxta, qorako'l terisi, quritilgan meva va hokazolar olib ketilar edi.

Moskvada rus valyutasida tuzilgan bitimlar rus tovarlarining Buxoroda tangaga sotilishi tanga kursining o'zgarib turishiga olib kelgan. 1901-yilda amir chor hukumati bilan tanga zarb etish masalasini tartibga solish haqida kelishuv imzolaydi.

1905-yilda Buxoroni Rossiya markazi bilan bog'lab turuvchi Orenburg temir yo'lining ochilishi amirlikni rus savdo aylanmasiga butkul kiritib oldi va uni chor Rossiyasi iqtisodiyot ta'siriga to'liq bo'ysundirdi.

Amir Said Abdulahad (1885-1910) o'ziga xos diplomat bo'lib, Peterburgdagi turli mansabdor shaxslarga sovg'a-salomlar ulashadi va dolzarb masalalarni o'z manfaati yo'nalishida hal etishga erishadi. Amir Abdulahad tez orada rus armiyasi kavaleriyasi generaliga aylanib, general-adyutant unvonini oladi va Tver kazak qo'shini faxrli atamani, 5-Orenburg kazak polki shefi bo'lib oladi. Uning vorisi amir Said Olimxon (1910-1920) rus armiyasi polkovnigi, fligel-adyutant unvoniga ega edi.

Buxoro armiyasida 1881-yilda rus ofitserlari Buxoro qo'shinlarini ruscha harbiy safga o'rgatadi, yangi harbiy qismlarni shakllantirib, rus komandalarini joriy qiladi.

Bu davrda amir Said Abdulahad Buxorodan to'rt chaqirim masofada Samarqand yo'lida ajoyib saroy – Sitorai Mohi Xosani qurdirgan. Qurilishga mahalliy me'mor Xo'ja Tafiz boshchilik qilgan. Amir Abdulahadning sobiq qarorgohi bizning kunlarga ko'p sonli idoralari bilan saqlanib qolmagan.

Bu yerda ustalar ilk bora yevropacha uslubdagi shahar tashqarisidagi saroylar va bog'-park pavilyonlari majmuasini quradilar. Hozirgi paytda saroyda Buxoro viloyati o'lkashunoslik muzeyining filiali joylashgan bo'lib, uning qolgan hududida dam olish uyi va sihatgoh faoliyat ko'rsatmoqda. Saroyning kirish eshiklari Buxoro arxitekturasi durdonasi sanalmaydi, shu sababli bu yerda XIX asr oxiri XX asr boshidagi tushkunlik asoratlari o'z aksini topgan deb hisoblanadi. Darvoza Buxoroi sharif uchun xos bo'lmagan ravoq bilan yopilgan.

Qarorgoh 6,7 gektar maydondagi katta bog'dan iborat bo'lib, uning hududida gulzorlar, xiyobonlar va hayvonot bog'i mavjud edi. Butun hudud baland paxsa devor bilan o'rab olingan.

Sitorai Mohi Xosa saroyi qizil-marganets, ko'k-binafsha rang va havo rang mayolika plitalari bilan bezalgan. Bu yerda an'anaviy mayolika naqshlari bilan birgalikda pechlarni qoplash uchun mo'ljallangan (Rossiyadan keltirilgan) kafel plitalar ham qo'llangan. Darvozaning yuqori qismi tekis alebastr vazonlardan tashkil topgan kunguralar bilan bezalgan. Eng qiziqarli va qimmatli narsa o'zbek milliy naqshlari bilan bezalgan, mis mixlar va nafis o'yilgan naqshlar bilan bezalgan dastaklari bo'lgan yog'och darvoza hisoblanadi.

Darvozaxona ortida uch tomonidan qalin ustunlar qoplangan yengil shiyponlar bilan o'rab olingan tashqi hovli (hovli-birun) joylashgan. Kiraverishning o'ng tomonida yo'lak orqali yangi hovli bilan tutashgan ichki hovlili kichik xazina

bo'lgan. Qarama-qarshi tomondagi burchakda yo'lak va darvozabon uchun xona bo'lgan ikkinchi darvoza joylashgan.

Tashqi hovlining janubiy tomoniga 1612-1914-yillarda Amir Abdulahadning o'g'li Said Alimxon tomonidan qurdirilgan Yangi saroy tutashgan. Saroy "P" shaklida joylashgan bo'lib, ichki hovli markazida kichik favvorasi bo'lgan, plitalar yotqizilgan ro'i-hovlidarundan iborat bo'lgan. Katta ayvon hovlining shimoliy qismida joylashgan. G'arbiy tomonda "Oq zal" (Xonai-safid), janubiy tomonda oyna bilan yopilgan choyxona, kutish zali va amirning xonasi joylashgan.

Saroyning asosiy kirish eshiklarini mahalliy ustalar tomonidan Nurota marmaridan yo'nib ishlangan sher haykallari bezab turadi. Sher haykallari buxorolik ustalar uchun xos bo'lmaganligi sababli unchalik yaxshi chiqmagan. Amir xonasining kutish zalida alebastrdan ishlangan naqsh va bezaklar unga qaraganda ancha ko'rkam ko'rinadi. Yorqin bezakli vazonlar va badiiylashgan gullar alohida ko'zgularga ajratilgan butun devorni qoplagan an'anaviy uslubda naqqosh-rassom Hasanjon tomonidan bajarilgan.

Yangi saroydagi "Oq zal" (Xonai-safid) interyeri Buxorodagi XIX-XX asrlarga oid eng yaxshi me'moriy-badiiy durdonalardan biridir. Bu yerda jimjimador novdalar, stilizatsiyalangan (bir xil uslubga keltirilgan) gullardan tuzilgan sharqona naqshlar geometrik bezaklar bilan ajoyib tarzda uyg'unlashadi. Zalda ko'zgulalar sonining ko'pligi an'anaviy xoslikni buzmaydi, chunki bo'rtirma naqshlar uchun asos bo'lib xizmat qiladi, xolos. Ko'zguli fon va oppoq naqshlar bilan ko'zni qamashtiruvchi gulganch (alebastr) binoning ichki ko'rinishiga yanada ko'rkamlilik va joziba baxsh etadi. Bino qurilishi va bezash ishlari ikki yil davomida keyinchalik O'zbekiston SSR Fanlar Akademiyasining akademigi bo'lgan mashhur usta Shirin Murodov boshchiligidagi xalq ustalari tomonidan bajarilgan.

Yangi saroy qurilishiga, asosan, Amir Olimxon huzurida xizmat qilgan muhandislar Sakovich va Morgulis rahbarlik qilgan. Saroyni bezash va jihozlash uchun Rossiyadan ko'zgulalar, golland kafel pechlari, billur qandillar, romlar, mebel va hokazolar keltirilgan. Bu buyumlarning ko'pchiligi o'z go'zalligi va nafisligiga qaramay, saroyning milliy jihozlar uyg'unligini buzib yuborgan. Shahar tashqarisida qurilgan qarorgohda qabul zallarining yevropacha uslubda joylashtirilishi, shuningdek, tashqi ko'rinishidagi rangli bezaklar ham yangilik hisoblanadi. Yangi saroyning asosiy (parad) arxitekturasi bog'-park ko'rkamligiga uyg'unlashib ketgan.

Bog'ning g'arbida esa kanizaklarning xonalaridan iborat bo'lgan kichik bino qurilgan. Bino arxitekturasi ham yevropacha uslubga mansub. Yarim doira shaklidagi arkali ikki qavatli bino mahalliy turar-joy arxitekturasi an'analaridan saqlanib qolgan ichki hovlini qamrab olgan. Hozirgi paytda bino sihatgoh oshxonasi vazifasini bajarmoqda.

Bog'ning markaziy qismida sakkiz xonali pavilyon (xonayi xasht) joylashgan. Xonalar sakkiz qirrali oshxona (xonayi ovqatxo'ri) atrofida joylashgan. Oshxona devorlari Buxoro zardo'zilarining baxmalga tilla va kumush iplar bilan beruvchi bezaklarini eslatib turuvchi tilla suvi yugurtirilgan buyurtma naqshlar bilan bezalgan.

Bog'ning janubiy qismida 1917-1918-yillarda pishgan g'ishtdan gulxonali ikki qavatli bino, masjid va katta hovuz qurilgan. Bino hovuz qirg'og'ida o'zining serhashamligi, kulrang g'ozg'on marmari bilan ajralib, suv yuzida aks etib turadi.

Ushbu bino arxitekturasi XIX asr oxiridagi soxta rus me'morchiligi va mavritan uslubi uyg'unlashuvini ifodalaydi, ya'ni bu yerda biz Movarounnahrning ayrim tarixiy bosqichlari uchun xos bo'lgan uslublarni, biroq boshqacha g'arb yo'nalishida tomosha qilishimiz mumkin. Saroyning ichki joylashuvini shamollatish uchun ikki tomoni ochiq bo'lmagan yo'lak tizimidan iborat, ya'ni faqat qish paytida foydalanish uchun qulay bo'lgan.

Ayrim nomutanosibliklar, uslublarning aralashuvi, an'anaviy bo'lmagan materiallar va texnik usullardan foydalanishga qaramay, saroyda badiiy jihatdan qiziqish uyg'otuvchi ayrim narsalar – Buxoro me'morlari tomonidan an'anaviy milliy uslubda bajarilgan yog'och va alebastr o'ymakorligi va naqshlar ham mavjud. Rus saroylariga taqlid qilish siyosati Buxoroning shahar tashqarisidagi qarorgohlarda ham aks etgan bo'lib, ularda ekletizm izlari qolgan.

Sitorai Mohi Xosa bog'i arxitekturasi alohida qiziqish uyg'otadi. Garchi barcha inshootlar bog' hududida joylashgan bo'lsa-da, bog'ning o'zi xuddi mustaqilday ko'rinadi. Bu esa bog' sarof va park inshootlari qurilishidan avval yaratilgan degan xulosa chiqarishga imkon beradi. Bog' qismining moslashuvi Temur va Temuriylar davridagi Samarqand bog'laridan ma'lum bo'lgan an'anaviy "chorbog'" xislatlarini saqlab qolgan. Markaziy Osiyoda bezakli o'simliklar bilan birgalikda ko'plab meva daraxtlari ham, o'suvchi yashil daraxtzorlar bog'-park arxitekturasiga xos bo'lgan xususiyatlar hisoblangan.

Parkning janubiy qismida hayvonot bog'i joylashgan. Bog'dagi soya-salqin joylarda nozik oyoqli kiyiklar, chiroyli tovuslar (ular bog' hududida hozir ham yashaydi) va qirg'ovullar sayr qilib yurgan va xiyobonlar chorrahalaridagi gulzorlarning yorqin ranglarini to'ldirib turgan.

Yam-yashil va soya-salqin bog' Buxoroning yozgi jazirasida quyosh tig'lari ostida ajoyib hayotbaxsh muhit yaratgan.

Shahardan tashqarida joylashgan saroylar orasida Sitorai Mohi Xosadan tashqari amirning Kogondagi saroyini ham eslatib o'tish lozim. Buxorodan olti chaqirim narida 1881-yilda Zakaspiy temir yo'li o'tgan joyda yirik temir yo'l bekati (hozirda "Buxoro" bekati) paydo bo'ldi. Temir yo'lning narigi tomonida amir tomonidan rus hukumati oldidagi majburiyatlar bajarilishini kuzatib borish uchun Siyosiy agentlikni joylashtirish maqsadida Yangi Buxoro (hozirda Kogon) nomli aholi punkti barpo etildi.

Kogondagi amir saroyi o'ziga alohida e'tibor qaratadi. Saroy binosi murakkab moslashuv va tuzimga ega. Bo'ylama o'q bo'ylab joylashgan katta xonalar orasida o'ta tantanali qabullar uchun mo'ljallangan keng ostin-ustun ikki qavat oynali zal ajralib turadi. Bu xonalar bilan binoning g'arbiy tomonida joylashgan bir qavatli katta binolar ikkinchi anfilada shakli usulida bog'langan.

Binoning tuzilishi: jussali, turli konfiguratsiya shaklli past va baland binolar birikuvi asosida qurilgan, bu yerda to'rt qirrali tangasimon gumbazlar bilan bezalgan bir qavatli yumaloq xonalar, tekis chodirli qirralangan rotondalar (doira yoki yarim doira shaklidagi gumbazli binolar), ingichka ustunlari taqasimon ravoqlarni ko'tarib turuvchi nafis shaklli ayvonlarni ko'rish mumkin.

Garchi binoning old tomoni Buxoroga eltuvchi yo'lga qaratilgan sharqiy tomon bo'lsa-da, asosiy kirish eshigi janubiy tomonda joylashgan. Asosiy kirish

eshigi bir qavatli ochiq arkad orqali ikkinchi qavatga va butun tuzilishini yakunlovchi bezakli gumbaz va flagshtokli yengil ravoqsimon pavilyonga olib boradi.

Asosiy kirish arkadasi yon tomondan ikki qavatli, yuqori qismi ochiq, burchaklarida beshta ingichka glavka bilan ta'minlangan xonalar bilan himoyalangan.

Binoning old tomoni burchaklarida qirrador gumbazli yumaloq hajmlar oldiga chiqib turadi. Arxitektura shakllari va bezaklari turli-tuman. Xonalar Buxoroga xos holda ravoqsimon – yarim doira shaklidagi taqasimon ko'rinishga ega.

Turli buyurtma naqshli peshtoq, devor, to'sinlar va qisman pilyastrlar ustuni qoplab olgan. Naqshlar, shuningdek, shiftlar, to'sin va ustunlarda ham foydalanilgan. Devor shiftlarini murakkab rasmi qoplangan bo'rtirma naqshlar bezab turadi. Naqshlarda mahalliy usullardan foydalanish, jumladan qur'on suralari bitilgan yozuvlarni kiritishga harakat qilingan. Gotik yoki hatto Rimga xos bezaklar uchrasada, lekin an'anaviy tuzilish yo'q.

Umuman, bezaklar rasmiy xususiyatga ega bo'lib, mahalliy o'ymakor ustalar eski Buxoroi sharifni qurilishiga va me'morchilik an'analarga yangilik kiritishga erishganlar.

Yevropacha shakldagi g'ishtdan, biroz soddalashtirilgan bezak unsurlaridan, yarim doira shaklidagi ravoqlar va an'anaviy qurilishga xos bo'lmagan boshqa shakl va qismlardan foydalanish, bu paytda paydo bo'lgan ayrim ibodatxona binolari tadqiqotchilarni XIX asr oxiri XX asr boshlari Buxoroda madaniy va me'morchilik tushkunligi yuz bergan vaqt deb hisoblashlariga olib kelgan.

Hozirgi paytda mutaxassislar bu davrga boshqacha qaraydilar. Ibodatxonalariga keladigan bo'lsak, ularda qurilish yo'nalishlarining o'zgarishini kuzatish mumkin: agar ilgari g'alabaga erishib, yurishdan boy o'lja bilan qaytib kelgan hukmdorlar o'zlari haqida yodgorlik qoldirish maqsadida ibodatxonalar qurishga mablag'larini sarflagan bo'lsa, Buxoro amiri o'sha paytda eng boy kishi bo'lib, o'z mablag'larini boshqa, uning uchun zamonaviy bo'lgan binolar qurilishiga sarflagan. Masalan, yuqorida sanab o'tilgan shahar tashqarisidagi qarorgohlardan tashqari, Buxoro amirlari mablag'lari evaziga Amudaryo ko'prigi, Toshkentdagi diniy bilim yurti, Karmana va Yaltada yangi saroylar, Peterburgda uyilar va Sherbudunda saroy majmuasi qurilgan.

Kogondagi turar-joy binolari va eski Buxorodagi ayrim ma'muriy, savdo-moliya binolari arxitektorlarning milliy an'analarni yo'qotmagan holda yangi zamonaviy uslub ustida izlanishlar olib borganligini ko'rsatadi. Bu yerdan o'ziga xos xususiyatlar ham kelib chiqadi: Kogondagi bir qavatli turar-joy binolarining old tomoni pishgan g'ishtdan bajarilgan, oynalar uchun chaspaklar va karnizlar, pishgan g'ishtli panjaradan jussali ko'rinishlar qo'llangan. Boshqa tomondan esa tekis tomlar, mahalliy an'analarga xos rasmlar va tuzilish qismidagi, bezaklarda ganch, naqsh va hokazolardan foydalanilgan.

Kogondagi jamoatchilik binolari ichida shaharning sharqiy qismida, savdo-iqtisodiy markaz shakllana boshlagan joyda bir qavatli yirik do'kon qoldig'i saqlanib qolgan. 1916-yilda qurilgan yangi Buxoro pochta-telegraf idorasi bugungi kunda ham o'zining asosiy ko'rinishini saqlab qolgan. Bino Turkiston o'lkasi uchun xos bo'lgan kichik bezakli gumbaz to'rtburchak shaklga ega. Devordagi teshiklar mutanosibliigi sodda rasm va buyumlardan foydalanish uni yanada jozibador qilib ko'rsatadi.

Hozirgi paytda tibbiyot dispanseri joylashgan binolar ham xuddi shu shakl va uslubda yaratilgan. 1892-yilda qurilgan sobiq siyosiy agentlik binosi qo'llangan tuzilish usullari bo'yicha Ahadxonning uyi va Sitorai-Mohi-Xos majmuasiga juda yaqin turadi. Bu bir qavatli cho'ziq shaklli bino katta bog' ichida qurilgan bo'lib, ko'chaga qaratilgan orqa tomonini o'rtada ravoqsimon oynali yarim doirada ikkiga ajratib turadi.

Ma'lumki, rasman Buxoro Rossiyaning mustamlakasi bo'lmagan va ma'muriyat amirlik poytaxtining ichki hayotiga aralashmagan. Shu sababli eski Buxoroning tashqi ko'rinishi unchalik o'zgarmagan: shaharda xomg'ishtdan qurilgan binolar ko'payib, ertalab Shahrisoning o'n bitta darvozasi ochilgan va ko'chaga karvonlar chiqib, tuli mamlakatlardan har xil tovar va mahsulotlar keltirgan.

Biroq yangi zamon ta'siri Qarshi (yoki Kogon) darvozasi orqali Buxoroi sharifga ham kirib kelishga harakat qilgan. Qarshi darvozasiga yaqin joyda Kogondagi temiryo'l bilan bog'langan yangi vokzal uchun oppoq bino qurilgan. Bu yerdagi karvonsaroylar va ustaxonalar yonida savdo firmalarining idoralari va omborlari qurila boshlagan. Ko'p o'tmay shaharning o'zida ham Buxoroning arxitektura ko'rinishiga xos bo'lmagan yangi binolar paydo bo'la boshladi: bir qavatli, lekin mustahkam va ko'kalamlashtirilgan ikkita kasalxona g'ishtli bino majmuasi, dorixona va pochta-telegraf idorasi, do'konlar va xususiy tadbirkorlar idoralari, Davlat va Tijorat banki bo'linmalari qurildi.

1894-yil Buxoroda Davlat banki bo'linmasi, so'ngra Rus-Azov, Birlashgan Azov-Don, Moskva-Hisob, Rus tashqi savdo, Sibir savdo banklarining bo'linmalari ochildi. Katta Yaroslavl manufakturasi, aka-uka Shlosberg, Dyurshmidt, Nikolayev manufakturasi, Savva Morozov, Emil Sindel va Qo'qonlik tijoratchilar Patelyaxov, aka-uka Vadyayev, aka-uka Kraft va boshqalarning firma bo'linmalari ochila boshladi.

Bunday binolar, asosan, Labi-Hovuz majmuasi atrofida, Qarshi darvozasi va Sallaxonaga olib boruvchi ko'chalarda joylashgan. Sallaxona ko'chasiga olib boruvchi ko'chada joylashgan binolardan biri ikki qavatli bo'lib, ichki hovlisi uzaytirilgan joylashuv tizimining markazi hisoblangan. Binoning asosiy tomonidan ikkinchi qavatga zinapoya orqali chiqilgan. Ikkinchi qavatda hovli atrofida sado xonalari bir-biriga o'tish orqali joylashgan. Metall ustunlar va konsoldagi yengil tim tashrif buyuruvchilarning zinapoya orqali hovli ichkarisiga o'tishiga xizmat qilgan. Bino pishgan g'ishtdan qurilgan bo'lib, tashqi ko'rinishi bilan o'sha paytlarga oid Markaziy Osiyodagi ko'plab savdo inshootlarini eslatib turadi.

Alam madrasasi va Xo'ja masjidi yonida qad rostlagan ikki qavatli bino arxitektura bezaklari va tuzilishi yechimlar bo'yicha qiziqroq bo'lgan. Ikkinchi qavati alohida yopilgan ikki tomoni ochiq yo'lak bu binoni ikkita mustaqil bo'limga bo'lgan bo'lib, ulardan birini Azov-Don bankining bo'linmasi egallagan. Binoning sharqiy qismida, birinchi qavatda old tomoni keng ko'rinishli oynalari bilan ko'chaga qaragan savdo xonalari joylashgan. Savdo xonalari ortida omborlar va idoralar bo'lgan. Ikkinchi qavatni yuqorida aytib o'tilganidek, alohida kirish eshigi, zinapoyasi, muloqot zali, seyflari va xizmat xonalariga ega bank egallagan.

Yuqorida ta'riflangan bino yaqinida Moskva-Hisob banki (hozirda poliklinika) binosi joylashgan. Sarrafon gumbazi yonida uning burchagiga tutash holda ichki

yo'laklar bilan ajratilgan bir nechta turli binolar joylashgan. Yevropacha g'isht va metallardan qurilgan, katta ko'rinishli bu binolar an'anaviy bezaklardan xoli bo'lib, ko'proq eski turar-joy binolariga o'xshab ketardi.

Chor Rossiyasi ma'muriyati bilan aloqasi bo'lgan rus amaldorlari va savdogarlari tashrif buyurib turuvchi badavlat kishilar yangi uylar qurishda mahalliy me'morchilik usullari va bezaklari bilan birgalikda yangicha tuzilishlardan foydalana boshladilar. Masalan, Sallaxona darvozasi yaqinida bir paytlar qad rostlagan Abdullabekning uyi an'anaviy ravishda ikkiga emas, balki to'rt qismga bo'lingan. Uyning bir qismini alohida turuvchi minorali masjid va ikki qavatli karvonsaroy hujralari egallagan. Karvonsaroy xonalariga mehmonxonali hovli tutashgan va yevropacha uslubdagi pishgan g'isht bilan yaxlit qoplangan.

Bu binolarning poli taxtali, chaspaklarda tabaqali oynalar, devor ichiga kiritilgan shkaflar va "golland"pechlari bo'lgan. Hobgohlar naqshinkor bezaklar va alebastr naqshlar bilan bezalgan.

Bu davrda ibodatxonalar qurilishi ham faol olib borilgan. Guzar masjidlari va kichik madrasalar ko'plab qurilgan. Shaharda ko'kalamlashtirish va hovuzlar qurish boshlandi. Masjidlar binolari tosh bilan qoplangan platformada qurilib, ularga ikki yoki uch tomondan ustunli ayvonlar tutashgan. Tashqi bezaklar kamtarona bo'lib, kichik gumbazchalar va naqshinkor to'sinlar bezak vazifasini bajargan.

Amir xazinasida ham bir qancha ibodatxonalar qurilgan. Bu qatorga Bola-Hovuz (1912-1914) masjidi va Amir Olimxon madrasasini (XX asr boshlari) kiritish mumkin. Bola-Hovuz masjidida eski gumbazli binoga baland yog'och ustunli ulkan peshtoq qurilgan. Amir Olimxon madrasasi yangi turdagi bo'lib, ikki qavatli yotoqxona bilan o'rab olingan alohida hovli, mashg'ulotlar uchun gumbazli xonadan iborat bo'lgan old hovli va alohida turgan masjiddan iborat edi. Endilikda Buxoroi sharif ma'muriy, sanoat va madaniy markaz, qadimiy me'moriy yodgorliklarga boy muzey-shahar hisoblanadi.

Buxoro vohasi qadimiy shahar va manzilgohlarga, noyob madaniy yodgorliklarga boy. O'tgan asrning 10-30-yillaridayoq o'zbekistonlik arxeologlar Buxorodan 35 chaqirim masofada joylashgan, qum ostida qolib ketgan Varaxsha shahri xarobalari bilan qiziqib qoldilar. Dastlabki ekspeditsiyaga 1939-1940-yillarda arxeolog V.A.Shishkin rahbarlik qilgan. XIX asr oxiri XX asr boshlariga oid yodgorliklarga ularni o'rta asrlarda arxitektura gullab-yashnagan davrdagi binolar bilan solishtirib nazar tashlaydigan bo'lsak, eng yangi bino va ishnootlar mumtoz usullar o'rniga yangi tuzilishi, joylashuv va bezaklar ustida izlanishlar olib borilganidan dalolat beradi.

Keyinroq xon saroyi qazilmalari topiladi. Binoning markaziy qismida tuproq supali katta xona topilgan bo'lib, uning devorlari loysuvoqqa ishlangan yelimli bo'yoq naqshlari bilan qoplangan. Devorning ochiq qismi tepa frizida qizilga boy ohu, yo'lbars, qoplon va ot, pastki frizda esa fil ustidagi chavandozlarning bir holatda arslon bilan, ikkinchisida grifon bilan yangi tasvirlangan. Naqsh va bezaklar texnikasi va uslubi bo'yicha keyinchalik Sharqiy Turkistonda (asosan, Kuchi va Karashar vohalarida) ochilgan V-VI asrlarga oid budparastlar ibodatxonalarini va g'orlardagi naqshlarga o'xshab ketsa-da, biroq ular faqat o'ziga xos bo'lgan bir qator xislatlarga ham ega edi.

Saroyda eronliklarga yaqin bo'lgan taxtachalar, Hindiston va Sharqiy Turkiston san'atiga yaqin bezaklarning mavjudligi bu saroyni eftalitlar madaniyati aytib o'tilgan mamlakatlar madaniyati bilan bog'liq bo'lgan davrga, ya'ni V asrning ikkinchi yarmiga tegishli deb hisoblashga imkon beradi. Shu yillarda yodgorliklar O'rta Osiyo xalqlarining Eron, Hindiston, Xitoy va Old Osiyo bilan eramizdan avvalgi V-IV asrlarda, Ahamoniylar davrida shakllana boshlagan, keyinchalik Grek-Baqtriya va Kushon podshohligi, shuningdek, Eftalitlar davrida yanada rivojlangan keng madaniy va iqtisodiy aloqalari haqida ehtiyotkorlik bilan xulosa chiqarilgan.

Yodgorlikni yanada o'rganish va tadqiq etish natijasida olimlarning ko'pchiligi Varaxsha Eftalitlar davlatining poytaxti bo'lgan degan fikrga keldilar. Faollik bilan olib borilgan arxeologik va qayta ta'mirlash ishlari zamondoshlar ko'z oldida yuqori darajadagi madaniyatni ochib berdi. Hukmdorning saroyidagi markaziy zal to'q qizil rangda bezalgan edi. Bir paytlar saroy devorlarini qoplab turgan naqsh va bezaklar ma'lum bir ma'noga ega bo'lib, o'tmishdagi hayot sahnalarini – elchilarning qabuli, sovg'a-salom olish va hokazolarni aks ettiradi.

Buyuk Ipak yo'lida joylashgan Varaxsha shahri savdo, diplomatik va siyosiy munosabatlarda muhim o'rin egallagan, biroq eftalitlar o'rniga kelgan turkiylar davrida sulolalar o'rtasidagi kurashda vayron qilingan.

Yozma manbalarda (Rum va Xitoy mualliflari) Buyuk Ipak yo'lida joylashgan Poykand shahri haqidagi yozuvlar saqlanib qolgan. Qadimgi va O'rta asrlarga (arab) oid qo'lyozmalarda Poykand "savdogarlar shahri" deb ataladi. Yozma manbalarga asosan taxmin qilish mumkinki, bu shahar davlat ichidagi davlat bo'lgan, balki mustaqil maqomga ham ega bo'lgan bo'lishi mumkin. Ushbu shaharning boyliklari haqida VII asrda Xitoy imperatoriga bitilgan noma bo'yicha ham mulohaza yuritish mumkin. Imperator saroyiga taqdim etilgan sovg'a-salomlar ro'yxatiga "Vizantiya zotli itlar va qoraburul tulki mo'ynasi" ham kiritilgan.

Movarounnahrda yurish uyushtirgan arablar 674-yili dastlab Poykandni egallab oldilar va talon-taroj qildilar. Bu yerga xalifa Muaviya tomonidan yuborilgan Ubaydulloh ibn Ziyod juda katta o'lja – qurol-yarog', kiyim-kechak, oltin, kumush va minglab asirlarni olib ketgan. Movarounnahrni bosib olish uchun birinchi yurishga o'tlangan Qutayba ibn Muslim o'z oldiga aniq maqsad qo'ygan edi. U Marvdan chiqib Amulga keldi, Kerkigacha yetib, Amudaryodan kechib o'tdi va Poykand sari yo'l oldi. Arab va fors manbalari Poykandni nafaqat "savdogarlar shahri", balki "mis shahri" deb ham ataganlar. Haqiqatan ham bu savdo shahri kuchli va mustahkam devorlar, minoralarga ega edi. Poykandliklar savdoda faol ishtirok etib, karvonlar bilan Xitoy va Kaspiy dengiziga borib kelardilar. Poykand shahristoni atrofi 1930-yildagi arxeologik ekspeditsiya ma'lumotlariga ko'ra, eni 2 kv km va maydoni 20 km.ni tashkil qilgan.

Arab qo'shinlari shaharga yaqinlashgach, poykandliklar yordam so'rab So'g'dga murojaat qildilar va vaqtdan yutish maqsadida tinchlik haqida muzokara olib borishni boshladilar. Qutayba sulh haqida kelishuv imzolab, o'lpon oldi va qo'shinini qoldirib ketdi. Biroq Qutayba hali Amudaryo bo'yiga yetib kelmasidan unga qarshi poykandliklar bosh ko'tarib, butun arab qo'shinini qirib tashladi, degan xabar keladi. Qutayba darrov ortiga qaytib, bir oylik qamaldan so'ng shaharni ishg'ol qiladi. Arablar shahar boyliklaridan hayratda qoladilar. At-Taboriyning hikoya

qilishicha, yaxshi qurol olgan arab askarlari bir-birining oldida qurollarning sifati va aslligi bilan maqtanganlar.

O'rta asrlarga oid Poykand o'mida olib borilgan arxeologik qazish ishlari ulkan omborlar va savdo qatorlari mavjud bo'lganligini tasdiqlab berdi.

Qisqacha xulosa

Ushbu mavzu XXV asr davomida bir qancha tarixiy voqealarni boshidan kechirgan, ba'zan gullab-yashnagan, gohida tanazzulga yuz tutgan qadimgi va navqiron Buxoro shahri yodgorliklari va arxitektura qurilishlariga to'xtaldik. "Buyuk Ipak yo'li" ning asosiy shaharlaridan biri, Sharq madaniyatini o'zida mujassamlashtirgan muzey shahar bo'lgan Buxoro tarixan qo'shni podshohlarni o'ziga rom etgan.

Buxoro san'ati to'g'risida to'xtalsak, u qadimdan o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Bu yerda qadimdan ip-gazlama, ipak mahsulotlari, zargarlik buyumlari va zardo'zlik san'ati Buxoro faxri bo'lgan.

Buxorodagi Ismoil Somoniy maqbarasi nafaqat Markaziy Osiyoda, balki Sharq dunyosini ham o'ziga jalb etadi. Mo'g'ullar bosqini davrida Buxoro shahri ahvoli, keyingi yillarda, ya'ni Temuriylar va amirlik davri tarixiy yodgorliklariga qisqacha to'xtaldik.

Mavzuda O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng jahon miqyosida o'tkazilgan anjumanlar ham ta'kidlandi.

Tayanch iboralar:

Timpan, panjara, pilyastr, panno, gotik bezak, arab epigrafikasi, ganch hosilalari, mozaikali panjara, qo'shmadrasa, gulganch.

Nazorat savollari

1. Qadimgi Buxoroning asosiy yodgorliklari.
2. Buxoroning mashhur olimlari.
3. Buxoro arablar istilosi davrida.
4. Buxoro san'atining o'ziga xosligi.
5. Ismoil Somoniy maqbarasi.
6. Xorazmshohlar madaniyati.
7. Buxoro mo'g'ullar bosqini davrida.
8. Amirlik davridagi madaniy yodgorliklar.
9. Sobiq Ittifoq davridagi rivojlanish va inqiroz.
10. Bugungi Buxoro sayyohlar markazi.

Adabiyotlar

1. Qoraboyev U. O'zbek xalqi bayramlari. – T.: Sharq, 2002. 8-72-b.
2. Тухлиев Н., Кременцова А. Республика Узбекистан. Энциклопедический справочник. – Т.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2001. С. 90-98.
3. Бабажанова Г.И. и др. По древним городам Узбекистана: Ташкент, Самарканд, Шахрисабз, Бухара, Хива. – М.: Профиздат, 2001. С. 54-62.

4. www.tourism.ru
5. www.travel.ru
6. www.palomnik.ru

6-bob. SHAHRISABZ VA UNING O'RTA OSIYO TARIXIDAGI TUTGAN O'RNI

6.1. Kesh-Shahrisabz va uning O'rta Osiyo tarixidagi ahamiyati

Shahrisabz – o'rta asrlarda Kesh deb nomlangan qadimgi Nautaka shahri. “Dilkash”, “Kubbatul ilm val-adab” tashbehlari bilan e'zozlangan bu shahar muayyan davrlarda taqdir taqozosi ila jahon tarixidagi ba'zan shonli, ba'zida esa fojiali muhim voqealar markazida bo'lib keldi.

Bu yerda, Nautaka qishloqlaridan birida Baqtriyaning tolesiz satrapi, o'ziga o'zi shoh unvonini bergan Bess (Artakserks) makedoniyalik Aleksandrning sarkardasi Ptolomey tomonidan asir olinib, so'ng qatl qilingandi. Bu hol Ahamoniylarning ulkan saltanati yakun topganidan dalolat beradi.

Makedoniyalik Aleksandr mil. avv. 328-327-yillar qishini o'tkazish uchun Nautaka-Keshni tanlaydi. Oksiart qoyasini ishg'ol qilishga shu yerdan yurish qildi va mazkur baqtr zodagonining oilasi, shu jumladan keyin o'zining rafiqasi bo'lgan go'zal Roksana asir olindi. Shu nikohdan tug'ilgan o'g'il – Aleksandr IV makedoniyaliklar sulolasining so'nggi podshosi bo'ldi.

Bu voqeadan so'ng ming yil o'tdi. Ko'proq “Muqanna” – “niqobdor” nomi bilan mashhur bo'ldi. 776-783-yillardagi arablarga qarshi qudratli harakat yo'l boshchisi Hoshim ibn Xakim Kesh yaqinidagi Sinam tog' qal'asini so'nggi maskan qilib, shu yerda shahodat topdi.

Muqannaning o'limi va uning harakati tor-mor keltirilishi tarixiy ahamiyatga ega voqea bo'lgan, chunki u Movarounnahr mahalliy aholisining boy berilgan erki hamda mahrum etilgan ko'hna dini uchun so'nggi urinishini, ushbu mintaqa tarixi va madaniyatining islomgacha bo'lgan ulkan davrining nihoyasini hamda moddiy va ma'naviy madaniyatning barcha sohalarida islom rahnamoligida yangi sifat holatiga o'tila boshlaganini bildirardi.

Agar 1336-yil 9-aprelda Shahrisabz shahri yaqinidagi Xo'ja Ilg'or qishlog'ida barlos urug'idan bo'lgan aslzoda Tarag'ay oilasida bo'lg'usi buyuk davlat arbobi va sarkarda Amir Temur tug'ilmaganida, yuqorida bayon etilgan hodisalar qanchalik muhim bo'lmasin, bu shahar dunyoga u qadar mashhur bo'lmasdi. Taqdir bu shaxsni qayerga uloqtirmasin, baribir, Shahrisabz doimo uning uchun kindik qoni to'kilgan shahar, bolaligi va yoshligi o'tgan diyori, shaxs sifatida shakllangan joy, padari buzrukvori Tarag'ay va piri murshidi Shamsuddin Kulol, to'ng'ich farzandlari Jahongir Mirzo va Umarshayx Mirzo mangu maskan topgan muqaddas zamin bo'lib qoldi.

Shahrisabz Amir Temur ulkan davlatining ikkinchi poytaxti bo'lib, bu shahar to'g'risida doimo g'amxo'rlik qilgan, obodonlashtirgan va zeb bergan. Temuriyzoda, Boburiylar sulolasining asoschisi benazir Mirzo Bobur Amir Temur Shahrisabzni “shahar va poytaxt qilurga ko'p ehtimollar qildi” deb o'z solnomalarida yozib qoldirgan. O'sha paytda tengi bo'lmagan hashamatli Oqsaroy qasri buning yaqqol dalilidir. Ispaniyaning Amir Temur saroyidagi elchisi, Shahrisabz tarixida o'z izini qoldirgan ko'zga ko'ringan shaxs bo'lmish Rui Gonsales de Klavixo o'z asarida bu shaharga hayrat to'la sahifalarni bag'ishlagan.

Shahrisabzni obodonlashtirish va bu yerda ma'muriy inshootlar qurish an'anasini Amir Temurning nabirasi, Temuriyzodalar orasida bobosining xotirasiga eng ko'p ehtirom bildirgan Mirzo Ulug'bek davom ettirdi. Biroq odamlar qanchalik buyuk bo'lmasinlar, Shahrisabz shahri ahamiyatini ulargina belgilamaganlar. Katta Kesh deb nomlangan shaharning yuzaga kelishi, qaror topishi va rivojlanish jarayonining o'zidayoq ancha muhim hamda qiziqarli bo'lib, u ham, Katta Marv, Katta Toshkent, Katta Termiz quramalari singari bir joydan boshqasiga ko'chib turgan. Bir qurama doirasidagi bunday ko'chish sabablari turli-tuman: vayrongarchilik keltiruvchi urushlar, suv bilan ta'minlovchi manbalarning o'zgarishi, ijtimoiy va diniy buxronlar, shahar avval egallagan joyda yashash taqiqlanishidan iborat bo'lgan.

Kesh Kitob o'mida qolganmi yoki Shahrisabz o'miga ko'chib bo'lganmi? Garchi M.E.Masson ilk o'rta asrlarda kitob shahrida aholi nisbatan zich joylashganligiga asoslanib, Kesh Kitob o'mida bo'lgan, deb qat'iy aytgan bo'lsa-da, bu muhim masala noaniqligicha qolmoqda. Vaholanki, Shahrisabzda aholi zich joylashganligi izlari, E.M.Massonning o'zi yozganidek, bir nechta ifodasiz sopol parchalari va shu davrdagi bir nechta Shahrisabz tangalarini istisno etganda, deyarli yo'q. Bu fikrni boshqa olimlar ham qo'llab-quvvatlashgan. Ayni mahalda, Shahrisabzda XX asrning 80-yillarida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar masalaning boshqacha manzarasini beradi. Shahrisabzning ko'p joyida ilk o'rta asr qatlamlari qayd etilgan.

Bu joylar: Shahrisabzning qal'a devori doirasidagi vayron bo'lganiga qaramay, uzunligi 200 metrga yetadigan, 2,5 metrli madaniy qatlami bo'lgan katta tepa joylashgan janubi g'arbiy burchagi, Chorsu atrofi, ya'ni shahar markazi, Oqsaroyning shimoli shaharning janubdan shimolgacha bo'lgan 1,5 km uzunlikdagi qismidir. Bundan tashqari, Shahrisabz chekkasida bir qancha tepa, shu jumladan Balandtepa (Zindontepa), Kalkontepa va boshqalar joylashgan. Bularning bari o'z maydoniga ko'ra, Beyshida keltirilgan Kesh poytaxti maydoniga to'g'ri keluvchi murakkab shahar tuzilishiga o'xshash juda katta manzilgoh tasvirini beradi.

Shahrisabzdagi qazish ishlari jarayonida allaqachon VI-VII asrlarga oid ko'pgina tanga, shu jumladan Kesh hukmdori Axurpatga oid beshta tanga topildi. Kitobdan bunday tangalar umuman topilmagan, bu hol ushbu davrda ayni Shahrisabz pul vositasida savdo-sotiq olib boriladigan yirik shahar bo'lganidan dalolat beradi. Bu paytda Kitob atrofida manzilgohlari bo'lgan dehqonlar saroyi (bek qal'asi o'miga) joylashgan edi, xolos⁷.

Amir Temur buyrug'i bilan 1380-yil qurilgan devordan avval devor bo'lmaganligi Shahrisabz o'midagi shahar kech paydo bo'lganligining dalil-isbotlaridan biri sifatida keltiriladi. Vaholanki, Kitobda ham bunday devor bo'lmagan (qal'a devori antik davrga oid, bu yerda ilk o'rta asrlardagi devor yo'q. Kitob devorining saqlanib qolgan qismi E.V.Rtveladze tomonidan 1966-yilda aniqlangan hamda tadqiq etilgan).

Ayni mahalda Xofizi Abru (vaf.1430-yil): "Keshning ko'hna qal'a devori bo'lgan (ta'kid muallifniki – E.R.), biroq u buzib tashlangan. Hazrati Sohibqiron

⁷ Массон М.Е. На средниазнатских трассах Великого шёлкого пути. сборник статей. – Т.: 1990. -59 с.

(Amir Temur) – Allohning shuhratini zabt etsin. 730-(mil. 1379) yilda qal'a devorini qayta qurdirdi",- deb yozgan. Hofizi Abru keltirgan tarixiy ma'lumotlar tahlilida ko'rsatishicha, u "ko'hna" aniqlovchisini, odatda, islomgacha bo'lgan davrga nisbatan ishlatgan. Shunday qilib, Amir Temur qurdirgan devordan oldin ham Kesh (Shahrisabz)ning devori bo'lgani aniq. Uni ilk o'rta asrlarga oid, deb aytish mumkin. Demak, arxeologik ma'lumotlar va shahar devori mavjud bo'lganligi tahlili Kesh shahri ilk o'rta asrlardayoq Shahrisabz o'rnida bo'lgan, deb taxmin qilish imkonini beradi. Shahar aftidan, yangi hukmdor Dichje tomonidan yangi joyda qurilgan ko'rinadi. Kitob o'rnidagi eski antik shahar qaysidir sabablarga ko'ra uning talablariga javob berolmay qolgan bo'lishi mumkin.

IX-X asrlar arab-fors tarixchilari aynan Kesh-Shahrisabzni tavsiflashgan, bu davrda Kitob o'rnida, ayrim tadqiqotchilar taxmin qilishganidek, ichki Kesh shahri joylashishi mumkin bo'lmagan, chunki Kitobda na IX-X asrlarda, na undan keyin shahar izi bo'lmagan. Ayni mahalda Shahrisabzning butun maydonida hamda uni o'rab turgan devor atrofida va undan tashqarida IX-X asrlar qatlami qayd etilgan. Arab-fors manbalaridagi Kesh tavsifida eslatib o'tilgan barcha tarkibiy birliklar: ko'handiz, ichki va tashqi madina, ichki va tashqi rabod ushbu maydonga to'la-to'kis joylashishi mumkin.

Fikrimizcha, poytaxti Kesh VI-VII asrlardayoq Shahrisabz o'rnida bo'lgan va keyingi asrlarda ham shu yerda rivojlangan.

Kesh XIV asrga kelib, aftidan, Shahrisabz deb atala boshlagan va hozir ham shu nom bilan yuritiladi.

Bizning davrga kelib, Shahrisabz an'anaviy tarixiy qiyofasini saqlab qolgani holda, O'zbekiston Respublikasi taraqqiyotining yangi tarixiy davrida vujudga kelgan shakllar, voqea-hodisalar taqozosi ila rivojlanishning sifat jihatdan yangi bosqichiga kirdi.

6.2. Shahrisabzning me'moriy obidalari

Oqsaroy qasri O'rta Osiyodagi o'rta asrlarga oid bo'lgan me'moriy yodgorlikdir. Hozir undan ulkan peshtoqning ikki qudratli ustunigina saqlanib qolgan. Lekin sharq mualliflari uni dastlabki qiyofasining tasvirini qoldirganlar.

Masalan, Nizomiddin Jomiy: "Uning peshtoq va ravoqlarini Ayyuk (yulduziga) yetkazdilar, chunonchi, biron kimsa jahonda unga teng keladigan imoratni qurmagan va eshitmagan edi",- deb yozgandi.

Sharafiddin Ali Yazdiy Oqsaroyi yanada hashamatli tasvirlagan: "Bahor vaqti ul shaharning tomu toshi ko'm-ko'k bo'lur va ko'k ko'rungon jihatidin anga Shahrisabz ot bo'lub turur. Sichen yilda, torix etti yuz seksan birda (1380, mart) ul shaharga qal'a soldurdi va jahdlab tamom qildurdi. Va andok shahri buldikim, gardun muhandisi muncha yoshi bilan olamni kezib, hech bir yerda mundoq shahar va kushk ko'rmagan turur".

Me'moriy-badiiy hashamatiga ko'ra, benazir bo'lgan Oqsaroy boshqalar tomonidan ham hayrat bilan tilga olingan. Hofizi Abru bunday deb yozgandi: "Onhazrat (Amir Temur) janoblari hurmatidan buyuk qasr qurdilarkim, hozir Oqsaroy nomi bilan mashhur turur". Bu hozir biz tushungan ma'nodagi bino yoki

saroy, imoratdir. Hatto Alisher Navoiy davrida ham “ayvon” deganda saroy nazarda tutilgan.

1404-yilda Samarqandga ketayotib, Shahrisabzda bo‘lgan Rui Gonsales de Klaviko kundaligida Oqsaroy haqida juda qimmatli ma’lumotlar bor: “Ertasiga, juma kuni (ya’ni 1404-yil 29-avgustda) elchilarni podshoning buyrug‘i bilan bunyod etilgan saroyga olib bordilar. Aytishlaricha, bu yerda yigirma yildan buyon har kuni ishlashar ekan. Hatto hozir ham ko‘p ustalar ishlab turibdi.

Saroyning kirish yo‘li juda uzun va darvozasi ham juda baland. Kirish joyida, o‘ng va chap tomonda koshinlar va turli naqshlar bilan bezatilgan g‘ishtin arklar qad ko‘targan. Arklar tagida eshiksiz kichik xonalar bo‘lib, ularning sathi koshinlar bilan qoplangan. Bu qoplama shuning uchun qilinganki, podsho saroyga kelgan paytda odamlar bu yerda o‘tiradilar. Katta darvozalardan so‘ng yana boshqa darvoza bor. Undan keyin esa oq toshlar yotqizilgan hovli va hashamatli bezatilgan timlar bor. Hovli o‘rtasida katta hovuz bo‘lib, hovlining eni uch yuz qadam.

Hovli orqali saroyning eng katta binosiga o‘tiladi. Bu binoga kirishda ham juda katta va baland eshik bo‘lib, u oltin, lojuvard va koshinlar bilan mohirona bezatilgan. O‘rtada, eshik ustida quyosh uzra sher tasvirlangan, chekkalarida ham shu kabi tasvirlar bor. Bu eshik orqali chorsi qabulxonaga kiriladi. Qabulxona devorlari ham oltin, lojuvard va koshinlar bilan bezatilib, ustiga tilla suvi yugurtirilgan. Bu yerdan elchilarni yuqori qavatlariga olib chiqadilar. Xonalar shunchalik ko‘pki, ularni birdaniga tasvirlashning iloji yo‘q, bezash ishlarining barchasi oltin, lojuvard va qimmatbaho toshlardan qilinganki, bunga hatto Parijning mohir ustalari ham qoyil qolishi mumkin”.

Oqsaroy qurilishining boshlanishi Amir Temurning Xorazm poytaxti Urganchga to‘rtinchi yurishiga to‘g‘ri kelgan. Amir Temur 1379-yilda Urganchni zabt etgach, ruhoniylar, ziyolilar hamda turli kasb-hunar egalarini Shahrisabzga ko‘chirish haqida farmon bergan. Aftidan, Oqsaroy qurilishida xorazmlik ustalar asosiy kuch bo‘lgan ko‘rinadi.

Ulug‘vor binodan faqat ustunlar hamda saroyga kirish yo‘lidan peshtoqning bir qismi qolgan. Uni Klavixo “Baland darvoza” deb atagan. G‘ishtin ravoqlar, marmar yotqizilgan katta hovli, hashamatli ayvonlar, hovli o‘rtasidagi hovuz, taxtxona, ko‘rinishxona, davlat maslahatchilari – “devonbegilar” va “tavochibegilar” kengash o‘tkazadigan zallar saqlanmagan. Ikki qavatli ayvonlar, shoh bo‘linmasi, mehmonxona butkul yo‘qolgan. Klavixo tavsiflagan, Amir Temur tamg‘asi tasvirlangan hamda sher va quyoshning geraldik tasviri tushirilgan tokli ayvondan asar ham qolmagan. Sahndagi gilam naqshlar ham izsiz yo‘qolgan.

Olidan ko‘rinib turadigan peshtoq ustunlari hamda 1973-1980-yillarda qazib ochilgan naqshinkor sahn Oqsaroyning ulug‘vorligidan guvohlik beradi. Peshtoq bahaybat ustunlarining 47 m qismi ichki zinapoyalari bilan saqlanib qolgan. Zinapoya bir necha bosqichli bo‘lib orada xonalari bor. Oqsaroy kirish peshtoqining ikki tomonidan asosi ko‘p qirrali silindrik minora qad ko‘tarib turibdi. Peshtoq kirish joyining eni 22 m. Kirish joyi bu qadar keng bo‘lgan boshqa me’moriy obida O‘rta Osiyodagina emas, yaqin atrofdagi mintaqalarda ham bo‘lmagan.

Oqsaroy me’moriy bezagida hattotlik san’ati alohida o‘rin tutadi. Bu san’at me’moriy inshootlar bezagining muhim qismiga aylangan.

Oqsaroyda arab yozuvining ikki asosiy turi: kufiy va nasx xati ko'p qo'llanilgan. Kufiy harflar to'g'ri chiziqli va burchaksimon. Nasx xati harflari jimjimador. Oqsaroy bezagida suls, muhakkak, rayxoniy va boshqa xatlar ham qo'llanilgan. Bitiklar xilma-xil, ular badiiy bezak vazifasini bajarishdan tashqari, muhim tarixiy ma'lumotlar ham beradi.

Chunonchi, M.E.Masson ikkinchi ravoqning g'arbiy ustuni zanjirasida saqlanib qolgan, Oqsaroydagi sirkor parchin bilan pardoqlash ishlari hijriy 797-yil (mil. 1394-1395-yillar)da bajarilgani va me'mor Muhammad Yusuf Tabriziy ekanligi haqida ma'lumot beruvchi bitikni o'qigan. Bu bitik ikki bor takrorlangan.

1987-yilda X.Sultonov va M.Rahimjonov yaxshiroq saqlanib qolgan bitiklarni tadqiq etishdi. Ular: "Sulton – Allohning yerdagi noibi", "Adolat davlat asosi va hukmdorlar shiori", "Podshohlar so'zi – so'zlar ichra podshoh" degan mazmundagi bitiklar edi.

Peshtoq g'arbiy ustunining old tomonida bitilgan yozuvlar ham qiziqish uyg'otadi. Yozuv g'arbiy ustunining old tomoni izora qismining ustidan boshlanib, oldingi yozuvga parallel tarzda obidaning saqlanib qolgan butun bo'yiga ko'tarilib, sharqiy ustun old tomonining izorasi ustida tugaydi. G'arbiy ustunning bo'yi qismida 4 m balandlikda yozuv o'chib ketgan. Matnning mazmuni quyidagicha: "Go'zalligi jihatidan hayratlanarli va ko'k gumbazlari bo'lgan bu bino bamisoli peshtoq qubbalarida o'z aksini topgan va jilvalanuvchi turfa rang nur taratuvchi mash'aladir". Bu matnning ayrim joylari buzilganligi uchun oxirigacha o'qilmagan. Saqlanib qolgan qismidan matn bir necha bor takrorlanishi va dunyoviy xarakterga egaligi ma'lum bo'ladi. Ayni mahalda me'morlar bu yozuvlarda o'z hukmdorlari kuch-qudratini ulug'lashgan, ularning shuhratini yoyishni istashgan.

O'rta Osiyo hududida Amir Temur va Temuriylar davrida qurilgan saroylarning ko'pi bizgacha vayrona holida yetib kelgan. Arxeologik tadqiqotlar tahlili ularning qiyofasida avvalgi asrlar me'moriy an'analari elementlari borligini ko'rsatadi.

Oqsaroydan oldin XI-XII asrlarda ko'rinishi jihatidan unga o'xshash Termiz shohlari saroyi qurilgan. Saljukiylar hukmronligi davrida XI asrda qurilgan Shahriarkdagi hukmdor saroyi tarxi ham Oqsaroyga timsol bo'lgan.

Oqsaroyning tarixiy tuzilmasida Afg'onistondagi Lashkargohda XI asrda qurilgan G'aznaviylar saroyida ham o'xshashlik bor. Bu saroy hovlisining to'rt tomoni ayvondan iborat bo'lgan.

Temuriylar davrida Oqsaroy singari ma'muriy maqsadda xizmat qilgan me'moriy majmuotlardan tashqari hukmdorlarning shahar ichidagi va shahar tashqarisidagi qarorgohi bo'lgan boshqa toifa saroylar ham ko'plab qurilgan. Ular, asosan, shahar ichi va tashqarisidagi eng yaxshi hududlarda bino etilgan. Oqsaroy, so'zsiz, siyosiy, ma'muriy va mafkuraviy hokimiyat jamlangan saroylar qatoriga kirgan. Saroy ayni xizmat vazifasi tufayli shahar ichida joylashgan. Saroyning tashqi ko'rinishi ulug'vor bo'libgina qolmay, balki ichki bezaklari hashamdor bo'lishi lozimligi ham nazarda tutilgan. Kirish peshtoqining, hovli sahni to'shamasining me'moriy qoldiqlariga ko'ra, Oqsaroy butun Markaziy va Yaqin Sharqda tengi yo'q qasr bo'lgan. Saroy hajmi hamda hashamati bilan zamondoshlar aqlini lol qoldirgan.

Saroy ichki bezaklari, naqshinkor sahn to'shamasi ham shundan dalolat beradi. Bular shohidlarning tavsiflari to'g'ri ekanligini tasdiqlaydi. Barpo etilgan imorat va uning tarxi hamda bezaklari o'zaro bog'liq bo'lgani holda yagona maqsadga bo'ysundirilgan, uning barcha qismlari sifati bir xil. Saroyning bunyod etilishida Amir Temur muhim rol o'ynagan, u qurilajak bino o'z kuch-qudrati va hokimiyatini namoyish etishini niyat qilgan. Zero, bosh peshtoq ustuni yon devoriga: "Agar bizning kuch-qudratimizga shubha qilsang, biz qurdirgan imoratlarga boqing!"- deb yirik harflar bilan bejiz yozib qo'yilmagan.

6.3. Ibodat me'morligi

Doruttilovat me'moriy majmuasiga quyidagi inshootlar mujassamlashgan.

Ko'kgumbaz masjidi. XVII asr oxirida yashab o'tgan Muhammad Bade Malexo ma'lumotlariga ko'ra, chig'atoy sultonlar Kesh-Shahrisabzda ko'p imoratlar bino qilganlar.

Bu imoratlar orasida xoqoni sa'id Mirzo Ulugbek qurdirgan jome masjid, Amir Temurning piri murshidi hazrati shayx Kulolning qabri, yonida Amir Tarag'ay go'rxonasi joylashgan Doruttilovat madrasasi ham bor. Bu binolarning hammasi hozirgi Shahrisabzning boshqa qismlariga nisbatan 2,25 m balandroq bo'lgan janubi sharqiy qismida joylashgan.

Uning shimolida Chorsu toqi hamda o'rta asrlarning shahar markazidagi bozori joylashgan. G'arbda chegara Termiz darvozasidan boshlanib, shaharning tarixiy markaziga yo'nalgan qadimgi ko'cha bo'ylab, janubda shahar qala devori bo'ylab o'tadi. Bu devorning janubi-sharqiy burchagi, Markaziy Osiyodagi ayrim ilk o'rta asrlar shaharlari devori singari, nishabdir. Bu shaharning eng qadimgi hududi bo'lib, bu yerda VII-VIII asrlardayoq shahar ko'rinishidagi manzilgoh shakllana boshlagan bo'lishi mumkin.

Shu hududning g'arbiy chekkasida joylashgan Doruttilovat majmuoti Ko'kgumbaz masjidi, Shamsuddin Kulol va Gumbazi Sayyidon maqbaralarini o'z ichiga oladi. Majmuotning g'arbiy tarzi Termiz darvozasini o'rta asrlar shahri markazi bilan birlashtiruvchi ko'chaga qaragan. Bosh tarzi sharqqa qaragan, Shamsuddin Kulol maqbarasi uning ayni o'qida joylashgan. Maqbaraning janubiy devori yonida Gumbazi Sayyidon maqbarasi joylashgan. Masjiddan 50 m shimolroqda va shimoli sharqda har xil davrlarda qurilgan bir qancha hujralar bor. Doruttilovat majmuotining barcha inshootlari shimoldan janub tomon cho'zilgan (60x32 m) umumiy hovlida joylashgan.

Ko'kgumbaz masjidi deyarli kvadrat shaklda (12,52x12,61m), to'rt tomonida eni 4,48-4,63 metrli, ichkariga 2,05 m kirib borgan taxmonlar bor. G'arbiy taxmonda beshburchak mehrob joylashgan. Janubiy, shimoliy, sharqiy devorlarida ravoqli o'tish joyi qo'yilgan. Shimoliy va janubiy o'tish joylaridan yon tomonlardagi ayvonlarga chiqiladi. Sharqiy taxmon masjid bosh tarzi peshtoqining baquvvat yon ustunlaridan hosil bo'lgan. Peshtoq oralig'i 10 metrga teng. Peshtoq yon ustunlarida tomga olib chiqadigan burama zina bor. Masjidning g'arb tarzi tarixan vujudga kelgan katta yo'lga qaragan. Bu tomon g'isht tirgovuchni yodga soluvchi bazak peshtoq bilan hoshiyalangan.

Masjidning ichki ko'rinishi oddiy. Ichki taxmonlar to'g'ri burchakli hoshiyaga olingan ravoq bilan yopilgan. Hoshiya sahndan 10,7 m balandlikkacha, deraza ustunigacha borgan. Gumbaz baval burchaklarini to'g'ri sakkizburchak hosil qilgan holda yopuvchi yarim qubbali ravoqli chortoq ustiga joylashgan. Bagalning poygumbaz darchalari uncha chuqur bo'lmagan ravoqli tokcha ichiga olingan. Kunjaklar bilan tokchalar oralig'i qalqonsimon bagal bilan to'ldirilib, o'n olti qirrali shakl hosil qilingan. Ularning qulfi tokchalar va chortoqning burchak bag'ali bilan bir xil balandlikda joylashgan. O'n olti qirrali shakl usti bir muncha tashqariga chiqib turuvchi charxi gumbaz bilan yopilgan.

Konstruktiv shakllar sodda bo'lib, deyarli bezatilmagan. Mehrob taxmoni ravoqqacha ganch mukarnaslar bilan to'ldirilgan hamda yuqori qismida ajratilgan gorizontalar sharafa va bo'rtma rax bilan hoshiyalangan. Chortoq bag'al poygumbazidan chiqib turuvchi raf bilan ajratilgan. Ko'kgumbaz ichiga ganch suvoq ustidan nafis moviy naqsh ishlangan. Tashqaridan Ko'kgumbaz bo'yi qismining balandligi 8 metrdan ziyod, ya'ni taxmon ustidagi ravoq qulfi balandligicha keladi. Sharq tomonidan peshtoq ustunlari qo'shib, ravoqni qamrab oladi. Shimoliy va janubiy tomonlariga gumbaz bilan yopilgan, qayta tiklangan ravoqli ayvonlar tutashgan. Shimoliy va janubiy tarzlardagi taxmonlardan kirish yo'llari bor. Masjidga uning o'qi bo'ylab o'tadigan yo'laklardan kiriladi. Yon tomonlardagi yo'laklardan esa tomga olib chiquvchi zinaga o'tiladi.

Chortoq masjid ichki bag'allari poygumbazini o'z ichiga olgan. Chortoqning yuqori qism burchaklari kesikligi hisobiga sakkiz qirra hosil qilingan. Chortoq o'qida masjid ichini yoritish uchun ravoqli katta tobadonlar qo'yilib, yog'och panjaralar o'rnatilgan. Sharqiy tomonda chortoq bilan bosh peshtoq oralig'ida bir-biriga qarab boruvchi bug'otlar (pog'onalar) qilingan.

Sakkiz qirra ustiga poygumbaz o'rnatilgan. Poygumbazning bo'yi qismida atrofi pishiq g'isht bilan o'ralgan mayolika hoshiya qisman saqlanib qolgan. U dam teng tomonli, dam cho'ziq olti qirrali shakl hosil qilgan holda to'rga o'xshab ketadi. Shakllar ichidagi sirtga lojuvard sirli naqsh ishlangan. Hoshiya ichi mayolikka taxtachalar bilan to'ldirilgan, atrofiga lojuvard chiziq tortilgan. Teng tomonli olti qirrali shakl ichiga sariq turunj tushirilgan.

Cho'ziq olti qirrali shakllarda moviy fonda bir-biriga chirmashgan oq va lojuvard poyalardan iborat mujassamot berilgan. Poyalar qo'shilgan va ajralgan joylar olti yaproqli gul bilan bezatilgan. Hoshiyadan yuqorida, poygumbazning bor balandligicha qufiy bitik ishlangan. Unda Qur'oni Karim 48-surasi – "Fatx"ning birinchi, ikkinchi va uchinchi oyatlari keltirilgan. Ularning ustidan oq sirkori g'ishtchalardan "Hukmronlik – Oллоhga xos, boylik – Oллоhga xos" mazmunidagi boshqa bitiklar ishlanib, ko'k rang bilan hoshiyalangan. Bitik zamini lojuvard va sopol taxtachalar bilan to'ldirilgan. Asosiy bitikning yuqori qismida, unga parallel tarzda, lojuvard g'ishtchalardan bir muncha mayda bitik ishlangan bo'lib, u asosiy bitik bilan muttasil chirmashib borgan.

Poygumbaz uzra gumbaz bo'lib, u qayta qurilgan va lojuvard taxta chala bilan qoplangan. Ko'kgumbaz masjidining peshtoqi ham diqqatni tortadi. Peshtoq bosh ravoq ustunlar va ravoqli tokchalardan iborat. Ustunlar oldinga bo'rtib chiqqan,

ustunlarda uchchorak ustunchalar bor. Ustunlarning quyi qismi hajm hisobiga enliroq bo'lib, tayanchdan yuqorisi peshtoq eni darajasidadir.

Masjidning me'moriy xususiyatlari – qubbalar, gumbaz, bag'al poygumbazlari ko'proq Amir Temur hukmronligi davridagiga o'xshash. Jome masjidi Ulug'bek hukmronligi davrida qurib tugallangan bo'lishi ham mumkin, kirish peshtoqining bet devorlarida saqlanib qolgan tarixiy bitik shundan dalolat beradi.

Shamsiddin Kulol maqbarasi Ko'kgumbaz masjidining sharqiy o'qida joylashgan. Tarixga ko'ra, u tashqaridan to'g'ri to'rtburchakli (12x10,5m), ichkaridan esa kvadratdir (7,5x7,5 m). Devori an'anaviy kvadrat shakldagi pishiq g'ishtdan ko'tarilgan. Maqbara ichkarisining u yer-bu yerining suvoqlari bir necha bor yangilangan. 1998-yildagi ta'mirlashga qadar tomi yassi bo'lgan. Yog'och to'sinlarni ikkita uyma naqshli ustun ko'tarib turgan. Ichkarida, to'rttala burchakda ham sahndan bir metrdan ziyodroq balandlikda konsol to'sinlarning chiqib turgan qismi saqlanib qolgan. Xona markazidan biroz shimolroqda ganch bilan suvalgan, keyingi davrga oid sag'ana joylashgan. Sag'anaga g'arbiy va janubiy, shuningdek, shimoliy tomondan naqshinkor marmar qoplama parchalari o'rnatilgan. Ularning badiiy bezagi va ijro texnikasi har xil bo'lsa-da, umuman, Amir Temur va Temuriylar hukmronlik qilgan davr uchun xosdir. Maqbaraning old tarzi g'arbga, Ko'kgumbaz masjidi peshtoqi o'qiga qaragan. Kirish joyi chekkalari g'ishtin mozaika bilan qoplangan.

Maqbaraning qurilishi tarixini o'rganish maqsadida arxeologik qazish ishlari olib borildi, devor zondlab tekshirildi, konstruktiv qismlarning ko'p qavatli suvog'i ko'chirildi. Shimoliy ustunning g'arbiy tomonida va maqbara ichida shimoli sharqiy hamda janubi sharqiy burchaklar yonida qazilgan shurflar natijalari diqqatga sazovor. Bu yerda o'lchamlari 76, 86, 62 sm, balandligi 30 sm bo'lgan marmar bloklar qazib olindi. Shu yerning o'zida tikka ketgan chok ochilib qoldi. Devorlarga terilgan g'ishtlar bir-biri bilan bog'lanmagani uchun bu maqbaraning turli davrlarda bunyod etilgan ikkita devori bo'lganidan dalolat beradi. Obidaning bo'yi qismi 21x12x4 sm o'lchamli to'g'ri to'rtburchak g'ishtdan terilgan. Sahnadan naqshinkor terrakotaning katta hajmli bo'lagi hamda och-lojuvard sir qoplangan ikkita terrakota parchasi topildi. Bunday shakldagi g'isht X asr oxiri XI asr boshlarida Karmanadagi Mirsaid Baxrom, Timdagi Arabota maqbaralari qurilishida ishlatilgan. Buxorodagi Somoniylar maqbarasi hamda Samarqanddagi Shohizinda majmuoti ilk yodgorliklari qurilishida ham shunday g'ishtdan foydalanilgan.

Maqbara ichi qazilganda X-XI asrlarda shu joyda qurilgan bino qoldiqlari topildi. Maqbara burchaklaridagi zondlab tekshirish binoning ustuni gumbaz bilan yopish uchun kesishuvchi ravoqlar bo'lganini tasdiqladi. Movarounnahr me'morligida bunday konstruktiv elementlardan Temuriylar davridagina foydalanilgandi.

Shunday qilib, Shamsuddin Kulol maqbarasi ham, Ko'kgumbaz masjidi singari Qoraxoniylar davriga oid qadimgi inshoot qoldig'i ustiga qurilgan bo'lib chiqdi. Dastavval maqbara binosi tarixi butunlay boshqacha bo'lib, tomonlarida eni 4,5 m bo'lgan to'rt ochiq ravoqli rotona tipidagi alohida turuvchi kvadrat inshoot bo'lgan. Keyinchalik bu bino ikki bor qayta qurilgan va maqbaraga moslashtirilgan. Shimol, sharq va janub tomondagi ravoqlar g'isht bilan urib yuborilgan, g'arbiy ravoq esa uncha katta bo'lmagan peshtoq sifatida bezatilgan. Ulug'bek hukmronligi davrida

maqbara ustiga kesishuvchi ravoqlar uzra gumbaz o'rnatilgan. Peshtoq Amir Temur davrida mozaikali naqshlar bilan bezatilgan bo'lishi mumkin. Maqbaraga ikki qator devor qilishdan maqsad uni tuzatish bo'lmagan. Ikkinchi qator devor imoratni konstruktiv jihatdan kuchaytirish hamda kesishuvchi ravoqlar o'rnatish imkoniyatini yaratish maqsadida avvalgisining yonidan qurilgan.

Gumbazi Sayyidon maqbarasi Shamsuddin Kulol maqbarasidan janubda joylashgan hamda shimoliy tomoni bilan yagona devor hosil qilgandek unga tutashib tushgan.

Maqbara tarixga ko'ra bir xonali ixcham bino bo'lib, Mirzo Ulug'bek davriga xos uslubda qurilgan. Shohizindadagi ikki gumbazli Qozizoda Rumiya maqbarasiga bevosita o'xshashdir. Maqbara ichi xochsimon, tashqaridan esa deyarli kvadrat shaklda. G'arb tomoni biroz turtib chiqqan peshtoq bilan bezatilgan. Peshtoq ustunining vayron bo'lgan janubiy qismi 1996-yilda gumbaz bilan birga ta'mirlangan.

Ichki taxmonlar ravoq bilan tugagan. Old devori, toq ustidan ravoq tayanchlari darajasida ravoqli tobadon quyilgan, uncha chuqur bo'lmagan tokcha tarzida hoshiyalangan ravoqlar qulfi ustidan chortoqni ichkaridan yakunlovchi gorizontaal belbog' o'tgan. Kvadrat asosdan uncha katta bo'lmagan raxga tayangan bag'al poygumbazi vositasida gumbaz aylanasiga o'tilgan. Aylana ustiga poygumbaz tushib, undan gumbaz ko'tarilgan.

Gumbazi Sayyidonning me'moriy bezaklari Ko'kgumbaz masjidi bezagiga juda o'xshaydi. Ikkalasining me'mori bir ekanligi sezilib turadi. Taxmonlar bo'rtma hoshiyaga olingan. Bag'allar poyidagi ravoqlar ham shu tariqa bezatilgan. Maqbara ichiga ishlangan naqshlar g'oyat diqqatga sazovor. Butun sirt, shu jumladan chortoq burchaklaridagi vertikal sirtlar, ravoqlarning ko'rinib turgan sirti, ravoqsimon bag'allar sirti, gumbaz osti yuzasi va butun gumbaz naqsh bilan qoplangan. Naqsh, asosan, moviy va qizil rangda berilgan. Rasmlar xilma-xil. Masalan, gumbaz osti belbog'i sakkiz qirrali yulduzsimon naqsh hosil qiluvchi tasmali girix bilan to'ldirilgan. Yulduzlar nuri qizil chiziq ichiga olingan. Katta yulduzlar orasiga uchtadan kichik yulduz joylashtirilgan. Girixning handasaviy shakllari atrofiga chiziq tortilgan.

Gumbaz yuzasi bir necha belbog'ga ajratilgan, shuningdek, yulduzsimon naqsh bilan to'ldirilgan ko'p qirrali girix ham naqsh qilingan.

Sakkiz qirrali poygumbaz ustidagi qizil fonga tigiz ishlangan islamiy-gul naqshli ravoqlar orasidagi bo'shliq turunjlar bilan bezatilgan. Turunj chetiga mayda dandana chizilgan va fondan to'lqinsimon chiziq bilan ajratilgan. Devor yuzasining ko'p qismiga spiralsimon naqsh ishlangan.

Maqbaraning pastki qismida olti qirrali lojuvard taxtachalardan sharafa bo'lgan. Maqbara ichidan shurf qazilganda bu taxtachalar izi aniqlandi. Maqbara o'rtasiga to'rtta marmar qabrtosh o'rnatilgan.

Dorussaodat majmuasi. Doruttilovat majmuasidan sharqroqda Hazrati Imom maqbarasi vayronalari mavjud. M.E.Masson bu yerga Amir Temurning o'g'li Jahongir dafn etilganligini tarixiy ma'lumotlar bo'yicha aniqlagan. Tarixchi Muhammad Xaydar so'zlariga ko'ra, Jahongir uchun juda ko'rkam maqbara qurilgan.

Sharafiddin Ali Yazdiy qoldirgan malumotga ko'ra, Sohibqiron uning qabri ustiga "imorati bag'oyat zebo soldurdi" degan bitikni yozdirgan.

Maqbaraga ichdan nazar solinsa, bu yanada sezilarli bo'ladi. Maqbara tarxi kvadrat (6,30x6,35), to'rt tomon o'qida ravoqli taxmonlar qo'yilgan. G'arb tomondagi taxmon boshqalariga nisbatan chuqurroq kirgan, mehrob ham shu yerda joylashgan. Maqbara ichi baland parallelepiped shaklida. Tepa qismida o'n olti qirrali poygumbaz bo'lib, uning ustiga kuloxiy gumbaz o'rnatilgan.

Maqbaraning uchta gumbazi bo'lgan. Birinchisi – 16 qirrali poygumbaz ustiga qo'ndirilgan tashqi, kuloxiy gumbaz. Ikkinchisi – bir-biri bilan tutashuvchi o'n ikki ravoqchadan tarkib topgan poygumbazga qo'ndirilgan ravoqsimon ichki, yuk ko'taruvchi gumbaz. Uchinchisi – burchaklarda (janubi sharqiy bag'alda) qismangina saqlanib qolgan va bu yerda "Oqil kishi yaxshi niyat bilan barakat qiladi. Nodon kishi yaxshi niyat bilan kutib turadi" mazmunidagi bitikli piramon ustida mukarnasli murakkab sirt hosil qiluvchi, ganchkor bezakli ichki gumbaz. Ichkarida ko'p qatlamli ganch suvoqli g'ishtin sag'ana joylashgan. Maqbara janubiy devorining haddan tashqari qalinligi va shimoli garbiy burchakda mustahkam dumaloq minora mavjudligi e'tiborni tortadi, go'yo umumiy, hajmiy yechimdagi mutanosiblik buzilganday tuyuladi. Bu adolat B.N.Zasipkin tomonidan qayd etilgan. Maqbara peshtoqi janubiy tarzi yuzasi handasaviy naqsh bilan butunlay qoplangan. Bu naqshlar diagonal tarzda qo'yilgan kvadratlar tizimiga asoslangan. Atrofiga uchta kvadratchadan iborat sirkor g'ishtchalar terilgan. Kvadratlar ichiga, kofiy xatda "Olloh" so'zi bitilgan. Ularning bir qismi lojuvard sirkor g'ishtchalar bilan, boshqa qismi esa ikki xil moviy va lojuvard g'ishtchalar bilan yozilgan.

Pilyastra yonidagi asosiy sirtni to'ldiruvchi handasaviy naqsh to'g'ri va cho'ziq shakldagi oltiburchak mayolika taxtachalar navbatma-navbat qadalgan hoshiya ichiga olingan. Yuqoridan 13-14 m balandlikdan gorizonta belbog' o'tgan. Belbog'da, ehtimol, tikkasiga uch qator qo'yilgan to'g'ri burchakli to'rtburchak taxtachalardan mayolikali bitik bo'lgan.

Hazrati Imom maqbarasining shimoliy tarzi XIX asrda qurilgan masjid xo'jalik imoratlari bo'lgan keng hovliga qaragan. Shimoliy tarzga badiiy jihatdan yuksak darajada pardozi berilgan, unda g'ishtin mozaika naqshinkor mayolika bilan o'girilib ketgan. Tarzning shimoli sharqiy burchagida hashamatli bezatilgan kirish joyi bo'lib, undan maqbara ichiga, ziyoratxonaga o'tiladi.

Shimoli g'arb tomonda maqbaraga taqab gumbazli masjid, uning shimoliy devori yonida esa yog'och ustunli baland ayvon qurilgan. Masjid ichi va ayvon devorlari puxta ganchsuvoq qilingan, maqbara shimoliy tarzi qoplamasining ko'p qismi shu suvoq ostida qolib ketgan. Ushbu devor uzra olti qirrali poygumbaz bo'lib, uning ustiga kulohiy gumbaz qo'ndirilgan. Poygumbazning shimoli sharqiy burchagini kesik chortoq ko'tarib turadi.

Imorat ikki oshiyonali bo'lgan. Birinchi qavatdan taxmonning uchta ravoqi saqlanib qolgan, ularning ustida, aftidan, ikkinchi qavat uchun sahn bo'lib xizmat qilgan bostirma va maydoncha bo'lgan ko'rinadi. Janub qismida, birinchi qavatdagi ziyoratxonadan tashqarida sharqiy tarz devori bo'ylab ketgan, ikkinchi qavatga olib chiqadigan yo'l saqlanib qolgan. Sharqiy tarz burchagi qazilganda zina chiqqan. Hazrati Imom maqbarasidan sharqda dastavval "Jahongir daxmasi", deb belgilangan

sag'ana joylashgan. M.E.Masson bu sag'ana Amir Temurni dafn etishga mo'ljallangan, deb hisoblagan.

Sag'ana bir kishini dafn etishga mo'ljallangan. Uning o'lchami, chuqurligi 1,5 metrli tokchalarni ham hisobga olganda, 6,4x6,1 m. Burchaklari kesik markaziy kvadrat 3,5x3,5 metrga teng. Sag'ana sathi, devori, bostirmasi pardoqlangan marmarsimon ohaktosh bloklar bilan qoplangan. Sag'ana shifti yassi chodrasimon gumbaz ko'rinishida qilingan, yuqori qismi naqshinkor, kvadrat shaklda. Uning ichiga o'lchami kichikroq boshqa kvadratlar ketma-ket joylashtirilgan. Yakunlovchi kvadrat saqlanib qolmagan. Biroq avvalgi kvadratlardan tarkib topgan burchaklariga qaraganda, u sakkiz qirrali shaklda bo'lgan Amir Temur qurdirgan ko'p imoratlar hozircha noma'lum sabablarga ko'ra vayrona yoki avariya holatga kelib qolgan. O'ttiz yil o'tgach, Ulug'bek ularni qisman qayta qurishni tugallagan ko'rinadi. Masalan, Ko'kgumbaz masjidi va uning ayvonlari qayta qurilgan, natijada masjid hovlisi ikki hissa qisqargan. Ayni mahalda, Amir Tarag'ay maqbarasiga janub tomondan taqab "Avlod al-Muborak" maqbarasi qurilgan. Tarag'ay maqbarasidan shimolda qator hujralar barpo etilgan. Bu hujralarda talabalarga kalom ilmi va qur'on qiroati o'rgatilgan. Madrasa Doruttilovat deb nomlanganini, ehtimol, shu bilan izohlash mumkindir. O'sha davrda masjid hovlisi shimoldan janubga cho'zilgan to'g'ri burchakli to'rtburchak shaklida bo'lgan.

Shoxruh va Ulug'bek hukmronliklari davrida shahar jome masjidining sharqiy qismi barlos urug'i namoyandalarining sulolaviy mozoriga aylanib bordi. Bu yerda, o'rta asrlarga oid qabriston hududida Shohruh yurishlarida ishtirok etgan, tarixiy mashhur sarkardalar ismlari bitilgan bir qancha qabrtoshlar mavjud.

1500-yilda hokimiyat tepasiga Shayboniylar kelgach, Amir Temur va Temuriylar davri inshootlari nazoratsiz qolib ketdi, ba'zida ataylab vayron qilindi, materiallar esa obyektlar qurilishiga tashib ketildi. Shunga qaramay, Shahrisabzning vayronaga aylangan me'moriy qoldiqlari ularning avvalgi ko'rkidan dalolat berib, chuqur taassurot qoldiradi, ko'z oldimizda go'zal tarixiy o'tmishni tiklaydi.

6.4. Jamoat me'morligi

O'zbekiston hududida hammom qurilishiga qadimdan alohida ahamiyat berilgan. Ibn Sino yaxshi hammomda harorat me'yorida, ichi yorug', kiriladigan joy keng va u yerda rohatbaxsh etadigan chiroyli rasmlar bo'lishi lozim, deb hisoblagandi.

Tarixiy shaharning qoq markazida joylashgan Shahrisabz hammomi O'rta asrlar hammomining klassik tipida qurilgan. U XIV asrning ikkinchi yarmida yoki XV asr boshida barpo etilgan.

Hammom markaziy xona atrofidagi 9 xonadan tarkib topgan. Yuvinish xonalaridan shimolroqda uchta hovuz va o'txona joylashgan. Hammom ichi uch qismga bo'lingan. Birinchi qism uchta xonadan iborat. Birinchi xona yerto'laga kiraverishda joylashgan. Tarxiga ko'ra to'g'ri to'rtburchak shaklda, usti gumbaz bilan yopilgan. Sharq tomondan unga taqab supa qurilgan.

Ikkinchi xona birinchisiga nisbatan g'arbroqda, shimol-janub o'qida joylashgan. Tarxi kvadrat, uncha chumbur bo'lmagan to'rtta taxmoni bor. Sharqiy, g'arbiy va shimoliy taxmonlarda zalga kiriladigan yo'l bo'lgan.

Uchinchi xona – markaziy zal. Tarxiga ko‘ra, u burchaklari kesik sakkiz qirrali. Sharq va g‘arb tomonlarida chuqur taxmonlar bor. Kesik burchaklarga eshiklar o‘rnatilgan. Janub tomondagi eshiklardan alohida kichik xonalarga o‘tiladi. Shimol tomondan ularga shimoli sharqiy va shimoli g‘arbiy burchakdagi issiq xonalarga kiriladi. Markaziy zalning shimoliy va janubiy taxmonlari uncha chuqur emas. Shimoliy taxmonda harorat eng yuqori bo‘lib, unda suv olinadigan xonaga o‘tish uchun yo‘l qo‘yilgan. Markaziy zalning usti gumbaz bilan yopilgan. Zal markazida olti qirrali supa joylashgan. Burchaklardagi xonalarning ham usti gumbaz bilan yopilgan. Hammom sahniga marmar to‘shalgan, ostida issiqlik o‘tkazadigan kanallar joylashgan.

Hammomdagi barcha xonalarning o‘ziga xos vazifasi bo‘lgan. Markaziy zaldan oldin oyoqni yuvish va issiqqa moslashish uchun uchta o‘tish xonasi keladi. Markaziy zalning orqasidagi uchta xona sovunlab yuvinadigan xona bo‘lgan. Zalning sharqni g‘arb tomonida joylashgan ikkita chumbur taxmon uqalash xonasi bo‘lgan.

Ko‘plab yozma manbalardagi xabarlarga ko‘ra, hammomlarga ko‘pincha bezak berilgan. Shahrisabzdagi hammom ham, ehtimol, bezakli bo‘lgandir.

Shahrisabz hammomining tarxi va ichki jihozlari puxta o‘ylab qilingan. Issiqlikni saqlab qolish maqsadida u chuqur qilingan.

Chorsu Shahrisabz markazida, shimoldan janubga va sharqdan g‘arbga olib boruvchi yo‘llar chorrahasida o‘qlarga mutanosib joylashgan, umumiy o‘lchami 21x21 metrli bir markazli bino bo‘lib, oldinga turtib chiqqan to‘rt peshtoqi, gumbaz ostidagi markaziy zalga olib kiruvchi ravoqlar bor. Zal tarxi kesik burchakli kvadrat, zalga nisbatan diagonal joylashgan o‘tish yo‘llaridan burchaklardagi xonalarga kiriladi.

Markaziy zal usti charxi gumbazli. Gumbaz zal burchaklarida past joylashgan ravoq bag‘allari ustidan boshlangan. Xonalarda qalqonsimon bag‘allar “archasimon” qo‘yilgan.

XV asrda qurilgan Shahrisabz Chorsusi Buxoro, Samarqanddagi Chorsular takrori emas. U bunday binolar tipologiyasini saqlagan holda alohida yechimga ham ega.

Koba karvonsaroyi. Markaziy Osiyodagi jamoat me‘morligida karvonsaroylar alohida o‘rin tutadi. G.A.Pugachenkova qayd etganidek, karvonsaroy me‘morligi va tarixiy mujassamotida mo‘g‘ullardan avvalgi davrlardayoq ishlab chiqilgan eski hajmiy-tarxiy yechimlarga rioya qilingan. Karvonsaroylar asosini kesik to‘g‘ri to‘rtburchak hovli tashkil qiladi⁴.

Shahrisabzdagi Koba karvonsaroyi XVI asrdagi bu toifa me‘morlikning yagona yodgorligidir. Shahardagi boshqa karvonsaroylar saqlanib qolmagan.

Koba karvonsaroyi bir hovlili, bir qavatli inshoot bo‘lib, xonalar hovli atrofida joylashgan. XVI asrda barpo etilgan Kobaning me‘moriy qiyofasi, Samarqand va Buxorodagi shu kabi inshootlardan farq qilgani holda, birmuncha sipo. Kirish peshtoqi an‘anaviy ravishda Shahrisabz eski shahar qismida tarixan yuzaga kelgan katta yo‘lga qaragan. Hovlisi kesik burchakli kvadrat shaklga yaqin. Hujralari uchli gumbazlar bilan yopilgan.

⁴ Axmedov B., Mukminova R., Pugachenkova G.A. Amir Temur. – T.: Universitet, 1999.

Tashqi bezagi yo'qligi, devori qalinligi, hovli burchaklari kesikligi karvonsaroy chindan ham XVI asrda qurilgan, deb hisoblash uchun asos bo'ladi. Tub aholining og'izdan og'izga o'tib kelayotgan gaplariga qaraganda, bu karvonsaroyda o'z vaqtida turli mamlakatlar, shu jumladan Hindistondan kelgan savdogarlar ham qo'nib o'tishgan.

"Koba" nomining kelib chiqishi to'g'risida bir necha taxmin bor. Masalan, bir taxminda bu "Kubba" so'zining mahalliy aholi tilidagi talaffuzi deyilsa, boshqasida go'yoki uni arablarning Kufa shahridan kelgan ustalar qurganligi uchun "Kufa" so'zining buzilgan shakli deyiladi.

Chubin majmuasi. Chubin me'moriy majmuasi shaharning shimoli sharqiy qismida, Chubin mahallasida joylashgan. Majmuaning qurilishi haqida tarixiy yoki adabiy ma'lumotlar yo'q. Chubin ko'proq joy nomi bilan bog'liq bo'lib, u yerda o'tmishda, ehtimol, yog'ochga ishlov beruvchi hunarmandlar mahallasi joylashgan bo'lishi mumkin.

Yodgorlik funksional jihatdan o'zaro bog'liq bo'g'inlar – masjid binosi, hujralar, darvozaxona va hovlidan tarkib topgan majmuadir.

Bino tarzlari an'anaviy mutanosiblikka asoslangan holda bezatilgan. Ularda peshtoqlar barpo etish orqali shimoliy, sharqiy va janubiy tarzlar mutanosibligiga erishilgan. Ustunlar yuzasi pilyastralar vositasida chuqur bo'lmagan taxmonlarga ajratilgan. Taxmonlarda to'rt markazli tutashma ravoqlar qo'yilgan.

Hajmiy-makoniyl jihatdan mazkur yodgorlikni ichki hovliga qaragan bosh tarz bo'rttirilgan markaziy mujassamotlar toifasiga kiritish mumkin.

6.5. Shahrisabzning yangi davr tarixi

Zamonaviy O'zbekiston uchun xos bo'lgan, jamiyat hayotining turli sohalaridagi yangilanish, islohot va tub o'zgarishlar qadimgi Shahrisabz tarixida yangi sahifalar ochdi. Dunyoga mashhur me'moriy yodgorliklar va noyob madaniy merosga ega bo'lgan shahar chet el olimlari va sayyohlari e'tiborini o'ziga tortib kelgan. O'zbekiston mustaqilligi ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini yanada rivojlantirish va mustahkamlash dasturini amalga oshirish bilan bog'liq holda Shahrisabzning iqtisodiy va madaniy salohiyatini to'liq yuzaga chiqarish uchun mustahkam poydevor yaratdi.

Madaniy hayot. Mustaqillik tufayli xalqimiz o'zining o'tmishini, boy merosini o'rganish baxtiga musharraf bo'ldi. Qadimiy udumlarimiz, dinimiz o'zimizga qaytdi. Tarixiy obidalarini ta'mirlash imkoniyatlari paydo bo'ldi. Sohibqiron Amir Temur bobomiz istiqloq tufayli yurtimizga qaytdi. Ul zot davrida yaratilgan qadriyatlar xalqimizning bebaho ma'naviy boyligiga aylandi. Mustamlakachi bosqinchilarning Amir Temur shaxsi va tuzgan ulug' davlatiga nisbatan tutgan adolatsiz siyosati fosh etildi. O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov 1994-yil iyulda Shahrisabzga kelib, Amir Temur davri yodgorliklarini borib ko'rdi. Ko'kgumbaz jome masjidi tez kunda ta'mirdan chiqarilajagining guvohi bo'ldi. Prezident shaharda Amir Temurga haykal qurish, shu munosabat bilan ko'rik-tanlov e'lon qilish ishini boshlash haqida maslahat berdi.

Shahrisabzda 19 ta tarixiy-madaniy yodgorlik bo'lib, ularning 16 tasi respublika ahamiyatiga ega. Qadim Shahrisabz obidalarining ko'pchiligi ulug' alloma

Mirzo Ulug‘bek tavalludining 600 yilligiga tayyorgarlik munosabati bilan ta‘mirlash ishlari boshlab yuborilgandi. Chorsu, Kunduzak, Og‘alik yodgorliklari to‘liq ta‘mirlandi. Ko‘kgumbaz, tarixiy hammom, Chubin yodgorliklarini ta‘mirlash davom ettirildi. Shahrisabzning ko‘hna devorini va Oqsaroy qasrining kirish peshtoqini ta‘mirlash ishi tugallandi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 1994-yil 29-dekabrda “Amir Temur tavalludining 660 yilligini nishonlash to‘g‘risida” qaror qabul qildi.

Bu O‘zbekistonning eng yangi tarixida ulkan voqea bo‘ldi. 1996-yil 13-yanvarda sohibqiron Amir Temur haykalini tayyorlash bo‘yicha e‘lon qilingan tanlov asosida taqdim etilgan loyihalar orasida haykaltaroshlar Ilhom va Kamol Jabborovlar hamda me‘mor Botir Usmonov asarlari ma‘qullandi.

Shahar obidalarida 76,5 million so‘mlik ta‘mirlash ishlari amalga oshirildi. Poydevori yer sathidan qariyb 10 metr baland bo‘lgan Amir Temur haykali o‘rnatildi.

O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 1996-yil 28-avgustdagi farmoni bilan Shahrisabz shahri ahlining Temuriylar davri ulkan madaniy va ma‘naviy merosini, noyob tarixiy yodgorliklarini asrab-avaylash, yosh avlodni buyuk ajdodlarimizning munosib vorislari qilib tarbiyalash va ularni ozod mamlakatimiz buyuk istiqbolini yaratishga qodir kishilar qilib voyaga yetkazish ishiga qo‘shgan alohida xizmatlari e‘tiborga olinib hamda sohibqiron Amir Temur tavalludining 660 yilligi munosabati bilan Shahrisabz shahri Amir Temur ordeni bilan mukofotlandi.

1996-yil 18-oktabrda Shahrisabzda Amir Temur tavalludi tantanalari o‘tkazildi. Shaharda Amir Temurning ulug‘vor haykali ochildi.

Haykal ochilishiga bag‘ishlangan yig‘ilishda Birinchi Prezident Islom Karimov nutq so‘zlab, Shahrisabzga “Amir Temur” ordenini taqdim etdi.

Mustaqillik tufayli Shahrisabz shahar Amir Temur nomli tarix va moddiy madaniyat muzeyi tashkil etildi. Muzeyda 13891 eksponat saqlanmoqda. Muzey jamoasi sa‘y-harakati bilan Yaponiyaning “Mitsubisi” va “Sumitomo” korporatsiyalari tomonidan ajratilgan grant qo‘lga kiritildi.

Shahrisabz shahar faollari hamda jamoatchiligining 1997-yil 25-yanvarda bo‘lib o‘tgan yig‘ilishda qadimgi Kesh tarixini o‘rganish va arxeologik qazish ishlarini olib borish masalalari muhokama qilindi. Shu munosabat bilan Toshkent davlat universiteti (hozirgi O‘zbekiston milliy universiteti) arxeologiya kafedراسi olimlariga murojaat etishga, Shahrisabz va uning atrofida keng ko‘lamda arxeologik tadqiqotlar olib borishga qaror qilindi. Bu ishlardan, asosan, Shahrisabz yoshini aniqlash ko‘zlangan edi. Universitet olimlari Kesh-Shahrisabz tarixi va madaniyatini o‘rganishga asosiy hissa qo‘shib, bu vazifani bajarishdi.

1997-yil 16-sentabrda Mirzo Ulug‘bek nomidagi Toshkent davlat universitetida boshlangan “Amir Temur va temuriylar davrida Markaziy Osiyo va Yevropa” mavzusidagi xalqaro ilmiy anjuman Shahrisabzda davom ettirilgani bejiz emas.

Amir Temur vatani – Kesh Markaziy Osiyoning eng qadimiy shaharlaridan biri sifatida tilga olinib, uning 2700 yoshda ekanligiga to‘liq aniqlik kiritilganligi, yozma manbalar va keyingi yillardagi arxeologik izlanishlarda shaharning shakllanishi mil. avv. VIII-VII asrlarga borib taqalishi isbotlanganini anjuman qatnashchilari qoniqish bilan kutib oldilar.

Shahrisabz sayyohlar shahri hamdir. Unda turizm va sayyohlar bo'limi sho'rolar istibdodining so'nggi yillarida tashkil etilgan bo'lsa-da, uning kengayib, dunyoga tanilishiga mustaqillik keng yo'l ochib berdi. Xorijlik sayohatchilar mustaqillikdan keyin yurtimizga, shu jumladan Amir Temur yurti bo'lgan Shahrisabzga ko'plab kela boshladilar.

Sayohatchilarga xizmat ko'rsatish madaniyati va sifatini yaxshilashda "Shahrisabz" mehmonxonasi xodimlarining ham munosib hissasi bor. Mehmonlarga 105 o'rinli yotoqxona va 100 o'rinli restoran xizmat ko'rsatadi. Mehmonxona jamoasi mamlakatimizda xizmat ko'rsatayotgan 24 davlat firmalari orqali xizmat sifatini oshirish choralarini ko'rdi. Birgina 1997-yilda Fransiya, Germaniya, Gollandiya, AQSh va Italiya mamlakatlaridan kelgan sayyohlarni qabul qildi.

1997-yil dekabrda Toshkent davlat universiteti, O'zFA Arxeologiya instituti olimlari, Xalqaro Amir Temur jamg'armasi va Shahrisabz hokimiyati ishtirokida Kesh shahar madaniyati shakllanishi tarixiga bag'ishlangan ilmiy anjuman o'tkazildi. Shu anjumanda Kesh-Shahrisabzning 2700 yilligini nishonlash zarurligi ilmiy asoslab berildi va respublika rahbariyatiga bu masalada taklif kiritishga qaror qilindi. Bularning bari ilmiy asosga ega edi.

2000-yilning dekabrda YUNESKO tashkiloti qarori bilan Shahrisabz shahri Jahon madaniy merosi ro'yxatiga kiritildi. 2001-yil oktabrda YUNESKO Shahrisabzning 2700 yilligini nishonlash to'g'risida qaror qabul qildi.

Mamlakatimizda ushbu tarixiy sanani nishonlash uchun keng ko'lamda tayyorgarlik ishlari boshlab yuborildi.

Istiqlol Shahrisabz shahri taqdirida burilish yasadi. Qadimiy yodgorliklar ta'mirlanib, chiroy ochdi. Atrofi obodonlashtirildi. Ko'plab yangi binolar, jumladan "Shahrisabz" mehmonxonasi va avtovokzal binosi ishga tushirildi. Shahar ko'chalari kengaytirilib, transport qatnovi imkoniyati oshirildi. Aholining turmush sharoiti yaxshilandi. Mustaqillik tufayli ko'hna shahar hayotining yangi davri boshlandi. Jonajon shahri bilan bir qatorda odamlarning dunyoqarashi ham o'zgardi.

Bugungi kunda Shahrisabzga kelgan sayyohlar va yurtdoshlarimiz har qadamda tarixiy obidalar bilan zamonaviy imoratlar yonma-yon turganligini ko'radi. Qadimgi Kesh-Shahrisabzda noyob o'tmish yodgorliklari tarixdan guvohlik bersa, zamonaviy qurilishlar o'zbek xalqining bugungi yaratuvchilik mehnati va mustaqillikning zafarli yurishidan dalolat beradi.

Qisqacha xulosa

Ushbu mavzu X-XV asr davomida bir qancha tarixiy voqealarni boshidan kechirgan, ba'zan gullab yashnagan, gohida tanazzulga yuz tutgan qadimgi va navqiron Shahrisabz shahri tarixiy obidalar va arxitektura qurilishlariga to'xtaldik. Shahrisabz Amir Temur ulkan davlatining ikkinchi poytaxti bo'lib, bu shahar to'g'risida doimo g'amxo'rlik qilgan, obodonlashtirgan va zeb bergan. Temuriylar, Boburiylar sulolasining asoschisi Mirzo Bobur Amir Temur Shahrisabzni "shahar va poytaxt qilurga ko'p ehtimollar qildi" deya o'z solnomalarida yozib qoldirgan. O'sha paytda tengi bo'lmagan hashamatli Oqsaroy qasri buning yaqqol dalilidir. Ispaniyaning Amir Temur saroyidagi elchisi, Shahrisabz tarixida o'z izini qoldirgan

ko'zga ko'ringan shaxs bo'lmish Rui Gonsales de Klavixo o'z asarida bu shaharga hayrat to'la sahifalarni bag'ishlagan.

2000-yilning dekabrda YUNESKO tashkiloti qarori bilan Shahrisabz shahri Jahon madaniy merosi ro'yxatiga kiritildi. 2001-yil oktabrda YUNESKO Shahrisabzning 2700 yilligini nishonlash to'g'risida qaror qabul qildi.

Mavzuda O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng jahon miqyosida o'tkazilgan anjumanlar ham ta'kidlandi.

Tayanch so'zlar:

Timpan, parapet, pilyastrlar, panno, gotik dekor, rim dekori, arab epigrafikasi, ganch stalaktitlari, mozaikali panjara, Kosh madrasasi, gulganchi elektizm pechati.

Nazorat savollari

1. O'rta Osiyo tarixida Kesh-Shahrisabzning tutgan o'rni.
2. Shahrisabzning me'moriy obidalarini ta'riflab bering.
3. Shahrisabzning ibodat me'morligi.
4. Jamoat me'morligini shahar me'morchiligida tutgan o'rni.
5. Shahrisabzning madaniy qiyofasi.
6. Shahrisabz shahrining tarixiy va me'moriy obidalari haqida tushuncha bering.
7. Ko'kgumbaz masjidi ta'rifi va uning tarixiy obidalardagi ahamiyati nimadan iborat?
8. Hazrati Imom maqbarasi haqida qisqacha tushuncha bering.
9. Jamoat me'morlariga nimalar kiradi?
10. Shahrisabzning yangi davr tarixiga nimalar kiradi?

Adabiyotlar

1. Бартольд В. Царствование Тимура. – М., 1992 .
2. Семенов А. Очерки устройства. – М., 1961.
3. Разина В.Г., Туляганов Л.А., Хусанбаев Б.М. Дорогами Великого Шелкового путию. – Т., 1996.
4. Пугаченкова Г.А. Архитектурное наследие Узбекистана. – Т., 1960.
5. Шахрисабз наследие тысячелетий. – Т., 2000.
6. Ахмедов Б., Мукминова Р., Пугаченкова Г.А. Амир Темура. – Т.: Университет, 1999.
7. Массон М.Е. На Среднеазиатских трассах Великого Шёлкого пути. Сборник статей. – Т., 1990.
8. www.tourism.ru
9. <http://w.yorku.ca/eseach/kproj/tring/ohr/rarticles.htm>
10. <http://w.world-tourism.org>

II bo'lim. O'ZBEKISTON MADANIY MEROSIDA ARXITEKTURA, DEKORATIV-AMALIY SAN'AT VA ETNOGRAFIK RANG-BARANGLIK

1-bob. O'ZBEKISTON MADANIY MEROSIDA ARXITEKTURA SOPOLSOZLIK, HAYKALTAROSHLIK VA KOROPLASTIKA

1.1. Markaziy Osiyo xalqlari tarixiy san'ati merosining asosiy bosqichlari

So'nggi yillardagi arxeologik kashfiyotlar nuqtayi nazaridan Markaziy Osiyo tasviriy san'ati, haykaltaroshlik va amaliy san'ati juda katta badiiy hodisa sifatida namoyon bo'ladi. Yorqin ifodalangan badiiy tizim, shakl va obrazlar izchilligida namoyon bo'luvchi tamoyillarning barqarorligi, shuningdek, O'rta, Yaqin va Uzoq Sharqning boshqa ilg'or badiiy maktablari va oqimlari bilan aloqaning kengligi sifatida san'atning haqiqatligi – uning asosiy jihatlaridir.

Markaziy Osiyo tarixiy va geografik jihatdan doimo Osiyo qit'asidagi eng yirik badiiy madaniyatlar kesishuvchi joy bo'lib kelgan. Rimdan Xitoygacha cho'zilgan Buyuk Ipak yo'lining asosiy qismi Markaziy Osiyo xalqlari qo'lida bo'lgan. Ushbu Transosiyo magistral yo'li Sharq va G'arbning badiiy madaniyati o'zaro aloqalarida ham katta rol o'ynagan. Markaziy Osiyo orqali janubdan shimolga o'tuvchi yo'l ham shunday ahamiyat kasb etgan. Ular orqali qadim zamonlardan Hindiston va Eronning dasht hududlaridagi xalqlar bilan, undan tashqarida esa Volga bo'yi, Sibir va Uzoq Sharq xalqlari bilan aloqalarni amalga oshirishgan.

Markaziy Osiyo ulug'vor tog' tizmalari, keng daryo vodiylari, bepoyon dashtlar mamlakatidir. Qadimgi manbalardan bizgacha uning asosiy tarixiy-geografik nomlari yetib kelgan. Amudaryoning yuqori va o'rta oqim havzasi Baqtriya, keyinchalik Tohariston deb, Qashqadaryo va Zarafshon daryolari oralig'i – So'g'diyona yoki So'g'd, Janubiy Orolbo'yi – Xorazmiya, Xorazm, Murg'ob bo'yidagi viloyat – Marg'iyona, Mouru, Farg'ona vodiysi va tog'lari Parkona deb atalgan, Sirdaryo ortida Markaziy Osiyolik skiflar – saklarning avlodlari bo'lgan.

Ilk o'rta asrlarga oid rivoyatlarda Amudaryodan shimoldagi keng hududlar Turon deb ataladi va odatda, Eronga qarshi qo'yiladi. Arablar VII-VIII asrlardan boshlab Amudaryodan shimoli sharqdagi yerlarni Movarounnahr ("Ikki daryo oralig'i"), janubi g'arbdagi yerlarni Xuroson va shimoli sharqdagi yerlarni Xorazm (bu nom hozirgacha o'zining eng qadimiy nomini saqlab qolgan) deb ataganlar.

Atamalar va bu hududlar chegaralari evolyutsiyasi ma'lum ma'noda bu yerda ko'pchilik bo'lgan, qadimiy va O'rta asrlar mahalliy madaniyati sohibi bo'lgan aholining etnik kelib chiqishini aks ettiradi.

Markaziy Osiyo viloyatlarida davlatlar paydo bo'lishi eramizdan avvalgi 2 ming yillikda ro'y bera boshlagan. Eramizdan avvalgi VI asrda bu yerlarning katta qismi Ahamoniylar davlati tarkibiga, eramizdan avvalgi IV asrda – Iskandar Zulqarnayn imperiyasi, so'ngra – Salavkiylar davlati tarkibiga kirgan. Eramizdan avvalgi III asr o'rtalarida mahalliy davlatlarning ajralib chiqishi boshlangan. Baqtriyada paydo bo'lgan Grek-Baqtriya davlati chegaralari Hindistongacha yetib borgan. Salavkiylar davlatidan ajralib chiqqan Parfiyona va Marg'iyona qudratli Arshakiylar sulolasiga (eramizdan avvalgi 250-226-yillar) asos solgan bo'lib,

ularning hududi Butun Eron va Mesopotamiyani qamrab olgan. Grek-Baqtriya davlati o'rnida vujudga kelgan Kushon imperiyasi (eramizdan avvalgi I-III asrlar) ham juda kuchli davlat edi. U eramizdan avvalgi 140-yil atrofida ko'chmanchi sak qabilalari bosqini natijasida parchalanib ketgan. Amudaryo bo'yidagi viloyatlardan tashqari Kushon imperiyasi hozirgi Afg'oniston, Pokiston va Shimoliy Hindiston hududlarini qamrab olgan. Qadimiy So'g'd, Xorazm va Sirdaryo bo'yidagi yerlar esa Qang' davlati tarkibiga kirgan.

To'rtinchi-beshinchi asrlar qadimgi imperiyalarning parchalanib ketishi, Markaziy Osiyo hududiga shimoldan ko'chmanchi qabilalar – kidariylar, xioniylar, eftalitlarning bostirib kirishi, Xurosonning Sosoniy (forslar) davlati tarkibiga kiritilishi, VII-VIII asrlarda esa Markaziy Osiyo hududlarining asosiy qismi Turk xoqonligi tarkibiga kirishi bilan tavsiflanadi. Bu davr mamlakatning feodallasuvi, amalda katta va kichik yarim mustaqil xonliklardan tashkil topishiga olib keldi. Bunday parokandalik VII-VIII asrlarda arablarga Markaziy Osiyo yerlarini egallab olishga yordam berdi. Biroq IX-X asrlarga kelib, arab xalifalariga bo'ysunish nomigagina bo'lib, amalda hokimiyat asta-sekin Xurosonda Tohiriylar, Movarounnahrda Somoniylar va Xorazmda Mamunlar qo'liga o'ta boshladi. XI-XII asrlar bu viloyatlarda turklashuvning kuchayishi va Qoraxoniylar, Saljuqiylar, Xorazmshohlar boshchiligidagi turk sulolasiga mansub sultonliklar paydo bo'lishi kuzatilgan.

XIII asrda Mo'g'ullar bosqini Markaziy Osiyoning rivojlanishini bir necha o'n yilliklarga to'xtatib qo'ydi, biroq XIV asrga kelib, Movarounnahrda, ayniqsa, Xorazmda ko'tarilish davri boshlanadi. XIV asr oxirlarida ko'plab mamlakatlarni bosib olish natijasida buyuk Temur saltanatining paydo bo'lishi Movarounnahrning bu paytgacha beqiyos darajada gullab-yashnashi uchun turtki bo'ldi. Madaniy hayotning yuksalishi XV asrda hamda Ulug'bek hukmronligi davrida ham davom etadi. Biroq XV asrning ikkinchi yarmiga kelib, diniy xurofotning ta'siri ostida bu ko'tarilish ancha susayadi.

Markaziy Osiyoning Shayboniylar (XVI asr) va Ashtarxoniylar (XVII asr) o'zbek davlatlari tarkibiga kiritilishi munkillab qolgan feodal jamiyatga biroz jon berdi, biroq davlat yaxlitligini saqlab qolishning imkoni bo'lmadi. O'zaro kelishmovchiliklar, ichki va tashqi urushlar, Markaziy Osiyo viloyatlarining jahon savdosi va xalqaro aloqalardan chetga chiqib qolishi XVIII asrda butun mamlakatni qamrab olgan og'ir ijtimoiy inqirozga olib keldi. Faqat XIX asrlar chegarasiga kelib, bu inqirozdan chiqishga erishildi, yangi paydo bo'lgan amirlik va xonliklarda iqtisodiyot biroz ko'tarildi, yangi davr kelayotganligidan darak beruvchi ijtimoiy kuchlar paydo bo'la boshladi. Markaziy Osiyo xalqlari san'ati tarixi katta bosqichlardan iborat bo'lib, ularning har biri o'ziga xos badiiy muammolar doirasi bilan ajralib turadi. Turli davrga xos ayrim san'at turlariga murojaat qilishdan avval bu bosqichlarning asosiylariga to'xtalib o'tamiz.

Eramizdan avvalgi uchinchi-ikkinchi ming yilliklar – “bronzasi”. Dehqonchilik bilan shug'ullanuvchi hududlarda ilk shahar usulidagi sivilizatsiya shakllana boshlaydi va Old Osiyodagi qadimgi madaniyatlar kabi rivojlanadi. Bepoyon dashtlarda esa chorvador qabilalarning o'ziga xos qadimgi san'at varianti (“dasht bronzasi”) yuzaga keladi. Ikkala san'at ham aniq belgilangan geografik

chegaralarga ega bo'lmagan va Markaziy Osiyo hududlaridan ham chetga chiqqan. «Bronza asri» san'atida tugallangan badiiy holat sifatida ilk katta usul shakllanadi.

Eramizdan avvalgi I-ming yillikning birinchi va ikkinchi qismlari – Markaziy Osiyoda ilk davlatlar va qadimiy shahar markazlari san'ati o'ziga zamondosh bo'lgan eron-ahamoniylar va sak-skif san'ati bilan muloqotda rivojlanadi. Markaziy Osiyo san'ati tarixidagi ikkinchi katta uslub paydo bo'la boshlaydi, u hozircha fanga ma'lum bo'lgan san'at yodgorliklarida namoyon bo'ladi.

Eramizdan avvalgi II-VI asrlar – Grek-Baqtriya, Parfiya va Xorazm antik san'atining rivojlanishi, mahalliy an'analarga (Baqtriya, Parfiya-Marg'iyona, Xorazm) tayanadi va mahalliy qadimiy asoslarda ingichka qatlam bo'lib qolgan va mahsuldor tuproq qatлами kabi keyingi bosqichda yaxshi meva berishni ta'minlagan Sharq ellinizmi ta'sirini his qiladi.

Eramizdan avvalgi I asr-eramizning III asri – Markaziy Osiyoda Kushon podsholigi va Arshakiylar sulolasi antik san'ati gullab-yashnagan davr. U bir nechta asosiy manbalar va tarkibiy qismlardan iborat: Sharqda baqtriya-so'g'd, qang' va ellinlashgan budda unsunlari, G'arbda sak-parfiya, Xorazm va Old Osiyo unsurlari. IV-V asrlar umumtarixiy kataklizmalar natijasida mahalliy san'at inqirozga uchragan.

VI-VIII asrlarda butun Markaziy Osiyo hududidagi ilk feodal xonliklar tizimida san'at yana yuksala boshladi. Uning ayrim lokal (mahalliy) maktablari Sosoniylar Eronning shimoliy viloyatlari va Xorazmdan to Yettisuv, Xakasiya va Shinjongacha cho'zilgan. Bu ilk O'rta asrlar san'ati O'rta Osiyoda mahalliy kech antik merosiga asoslangan bo'lib, Rim, Vizantiya va Hindiston ta'siri bilan murakkablashgan hamda Eron-sosoniylar va turk-dasht san'ati bilan birlashib ketgan. Qahramonlar haqidagi dostonlar, rivoyatlar, afsona va masallar uning asosini tashkil qilgan. Bu Markaziy Osiyo xalqlari san'atidagi to'rtinchi katta uslub sanaladi.

IX-XIII asrlar markazlashgan davlat-sultonliklar tizimida, mafkurasi eski budparastlik e'tiqodlaridan yagona islom dini tomon yo'naltirilgan O'rta asrlar Sharq feodal savdo-hunarmandchilik shaharlari yangi san'atining vujudga kelishi va rivojlanish davridir. Mahalliy antik an'analar butkul so'nadi. Folklor, geometrik va o'simliksimon arabeskalar usullari ustunlik qilgan bir qator yangi mahalliy-badiiy yo'nalishlar shakllanadi. Unga qarshi oqim sifatida xalifalikning boshqa viloyatlari san'ati keladi. Beshinchi katta uslub shakllanadi. U o'tmish ustidan g'alaba qozonib, butun Markaziy Osiyo san'atining yagona O'rta asr oqimida rivojlanishi uchun zamin hozirlaydi.

XIV-XV asrlar – yetuk O'rta asrlar san'ati davrining asosiy madaniy yutuqlaridan birini ifodalagan. Sharq va G'arbning bir qator boshqa badiiy yutuqlari orasida Markaziy Osiyo san'ati Temuriylar saltanati tizimida jahon ahamiyatiga ega bo'ladi. Me'morchilik, badiiy-amaliy san'at, hattotlik va miniatura musiqa va she'riyat bilan uyg'unlashib, yagona uslubiy birlashmaga aylanadi. Oltinchi katta uslub to'liq rivojlanadi.

XVI-XIX asrlar – o'zbek va tojik xalqlari yashovchi O'rta asr shaharlarida hunarmandchilik va san'at rivojlanishining oxirgi yirik bosqichi. U o'zbek, qozoq, qirg'iz, qoraqalpoq, turkman ko'chmanchi qabilalarining urug'-qabila san'ati bilan birgalikda moziydan qadimgi ko'chmanchilar san'ati ohangini yetkazgan.

Me'morchilik, haykaltaroshlik, devorga mussali bezaklar berish, amaliy san'at turlari Markaziy Osiyoda antik davrda (er.av.IV-er.IV asrlar) eng rivojlangan va keng tarqalgan san'at turlari hisoblanadi. Ilk O'rta asrlarda (V-X asrlar) rassomlik san'ati rivojlanishning yuqori cho'qqisiga chiqadi va vaqt o'tishi bilan so'nadi. Yetuk va kech O'rta asrlar davrida (XI-XVII asrlar) me'morchilik va amaliy san'at yangi shakllarda rivojlanib, qo'lyozma kitoblar (miniatura) ahamiyati ortadi, biroq shu vaqtning o'zida haykaltaroshlik va devor rassomchiligi deyarli yo'qolib ketadi.

Arxitektura bezagini arxitekturadan ajratib bo'lmaydi. Shu bilan birga u amaliy san'at turlariga, birinchi navbatda naqqoshlikka tayangan kitoblarni bezash san'ati arxitektura devori va arxitektura yaratgan ko'p asrlik an'analarni saqlab qolgan. Uning o'zi san'atning bunday turlarini hattotlikning rivojlanishi bilan boyitib kelgan. Hattotlik san'ati adabiyot, ayniqsa, she'riyatda qayd etilgan ajoyib fikrlash tarzi talablariga javob bergan. Hattotlik binolarni turli yozuvlar bilan bezagan ustalar mohirligini yaratgan. O'simliksimon va geometrik shakldagi murakkab naqshlar (arabeskalar) solish san'atini ham boshqa badiiy hunarlardan ajratib bo'lmaydi.

Butun tarix yoki uning ayrim bosqichlarini, janr va turlarini sharhlash ikkita narsaga – badiiy asarlar atributsiyasi (tayyorlash joyi, vaqti va usullari) va uning badiiy xislatlarini (davr g'oyalari va badiiy obrazlar rivojlanish maktabi, uslubi) aniqlashga asoslanadi.

San'at asarlari tahlili janr, obraz va uslubni sifat jihatining baholanishidan iborat bo'lib, bunda yodgorlikning tarixiy davri umumiy asos qilib olinadi.

1.2. Markaziy Osiyoda arxitektura bezagi

Osiyoda arxitektura bezagi sivilizatsiya o'choqlari endi shakllanayotgan davrda ilk arxitektura inshootlari bilan bir paytda paydo bo'lgan.

Arxitektura bezagi chuqur an'anaviy san'at bo'lib, u juda sekin shakllanadi va u bilan bog'liq bo'lgan arxitektura shakllari sahnadan chiqib ketgandan keyin ham yo'qolib ketmaydi. Faqat hayotiy so'rov va did-istaklarning izchillikda o'zgarishigina uni yangi materiallar, shakllar va usullarga moslashib olishga undaydi.

Har bir davr o'zining qurilish va bezak materiallariga ega bo'lgan. Antik Markaziy Osiyo uchun bu xomg'isht va paxsa, ba'zida – Baqtriyada tosh, Sharqiy Parfiyada sopol plitali qoplama bilan bo'lgan. Kech antik davr arxitektura bezagi naqsh uchun ganch mavjudligi bilan tavsiflanadi. Ilk O'rta asrlarda ilgari ma'lum bo'lgan barcha bezak turlari rivojlanadi. Loy, o'yma va quyma ganchning yupqa xislatlari, yog'och o'ymakorligidan foydalaniladi, biroq ko'p mehnat talab qiluvchi toshlar qo'llanilmaydi.

X asrda pishgan g'isht plitalari va yog'och o'ymakorligi tantana qilgan. XI-XIII asrlar uchun quyma bo'lmagan arxitektura keramikasi, juzzali pishgan g'ishtlar, o'yma kuydirilish muvaffaqiyat qozongan. Bu paytda, hattoki, dastlabki sirlangan namunalar ham uchragan. XIV-XV asrlar sirlangan sopol va bezakli yozuvlar rivojlanish cho'qqisiga chiqqan. XVI-XVII asrlarda bundan oldingi muvaffaqiyatlarga yakun yasaladi: ustalar o'simliksimon va geometrik shakldagi naqshlar paydo bo'lgan vaqtdan beri yaratilgan barcha bezak turlarini yana tanlab oladilar va sinab ko'radilar. Ular izlanadilar va yangi yechimlar topadilar, murakkab ishlarni soddalashtirish va arzonlashtirish vosita va usullarini izlaydilar.

Arxitektura bezagi rivojlanishining ushbu barcha bosqichlari qurilish va bezak materiallari, texnik va badiiy g'oya va obrazlar arxitekturaning umumiy, estetik yo'nalishi bilan ajralib turadi.

Bezak ilk bora Markaziy Osiyo qadimgi Sharq sivilizatsiyalari doirasiga kirgan paytda dastlabki davlat tuzilmalarida rivojlana boshlagan. Saroy va ibodatxona binolari gilam qoplamalaridan tashqari arxitektura naqshlari bilan ham bezalgan. O'sha paytda amaliy san'atdagi kabi bu yerda ham jussali kunguralar, palmettalar, nilufar gullari, keyinchalik Vavilon va qadimgi Eron arxitektura dekori motivlariga yaqin hayvonlar jussalari, muqaddas daraxtlar, osmon yoritgichlari va qadimiy dehqonchilik bilan bog'liq diniy marosimlar ramzlari tasviridan foydalanilgan.

Arxitektura bezak uslubini yog'och o'ymakorligi, quymakorlik va temirga ishlov berish texnikasi belgilab beradi. Mumtoz Sharq ta'siriga grifon kallasini quyish uchun mo'ljallangan gips qolip (Kalai-Girl), Persepol va Suz hashamatli shakllariga yaqin bo'lgan sfinks shaklidagi kapitel tosh bloki (Sultonuzdog') ishora qiladi.

Afsonaviy hayvonlar va ayrim odamlar, muqaddas daraxtlar, osmon yoritgichlari va ramzlar – Markaziy Osiyo arxitektura bezagi o'z motivlarini olgan qadimiy Sharq amaliy san'ati obrazlar to'plami ana shulardan iborat. Loy, gips, haykaltaroshlar ishlov beruvchi toshlar, daraxt tanalari bezakning barcha yupqa vositalarni o'ziga bo'ysundirgan aniq tektonikali yirik qisimli massalar hashamatli tuzilishini asoslab beradi.

Greklarning monarxiyalari va mahalliy ellinizm davrida (Grek-Baqtriya, Parfiya, Qang' qabilalar ittifoqi, qudratli Kushon podsholigi) bir qator arxitektura maktablari paydo bo'lib, rivojlana boshlagan. Shimoliy Baqtriya arxitekturasiga oldindan xomg'isht va paxsadan foydalanish, asosiy zal yoki hovlini o'rab turuvchi yo'laksimon tor xonalar tizimi, to'sinli-ustunli va gumbazsimon tomlar xos bo'lgan. Antablementa va qator ustunlar qurilishida o'ziga xos Grek-Baqtriya nishoni ishlab chiqilgan. Budparastlar ibodatxonalarini, monastirlar (vixara) sag'analari, g'or va tog' o'ngirlarida antik Baqtriyaning hind shakllariga yaqinligi ko'zga tashlanadi. Ushbu arxitekturani ustunlar, arkaturalar, haykaltaroshlik qismlari bilan boyitish ellinlar obrazlarini antik Sharq va budparastlik estetikasi ruhida qayta fikrlashni ifodalaydi. Xomg'ishtdan ko'tarilgan devorlarga tosh va kuydirilgan plitalar qoplangan. Gorelyef va ohaktoshdan yasalgan, ingichka qilib suvalgan va rang berilgan yumaloq haykallar keng qo'llanilgan.

Yunon uslubida ilohiy obrazlariga xos sahnalar, simvol va qismlar paydo bo'la boshlaydi. Shu bilan bir paytda, Grek va Rim namunalariga yaqin bo'lgan ustun va vertikal mustahkamlagichlar, turli kesmalar (valiklar, skotsiyalar) qo'llangan. Kushonlar davrida Hindistondan keltirilgan bezaklarga mahalliy bo'lib qolgan.

Eramizning birinchi asrlarida Shimoliy Baqtriya arxitektura bezagi, ayniqsa, tosh ustun yuqorisida yaxshi aks etgan. Shahrinav ko'hna shahri ustunlarining birida mumtoz antik davrga xos bo'lgan burchak valyutasi o'rnida burma shoxli to'rtta qanotli sher-grifonlar joylashgan. Akantning ikkinchi qavatida ikkita erkak va ayol mussasi bo'lgan. Boshqa ustun yuqorisida yirik akant yaproqlari orasida to'rtta grifonni ko'rish mumkin. Ular oldinga tashlangan bo'lib, oldingi oyoqlari ko'tarilgan, qanotlari esa orqaga qaratilgan. Akant yaproqli egiluvchan. Shahrinav ustunlari

Pokiston (Jamalgari, Butkara) va Afg'oniston (Xadda) topilmalari bo'yicha ma'lum bo'lgan ustunlarga jo'r bo'ladi. Ellinlar dunyosidan kirib kelgan ionik, korinf va zarhal bezalgan ustunlar ba'zida akant yaproqlari va valyuta orasida inson tanasi yoki boshi bilan bo'lib, yetuk, rivojlangan arxitektura dekori manbalaridan biri sifatida Old Osiyoga e'tiborni qaratadi.

Dalvarzintepadagi (II-III asrlar) budparastlar ibodatxonasida alebastr qoplamali loydan yasalgan haykalga oid bezakda obrazlarning nazokatligi, shakl va qismlar o'yiniga qiziqishning ortishi seziladi.

Keyingi davrga xos budparastlik san'ati yodgorliklari – Qoratepa g'or (II-IV asrlar) va Ajintepa (VII-VIII asrlar) budparastlik ibodatxonalar arxitektura bezagi bir qator muqaddas obrazlarning mustahkamligidan dalolat beradi. Shu bilan bir paytda bu yodgorliklar arxitektura bezaklarida yangi motivlarning paydo bo'lishi kuzatiladi.

Dunyoviy san'at budparastlar san'ati bilan yonma-yon rivojlangan. Bu san'atning eng yorqin namunasi saroylar ("sulola") san'ati edi. Xolchayan ko'hna shahridagi saroy Kushon podsholigi davridagi bunday san'atning eng ahamiyatli namunasi hisoblanadi. Unda haykaltaroshlik, devorga yopishtirilgan bezak va naqshlar, devor rassomchiligi uyg'unlashib ketgan.

Parfiyadagi Nisa arxitektura bezagi butun arxitektura uslubiga javob beruvchi devorlarning tashqi tomonlariga ishlov berishning yakunlangan tizimini bergan. Sharqiy Parfiya orasidagi yo'laklar bo'lgan to'sinli tomlar bilan birgalikda kesimli gumbazlar, chodirsimon to'sinlar tizimi, g'ishtin yumaloq va ko'p qatlamli ustunlar, yog'och ustunlar qo'llanilgan.

Ichki devor rassomchiligida, turli rangga bo'yalgan loy yoki alebastr naqshlar, devorga ishlangan haykallar qo'llanilgan. Naqshlar, manzarali rasmlar va haykallarning ko'p qismi ramziy ma'noga ega bo'lgan hayvonlar tasviri bilan uyg'unlashib ketgan.

Qadimiy Xorazm qadimiy Sharq me'morchiligining o'ziga xos variantini taqdim etgan. Katta uylarning paxsa poydevor ustiga qurilgan teshik-telugi yo'q mustahkam devorlari kunguralar va tor shinaklar bilan qismlarga bo'lingan, ularga eramizning birinchi asrlarida devorlari haykallar bilan bezatilgan saroy va ibodatxonalar jo'r bo'ladi. Ayniqsa, Tuproq qal'a (II-III asrlar) kabi saroylar ichki katta qiziqish uyg'otadi. Ularda hashamatli loy haykallar va rasmlar bilan birga devorga ishlangan bezak va naqshlar ko'p bo'lib, ular kesishuvchan sariq-qora rangli chiziqlardan yasalgan romb shaklida bo'lgan, yurakchalar, rozetkalar va akant yaproqlari bilan bezalgan. Akant yaproqlarida romb ichidagi musiqachilar jussalari, yashil, to'q sariq va qizil rangga bo'yalgan meva va bargli girlyandalar, uchi shox kabi qayrilgan xochlar, yurakchalar, gulbarglar, g'unchalar devorlardan haykalchalarga ham o'tgan.

Bularning barchasi chopib ketayotgan meandr va yirik aylanmalar yoki qo'chqor shoxlari bilan uyg'unlashadi. O'simliksimon naqshlar yo'lbars, ot va qushlar tasviriga mos tushadi; nilufar guli, akant, naqsh jimjimasi aylanmasi, valyuta (ionik spiral turi), polimorf mavjudotlar (grifon, gippokamp-ot-ajdarho), niqoblar, maskaronlar, turli murakkablikdagi jussali tuzilishlar, ko'pincha silenlar, menadalar hamda mahalliy va yunon pateoni ilohlari namunalari bilan uyg'unlashib ketgan.

Qadimiy Xorazmning arxitektura bezagi mohiyati shundan iboratki, qadimiy sharq san'atining "afsonaviy realizmi" suloladagi ajdodlarni ilohiylashtirish bilan uzviy bog'liq; u qadimgi Xorazm muhitida sak-massaget va yunon merosi ta'sirini mustaqil ravishda yo'qqa chiqargan; devorga ishlangan bezaklar, naqshlar va haykallar shakli, umuman olganda, hashamatli ko'rinishga ega. Bularning barchasi qadimiy Xorazm arxitektura bezagini uyg'unlashib ketishiga sabab bo'lgan.

V-VIII asrlarda (kech antik-ilk O'rta asrlar) yangicha arxitektura paydo bo'ldi: yangicha joylashuv tamoyillari asosida qurilgan feodallar qasrlari, qal'alar, boy shahar va qishloq saroylari, uylar, gumbazsimon tizimlar va bezak usullarining boyitilishi kuzatildi. Paxsa poydevor ustiga qurilgan ko'shklar devori nova-nova bo'lib, kesik piramida asosi ustida bosh ko'tarib turganday bo'ladi. Ko'shklar tor xochsimon yo'lakning ikki tomoni bo'ylab ikki-uch qavatda joylashgan gumbazsimon xonalar yoki gumbazli zalni o'rab turuvchi xonalarni qamrab olgan. Faqat quydirma bo'laklar va kungura shaklidagi plitalar ko'shkning tashqi bezaklarini tashkil qilgan, asosiy bezaklar esa binoning ichida bo'lgan. Yalang'och devorlarga matolar yoyilgan, saroylarda yog'och va ganch o'ymakorligidan foydalanilgan. Rassomchilik, o'ymakorlik, naqqoshlik, arxitektura qismlari o'zaro mos tushuvchi motiv va mavzular tizimini tashkil qilgan. San'atning sintezi mukammal nuqtaga yetgan.

Bezak uslubi xuddi arxitektura uslubi, devor rassomchiligi va haykaltaroshlik kabi keskin o'zgargan. Umuman olganda, bu davr san'atining barcha shakllari uchun umumiy bo'lgan katta uslub edi. Biz buni barcha san'at turlarining VI-VIII asrlarda Markaziy Osiyo san'atining asosida yotuvchi qahramonlar haqidagi dostonlar, afsona va rivoyatlar, masallarga bog'liqligi sababli "qahramonlar uslubi" deb atagan bo'lar edik. Shu bilan bir paytda, ushbu san'at uslubini harbiylar orzulari chulg'ab olgan. Eron-sosoniylari va turk-dasht san'ati bilan bog'liq barcha san'at turlari plastikani yassi bezakka bo'ysundiradi va shu tariqa kelgusi davrda naqshlarning to'liq ustun bo'lishi uchun zamin yaratadi. Bu narsa bezashga ham taalluqli.

V-VIII asrlarda Markaziy Osiyo me'morchiligi Kushon davrining antik meroslariga yakun yasab, Markaziy Osiyoning Sosoniylar Eroni, Vizantiya, Hindiston va Xitoy bilan yana vujudga kela boshlagan aloqalarini aks ettiradi. Ular tufayli Janubning eski dehqonchilikka oid madaniyati Sirdaryo, Talas, Yettisuv madaniyati hamda Janubiy Sibir va tog'li Oltoy ko'chmanchilar san'ati bilan bevosita aloqa qila boshladi.

Suriya, Mesopatamiya, Vizantiya va Uzoq Sharq ustalarining usuli aralashuvi Buyuk Ipak yo'lidan o'tuvchi hududda joylashgan mamlakatning xo'jalik va siyosiy hayoti sharoitlariga javob bergan va natijada bir qator ajoyib hashamatli yodgorliklar paydo bo'lgan.

Ushbu davrning eng yaxshi hashamatli bezak san'at namunalari qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin: Bolalik tepadagi devorga ishlangan rasmlar; Yumaloqt tepadagi yog'och va ganch o'ymakorligi (ikkala yodgorlik V-VI asrlarga taalluqli bo'lib, O'zbekiston janubida joylashgan); Buxoro yaqinidagi V-VII asrlarga oid Varaxsha saroy majmuasidagi naqshinkor ganch va bezaklar. So'g'd san'atining eng yorqin namunalari – Afrosiyobdagi Samarqand hukmdorlari saroyidagi bezaklar; Panjikentdagi ibodatxona, saroy, turar-joy va V-VIII asrlarga oid boshqa binolar;

Shahristondagi Ustrushona hukmdorlari saroyidagi yog'och o'ymakorligi va naqshlarni kiritish mumkin. Varaxsha va Samarqand devor bezaklarida sujetli rasmlar yetakchi rol o'ynaydi, chunki u shu davrning arxitektura bezagiga xos unsurlariga boy bo'lib, bu motivlarni So'g'ddagi arxitektura, tasviriy va amaliy san'atning umumiy boyligi deb tan olmaslik mumkin emas. Xuddi shu gapni Varaxshadagi haykallar yoki Yumaloqtepa, Panjikent va Ustrushonadagi yog'och o'ymakorligi haqida ham aytish mumkin. To'qimachilik mahsulotlari (mashhur So'g'd matolari) davrning badiiy metall va arxitektura bezagi motiv manbalaridan biri bo'lgan.

Xushmanzara effekt va grafik ifodalangan ritm izlanishlari sujetning o'zi, tikilgan kiyimlar va matolarning naqshlarga boyligi, maishiy hayotda zargarlik buyumlarining keng qo'llanishi, saroy ahli hayoti va marosimlarining dabdabaliligi bilan motivlanadi.

VIII-IX asrlarda Markaziy Osiyo arab xalifaligi hukmronligi ostida bo'ldi. Xalifalik qo'shinlari shaharlarni talab, "iloh"larni yoqib yubordilar, sujetli tasvirlarni yo'q qildilar (ular islomga qarshi fikrlashning namoyon bo'lishi sifatida taqiqlangan). Biroq IX-X asrga kelib, xalifalik ancha kuchsizlanib qoldi. Qurilish san'ati muvaffaqiyatlari butun Markaziy Osiyoda shaharsozlik va me'morchilikda to'ntarish qilib yubordi hamda arxitektura bezagining gullab-yashnashiga sabab bo'ldi. Xomg'ishtdan pishgan g'ishtlarga o'tish va uning asosida gumbazsimon va ravoqsimon tuzilishini ishlab chiqish, g'isht terish texnikasini mohirona egallab olishni talab qilardi. G'ishtni juzzali qilib terish san'atga aylandi, unda aniq hisob-kitob amaliy matematika va geometriya asoslarini bilish, chamalab o'lchash, did esa proporsiya sohasidagi geometrik bilimlar va amaliy ko'nikmalar bilan uyg'unlashgan.

Pishgan g'ishtni bo'rttirib qilib, ikki yoki uchta plitkadan orasini ochiq qilib yoki almashlab terish, kunguralardan foydalanish devorlarga aniqlik baxsh etgan. Yorug'lik va soya o'yini maqsadga muvofiqlik va go'zallik taassurotini uyg'otadi, arralangan va silliqlangan bruschalarda esa arxitektura qismlariga naqshinkor rang-baranglik hadya etadi.

Ushbu davrning arxitektura bezagi sifatidagi eng yaxshi yodgorliklari – Buxorodagi Somoniylar maqbarasi (IX-X asrlar), Arab ota maqbarasi (X asr, Samarqand viloyati Tim qishlog'i) So'g'd me'morchiligi davrini yakunlab, gullab-yashnashi oldinda bo'lgan yangicha bezak xususiyatiga umr beradi.

IX-X asrlar arxitektura bezagi ikkita asosiy yo'nalishga ega bo'lgan. Ulardan birini "umumxalifa" yo'nalishi deb atash mumkin bo'lsa, ikkinchisi mahalliy an'analarga asoslanadi. Birinchi yo'nalish xalifalikning yirik markazlari – Damashq, Samarra (Bag'dod yaqinida), Fustat (Qohira) va Suriya cho'llarida joylashgan saroy va qasrlarda namoyon bo'lgan arxitektura g'oyalari, bezak motivlari va shakllari, vositalari va usullarini ifodalagan. Somoniylar davridagi Samarqand va Buxoro, Mamuniylar davridagi Xorazm arxitekturasi ham shu yo'nalishni tanlagan.

Arxitektura bezagi sohasida umumxalifalik uslubi ko'proq yog'och o'ymakorligida kuzatiladi. Unda manbasi bo'yicha turlicha (arab, fors, Markaziy Osiyo) bo'lgan, biroq nimasi bilandir bir-biriga yaqin shakllar birlashadi. Buni ularning barchasi antik Sharq merosiga borib taqalishi hamda butun O'rta va Old Sharq uchun umumiy bo'lgan muvofiqlashgan tizimga ehtiyoj topganligi bilan izohlash mumkin. O'rta Sharqda til, etnik va davlat farqlariga qaramay, amaliy

xususiyatli fanlarga moyillik sezilgan. Qurilish san'ati universal bilimlarni talab qilgan. Xalifalik mamlakatlari arxitektura bezagi o'tmishdagi budparastlik obrazlaridan voz kechgan, geometrik va o'simliksimon naqshlar uning asosini tashkil qilgan.

Yangi qurilish texnikasi va texnologiyasi butun arxitekturadagi yangicha estetik yo'nalish kabi Markaziy Osiyoda Sosoniylar davri arxitektura bezagi uslubini yangi va ilg'or holat sifatida belgiladi.

IX-X asrlarda butun O'rta Osiyo hududida arxitektura bezagi umumiy xalifalik uslubining ta'siri qanchalik katta bo'lmasin, uning haqiqiyliigi va go'zalligi, avvalo, mahalliy an'analarga, ularning badiiy g'oya va shakllariga asoslangan.

IX-X asrlarga oid arxitektura bezagining mumtoz namunalari qatoriga Janubiy Turkmanistonning Mashhadda joylashgan Sher-Kabir masjid-maqbarasidagi ganch o'ymakorligi, Tojikistondagi Iskandar yog'ochli o'ymakor mehrob (X asr), Zarafshon daryosi yuqori oqimidagi tog'li hududlar (Chor-Ko'h) yog'och o'ymakorligi; O'zbekistonning Samarqand shahridagi Somoniylar saroyi (IX-X asrlar) va shu shaharda joylashgan gumbazli zaldagi ganch o'ymakorligini kiritish mumkin.

IX-X asrlarda Movarounnahrda arxitektura bezagiga an'analarning ta'siri juda katta va mahsuldor bo'lgan. Shu bilan birga, ayniqsa, shaharlarda yangicha badiiy g'oyalarni joriy etish faollik bilan olib borilgan.

XI asr XIII asr boshlarida, umuman, feodal Sharq, jumladan Markaziy Osiyodagi qurilish va me'morchilik yuksalish cho'qqisiga chiqqan. Mahalliy va umumxalifalik uslublari o'rniga paydo bo'lgan yangicha uslub eski uslublarni "yo'qotadi" hamda o'zining tugallangan o'simliksimon va geometrik naqshlar tizimini ilgari suradi. Ushbu tizimning mohiyati naqshlarning matematik qoidalarga qat'iy rioya qilishi va bezak ishlari texnikasining ajoyib tarzda ishlab chiqilishidan iborat.

Har bir muayyan mavzu uchun umumiy shakllar zaxirasidan olingan o'ziga xos motivlarni qayta ishlash usullari belgilanadi. Naqshlar nazariyasi fanga, ularni bajarish esa san'atga aylanadi. Yangi yo'nalish o'simliksimon va geometrik naqshlar, jussalar va medalyonlar ("islimi", "girix", "madoxil", "turunj") tuzish tamoyillariga asoslanadi.

XI-XIII asrlarga oid yodgorliklar orasida quyidagilar rasm solish va g'isht terish texnikasining mukammalligi bilan ajralib turadi: Janubiy Turkmanistonda Mestorian minorasi (1002), Marv vohasi maqbaralari (ayniqsa, Muhammad ibn Zayd maqbarasi, XI asr), Alamberdor maqbarasi (XI asr), Doya-Xotin karvonsaroyi (XI asr), Talxatan-bobo masjidi (XII asr), Qirg'izistonda Bo'ron minorasi (X-XI asrlar) va O'zgan minorasi (XI asr). Xulbuka saroyi (XI asr), Janubiy Qirg'izistondagi Safit Bulenda qishlog'ida joylashgan Shoh Fozil maqbarasi (XI asr), Termiz hukmdorlari saroyi (XII asr), Hakim At-Termiziy maqbarasi (XII asr) va Marvdagi Sanjar maqbarasi (XII asr) shu davrning yuqori sifatli o'ymakorlik namunalari bilan mashhur.

XI-XII asrlarga oid Zarafshon daryosi yuqori oqimidagi tog'li hududlarda (qurut, Fatmav, Urmitan) saqlanib qolgan ustunlar, Samarqanddagi Shohizinda dastlabki inshootlarida topilgan o'yma friz va Xivadagi Jome masjidi ajoyib o'yma ustunlari yog'och o'ymakorligi durdonalariga misol bo'la oladi.

XI-XII asrlarga tegishli shtuk o'ymakorligi va g'ishtning uyg'unlashuviga asoslanuvchi arxitektura bezagining ajoyib namunalari qatoriga Buxorodagi Minori Kalon, O'zgan, Vobkent va Jarqo'rg'on minoralari, O'zgan va Oyshabibi maqbarasi (Janubiy Qozog'iston, Golovachevskoe qishlog'i), Buxorodagi Namozgoh va Magoki Attroiyni kiritish mumkin.

Ganch o'ymakorligida jussali g'isht terishga taqlid qilishni Roboti Malik (Samarqand va Buxoro o'rtasidagi cho'l, XI-XII asrlar) karvonsaroyining peshtoq qismi va Yarti-Gumbaz mavzoleyida (Saraxs, XI asr) kuzatish mumkin.

X-XIII asrlarda figurali g'isht terishning rivojlanishi shunga olib keldiki, choklarni birlashtirish – ilk vazifa – devorlarga, asosan, bezak sifatida qo'llanuvchi g'ishtli mozaikaga aylanib ketdi. Arralangan, silliqlangan, yo'nilgan g'ishtlar turli tuzilishidan foydalanilgan. G'isht yozuvlari (epigrafika) va g'isht naqshlarini shtuk o'ymakorligi to'ldirib turadi. Binolarning old tomonlarida ob-havo injiqliklariga chidamli sopol qoplamalar qo'llanilgan. XI asrga kelib, g'ishtning mustahkamligi bilan shtuk plastikligini uyg'unlashtiruvchi o'yma kuydirilish paydo bo'ladi.

Termiz hukmdorlari saroyidagi (XII asr) shtuk o'ymakorligida uning ravoqlarini bezab turuvchi "yulduzsimon grifon"larni va yagona boshga ega bo'lgan ikkita arslonning afsonaviy tasvirini ko'rish mumkin edi. Bu yerda geraldikaga moyillik seziladi, shuningdek, tanish obrazlarni geometrik va o'simliksimon shakllarda ifodalash, islomda saqlanib qolgan yulduzlarni mahalliy an'analarda ishlab chiqilgan samoviy unsurlari bilan uyg'unlashtirishga intilish kuzatiladi. Biroq bunday tuzilish XII asr devor bezaklarida tobora kam uchraydi.

Yangicha uslub badiiy ijodning barcha turlariga, jumladan arxitektura, tasviriy va amaliy san'atga tarqaldi. U badiiy adabiyot, she'riyat va musiqadagi o'xshash holatlarni birlashtirdi. Kuydirish, shtuk va yog'och o'ymakorligi XI-XII asrlarda bir xil badiiy usul va shakllardan foydalangan bo'lib, yagona uslubni hosil qilgan. Ularga xos bo'lgan naqshlarning qonuniyatlari ritmlarda musiqaviylik baxsh etadi. Bu holatlarning universalligini shu bilan izohlash mumkinki, ular yangi paydo bo'lgan va jadal sur'atlarda rivojlanayotgan sharqdagi feodal savdo va hunarmandchilik shaharlari manfaatlariga javob bergan hamda yangi uslubning rivojlanishi islom qoidalari bo'yicha belgilangan yagona yo'nalishda amalga oshirilgan.

To'g'ri, muqobil oqimlar, ayniqsa, so'fizm, shuningdek, turli mazhablar (sunnilik, shialar) arxitektura va tasviriy san'atning umumiy xususiyatiga o'z ta'sirini ko'rsatgan. Umumiy g'oyaning mohiyati antik davrda shakllangan va jamiyat manfaatlariga yo'naltirilgan morfologik tuzilma va shakllar (arxitektura turlari, ustunlar plastikasi, proporsiyasi va miqyosi, ustunlar, pilyastrlar, profillar, naqshlarda aks ettirilgan butun hayvonot va o'simlik dunyosi) uloqtirib tashlangan. Ularning o'rmini yangi turdagi binolarning jamoatchilik vazifalari belgilab bergan shakllar egallagan (markaziy-gumbazsimon, saroy, ko'p ustunli va murakkab tarkibli tuzilishlar).

IX-X asrlarda keng qo'llanilgan qurilish materiallari keng oraliqli gumbazli tomlar va shundan kelib chiqqan holda boshqacha joylashuviga ega yechimlari uchun ko'proq imkoniyatlar ochib berdi. Ularning asosida yangi usuldagi masjid va madrasalar, saroylar, shahar va yo'l karvonsaroylari, ombor binolari, rabotlar paydo

bo'ldi. Bu arxitektura Ispaniyadan to Shinjongacha bo'lgan barcha hududlarni qamrab olgan.

Markaziy Osiyodagi mo'g'ullar bosqiniga bo'lgan davrdagi arxitektura g'oyalari va bezak tamoyillari mohiyatini quyidagicha ifodalash mumkin: qismlar nozik va nafis bo'lgan holda hajm va vaznning qisqa va soddaligi; me'morchilik xislatlarini ochib beruvchi qoplamalarning takomillashuvi; hosilalar tizimida yassi va egri sirtlarning tashkil qilinishi; haykaltaroshlik harakatini shakl va yassi bezaklar tomon o'zgarishi; bo'rtma g'ishtdan to yassi ingichka geometrik shakllar va panjaralarning ajoyib tarzda ishlab chiqilishi; o'q va to'rlarda to'lqinsimon novdalar va aylanma egri chiziqlarning uyg'unlashuvi; ustalarning yuqori malakali tajribasidir.

Temurgacha bo'lgan davr (XIII asrning o'rtalari – XIV asrning 70-yillari), Temur tomonidan fath etilgan yerlardan ustalarning poytaxt Samarqand va boshqa tayanch shaharlarga ko'chirib kelinishi (XIV asrning 70-yillari – XV asr boshlari) va Temuriylar davrida arxitektura va san'atning rivojlanishini me'morchilik va arxitektura bezagi rivojlanishining turli hodisalarga boy bo'lgan asosiy bosqichlari sifatida ko'rsatish mumkin.

Bu bosqichlarning dastlabkisida XI-XIII asrlar arxitektura bezagi to'liq, xuddi uning rivojlanishida orada uzilish bo'lmaganday tiklandi. Bu, ayniqsa, Shimoliy Turkiston va tog'li hududlar yodgorliklari uchun xosdir (quyma bo'lmagan ajoyib naqshinkor quyma qoplamalari Panjkentdagi Xo'ja Muhammad Bosharo maqbarasini, Shimoliy Qirg'izistondagi Manas maqbarasi va Qoraqalpog'istondagi Narinjonbobo sag'anasi).

XIV asrning birinchi yarmida Markaziy Osiyo arxitekturasida quyma, o'yma va yo'nma quydirish usullari yetiladi, buning ortidan silikat asosidagi mozaika va gul solingan mayolika texnikasi rivojlanadi. Koshin massali jilosiz g'ishtlar va rangli shaffof sirlangan va shaffof bo'lmagan, emal qoplangan kichik g'ishtlar ommalashgan. Sopoldan yasalgan hosilalarga ham sir qoplangan. Arxitektura-bezak ishlari uchun sopol ishlab chiqaruvchi butun bir sanoat yuzaga keladi. Mahsulot turlari va ishlab chiqarish usullari bo'yicha mahalliy arxitektura bezagi ustalari maktablari (Buxoro, Samarqand, Qashqadaryo, Xorazm maktablari) shakllanadi.

Mahalliy ustalar sulolasi tomonidan XIV asrga oid Xorazm mayolikasi (Najmiddin Kubro, Oloviddin va Muzlumxon Suluv sag'analari), Buyonqulixon maqbarasi va Samarqanddagi Shohizinda majmuasi maqbaralarida quyma quydirmalar bajarilgan. XIV asrning 70-yillarida Temur tomonidan amalga oshirilgan qurilishlarda minglab chetdan keltirilgan ustalar mehnat qilgan. Urganch, Isfahon, Tabriz va Sherozlik ustalar bilan yonma-yon Samarqandda Buxoro va Qashqadaryolik (Nasaf shahri) ustalar ham mehnat qilgan va o'z nomlarini naqshinkor qoplamalarga yozib qoldirgan. Bu yerda ilk bora rangli koshinlar g'ishtin naqshlar bilan uyg'unlikda keng qo'llana boshlagan.

Yig'ma mozaika ilgari ham, asosan, Eron va Ozarbayjonda ma'lum bo'lgan. Markaziy Osiyoda, dastlab u Xorazmda, so'ngra Movarounnahming boshqa shaharlarida paydo bo'ldi. Uning eng yaxshi namunalari Ko'hna Urganchdagi To'rabek-Xonim maqbarasi, Shahrisabzdagi mashhur Oqsaroy va Temuriylar davriga taalluqli Samarqand yodgorliklarida saqlanib qolgan.

Mahalliy va kelgindi ustalar hamkorligi natijasida XIV asrning oxiriga kelib, yangicha badiiy maktab shakllanib ulgurdi. Davrning eng yaxshi durdonalari Go'ri Amir maqbarasi, Bibixonim masjidi, Shohizinda majmuasiga bir qator maqbaralar san'at badiiyligiga intilgan holda yaratilgan. Ularning bezaklari uchun qoplamalardan tashqari devorga bajarilgan naqsh va bezaklar, badiiy mato samarasini beruvchi ko'k fondagi gul va medalyonlar shaklidagi tilla suvi yugurtirilgan yelim-gips qismlaridan foydalanilgan.

XV asrda Samarqand, Hirot va boshqa shaharlarda, jumladan Markaziy Osiyo hududlaridan tashqarida me'morchilik va arxitektura bezagi rivojlanishida katta sakrash ro'y berdi. Bu paytda o'yma marmardan foydalanish, uni ko'k bo'yoq va tilla bilan ba'zida koshin va mayolika plitalarini bezash, oq fonda ko'k rangda bajarilgan rasmlar (manzaralar tasviri) va ko'ndala texnikasi keng rivojlandi. Bularning barchasi ilgari shakllanib ulgurgan an'analar ruhida bo'lsa-da, biroq o'ziga xos tarzda, ilgari ma'lum bo'lgan namunalariga taqlid qilmagan holda bajarilgan.

XIV-XVIII asrlar mobaynida yog'och va tosh o'ymakorligi dekoratsiya maqsadlarida juda keng qo'llangan. Bu paytda o'ymakorlik uslublari tosh va yog'och uchun bir-biriga juda yaqin bo'lgan. Buni arxitektura va amaliy san'at xususiyatini umumiyliigi bilan izohlash mumkin bo'lib, unda badiiy xattotlik, geometrik va o'simliksimon naqshlar qo'llangan. Sayfiddin Boxarziy sag'anasi (XIV asr) va Go'ri Amir maqbarasi darvozalari yog'och o'ymakorligi durdonalari namunasi bo'la oladi.

O'zbek xonliklari davrida (XVI-XVII asrlar) arxitektura bezagi, ayniqsa, Buxoro va Samarqandda avvalgi yo'l bilan rivojlandi. Bu yerda, ayniqsa, ichki qismlarni naqsh bilan bezash, devor va gumbazlarda yig'ma plitali g'isht qoplama usullari takomillashadi va rangi shtuk (qirma, chaspak) keng qo'llanadi, g'ishtli naqshinkor gumbazlar keng rivojlanadi.

Buxorodagi Abdulazizxon madrasasi (XVII asr) bezakli me'morchilik san'ati cho'qqiga chiqqan davrda qurilgan eng oxirgi gumbazli bino. Madrasa turli xil eski va yangi usullarning birlashib, yaxlit bir usul paydo bo'lishini ifodalaydi. Garchi bu paytga kelib, mahorat pasayishni boshlagan bo'lishiga qaramay, xalq ustalari an'anaviy ko'nikmalarni saqlab qolganlar.

Umumlashtirgan holda aytish mumkinki, Markaziy Osiyo arxitektura bezagi so'nggi ming yillikda tadrijiy rivojlanishni boshidan kechirdi. Markaziy Osiyoning janubiy viloyati (Shimoliy Xuroson, Tohariston, Qashqadaryo, Buxoro, Samarqand, Toshkent, Farg'ona, Xorazm va Turkmanistonning shimoliy viloyatlari) ustalari maktabi o'z davrining arxitekturasi rang-barang bo'lishiga xizmat qilib, arxitektura bezagi mahalliy an'analari, o'ziga xos xislat va jihatlarini yaratdilar. Uzoq vaqt davomida milliy arxitektura bezagi an'analari va ustalar tomonidan to'plangan ko'p asrlik tajribalarga amal qilib kelgan.

Markaziy Osiyo arxitektura bezagining ahamiyati juda katta. U arxitekturaning bir qismi bo'lgan, me'morlar asarlaridan tashqarida bo'la olmagan. O'ymakorlar yoki sopol ustalari mehnati qurilish san'atining bir qismi bo'lgan, xolos. Arxitektura bezagi, me'morchilik va amaliy san'at ustalariga badiiy fikrlashning birligi, uslubni his qilishning o'tkirligi xos bo'lgan⁹.

⁹ Массон М.Е. На среднѣазиатских трассах Великого шѣлкового пути. Сборник статей. – Т.: 1990. -93 с.

Qadimiy Sharq va O'rta asrlar badiiy merosida ijodkorlikning aynan shu jihatlari biz uchun alohida joziba va ko'rkamligini saqlab qolgan. Ular zamondoshlarni badiiy g'oya va uni amalga oshirishning birligi his etiluvchi badiiy ijodning mukammalligi bilan hayratga solib turadi.

1.3. Markaziy Osiyoda haykaltaroshlik va koroplastika sopolchilik

Markaziy Osiyo haykaltaroshligi. Bu ibora bundan bir necha o'n yil ilgari biron-bir ma'no bermasligi mumkin edi. Muzey kolleksiyalarida o'sha paytlardayoq Samarqandda topilgan bir nechta kichik quyma haykalchalar bo'lsa-da, biroq ular haykaltaroshlikdan ko'ra badiiy hunarmandchilik bilan san'atga ko'ra diniy marosimlar bilan bog'liq deb hisoblangan. Markaziy Osiyodagi ko'hna shahar xarobalarida yirik haykallar topilmaganligi sababli bu yerda umuman haykaltaroshlik rivoj topmagan degan xulosaga kelingan. Bu yo'nalishning to'g'riligiga Eski Termizda topilgan haykal bo'laklari va Ayritom frizining ochilishi shubha solganday bo'ldi, biroq budparastlik bilan aloqa va Shimoli g'arbiy Hindistonning Gandxar maktabiga stilistik jihatdan yaqinlik bu haykallarning yaratilishida budparastlik haykallari va sujetlari yasashda suyagi qotgan, budparastlikni shimoliy yerlarga tarqatish uchun kelgan chet ellik ustalar ishtirok etgan degan fikr uyg'otgan.

Ikkinchi jahon urushidan so'ng Markaziy Osiyo respublikalarida boshlab yuborilgan arxeologik tadqiqotlar vujudga kelgan tushunchalarni tamomila o'zgartirib yubordi. Bir paytlar saroylar va ibodatxonalarini bezab turgan hashamatli haykaltaroshlik asarlari birin-ketin, deyarli barcha ko'rinishlar bilan paydo bo'la boshladi. Oddiy gil, qisman gips qadimgi haykal va gorelyeflarning asosiy materiali aynan shular bo'lib, ularning umri qisqaligi tabiatning vayron qiluvchi kuchlari va odamlarning bosqinchiligiga qarshilik ko'rsata olmasdi.

Bu haykal rang-barangligi va badiiy jihatdan o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Xuddi shu yillarda Markaziy Osiyo sopolchilik mahsulotlari tarkibi ham o'zgargan bo'lib, ular Samarqanddan tashqari So'g'd va Xorazm, Baqtriya va Marg'iyonada topilgan.

Yaqinda kashf etilgan toshdan yasalgan haykalning bosh qismi (Mirshod, Janubiy O'zbekiston) eramizdan avvalgi 2-ming yillikka, bronza asriga tegishli bo'lib chiqdi. Garchi bevosita unga o'xshash haykallar uchramasa-da, Mesopotamiya va Moxanjaro obrazlarini esga soladi. Nimaga mo'ljallanganligi noaniq bo'lgan kichik bir tosh buyum eramizdan avvalgi 1-ming yillikning uchinchi qismiga tegishli skiflarning "jonivorlar uslubi" an'analari bilan bog'liq. Uning shakllari bir xil holga keltirilgan echki halqa bo'lib o'rab turganday bo'ladi, bu hayvon timsoli skif-sarmatlar dunyosi umumiy hududida keng tarqalgan edi.

Hozircha ahamoniylar, makedonlar va salavqiylar hukmronligi davri (eramizdan avvalgi VI-III asrlar) haykallari e'tibordan chetda qolib kelmoqda. Sultonuzdog' (Xorazm) tog'larida topilgan oq toshli kapitel va ustunlar bo'laklari tadqiqotchilar uchun ilk signal vazifasini bajaradi. Ustunlar bezalishi haykaltaroshlikning rivojlanganligidan dalolat beradi. Uning katta hajmli to'rtburchak abakasi ikkita bir-biriga tutashgan, har xil tomonga qaratilgan yarim jussalar ustida joylashgan. Bu jussalar oyoqlari qayrilib, abakani o'rab olgan, soqolli kishilar kallali hayvonlar bo'lib, ulardan bittasi saqlanib qolgan. Uning yuzi

ehtirossiz, chiroyli va cho'qqisoqolli bo'lib, peshona tepasidagi yassi bosh kiyimi va bog'ichdan yuziga qarab qo'chqor shoxlari buralib tushgan.

Ustun qadimgi Sharq san'ati qadimgi Misr sfinkslaridan to ossuriya-vavilon afsonalaridan olingan ahamoniylar Eroni odam-buqalarigacha obrazlarni ko'z oldida gavdalantiradi. Doro zamonidan Eronda ilk bora ikkita bir-biriga tutashib ketgan sher, buqa, grifon shaklidagi ustunlar paydo bo'lgan (Persepol, Naxshi-Rustam). Shu jihatdan Suzdagi (eramizdan avvalgi V-IV asrlar) ahamoniylar saroyi binosidagi mixxat yozuvlar haqida eslab o'tish joiz bo'lib, u yerdan Xorazmga axshayna (to'q rangli) toshi keltirilgan. Bu tosh qadimdan Sultonuizdog' tog'larida yumshoq talk jinslaridan qazib olingan. Bunday uzoq masofaga jo'natishning qiyinligini hisobga oladigan bo'lsak, axshayna yirik tosh sifatida emas, balki ishlov berilgan arxitektura va haykaltaroshlik qismlari sifatida keltirilganlik ehtimoli yuqori.

Sultonuizdog' ustun tuzilishining ahamoniylar ustunlari bilan umumiyligi yaqqol ko'zga tashlanib turadi – u eramizdan avvalgi V-IV asrlarga tegishli deb hisoblashga imkon beradi. Biroq ularning orasida farqlar ham bor. Bu farqlar ularning masshtabida (Xorazm ustuni kichik hajmli bo'lib, u katta qabul zallariga emas, balki xobgoh yoki kichik ayvonlar uchun mo'ljallangan) ko'zga tashlansa-da, asosiy farq o'zgacha tasviriy motivda bo'lib, u Xorazm mifologiyasi mahalliy polimorf mavjudoti soqolli odam-qo'chqorni ifodalaydi. Bu haykal badiiyligi, butun qadimiy Sharq haykallariga xos bo'lgan shakl va jihati xususiyatlidir.

Sopolchilik uchun hashamatlarning asl nusxalariga – devorlar yoki devor tokchalariga ishlangan haykallar andoza bo'lib xizmat qilgan. Nisadagi natural hajmli loydan yasalgan haykal yoki Baqtriya ma'budasi obrazini ifodalovchi Dalvarzintepadan topilgan boshqa bir loydan yasalgan haykal kabi qadimgi Markaziy Osiyo haykallari bundan dalolat beradi. U kichik bir ibodatxonani bezab turgan va tokchada joylashgan, ikki tomondan esa u bilan mazmuni bog'liq bo'lgan rasmlar chizilgan. Ma'buda cho'ziq yuzli, bo'yni to'liq va o'ziga xos soch turmakli yoshi katta ayol sifatida tasvirlangan. Uning lenta bilan bog'langan sochlari yuzini o'rab olib, orqaga kokil bo'lib tushadi. Haykalning gavdasidan kichik bo'laklar qolgan bo'lsa-da, biroq ular qizil rangli uzun ko'ylak kiygan ma'budaning o'tirgan holda bo'lganlini ko'rsatadi. Dalvarzintepa va Surxondaryoning o'rta oqimidagi boshqa ko'hna shahar xarobalaridan topilgan quydirma haykallar ham shu ko'rinishga ega.

Markaziy Osiyoning ko'hna shahar xarobalari (asosan, Janubiy O'zbekiston va Tojikiston, ya'ni Baqtriya) arxeologik topilmalar tarkibida Kushon davri badiiy buyumlari ko'p uchraydi. Shahri-Gulguldan topilgan rimcha marmar maskaron shular sirasiga kiradi. Yovondan topilgan to'q shiferdan yasalgan Taqsildon (Hind vodiysidagi shahar) ko'p sonli topilmalarga yaqin bo'lib, unda tasvirlangan gippokamp ustidagi chavandoz yunon an'analari bilan bog'liqligi yaqqol ko'rinib turadi. Bu an'analar eramizning birinchi asrlarida Baqtriyada o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q, bu haqda Termizdan topilgan ulkan tosh idishdagi arslon niqobi shaklidagi suv quygich dalolat beradi. Biroq umuman, yunon an'analari Kushon davri san'atida hukmronlik qilgan "osiyonizm" oqimiga singib ketadi.

II-III asrlarda Amudaryo bo'yidagi Kushon yerlarida budparastlik kuchaygan bo'lib, bundan eski Termiz va Ayritomdagi katta va kichik stupa, yer ustidagi va g'orlardagi ibodatxonalar, Barottepa, Qorovultepa va Oqtepadan topilgan

budparastlarning quyma haykalchalari (Oqtepa bodi-satva jussasi sopol brak – uning mahalliy ishlab chiqarilganligining isboti) dalolat beradi.

Budparastlar hashamatli haykaltaroshligi hozirgi kunda Shimoliy Baqtriyadagi Kushon davriga tegishli bir qator haykallar bilan ifodalangan. Ularda, asosan, budparastlik haykaltaroshlik shakllana boshlagan viloyatlarda – Gandxarada (Shimoliy-g'arbiy Hindiston – Pokiston) vujudga kelgan an'anaviy plastik obrazlar tasvirlangan). Fayoztepa (eski Termiz) o'yima haykallari – bu tugallangan tasviriy chizma: oval tokchada o'tirgan Budda yonida unga ikki tomondan ikkita rohib qarab turgan.

Bu uchlik an'anaviy tizimida joylashgan: Budda – muqaddas anjir daraxti ostida o'yga cho'mgan holda, rohiblar – itoatkorlikni namoyish qilgan holda ibodat qilayotgan shaklda. Biroq ushbu gorelyefda uni Gandxar haykallari, umuman, jahon kolleksiyalaridan o'rin olgan Kushon-Baqtriya haykaltaroshligi namunalariidan ajratib turuvchi jihatlari ham bor. Bu uning materiali – oq marmarsimon ohaktosh (Gandxardagi qora yoki yashil-kulrang shifer, Matxuradagi qizil Qumtosh kabi emas) bo'lib, Amudaryo bo'yidagi tog'lar unga boy bo'lgan. Bu tuzumning ravoqsimon blokda joylashtirish usuli bo'lib, u juda kam uchraydi. Bu Buddaning ikkita rohib bilan birgaligi, odatda, uning bir tomonida rohib, ikkinchi tomonidan esa donator tasvirlanardi. Umuman, Fayoztepa tosh o'yima usuli vujudga kelgan an'analarni buzmasdan, ularning shaklini biroz o'zgartiradi.

Baqtriya haykaltaroshlari Buddaning yonida osmonda yashovchi devatlar, osmon musiqachilari – gandxarvlarga murojaat qiladigan bo'lsalar, ko'proq mustaqillik ko'rsatganlar.

Dalvarzintepadagi budparastlar ibodatxonasidan topilgan devatlar va daholar obrazlari yosh cho'ziqsimon yuzli, chiroyli labli, xayolparast nigohli ko'zlar, nozik soch turmaklari bilan o'ziga jalb qiladi. Agar chig'anoqsimon soch taqinchog'i, orqaga tortilgan quloq solinchagi, qo'llarning nafis bukilgan holati hind budparastlik an'analariiga xos bo'lsa, budparastlik afsonalari personajlarining yuz ifodasida hindlardan asar ham yo'q. Aksincha, ular xuddi Prak-sitel uslubini qayta tiklaganday bo'ladi. Boshqalarga esa mahalliy-etnik xislatlar berilgan (qalin mo'ylovlargacha). Umumiy uyg'unlik va lirik kayfiyati bo'yicha bu haykallar Afg'onistondagi ayrim Xadda haykallariga yaqinlashadi, biroq ularning xislatlarini aynan takrorlamaydi. Buni Baqtriyaning yunonlashgan badiiy an'analari o'sha paytlarda kuchli bo'lganligi bilan izohlash mumkin.

Ko'hna Tuproqqal'a shahri xarobalaridan qadimiy Xorazm hukmdorlari saroyida kech antik haykaltaroshlik namunalari topilgan (II asr). U Xalchayandagi hukmdorlar sulolasini ko'klarga ko'tarish bilan bog'liq bo'lib, loydan yasalgan va usti bo'yalgan, biroq bu yerda boshqacha uslub qo'llanilgan. Haykal qoldiqlarining uzuq-yuluqligi dastlabki tuzumlar tematikasi haqida umumiy tasavvur hosil qilishgagina imkon beradi – ularning orasida havoda muallaq turgan ikkita ma'buda o'rtasida o'tirgan shohning jussasi (Viktoriya usuli), shohlar, tim, raqqos va raqqosalar bor. Figuralarning ko'pchiligi gorelyefli bo'lib, devorlar yuzasida joylashtirilgan. Biroq "Shohlar zali"dagi Xorazm hukmdorlari va ularning xotinlari jimjimador to'siqli alohida tokchalardan o'rin olgan.

Xorazmdagi ossuariy haykallari o'sha davrga xos kichik plastika yodgorliklari guruhini tashkil qiladi. Ossuariylarning yuqori qismi yoki ularning qopqoqlarida ko'pincha odam figurasi tasvirlangan. Ba'zida bu ossuariy ustida o'tirgan Xorazm ma'budasi tasviri bo'lib, uning figurasi uzun ko'ylakda, keng va chiroyli bo'lmagan yuzi umumlashgan holatda tasvirlangan. Bu hissiyotsiz ma'buda. Erkaklar tasviri esa umuman, boshqacha. Ularning yuzi hech bir-birini takrorlamagan, yuz shakli, soqol-mo'ylovi va bosh kiyimi bilan ajralib turgan. Masalan, qo'yqirqilgan qal'adan topilgan ossuariy tepasida boshiga uchli shapka va egniga tor chakmon kiygan, chordana qurib o'tirgan ozg'in xorazmlik tasvirlangan. Uning ingichka yuzi shunchalik yagonaki, u portret sifatida qabul qilinmasa ham, har holda boshqalardan ajralib turadi.

Hatto IV-V asrlarda ko'chmanchilar bosqini va shahar sivilizatsiyalarining tanazzulga yuz tutgan davrida ham Markaziy Osiyoda sopolsozlik san'ati butkul so'nmaydi, biroq uning plastik obrazlari juda qo'pol bo'lib, ijodkorlik ruhida emas, balki atayin haqiqatni buzib ko'rsatishga asoslanadi. Katta hajmli haykallar soni kam bo'lib, asosan, sopol idishlarga ishlangan va ossuariylardagi afsun va jodu maqsad qilib qo'yilgan haykalchalar keng tarqalgan. Ularning vazifasi jangda dushman bilan yoki ovda yirtqich bilan jasur va qo'rqmas, biroq turli jin va ajinlardan qo'rquvchi nomardni himoya qilishdan iborat bo'lgan. Bu yerdan qo'pol ishlangan va atayin xunuk va shakli buzilgan yuz shakllari kelib chiqadi.

VI-VIII asrlarda Markaziy Osiyodagi ko'chmanchilar dunyosi (u juda katta edi) o'zi haqida o'ziga xos monumental haykaltaroshlik namunalarida iz qoldirgan. Turk xoqonligining paydo bo'lishi va rivojlanishi bilan shimoliy tumanlarda balbal yoki tosh bab deb nomlanuvchi haykallar keng tarqaldi. Ustunsimon, puxta ishlov berilgan tosh blok yoki plitalardan yasalgan haykallar umumiy ko'rinishda yo'nib ishlangan. Ularning jinsini ayrim haykallardagi mo'ylovlar yoki qurollar bo'lmaganda umuman ajratib bo'lmasdi. Yuz tuzilishi, qisq ko'zi, burni yalpoq va og'zi kichik bo'lib, juda umumiy ko'rinishga ega edi. Kiyim-bosh unsurlari va yarim bukilgan qo'llar ham xuddi shu tarzda tasvirlanib, bir qo'li bilan belbog' yonida idishni ushlab turardi. Sovuq, hissiyotsiz haykal edi.

Bu tosh haykallarning ahamiyati va nimalarga mo'ljallanganligi hozirgi kungacha katta bahs-munozaralarga sabab bo'lmoqda. Ba'zilar garchi doim ham sag'analar atrofida turmasa-da, ularni dafn marosimlari bilan bog'liq deb hisoblaydi. Balbal marhumning boshqa urug'ning yuqori tabaqasiga mansub ma'naviy obrazini yoki uning himoyachisi bo'lgan ajdodlaridan biri yoki fath qilingan dushmani obrazini gavdalantiradi deb hisoblanadi. Vaqt o'tishi bilan tosh bablar Shimoliy Mo'g'ulistondan to Rossiya janubidagi dashtlargacha, turk ko'chmanchilari qayerga qadam bosgan bo'lsa, hamma yerda tarqaladi. Bepoyon dashtlarda bu tosh haykallar uzoqdan ko'rinib turardi va nomardlarning ko'plab avlodlari uchun qaysi tomonga harakatlanish yo'llarini ko'rsatib turardi.

Balbal obrazi qanchalik ibtidoiy bo'lmasin, ular bo'ysunuvchi ta'sir kuchidan mahrum emas. Plastik shakllarning umumlashganligi ushbu tosh haykallarning umumiy hashamatini belgilab beradi, yakka va tasodifiy narsalar yo'qotilib, vaqt doirasidan chetga chiqish hissiga erishilgan.

Biroq Markaziy Osiyodagi VI-VIII asrlarga xos haykaltaroshlik san'atining asosiy jihatlari avvalgidek ko'chmanchilar muhitida emas, balki qadimiy shahar madaniyatida, bu yerlarda paydo bo'lgan yangi yarim mustaqil feodal xonliklarda shakllangan. Bu davrga xos san'atda ko'p narsa mahalliy an'analar bilan bog'liq bo'lsa-da, umuman bu davr yangicha badiiy g'oya va yo'nalishlarning shakllanishi bilan ajralib turadi.

An'anaviylik va yangiliklarning bu tarzda birikuvi va uyg'unlashuvi budparastlarning hashamatli plastikasini yaqqol aks ettiradi. V-VI asrlarda Uzoq Sharqqa yo'l olib, u yerda muhim o'rin olgan budparastlik Markaziy Osiyo hududida tanazzulga yuz tutdi. Zamondoshlarning fikriga ko'ra, bu yerda VI-VII asrlarda budparastlar ibodatxonalarini soni juda kam bo'lgan. Biroq ularda nizom qoidalariga qat'iy rioya qilingan va tabarruk narsalar asrab-avaylangan, yangi diniy majmualari, ibodatxonalar qurilgan, ular badiiy an'analarning asosiy saqlovchi va davom ettiruvchilari hisoblangan.

Loydan yasalgan va bo'yoq qoplangan haykal bo'laklari Oq-Beshima (Qirg'iziston) va Quva (Farg'ona vodiysi) budparastlar ibodatxonalaridan topilgan. Ajintepa (Janubiy Tojikiston) arxitektura diniy majmua ham katta qiziqish uyg'otadi. Unda o'nlab haykallar topilgan bo'lib, ular VII asr-VIII asr boshlariga tegishli.

Boshlang'ich shakllarida shoirona bo'lgan budparastlik ta'limoti bu davrga kelib, quruq doktrinaga aylanadi, ruhiy takomillashuv izlanishlari o'rmini qat'iy belgilangan ibodat va rasm-rusumlar egallaydi. Bularning barchasi muqaddas sanalgan haykal obrazlari hukmronlik qilgan plastik san'atga ta'sir ko'rsatmay qolmadi. Cherkov qoidalari, ayniqsa, budda tasvirida yaqqol namoyon bo'ladi. Taassurotni kuchaytirish maqsadida ustalar ba'zida haykal hajmini mexanik ravishda kattalashtirgan: Krasnoreche ibodatxonasidagi kallasi olib tashlangan Budda haykali balandligi 6 m, Ajintepada 11 m, quvadagi Budda haykalining boshi esa 80 sm ga teng. Bunday katta hajmlar texnik vazifalarni qiyinlashtirgan.

Arablar bosqini davrida Markaziy Osiyodagi ko'plab saroy va qasrlar, shahar ahlining uylariga o't qo'yilgan. Zamondoshlar uchun bunday dramatik hodisalar XX asr arxeologlariga vaqt o'tishi bilan halok bo'lishi muqarrar bo'lgan yog'och haykallarni qoldirgan. Ularning ko'mirga aylangan qoldiqlariga o't qo'yib yuborilgan So'g'd (Panjikent, Afrosiyob), Tohariston (Yumaloqtepa), Ustrushona (qal'ai qahqaha) ko'hna shaharlaridan topilgan. Bu yerlarda yog'och o'ymakorligi haykallari ichki bezashda – arxitektura tuzumi tarkibida, shift to'sinlarini ko'tarib turgan naqshinkor ustunlar va hatto o'ziga xos kariatidalarda, oddiy bezak sifatida, masalan, butun devorlar sathi bo'ylab sochilmasimon cho'zilgan bo'rttirma tasvirli qoplama taxta sifatida qo'llangan.

X asrda yashab o'tgan muallifning guvohlik berishicha, islom dini davrida Buxoro yaqinida kesh-kushonlar avlodining qasri bo'lgan. Uning yog'och eshiklari ma'budalar bilan bezalgan, Markaziy Osiyoda islom dinini tarqatish paytida ma'budalar buzib yuborilgan, eshiklar esa arablar tomonidan Buxoroda qurilgan dastlabki masjidga o'rnatilgan. Bunday plastik bezakli eshiklar kam bo'lmagan deb taxmin qilish mumkin. Hozirgi kunda buni Bunjikat (qal'ai qahqaha, Shimoliy Tojikiston) hukmdori qasridan yong'in payti kuyib ko'mirga aylangan katta eshik yuqori qismining topilishi tufayli yana bir bor tasdiqlash mumkin.

VIII asrdan boshlab arablarning budparastlikka qarshi kurashi va Markaziy Osiyoni musulmonlashtirish borasidagi faol xatti-harakatlari natijasida plastik san'at tasviriy chiziqlariga yakun yasaldi. U darhol, bir zumda yo'q bo'lib ketmadi. X asrda arab geografi ibn Xaukal Samarqandda suvalgan yog'ochda allaqanday ajabtovur jonivorlar – otlar, buqalar, tuyalar va kiyiklar tasvirini ko'rgan. Bu jonivorlar shunday tasvirlangandiki, xuddi ular bir-birining ustiga chiqib tomosha qilayotganday yoki jangga shaylanayotganday tuyulardi. Bu yumaloq shaklli statuar guruhlar bo'lganmi yoki devorga ishlangan buyurtmami, aytish qiyin. Shubhasizki, ular Samarqandga arab geografi kelishidan ancha avval, ehtimol, islom dinigacha bo'lgan davrda yaratilgan.

Biroq IX-X asrlarda hashamatli plastik san'at to'laligicha Markaziy Osiyo arxitektura bezagi ming yil hukmronlik qilgan naqshinkor yo'nalishlar sohasiga o'tib ketadi. Faqat ahyon-ahyonda badiiy hunarmandchilik namunalarida, masalan, XII asrga oid sopol buyumlarda tasviriy mavzuli buyurtmalar paydo bo'lib turadi. Bu esa xalq ommasida rassomlarning shoirona tasavvuri bo'yicha tirik jonivorlarni tasvirlash an'analari qanchalik mustahkam o'rnatilganligini ko'rsatadi. Bundan tashqari turkiy qabilalar ko'chmanchilik qilib yurgan shimoliy dashtlarda XIV-XV asrlarga qadar bo'ron-u to'fonlarga, vaqtning borishiga hech qanday hissiyotsiz nazar tashlab turuvchi, xalqlar, mamlakatlar va sivilizatsiyalarni larzaga solib turuvchi tosh balballar qurilgan.

Qisqacha xulosa

“Markaziy Osiyo xalqlari tarixiy san'at merosining asosiy bosqichlari” deb nomlangan mavzuda mamlakatimiz Sharq va G'arbni bog'lovchi yo'lda joylashgani, bu yerda qadimdan madaniyat va san'at rivojlanganligi, yurtimizga chet el bosqinchilari bostirib kelib, o'z zulmini o'tkazganda ham o'z madaniyati va san'atini saqlab qolganligi bilan faxrlanamiz.

Markaziy Osiyodagi san'at bir necha oqimlarga bo'linishi, bunda topilgan manbalar guvohlik berishi, qadimgi urf-odatlar va diniy marosimlarni ham ta'siri bo'lganligiga to'xtaldik.

Qadimgi topilmalardan ma'lum bo'lishicha, hududimizdagi arxitektura bezagida boshqa joylarda uchramaydigan xususiyatlar ham mavjud. Yodgorliklarda avval loydan bezak berilgan bo'lsa, keyinchalik pishgan g'isht va toshdan yasali bezaklar berilgan. Bezaklarda afsonaviy qushlar bilan bir qatorda kuchli hayvonlar jussasi ham yoritilgan. Mavzuning so'nggi qismida yurtimizda mashhur bo'lgan raqslar va ularning yaratilishi tarixiga qisqacha to'xtalib o'tilgan.

Tayanch iboralar

Antablement, pilyastr, arkatura, gorelyef, korinf kapiteli, meandra, Keshk, “girix”, “madaxil”, “turunsh” kamediy va shereshe, pape-mashe, koshin, Ayritom frizi, Gandxar maktabi.

Nazorat savollari

1. Markaziy Osiyo san'atining rivojlanish bosqichlari.
2. Hududimizda bezak usulini paydo bo'lishi.

3. Haykaltaroshlikning o'ziga xos xususiyatlari.
4. Badiiy bezakdagi mazmunlar mohiyati.
5. Figurali g'isht terishning rivojlanishi.
6. Samarqand yodgorliklarini boshqalardan farqi.
7. Sopolchilik va uning xususiyatlari.
8. Ossuariylik madaniyatining o'ziga xosligi.
9. Xonliklar davridagi san'at.
10. Markaziy Osiyo madaniyatining boshqa madaniyatlar bilan uyg'unlashuvi.

Adabiyotlar

1. Qoraboyev U. O'zbek xalqi bayramlari. – T.: Sharq, 2002.
2. Тухлиев Н, Кременцова А. Республика Узбекистан. Энциклопедический справочник. – Т.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” нашриёти, 2001.
3. Камалова Д.М. Узбекская художественная культура. – Т.: изд.-полиграфическое объединение им. Ибн Сино, 1995. -150 с.
4. Массон М.Е. На средниазиатских трассах Великого шёлкого пути. Сборник статей. – Т., 1990. -93 с.
5. Пугаченкова Г.А., Ремпель Л.И. Очерки искусства Средней Азии – М.: 1982. С. 5-18.
6. www.tourism.ru
7. www.travel.ru
8. www.palomnik.ru
9. <http://www.yorku.ca/research/dkproj/string/rohr/articles.htm>

2-bob. O‘ZBEKISTON MADANIY MEROSIDA ETNOGRAFIYA VA URF-ODATLAR

2.1. O‘zbekiston xalqlari madaniyati va san‘atining boy tarixiy merosi

O‘zbek xalqi boy tarixiy o‘tmishga ega. Uzoq vaqt davomida Markaziy Osiyoning boshqa xalqlari kabi o‘zbek xalqi ham insoniyatga ko‘plab ajoyib fan va san‘at vakillarini taqdim etgan. Asrlar davomida boy, o‘ziga xos madaniyat yaratildi. Ko‘p sonli zafarli yurishlar natijasida Markaziy Osiyoning tarixiy yodgorliklarida yunon, hind, eron va arab xalqlari kabi qadimiy madaniyatlarning ta‘siri seziladi. Biroq ular o‘zbek xalqi madaniyatini o‘zgartirib yubormasdan, uning o‘ziga xos xususiyatlarini boyitgan, xolos. O‘zbek xalqi san‘ati o‘zining badiiy an‘analari, mahorati, jozibadorlikni ifodalash vositalarini ishlab chiqqan. Xalq ijodida o‘ziga xos turli janrlar yaratilgan.

Bir necha asrlar davomida turli madaniyatlarning o‘zaro aloqada bo‘lishi va bir-birini boyitish jarayonlari O‘zbekistonning badiiy madaniyatini yanada rivojlantirish uchun ajoyib imkoniyatlar bilan ta‘minlaydi.

Moddiy madaniyat yodgorliklari (qoya rasmlari, monumental haykallar, barelyeflar va hokazo), shuningdek, bizgacha yetib kelgan yozma manbalar (eramizdan avvalgi II asr) o‘zbek xalqining musiqiy merosi – qo‘shiqlar, raqslar va kiyimlarning qadimiy manbalaridan darak beradi. Markaziy Osiyo xalqlari hayotida ularning roli katta ekanligi haqida eramizdan avvalgi V asrda Gerodot ham yozib qoldirgan.

Musiqaning eng yaxshi namunasi xalq og‘zaki ijodi – o‘zbek xalqi madaniyatining ajralmas bir qismi hisoblanadi. Folklorning g‘oyalarga boyligi va janrlarining rang-barangligi o‘lka ma‘naviy va badiiy boyligidir. Unda xalqning tarixi, turmush tarzi aks ettiriladi, haqiqiy insoniy xislatlar, insonlar baxt-saodati uchun haqiqiy jasorat, do‘stlik va sadoqat, mehnatda tirishqoqlik ifodalanadi, qo‘rqoqlik, sotqinlik va tekinxo‘rlik qoralanadi. Folklor asarlari katta tasviriy kuchga ega bo‘lib, musiqa va adabiyotning rivojlanishi uchun bitmas-tuganmas manba bo‘lib xizmat qiladi, og‘izdan og‘izga, avloddan avlodga o‘tib, folklor qayta ishlanadi va to‘ldirib boriladi. O‘zbek folklori janr va mavzular rang-barangligi va ko‘p qatlamliligi bilan ajralib turadi. U marosimlar bilan bog‘liq va bog‘liq bo‘lmagan she‘riyatga taqsimlanadi.

Marosimlar bilan bog‘liq she‘riyat va musiqa o‘zbek folklorining eng qadimiy turlari bo‘lib, xalqning mehnati, turli xil marosimlari va e‘tiqodlari bilan bog‘liq. Bu qatorga yil fasllari, rasm-rusumlar, oilaviy marosimlar bilan bog‘liq qo‘shiqlar, duolar va boshqa she‘riy hamda musiqiy janrlarni kiritish mumkin.

Taqvimiy-marosimga oid qo‘shiq va musiqalar kishilarning ilohiy kuchlar va irim-sirimlar haqidagi tasavvurlari, yil fasllariga bag‘ishlangan turli rasm-rusumlarni amalga oshirish bilan bog‘liq bo‘lgan. Qurg‘oqchilik paytida dehqonlar, odatda, o‘tkazgan rasm-rusumlarda “Sust xotin” (yomg‘ir so‘rash) qo‘shig‘i, kuchli shamol turganda “Moy momo” (shamolga murojaat) qo‘shig‘ini aytganlar. Bu turdagi qo‘shiqlar mo‘jiza ro‘y berishi, hosildorlikning oshishi, xo‘jalikda to‘kin-sochinlikka xizmat qilishi lozim bo‘lgan. Yil fasllarining o‘zgarishi ham “Boychechak”,

“Navro‘z”, “Ramazon” (musulmon taqvimining 9-oyi) kabi turli qo‘shiqlar bilan kutib olingan. Diniy mavzudan tashqari bu qo‘shiqlarda yangi yilda omad va muvaffaqiyat, baxt-saodat, yaxshi tush ko‘rishni tilash kabi tilaklar ham bor.

Taqvimiy-marosimga oid she‘riyatda mehnat qo‘shiqlari katta o‘rin egallagan. Ular yil fasllari bilan bog‘liq bo‘limlarga bo‘linadi. Dehqonlar don sochish, hosilni yig‘ib-terib olish va yanchishda maxsus qo‘shiqlar aytishgan. Masalan, donni yanchish paytida har bir satri “xo‘p mayda, mayda gul” qofiyasi bilan yakunlanuvchi qo‘shiqlar aytilgan. Bu qo‘shiqlarning ohangdor usuli mehnat jarayonining yo‘nalishini aks ettiradi. Chorvadorlarning qo‘shiqlarida taqlidiy so‘zlar (xo‘sh-xo‘sh) yoki ko‘ndirish, undash (turey-turey) so‘zlari ko‘p qo‘llangan. Urchuq, to‘qimachilik uskunalari, qo‘l tegirmonida ishlash paytida bir ohangdagi qo‘shiqlar aytilgan. Oilaviy marosimlar bilan bog‘liq she‘riyat va musiqalarida insonning tug‘ilish, o‘lish va shu kabi holatlari aks ettirilgan. To‘y qo‘shiqlari kelinni yasantusan qilishi, kuyovning kelishi va hokazolarda kuylangan.

Yig‘i ashulasi, girya va marsiyalar improvizatsiya qilingan asarlar bo‘lib, ularda folklor usullari yaqin kishining o‘limi bilan bog‘liq g‘am-anduh va qayg‘uni ifodalash uchun foydalanilgan. Bu qo‘shiqlarda marhumning eng yaxshi xislatlari, ayriliq azobi va ruhiy azoblar kuylanadi.

Duo bilan kasalni qaytarma qilish eng qadimiy folklor namunalaridan biridir. Juda ko‘p duolar, “badiq”lar bo‘lgan. Odamlar so‘zning sehrli kuchiga ishonib, uning yordamida turli kasalliklarni davolash, kulfatlarni qochirishga intilganlar. Hozirgi paytda og‘zaki she‘riyatning bu usuli deyarli yo‘qolib ketgan. Xalq og‘zaki ijodi beto‘xtov rivojlanib, uning ko‘plab asarlari ajdodlarning dunyoqarashi, ijtimoiy, xo‘jalik va maishiy turmush tarzini aks ettiradi. Xalq og‘zaki ijodining asosiy xususiyati uni yaratish va ijro etishning jamoaviy xarakteri hisoblanadi. Folklorning ko‘p variantlilik, ommaviylik, anonimlik aynan shunga asoslanadi.

Xalq she‘riyatining jamoaviy xususiyati yakka holdagi ijodiy faoliyatni inkor etmaydi. Iqtidorli ijodkorlar folklor namunalarini saqlash va keng ommalashtirishidan tashqari og‘zaki an‘analarda doirasida ularni yanada takomillashtirib, yangi asarlar yaratadilar.

O‘zbek baxshilari dostonlarni ularning matnini tinglovchilar doirasi talablari va did-istaklariga moslashtirib aytganlar. U dostonni aytishda biroz qisqartirgan yoki uzaytirgan, ayrim ko‘rinishni olib tashlab, boshqalarini kiritgan, bitta dostonning o‘zini qariyalar va yoshlar oldida, xon saroyida va oddiy dehqonlar orasida turlicha ijro etganlar. Bunday turlanish faqat she‘riy til an‘analari mustahkam bo‘lgan hollardagina bo‘lishi mumkin. O‘zbek baxshilari ichida turlanuvchi-qo‘shiqchilar “shoir” faxrli unvoniga ega.

Folklor janrlari bir-biridan ijro etish usullari (yakka yoki jamoa bo‘lib), musiqa jo‘rligi yoki musiqasiz aytilishi va hokazolar bilan farqlanadi. Turli xil folklor janrlari turli ustalarning turlicha ijodi bilan bog‘liq. Doston va og‘zaki dramalar ijro etish ma‘lum bir tayyorgarlik talab qiladi. Shu tariqa folklor namunalarini yaratish va ijro etishda o‘ziga xos kasbiy ijod shakllanadi. Ko‘plab o‘zbek baxshilari qo‘shiqchi bo‘lish bilan birga boshqa qo‘shiqchilarning ustozini sanalib, 2-3 yillab qishloq-qishloq yurib, o‘z shogirdlarini baxshilikka o‘rgatganlar. Shundan so‘ng shogirdga ommaviy imtihon uyushtirilgan, imtihon muvaffaqiyatli yakunlangan holda

shogirdga baxshi maqomi berilgan va u xalq oldida mustaqil chiqish huquqiga ega bo'lgan.

O'zbekistonning madaniy va ma'naviy hayoti O'rta Sharq xalqlari hayoti bilan uzviy aloqada rivojlangan. Xalqning dunyoqarashiga tabiat haqidagi ayrim dialektik va stixiyali-materialistik tasavvurlar, mehnatsevarlik, tenglik va adolatparvarlik, haqiqat g'oyalari xos bo'lgan. Qadimda ko'p xalqlarda urug' va qabilalar bilan bog'liq afsona va rivoyatlar, taqvimiy-marosim va maishiy hayotga oid qo'shiqlar ko'p tarqalgan. Ibtidoiy jamoa tuzumidan feodal munosabatlarga o'tish davrida yangicha qo'shiqlar, ertaklar va dostonlar paydo bo'la boshladi. Feodal munosabatlarning rivojlanishi bilan qahramonlar haqidagi dostonlar paydo bo'ldi, keyinroq epik, tarixiy va lirik qo'shiqlar, og'zaki drama shakllandi.

O'zbek folklorining qadimiy namunalari – afsona va rivoyatlar, maqol va matallar, topishmoqlar va qo'shiqlar og'izdan og'izga o'tib kelish bilan birga yozma manbalar, arxeologik topilmalar, shuningdek, oxirgi yillarda yozib olingan folklor asarlaridan ham ma'lum. O'zbek xalqi Markaziy Osiyoning boshqa xalqlari bilan birgalikda mislsiz, Jamshid, Gershasp, Siyovush, Afrosiyob, Rustam, Iskandar (Iskandar Zulqarnayn), Elikbek, To'maris, Shiroq, Zariadra Odatida, Oysuluv, Guldursun va hokazolar haqida afsona va rivoyatlar, dostonlar yaratgan.

Qadimiy asar bo'laklari yunon tarixchilari yozma manbalarida, Mahmud Qoshg'ariyning "Devoni-lug'atit-turk" asari va boshqalarda saqlanib qolgan. Mardlik va jasurlik, ishonch va sadoqat, adolatparvarlik va mehnatsevarlik qahramonlarning asosiy xislatlari bo'lib, ular qabiladoshlarining mustaqilligi va tinch hayot kechirishi uchun o'z hayotlarini ayamaganlar. Markaziy Osiyo xalqlarining qadimiy eposida ayollar erkaklar bilan bir xil o'rin egallab, ulardan mardlik va jasoratda ham ortda qolmagan. O'tmishdagi o'zbek folklorining XIX-XX asrlarda yozib olingan namunalari, asosan, feodal munosabatlar davrida yaratilgan, ayrim qadimgi asarlar esa keyinchalik feodalizm davri dunyoqarashi ta'siri ostida o'zgartirilgan.

2.2. Hunarmandchilikda qadimiy badiiy matolar va naqshlar

O'zbek folklorining rivojlanishi bilan mato ishlab chiqarish ham keng rivojlangan hamda u bilan uzviy aloqada rivojlangan raqs san'atiga sezilarli ta'sir ko'rsatgan. Quyida Markaziy Osiyo hududida badiiy matolarning paydo bo'lish tarixi batafsil ko'rib chiqiladi, shuningdek, biz O'zbekistonning turli naqshlarga boy, rang-barang an'anaviy milliy kiyimlari bilan tanishib chiqamiz.

Qadimiy badiiy matolar bezagi va texnikasi bo'yicha ajoyib va mukammal hunarmandchilik mahsulotlaridir. To'qimachilik naqsh va bezaklarga asos soladi, keyin boshqa amaliy san'at turlariga xos bo'lgan motivlar o'zlashtirilib, qayta ishlanadi, material va texnikaga moslashtiriladi.

Badiiy matolar o'zlarining va boshqalardan olingan naqshinkor va bezakli motivlarni osonlik bilan o'zlashtirib oladi. Matolar bilan mol ayirboshlash, oldi-sotdi, olib kelish va chetga chiqarishda doimo eng ommabop tovar bo'lib kelgan. Shu sababli matolar o'ziga xos rasmlarga ega bo'lgan, shuningdek, boshqa mamlakatlar rasmlaridan foydalanilgan.

Markaziy Osiyoda badiiy matolarning paydo bo'lishi paxta va jundan mato to'qishning ommaviylashuvi bilan asoslanadi. Jun ishlab chiqarishning o'sishi

kigiz-namat, palos, gilam va yanada nozik, silliq, naqshinkor va rasmlı jun matolar tayyorlashning o'sishiga olib keldi. Ular haqida Pazariq (tog'li Oltoy) hududidagi sak-skif qo'rg'onlaridan topilgan jun mato va gilamlarga qarab mulohaza yuritish mumkin. Bu mahsulotlar eramizdan avvalgi V-IV asrlarda Markaziy Osiyo va Old Sharqda ishlab chiqarilgan. Ular qatorida odamning afsonaviy Qaqnus qushi bilan olishuvi aks ettirilgan kigiz namat, olachipor kiyik, chavandoz va grifonlar tasviri tushirilgan tukli gilamlarni eslab o'tish mumkin.

Ipak xomashyosi Markaziy Osiyoga Xitoydan keltirilgan va Parfiya orqali Vizantiyaga olib borilgan. U yerda ipak matolar juda yuqori baholanardi. Markaziy Osiyoda ipak matodan badiiy mahsulotlar tayyorlangan. Markaziy Osiyoda chetdan keltirilgan, bir paytlar tilla iplar, bronza osilmachoqlar bilan bezalgan ipak matolar namunalari eski Nitsada qazish ishlari paytida topilgan.

Eramizning II-III asrlariga oid ipak qoldiqlari Marvdan topilgan. U yerda shalvorlar, yumshoq boshmoqlar, kichik yopinchiqlar va bosh kiyimlari uchun bo'yalgan jun matolar bilan birga ipak mato qoldiqlari ham topilgan. Bu matolar sasoniylar davridagi Shapiro-2 da (309-379-yillar) ham topilgan bo'lib, ular Eron eksportining muhim jihati hisoblangan.

V-VI asrlarga kelib, vaziyat tamomila o'zgardi. Paxta yetishtirish Markaziy Osiyoda qadimdan ustuvor ahamiyat kasb etib kelgan. Qadimiy Parfiya va So'g'dda yetishtirilgan paxta mahsulotlari Xitoyga eksport qilingan. V-VI asrlarda paxta yetishtirish Uzoq Sharqqa ko'chirildi. Ipak qurti paydo bo'lgan har bir joyda badiiy matolar ishlab chiqarish keskin o'sa boshladi. Bu matolardan kiyim-kechaklar, pardalar va katta devorlarni bezash uchun bezakli matolar tikilgan.

O'sha davrda Markaziy Osiyo xalqlarining kuzatilgan ishlab chiqarish kuchlari va madaniy ehtiyojlarining o'sishi natijasida boshqa xalqlarning madaniy yutuqlarini o'zlashtirish oldida turgan ko'p asrlik to'siqlar yo'qotildi. To'qima naqshlar kashtado'zlikni siqib chiqara boshladi, o'z namunalarini kengaytirdi va o'z uslubini ishlab chiqdi.

Ilk O'rta asrlar davrida sasoniylar uslubi ustunlik qilgan. Uning o'ziga xos xususiyati turli jonivorlar, qahramonlik ko'rsatayotgan haqiqiy va fantastik qahramonlar tasviri edi, ba'zida bunday matolarda o'simliksimon va geometrik shakldagi bezaklar guruhlarga ajratilgan holda tasvirlangan (rozetkalar, medalyonlar, yurakchalar va hokazo). Badiiy matolardagi rasmlar motivi boshqa materiallardan, ko'pincha qadimdan kiyimlarni bezatib turgan qadama bezaklardan olingan.

Ilk O'rta asrlarda matolar bezashning tasviri, kashtado'zlik, marjonlar bilan bezash kabi qadimiy usullarini qabul qilib olgan hamda ular asosida o'zining naqsh motivlarini ishlab chiqqan. Ularda eski usullarni qiyinchilik bilan tanib olish mumkin. Yangi tuzilish eskilarining o'rmini egalladi. O'z navbatida torevtika ham naqshinkor parcha, lagan va ko'za bezaklaridan ko'p narsa oldi. Matolar arxitektura bezagi, shuningdek, amaliy san'atning boshqa (tosh, suyak va yog'och o'ymakorligi) usullariga ham ta'sir ko'rsatdi. Badiiy matolar feodallar va ular atrofida gilarining qanday ahamiyatga ega ekanliklari asosiy ko'rsatkichlaridan biri edi. Ular kishining boylik darajasini ko'rsatib turgan. Bundan tashqari, ipak matolarning o'ziga xos xalqaro valyutasi bo'lgan.

Markaziy Osiyoda ishlab chiqarilgan badiiy ipaklarning sevimli motivlari qatoriga kiyiklar, itlar, qanotli otlar doirasida joylashgan bir juft arslon tasvirini kiritish mumkin. Ular o'z davrining epik she'riyatiga mansubligining ehtimoli yuqori. Bolalik tepadan topilgan ipak matolar burama ipdan murakkab tarzda to'qilgan bo'lib, shevron shaklidagi mayda naqshlarga ega.

So'g'd matolari juda keng tarqalgan bo'lib, ular Old Osiyo va Vizantiyaga Eron orqali, shuningdek, shimoliy yo'llar bo'yicha Xorazm va Shimoliy Kavkaz orqali olib borilgan. Belgiyadagi Yui shahrida joylashgan ibodatxonadan topilgan so'g'd matolarining orqa tomonida Zandan qishlog'i nomi bitilganligi, so'g'd matolarini o'rganishda katta ahamiyatga ega bo'ldi. Bu ipak mato gobelen turida edi. Unda So'g'd uchun xos xususiyatlari bo'lgan arslon va qo'ylar tavsiri ishlangan.

Bu kashfiyot ilgari Antinoya va Yaqin Sharqdagi boshqa mato ishlab chiqarish markazlariga tegishli deb hisoblangan so'g'd matolarini aniqlab, tanib olishga imkon berdi. So'g'd matolariga o'ziga xos usullardan ko'ra ko'proq tuzilish usuli va tasvir uslublari xosdir. Bu matolarda Misr mahsulotlarida kuzatilgan ko'p jussali murakkab tasvirlardan farqli o'laroq, ko'pincha ko'zga aks etganday takrorlanuvchi doiraga kiritilgan yagona usul ustunlik qiladi. Rasmlar uslubida, shuningdek, stilizatsiya jarayoni juda rivojlangan Vizantiya va Misr matolarida bo'lgani kabi mahalliy yunon aholisida ham biroz qo'pol ishlangan jonivorlar tasviri uchraydi.

VI-VIII asrlarga oid Markaziy Osiyo badiiy matolaridagi tasvirlar oxirgi yillarda topilgan, o'sha davrga taalluqli devoriy rasmlar va amaliy san'at namunalari tufayli shuhrat qozondi.

Bolalik tepa devor bezaklarida tasvirlangan rasmlar bo'yicha ilk O'rta asrlarda Markaziy Osiyoda tarqalgan badiiy matolar haqida tasavvurga ega bo'lish mumkin. Matolar romblar, doiralar va tamg'a bilan bezalgan.

Varaxsha, Afrosiyob va Panjikent devor bezaklari matolarda tasvirlangan hech narsa bilan solishtirib bo'lmaydigan rasmlar to'plamini beradi. Bu yerda haqiqiy va afsonaviy hayvon va qushlar, tabiat hodisalarining kuchaytirilgan tasviri mavjud. Grifonlar, qanotli arslon, ot va echkilar, shuningdek, o'rdak, qirg'ovul va tovus kabi qushlar tasviri, ayniqsa, ajoyib tarzda yaratilgan.

Devor bezaklaridagi matolar tasviri xususiyatiga ko'ra (rasmi va rangi bo'yicha) ularning ayrimlari parcha, tilla va kumush iplari bilan tikilgan deb faraz qilish mumkin.

2.3. Markaziy Osiyo xalqlari kiyimlarining o'ziga xosligi

Mahalliy xalqlar kiyim-kechaklarining o'ziga xosligini iqlim va maishiy sharoitlar hamda urug'-qabila an'analari bilan izohlash mumkin.

XVIII-XIX asrlarda mahalliy aholi kiyimlari qadimgi jihatlarni davom ettirgan, keng va uzun bo'lgan hamda kishilar jussasini berkitib turgan. Kiyimlar bir xilligi bilan ajralib turgan, yozgi va qishki, erkaklar, ayollar va bolalar kiyimlari shakli va bichimi bo'yicha bir-biriga juda yaqin bo'lgan.

Erkaklar ko'ylak, yaxtak, chakmon va to'n kiyib yurganlar. To'nlar astarli va paxtali turlarga taqsimlangan. To'nlarining yon tomonidagi yirtmochlar ot ustida yoki piyoda yurganda, yerda o'tirganda qulaylik yaratgan. Bayram kiyimining belbog'i baxmalli, gul tikilgan bo'lib, turli kumush osmashoqlar, taroq, ustara, chaqmoqtosh

va tamaki uchun g'ilofchalari bo'lgan. Kundalik kiyim sharfsimon keng belbog'li va to'rtburchak ro'molli bo'lib, uning qatlariga mayda buyumlar joylangan. Shalvar keng bo'lib, pastga qarab torayib borgan. Bosh kiyimi – do'ppilar ustidan oq, qizil, ko'k, yashil salla o'ralgan. Mo'yna shapkalar ham kiyilgan¹⁰.

Ayollar kiyimi – xalat, ko'ylak va paranji ham keng bo'lib, pastga qarab torayib borgan. Bosh kiyimi uch asosiy element: ayollar va qizlar uchun qalpoqchalar, ro'mol va salladan iborat bo'lgan. Ayollar ochiq rangli, uhun va to'piq atrofida juda tor shalvar kiyganlar. Bolalarning kiyimi kattalar kiyimlarining shaklini takrorlagan. Barcha uchun umumiy jihatlar bilan birga har bir tuman, xalq va qabilaning kiyimlariga foydalanuvchi matolar, koloriti, bichimi, yengining uzunligi va kengligi bo'yicha o'ziga xos jihatlarga ega bo'lgan. Bu, ayniqsa, bosh kiyimlar shakli va bichimida yaqqol ko'zga tashlanib turgan. Har bir tumanning do'ppisi o'ziga xos bo'lib, bir-birini takrorlamagan. Ayollar va qizlar uchun ro'mollar ularning yoshi, oilaviy holatiga qarab turlicha – oddiy va murakkab, sodda va serhasham, jiddiy va o'ynoqi bo'lgan.

XIX asr o'rtalarigacha o'zbek xalqi kiyimlari tunika shaklida bo'lib kelgan. Ularning shakli tanlangan matolar – silliq, olachipor va gul bosilgan matolar bilan uyg'unlashgan. Kiyimlarning yon tomoni, etagi, yengi va yoqasida jiyaklar tikiigan. Bu usul qadimiy tasavvurlarga ko'ra, kishini yomon ko'zdan saqlab turuvchi ramziy belgilarga borib taqaladi. Biroq XIX asrda uning dastlabki ma'nosi esdan chiqarildi va u oddiy bezak sifatida foydalaniladigan bo'ldi.

Shu bilan bir paytda, oliy tabaqadagi kishilar kiyimining shakli o'zgarib, biroz tanaga yopishib turadigan bo'ldi. Oddiy keng bichimli, biroq hajmi ancha katta bo'lgan va "ulug'vorlik" hadya etuvchi erkaklar uchun to'nlar va ayollar uchun ko'ylaklar paydo bo'la boshladi. Rus va tatar xalqlari kiyim-boshi ta'siri ostida mahalliy xalq kiyimlari ham o'zgara boshladi. Kiyim-bosh aniq ifodalangan, imo-ishoralarga boy va plastik xoreografiyali o'zbek xalq raqslarining muhim elementlaridan biri hisoblanadi.

2.4. Markaziy Osiyo xalqlari raqs san'ati

Markaziy Osiyo xalqlari raqs san'ati qadim zamonlardan rivojlanib kelgan. Bu haqda qoyalarga bitilgan raqs tushayotgan kishilar tasviri, qadimgi va O'rta asrlarga oid rasmlar darak beradi. Qadimgi tasvirlar va ayrim bilvosita manbalarga ko'ra, Markaziy Osiyo davlatlarida eramizdan avvalgi birinchi asrdayoq turli bayramlarda kohinlar, artistlar va oddiy xalqning raqsga tushganligi haqida xulosa chiqarish mumkin. Birinchi ming yillikda yashab o'tgan rassomlar asarlarida diniy-afsonaviy mavzularda tasvirlangan raqs tushayotgan jussa katta ahamiyatga ega. IV-VIII asrlarda Buxoro, Toshkent va Samarqandlik raqs ustalari san'ati ko'plab Sharq mamlakatlarida shuhrat qozongan.

Raqs o'zida xalqning boy ma'naviy merosi, urf-odat va an'alarining yorqin ifodasini aks ettiradi.

¹⁰ Qoraboyev U. O'zbek xalqi bayramlari. – T.: Sharq, 2002. 18-b.

Mahorat bilan musiqa ohangiga mos aylanish va piruetlar, qo'l, bosh va yelkalarining nozik harakatlari, imo-ishoralar, raqqosaning yonib turuvchi nigohi – atrofdagilarga uning ichki dunyosi hamda ichki kechinmalari haqida so'zlaydi.

O'zbek raqs san'ati Farg'ona, Xorazm va Toshkent raqs maktablarini o'z ichiga oladi. Har bir maktab o'ziga xos xususiyatlari, ijro etilishi, musiqasi va liboslari asosida bir-biridan tubdan farq qiladi.

Raqsnı bekorga xalq qalbi deya atashmaydi. Milliy raqslarimizga qarab turib, butun dunyodagi raqs sana'ti namunalari ichida takrorlanmas ekanligini faxr bilan ta'kidlay olamiz.

Bizning kunlarga saqlanib qolgan o'zbek xoreografiyasi an'analari turli raqs maktablari va turlariga, jumladan mumtoz milliy raqs maktabiga ega. Raqs mazmunini imo-ishoralar yordamida ifodalanuvchi hikoyalash usuli ustun bo'lgan. Sharq xalqlarining mumtoz raqslaridan farqli ravishda o'zbek xoreografiyasida muayyan obrazlilik bo'lmagan va harakatlar faqat ta'sirlanuvchi mazmunga ega bo'lgan.

O'zbek raqsi beshta asosiy guruh – Farg'ona, Xorazm, Buxoro, tog' va dasht maktablariga taqsimlanadi.

Farg'ona maktabining raqs harakatlari nafis va yumshoqligi, yengil sirg'aluvchan qadam bosish, shox va charx urish kabilar bilan ajralib turadi.

Xorazm maktabiga esa tana va qo'llarning keskin harakatlanishiga xos asosiy harakatlar tezlik bilan tez-tez sakrab turgan holda bajariladi.

Buxoro maktabi raqslariga tananing keskin o'girilishi, birdan to'xtab qolish, doira bo'ylab aylanish va hokazolar xos. Buxoro va Xorazmda qayroqlar bilan raqsga tushiladi.

Shahar va qishloqlarda keng tarqalgan xalq raqslari lirik va komik shakllarda bo'lib, ko'proq qo'shiq (mazmuni raqs harakatlari va imo-ishoralari bilan ifodalanuvchi maishiy qo'shiq) va laparlar (ikki kishi ijro etuvchi, xursandchilik ruhdagi parcha, raqs imo-ishoralari va harakatlari bilan bajariladi) tarqalgan.

Dasht hududlarida istiqomat qiluvchi aholining o'ziga xos raqslari kishining ruhiy holatini aks ettirgan. Eng ko'p xalq raqslari tog' tumanlarida saqlanib qolgan. Tog'liklar raqsini 4 turga taqsimlash mumkin: qarsakli raqslar; turli buyumli (pichoq, tayoq va hokazo) raqslar; hayvonlarga taqlid qilgan holda hajviy raqslar (hayvon terisi va niqobda raqs tushilgan); lirik raqslar.

Markaziy Osiyo xalqlari Yevropada milliy raqs san'atining asosiy turi hisoblanuvchi ommaviy raqslardan deyarli foydalanmaganlar. Buni islom dinining ommaviy raqslar islomgacha bo'lgan davr diniy e'tiqodlar bilan bog'liq deb hisoblashi va ularga qarshi keskin kurash olib borishi bilan izohlash mumkin. Bundan tashqari jamiyatda ayollar va erkaklarning ajratib qo'yilishi ommaviy xalq raqslarining shakllanishiga to'sqinlik qilgan.

An'anaviy o'zbek teatri artistlari (qiziqchi va masxarabozlar) ijro etgan hajviy raqslarda inson xulqining salbiy jihatlari, (ochko'zlik, manmanlik va hokazo) bo'rttirib ko'rsatilgan, shuningdek, turli jonivorlar, qush va hayvonlarning qiliqlari aks ettirilgan. Masxaraboz va qiziqchilar san'atida ijtimoiy yo'nalish ko'proq rol o'ynagan.

Shamanlar, azayimxonlar, folbinlar, go'yandalar raqsida xalq raqsi va kasbiy harakatlardan foydalanilgan, biroq ularni bajarish uslubi kishini qo'rqitish, gangitish, aldash maqsadiga yo'naltirilganligi sababli keskin farq qilib turgan. Musiqa jo'rliги o'ta ibtidoiy bo'lgan. O'zbek xalqi qadim zamonlardan buyon rivojlangan (folklor shaklida ham, kasbiy nuqtayi nazardan mumtoz o'zbek raqsi bo'yicha ham) raqs madaniyatiga ega bo'lib kelgan va bu O'zbekistonning zamonaviy balet san'ati rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatgan.

Uning paydo bo'lishiga rus musiqiy madaniyati va teatrining ta'siri katta bo'lgan. O'zbek musiqa san'ati ilg'or namoyondalari rus xalq raqslari va baletga qiziqish bildiradilar. 1909-yili mashhur artist Yusufjon qiziq Shakarjon o'g'li Peterburgdagi Marlin guruhida mumtoz "Katta o'yin" raqsini namoyish etdi va unda katta taassurot qoldirgan balet spektakllari bilan tanishish imkoniyatiga ega bo'ldi. Yusufjon qiziq Shakarjon o'g'lining shogirdi, yana bir mashhur artist Tamaraxonim respublikamizda balet teatri musiqasining paydo bo'lishi va rivojlanishida ulkan rol o'ynadi.

1917-yil inqilobidan so'ng professional xoreografiya san'ati rivojlanib, o'zbek mumtoz raqslari tiklana boshladi. 1918-yil Toshkentda rus artistlari va musiqachilari xatti-harakatlari bilan rus davlat operasi tashkil qilindi. Uning qoshidagi kichik balet guruhi operalarda va konsertlarda kichik alohida nomerlar bilan ishtirok etgan. 1926-yili qo'shiqchi va teatr namoyondasi Muhiddin Qo'ri Yoqubov tashabbusi bilan Tamaraxonim tomonidan ilk O'zbek davlat konsert-etnografik guruhi tashkil etildi. Uning qoshida Tamaraxonim mumtoz raqs sirlaridan tahsil beriluvchi raqs studiyasini ochdi. Ikkinchi jahon urushidan keyin dastlabki o'n yillikda o'zbek baleti rivojlanishida katta muvaffaqiyatlarga erishdi¹¹.

Farg'ona raqsi – Sadr 1930-yilda Usta Olim Komilov va Tamaraxonim tomonidan konsert nomeri sifatida sahnalashtirilgan. Raqs doira jo'rligida bajarilgan. Soxta Ufori raqsi 1937-yilda Usta Olim Komilov va Gavhar Rahimova tomonidan konsert nomeri sifatida sahnalashtirilgan. Bundan ham raqs doira jo'rligida bajarilgan.

"Gul o'yin" raqsi 1937-yili Usta Olim Komilov va Tamaraxonim tomonidan "Farhod va Shirin" spektaklida sahnalashtirilgan. Sahnada qo'lida gullar bilan Shirin paydo bo'ladi va uning nigohi Farhod rahbarligi ostida ulkan kanal qurilayotgan tog'larga qaratiladi. Tog' ustidan zafar quchgan bahodirlar sharafiga saroy raqqosalari qo'lida gullar bilan raqsga tushadi va raqs shu tariqa "Gul o'yin" nomini oladi.

"Gulsara" raqsi 1937-yili Usta Olim Komilov va Mukarrama Turg'unboyeva tomonidan "Gulsara" spektakli uchun sahnalashtirilgan. U ayollarning ozod bo'lishi va paranjini tashlashlariga bag'ishlangan. Raqs shod-xurramlik va xursandchilikni ifodalaydi.

"Pilla" raqsi 1952-yilda yangi variantda konsert nomeri sifatida Mukarrama Turg'unboyeva tomonidan qo'yilgan. Raqsda ipak qurtining tut barglari bilan boqilishi, ipak matolar to'qilishi va kashtado'zlik ifodalanadi.

¹¹ Jabborov I. O'zbeklar: turmush tarzi va madaniyati. – T.: O'qituvchi, 2003. 163-b.

“Qaldirg‘och” raqsi 1964-yil R.Karimova tomonidan qo‘yilgan bo‘lib, unda qaldirg‘ochning parvozi aks ettirilgan. Raqsning boshida qush erkin parvoz qiladi, lekin birozdan so‘ng xavf-xatardan darak beruvchi tovushlarni eshitib, hushyor va sergak bo‘lib qoladi. Birozdan so‘ng parvoz yana avvalgi holatiga qaytadi xavf-xatar o‘rinsiz bo‘lib chiqadi.

“Shodlik” raqsi 1964-yilda R.Karimova tomonidan sahnalashtirilgan bo‘lib, juda tez tempda o‘ynaladi va katta quvonch hissini aks ettiradi.

1957-yili Mukarrama Turg‘unboyeva “Bahor” ayollar raqs ansamblini tuzadi. U bir necha yil davomida mazkur ansamblni tashkil qilishga harakat qilib, turli idora va mahkamalarda ansambl yaratish zarurligi ahamiyatini isbotlab berdi. Unga O‘zbekistonning Moskva shahrida o‘tkaziladigan yoshlar va talabalar butunjahon festivaliga tayyorgarlik ko‘rilayotganda respublikaning o‘z raqs san‘atini munosib namoyish etish uchun bironta jamoasi yo‘qligini ma‘lum bo‘lib qolishiga yordam berdi. Ana shunda M.Turg‘unboyeva va O‘zbekistonning yetakchi baletmeysterlaridan biri Isaxor Oqilov Toshkent xoreografiya bilim yurtini yaqinda tamomlab, estrada, opera va balet teatrlarida mehnat qilayotgan raqqosalarni bitta guruhga to‘playdilar. Bu guruh Butun ittifoq va xalqaro tanlovlarda faxrli birinchi o‘rinni egallaydi. Shundan so‘ng, guruhni tarqatib yubormaslikka qaror qilinadi. 1960-yilda “Bahor” ansambli O‘zbekiston xalqlari davlat ansambliga aylantirildi.

2.5. Mustaqillik davri bayramlari

Mustaqillik – o‘zbek madaniyati tarixida yangi davrni boshlab berdi. Istiqlol tufayli sho‘rolar davrida taqiqlangan milliy ma‘naviyatimiz qayta tiklandi. “Mustaqilligimizning dastlabki kunlaridanoq ajdodlarimiz tomonidan ko‘p asrlar mobaynida yaratib kelingan g‘oyat ulkan, bebaho ma‘naviy va madaniy merosni tiklash davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan nihoyatda muhim vazifa bo‘lib qoldi”,- deb ta‘kidlagan edi O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov. Respublikamizda milliy qadriyatlarni tiklash borasida keng ko‘lamda jiddiy tadbirlarning amalga oshirilishi – jamiyatimiz ma‘naviyati “binosi”ning qad rostlashiga muhim omil bo‘lmoqda.

Mustaqillikka erishgandan so‘ng, O‘zbekiston rahbariyati, eng avvalo, xalqimiz ehtiyoji, orzu-istaklarini hisobga olib, azaliy bayramlarni tiklashga va istiqlol davri bayramlarini xalqimizning qadimiy an‘analariga monand holda shakllantirishga katta e‘tibor bera boshladi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov farmonlari asosida “Navro‘z”, “Ramazon hayiti”, “Qurbon hayiti” rasman tiklanib, mamlakatimizda keng nishonlana boshlandi.

Rasmiy davlat bayramlari bilan birga “Gul”, “Hosil” bayramlari kabilarni ma‘naviyatimiz javohirlari sifatida ko‘rsatishga intilish bo‘lmoqda. Chunki har bir bayram orqali xalq dardi, orzu-istaklari, tajribalari avloddan avlodga qadriyat sifatida o‘tadi.

Yangi davr, yangi mazmun va yangi shakl, an‘analarining paydo bo‘lishi mustaqil hayotning quvonchli daqiqalarini tantana qilishga imkon beradigan yangi tadbir – bayramlar yaratishni taqozo etadi. Jumladan, istiqlolni sharaflaydigan “Mustaqillik bayrami” hayotimizning bosh qonunini targ‘ib etadigan “Konstitutsiya kuni” rasmiy bayram sifatida nishonlanadigan bo‘ldi. Endilikda kelajak avlodni

tarbiyalashda alohida rol o'ynayotgan sharaflı kasb egalari mehnatini ulug'laydigan "O'qituvchilar va murabbiylar kuni", o'tgan ajdodlar yodini esga olishga bag'ishlangan "Xotira va qadrlash kuni" mamlakatimizda keng nishonlanmoqda.

Mustaqillik tufayli jahon madaniyati ravnaqiga munosib hissa qo'shgan ajdodlarimiz tavalludlarini nishonlash ham an'anaga aylanib bormoqda. Istiqlol yillarida Zahiriddin Muhammad Bobur (1993), Bahouddin Naqshbandiy (1993), Abduholiq G'ijduvoni (1994), Mirzo Ulug'bek (1994), Najmiddin Kubro (1994), Feruz (1995), Amir Temur (1996), Imom al-Buxoriy (1998), Ahmad Farg'oni (1998), Jaloliddin Manguberdi (1999), al-Marg'inoni (2000) va Moturudiy (2000) kabi buyuk ajdodlarimiz tavalludining yirik sanalari YUNESKO bilan hamkorlikda nishonlanadi.

Jahon madaniyatida buyuk me'moriy obidalari bilan munosib o'rin tutgan qadimiy shaharlarimizga bag'ishlangan xalqaro tadbirlarning tantanali bayram sifatida nishonlanishi ham xalqimizni g'oyat quvontiradi.

Qadimiy tarixiy obidalarining keng ko'lamda ta'mirlanishi, Buxoro, Samarqand, Xiva, Shahrisabz kabi shaharlarda, Quva, Chelak tumanlarida yangi me'moriy yodgorliklarning bunyod etilishi, Buxoro, Xiva, Termiz kabi qadimiy shaharlarning 2500 yillik tantanalari mamlakatimizga kelgan mehmonlarni ham qoyil qoldiradi.

Istiqlol tufayli xalqimizning ma'naviy qadriyatlari jahon miqyosida e'tirof etila boshlandi. O'zbek musiqasi, teatri, kinosi, tasviriy san'ati hozirgi kunda ham jahon jamoatchiligini qiziqtirmoqda. Xalq ijodiyotining buyuk namunasi – "Alpomish" dostoni yaratilganligining ming yillik tantanasi, tarixiy merosimiz "Avesto"ning yaratilganligini 2700 yilligiga oid tantanalar ajdodlarimizning bebaho merosiga qiziqishimizni yanada oshiradi. Shuningdek, Vatanimizda "Toshkent kino festivallari", "Sharq taronalari" musiqqa festivali, "Musiqiy-simfonik festival", "Navro'z" va "Sharq va G'arb" xalqaro teatr festivallari, tasviriy san'at bo'yicha xalqaro ko'rgazmalar, xalq ijodiyotining turli janrlariga bag'ishlangan ko'rik-tanlovlar o'tkazish an'anaga aylanib kelmoqda.

Mamlakatimizda mustaqillik yillarida yangicha madaniy tadbirlar kuchayib bormoqda, musiqqa san'atini rivojlantirishda alohida o'rin egallay boshlagan "O'zbekiston – Vatanim manim!" nomli respublika ko'rik tanlovi, yilning eng yaxshi ijodkorini aniqlashga xizmat qiluvchi "Ofarin" tanlovi, yosh iste'dodlarni rag'batlantiruvchi "Nihol" tanlovi kabi anjumanlar yanada shuhrat topib bormoqda. Xalq ijodining alla, yalla, lapar, askiya, katta ashula, dorbozlik, qo'g'irchoqbozlik kabi ko'plab janrlari hamda etnografik folklor jamoalari, ashula va raqs jamoalarining tanlovlari ravnaqiga keng yo'l ochib bermoqda.

Mamlakatimizda yangi sport bayramlari, jumladan maktab o'quvchilarining "Umid nihollari", litsey, kollej o'quvchilarining "Barkamol avlod", oliy o'quv yurti talabalarining "Universiada"lari keng shuhrat qozonmoqda. Sho'rolar davrida taqiqlangan milliy an'ana va bayramlarning tiklanishi xalqimiz milliy o'zligining ulug'lanishiga xizmat qilmoqda.

O'zbek madaniyatiga bag'ishlangan xalqaro anjumanlar xalqimizning badiiy merosini va zamonaviy yutuqlarini vatanimizda va xorijda targ'ib qilishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Mamlakatimizda bayramlar o'tkazish borasida ibratli ishlar qilinmoqda. Yirik bayramlar ("Mustaqillik", "Navro'z") ni tashkil qilish borasidagi tajribalarimizdan qo'shni mamlakatlarda ham foydalanilayotganligi, ayniqsa, quvonarli holdir.

Oilaviy marosimlarni tashkil qilishda ham istiqlol davrida ijobiy o'zgarishlar sodir bo'la boshladi. Ma'lumki, marosimlar o'zbek xalq an'alarining asosiy qismini tashkil etadi. Oilaviy marosimlarning aksariyati bolalar hayotidagi muhim voqealarga bag'ishlanganligi uchun ham bunday marosimlar yoshlar tarbiyasida muhim o'rin tutadi.

O'zbek xalqi to'yni g'oyat sevadigan xalq. O'zbeklar umr bo'yi to'y qilaman, el duosini olaman, boshqalarni quvonchimga sherik qilaman degan maqsadda yashaydi. Shuning uchun to'y o'zbek millati hayotida muqaddas hodisa hisoblanadi. Biroq sho'ro davrida o'zbek oilaviy marosimlarining ba'zilari taqiqlangan, ayrimlari esa, ya'ni taqiqlash mumkin bo'lmaganlari (masalan, "nikoh to'yi") sho'ro mafkurasiga mos tarzda o'zgartirilgan.

Mustaqillik tufayligina oilaviy marosimlarning asosiy tadbirlari, chunonchi, "ism qo'yish", "chilla", "soch to'yi", "tish to'yi", "beshik to'yi", "sunnat to'yi", "muchal yoshi", "nikoh to'yi" kabi an'analarni tiklash uchun yo'l ochildi. 1998-yil "Oila yili", 1999-yil "Ayollar yili", 2000-yil "Sog'lom avlod yili", 2001-yil "Onalar va bolalar yili", 2002-yil "Qariyalarni qadrlash", 2003-yil "Obod mahalla", 2004-yil "Mehr va muruvvat", 2005-yil "Sihat-salomatlik", 2006-yil "Homiylar va shifokorlar", 2007-yil "Ijtimoiy himoya", 2008-yil "Yoshlar", 2009-yil "Qishloq taraqqiyoti va faravonligi", 2010-yil "Barkamol avlod", 2011-yil "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik", 2012-yil "Mustahkam oila", 2013-yil "Obod turmush", 2014-yil "Sog'lom bola", 2015-yil "Keksalarni e'zozlash", 2016-yil "Sog'lom ona va bola" va 2017-yil "Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili" deb e'lon qilinishi mamlakatimizning o'z an'alariga e'tibor berish va davlatimizni rivojlantirish uchun qulay imkoniyatlar yaratdi.

Xalq bayramlarining milliy an'analari (tarkibiy qismi sifatida tiklanishi) – o'zbek madaniyati taraqqiyotida muhim voqeadir. An'anaviy xalq bayramlarining muhim jihati shundaki, ular tarixiy taraqqiyotning eng yaxshi jihatlarini o'zida mujassamlashtiradi. Har bir davrning o'z tarixi, o'z bayramlari bo'ladi.

Turistlarni jalb qilishda boy madaniyat, san'at, folklor, milliy urf-odatlar, marosimlar va bayramlar katta ahamiyatga ega.

Qisqacha xulosa

Markaziy Osiyoning boshqa xalqlari kabi o'zbek xalqi ham o'zining rivojlanish bosqichida insoniyatga ko'plab ajoyib fan va san'at vakillarini taqdim etadi. Markaziy Osiyoning tarixiy yodgorliklarida Yunon, Hind, Eron va Arab xalqlari kabi qadimgi madaniyatlar ta'siri sezilarli.

Ko'p asrlar davomida boshqa madaniyatlarning o'zaro aloqada bo'lishi O'zbekistonning badiiy madaniyatini rivojlanishiga ta'sir ko'rsatdi.

Musiqqa san'atining eng yaxshi namunasi xalq og'zaki ijodi – o'zbek xalqi madaniyatining ajralmas qismi ekanligi, unda mehnatga, marosimlarga atalganligi alohida o'rin tutadi. Mahalliy xalqlar kiyim-kechaklarining o'ziga xosligini, iqlim va maishiy sharoitlar hamda urug'-qabila an'analari bilan izohlash mumkin.

Raqs san'atiga kelsak, respublikamizda uning o'ziga xos besh yo'nalishi mavjudligi hamda xalqimiz orasida mashhur bo'lganlarining yaratilish tarixiga to'xtaldik.

Asrlar osha shakllanib, avloddan avlodga ma'naviy meros sifatida o'tib kelgan urf-odatlar, marosimlar va bayramlarni qadrlamasdan turib, milliy tiklanish jarayonini amalga oshirish mumkin emas.

Tayanch iboralar

Marosimlar bilan bog'liq she'riyat, folklor, "badiq", doston, baxshi, rivoyat, marosim qo'shiqlari, naqshinkor motiv, mato naqshlari, tarevtika, jiyak, lapar, qo'shiq, qayroq, Sadr, milliy an'analar.

Nazorat savollari

1. Xalq folklori va she'riyatining asosiy xususiyatlari.
2. Folklor janrini ajratib turuvchi xususiyatlar.
3. Markaziy Osiyoda badiiy matolarning paydo bo'lishi.
4. So'g'd matolariga xos jihatlari.
5. Milliy raqs marosimlari orasidagi bog'liqlik.
6. Buxoro badiiy matolarining o'ziga xos xususiyatlari.
7. Xorazmcha raqslar jozibasini.
8. Farg'ona raqsidagi xususiyatlar.
9. O'zbekistonda milliy marosimlar va bayramlar haqida tushuncha bering.
10. Raqsda tog' va dasht maktablarining o'ziga xos xususiyatlari.

Adabiyotlar

1. Мирзаев Р. Туристические жемчужины Узбекистана. – Т.: Ипак «Шарк», 2005. С. 35-40.
2. Jabborov I. O'zbeklar: turmush tarzi va madaniyati. – Т.: O'qituvchi, 2003. 188-b.
3. O'zbek islom obidalari. Fotoalbom. – Т.: O'zbekiston, 2002. 243-250-b.
4. Qoraboyev U. O'zbek xalqi bayramlari. – Т.: Sharq, 2002. 239-b.
5. Н.Тухлиев, А.Кременцова. Республика Узбекистан. Энциклопедический справочник. – Т.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi nashriyoti, 2001. С. 32-40.
6. Маркова А.Н. История мировой культуры: – М.: ЮНИТИ, 2000. С. 249-258.
7. Аскарлов А.А. Некоторые аспекты изучения этнической истории узбекского народа. – Т., 1999. С. 6-20.

ATAMALAR LUG'ATI

- Baxshi – 1. Xalq dostonlarini kuylovchi shoir, oqin. 2. Buxoro xonligida qurilish uchun belgilangan mablag'larning hisob-kitobini yurituvchi lavozimli kishi.
- Girix – geometrik naqsh.
- Guldasta – inshoot burchaklaridagi minor.
- Gumbaz – qubba shaklidagi bino.
- Dekor (fran.) – arxitektura tizimi, bezakli elementlar jamlanmasi.
- Dekorlash – bezash.
- Dalvarzintepa – 1) Farg'ona vodiysidagi qadimiy shahar; 2) Surxondaryo viloyatidagi qadimiy shahar.
- Doston – 1. Nazm yoki nasr bilan yozilgan hikoya, poema. 2. Xalq qahramonlari haqidagi epik asar.
- Jiyak – do'ppi, to'n kabi buyumlar chetiga tutiladigan maxsus tasma.
- "Islimi", "Xitoy" – badiiy o'ymakorlik yo'nalishlari.
- Karvon – qadimgi va o'rta asrlarda davlatlar o'rtasida o'zaro aloqa bog'lash va savdogarlarning savdo ishlarini olib borishida asosiy transport vositasi hisoblangan tuyalar va otlardan tuzilgan maxsus guruh.
- Kul-tepa – Shahrisabz va Qarshi o'rtasidagi qadimiy shahar.
- Lapar – to'y va yig'inlarda yigitlar bilan qizlar orasida tarafma-taraf bo'lib aytiladigan terma qo'shiq.
- Minora – musulmonlarni nomozga chaqiruvchi masjid ichidagi baland qurilma.
- Mayolika (ital.) – rangli loydan bo'lgan badiiy sopol.
- Marosimlar – diniy yoki an'anaviy urf-odatlar munosabati bilan o'tkaziladigan ma'raka, yig'in.
- Mato – mol, mato, buyum.
- Masjid – Sajdagoh, musulmonlarning ibodat joylari. Musulmonlar jamoa bo'lib namoz o'qiydigan joy. Masjidlar, asosan, musulmonlarning kundalik besh vaqt namoz o'qishi uchun mo'ljallangan muqaddas joy. Juma va hayit nomozlari esa jome masjidlarida o'qiladi. Birinchi masjidni Madinada Muhammad Payg'ambar qurdirgan.
- Mug'xona yoki Mug'qo'rg'on – Namangan viloyatida (Koson atrofi) qadimiy shahar.
- Munchoqtepa-1, Munchoqtepa-2 – Farg'ona vodiysidagi qadimiy shahar.
- Naqshinkor – o'yib yoki bo'yoq bilan ishlangan gul, bezak.
- Paleolitik – tosh asrining eng qadimgi davri (bu davrda ibtidoiy odamlar toshdan turli qurollar yasay boshlagan).
- Peshtoq – binolarning old tomonidagi serhasham yuqori qismi, ark.
- Portal (lot.) – eshik, darvoza.
- Peshtoq – binoni yuz ko'rinishi.
- Paxsa – mahalliy qurilish material.
- Rivoyat – avloddan avlodga o'tib kelayotgan og'zaki hikoya, naql.
- Registon – shahar markaziy maydoni.

▪ Restavratsiya (lot.) – arxitektura va sa’nat asarlarini birinchi ko‘rinish darajasiga keltirish va qayta tiklash.

▪ Ravoq – katta binolarning old tarafida baland qilib ishlangan ko‘rkam va savlatli qismi.

▪ Sadr – Buxoro amirligida XIX – XX asrlarda amalda bo‘lgan, diniy ilohiyot ilmida erishgan yutuqlariga qarab beriladigan unvon bo‘lib, avval “o‘roq”, “sudur” va ulardan keyin oxirgi, uchinchi unvon “sadr” bo‘lgan.

▪ Sardoba – quduq yoki hovuz ustiga pishgan g‘ishtdan baland qilib, gumbazsimon shaklda qurilgan inshoot bo‘lib, unga zinalar orqali tushilgan. Havoy aylanishi yaxshi bo‘lgani uchun jazirama issiqda ham sardoba ichi salqin, suvi esa nihoyatda muzdek bo‘lgan. Sardobalar, asosan, karvon yo‘llarida qurilgan.

▪ Stoloktit (grek.) – arxitektura ganch qoliplari.

▪ Toqi – 1.Vassa. 2.Qorovullarning shaqildog‘i. 3.Ko‘ylakning yelka qismiga ichidan qo‘yilgan astar.

▪ Terrokota – kuydirilgan loydan tayyorlangan mahsulot.

▪ Tim – bozor inshooti.

▪ Timpon (grek.) – frontonning uchburchak maydoni, arxitektura devorining ustki qismi.

▪ Teshikqal’a – Xorazmdagi qadimiy shahar.

▪ Faxira – Buxoroning nomlaridan biri.

▪ Hujra – 1.Kishi yashaydigan kichkina xona. 2. Madrasa, qorixona va masjidida shogirdlar, domullalar yashashi uchun ajratilgan kichik xonalar.

▪ Xonaka – darveshlar uchun yotoqxona.

▪ Chaspak – badiiy suvoq turi.

▪ Yuni (xitoy) – Toshkent nomlaridan biri.

▪ Qayroq – kesuvchi asboblarning tig‘ini o‘tkirishda ishlatiladigan silliq tosh.

▪ Qal’a – mudofaa maqsadida qurilgan, strategik jihatdan qulay va mustahkam tayanch punkti. Qal’aning dastlabki ko‘rinishlari ibtidoiy jamoa tuzumi davrida paydo bo‘lgan. Bunday qal’a atrofi paxsa, tosh va boshqa materiallardan tiklangan devor bilan o‘ralgan turar-joydan iborat bo‘lgan. Keyinchalik qal’a devorining atrofida xandaqlar qazilgan. Har bir qal’ani uning o‘z aholisi mudofaa qilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Karimov I.A. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. – T.: O'zbekiston, 1999.
2. I.Jabborov. O'zbeklar: turmush tarzi va madaniyati. – T.: O'qituvchi, 2003. -188 b.
3. O'zbek islom obidalari. Fotoalbom. – T.: O'zbekiston, 2002.
4. Qoraboyev U. O'zbek xalqi bayramlari. – T.: Sharq, 2002.
5. G'ulomov S.S. va boshqalar. Mustaqil O'zbekiston. – T.: Mehnat, 2001.
6. Тухлиев Н., Кременцова А. Республика Узбекистан. Энциклопедический справочник. – Т.: “O'zbekiston milliy ensiklopediyasi” nashriyoti, 2001. Шахрисабз наследие тысячелетий. – Т., 2000.
7. Аскарлов А.А. Некоторые аспекты изучения этнической истории узбекского народа. – Т., 1999.
8. Анорбаев А.А. Города северной Ферганы в древности и раннем средневековье. I общественные науки в Узбекистане. 1-2, 1999.
9. Добромислов А.И. Ташкент в прошлом и настоящем. – Т., 1998.
10. Ртвеладзе Э. Великий Шёлковый путь. Древность и раннее средневековье. – Т.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 1999.
11. Мирзаев Р. Путешественники и исследователи на Великом Шелковом пути. – М.: ЗАО Издательский дом «Муравей», 2005. С. 42-50.
12. Мирзаев Р. Туристические жемчужины Узбекистана. – Т.: Ипак «Шарк», 2005. С. 35-40.
13. Axmedov B., Mukminova R., Pugachenkova G.A. Amir Temur. – T.: Universitet, 1999.
14. Bolotin V. Hamisha navqiron Toshkent. Fotoalbom-kitobi. – T.: O'zbekiston, 1998.
15. Azimov I. Xive – 2500 let. O'zbekiston arxitekturasi va qurilishi. № 1-2, 1997.
16. Расулов М. Об истории столицы Узбекистана. O'zbekiston arxitekturasi va qurilishi. № 1-2, 1997.
17. Азимов И. Гениальность системы пропорциональности – в ее простоте. – Т., 1997.
18. Бартольд В.В. Царствование Тимура. – М., 1992.
19. Массон М.Е. На средниазиатских трассах Великого Шёлкого пути. Сборник статей. – Т., 1990.
20. Пугаченко Г.А., Ремпель Л.И. Очерки искусства Средней Азии. – М., 1982.
21. Горбунова Н.Г. Фергана по сведениям античных авторов. – М., 1976.

II. Internet saytlari

1. www.travel.ru
2. www.palomnik.ru
3. www.uzland.uz
4. www.uzreports.uz

5. www.uza.uz
6. www.uzbektourism.uz
7. www.world-tourizm.org

Sayyora Rixsiboyevna Safayeva

TURIZM VA O'ZBEKISTON MILLIY MEROSI

O'quv qo'llanma

Muharrir
Komilova D.J.

Musahhih
Rahimova Q.E.

Kompyuterda sahifalovchi
Karimova Sh.D.

Bosishga ruxsat etildi 20.03.2017. Qog'oz bichimi 60x80 1/16.
Shartli bosma tabog'i 9,6 b.t. Adadi 50 nusxa.
082-sonli buyurtma.

Litsenziya AI № 240 04.07.2013.

“IQTISODIYOT” nashriyoti DUKning matbaa bo'limida chop etildi.
100003. Toshkent shahri Islom Karimov ko'chasi, 49-uy.